


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti

O'.P. UMURZOQOV, A.J. TOSHBOYEV,  
A.A. TOSHBOYEV

# FERMER XO'JALIGI IQTISODIYOTI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtalim maxsus vazirligi  
tomonidan oliy ta'limga muassasalarining bakalavriat ta'limga  
yo'naliishlari va kollej talabalari hamda biznes maktablari  
tinglovchilari va fermerlar uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etilgan



**65.321.4(5Y)  
U51**

Taqrizchilar:      i.f.d. **T.X. Farmonov;**  
                          i.f.n., dotsent **T.R. Fayzullayeva**

O'quv qo'llanmada fermer xo'jaligida erkin ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirishning nazariy, huquqiy va iqtisodiy asoslari yoritilgan bo'lib, qo'llanma Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablariga to'la mos keladi. Qo'llanma fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishda amalga oshirilayotgan tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy islohotlar, avvalo, Respublika Prezidenti tomonidan qabul qilingan Farmonlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va tegishli me'yoriy hujjatlar asosida yozilgan. Shuningdek, o'quv qo'llanmada fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika ta'minoti, mehnat resurslari, xizmat ko'rsatish infratuzilmasi, mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi, ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, mahsulot yetishtirishning ilg'or texnologiyalari, bozor subyektlari bilan iqtisodiy munosabatlari va kelgusidagi istiqbollari ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma 5340100 - «Iqtisodiyot» (qishloq xo'jaligi; suv xo'jaligi) bakalavriat ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun tayyorlangan, shuningdek, 600000 - «Qishloq va suv xo'jaligi» bilim sohasi tarkibiga kiruvchi barcha ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun ham qo'shimcha adabiyot sifatida tavsiya etiladi.

**O'ktam Umurzoqov**

**Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti.** O'quv qo'llanma / O'.P. Umurzoqov, A.J. Toshboyev, A.A. Toshboyev; mas'ul muharrir: Ch.Murodov; O'zR Oliy va o'rta ta'lif vazirligi. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2007 y. 228 bet.

Toshboyev A.J., Toshboyev A.A.

**BBK 65.3214(5Y)■73**

**ISBN 978-9943-13-031-9**

© «IQTISOD—MOLIYA», 2007

© O'.P. Umurzoqov, A.J. Toshboyev, A.A. Toshboyev, 20 47

# MUNDARIJA

KIRISH .....	7
--------------	---

## I bob. «FERMER XO'JALIGI IQTISODIYOTI» FANINING PREDMETI VA MAZMUNI

1.1. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati.....	9
1.2. Xalq xo'jaligi iqtisodiyotida fermer xo'jaliklarining o'rni va vazifalari .....	12
1.3. Fanning maqsadi, vazifasi, predmeti, fanlar bilan aloqasi va usullari.....	15
1.4. Fermer xo'jaligini rivojlantirish yo'llari.....	17

## II bob. FERMER XO'JALIGINING TASHKILIY – HUQUQIY ASOSLARI

2.1. Fermer xo'jaligi tushunchasi, maqsadi, vazifasi, faoliyati va uning yo'nalishlari.....	19
2.2. Fermer xo'jaligini tashkil etish.....	21
2.3. Fermer xo'jaligining tashkiliy, huquqiy va ishlab chiqarish asoslari.....	22
2.4. Fermer xo'jaliklari faoliyatida qonun hujjatlaridan foydanish tartibi.....	24

## III bob. FERMER XO'JALIKLARINING YER VA SUV RESUSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHI

3.1. Yer resurslari va undan samarali foydalanish.....	27
3.2. Yerni iqtisodiy baholash va uning monitoringi.....	230
3.3. Fermer xo'jaliklariga yer uchastkalari berish tartibi va undan foydalanish.....	34
3.4. O'zbekistonda SUV resurslaridan foydalanish yo'llari.....	37
3.5. Fermer xo'jaligida SFUlar faoliyatidan foydalanish.....	39
3.6. SFUdan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlar.....	41
3.7 Dehqonchilikda sug'orish usullari va ilg'or texnologiyalar.....	43

## IV bob. FERMER XO'JALIKLARIDA MEHNATNI TASHKIL QILISH VA UNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

4.1. Mehnat resurslari va undan foydalanish.....	49
4.2. Fermer xo'jaliklarida mehnat resurslaridan foydalanish.....	50

4.3. Mehnat resurslari bozori va mehnat unumdorligi.....	52
4.4. Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.....	54

## **V bob. FERMER XO'JALIGINING MOL-MULKI, ULARDAN FOYDALANISH**

5.1. Fermerning mol-mulki va undan foydalanish yo'llari.....	56
5.2. Asosiy ishlab chiqarish fondlari.....	57
5.3. Aylanma mablag'lar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari.....	58
5.4. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari.....	60

## **VI bob. FERMER XO'JALIKLARINIG MODDIY-TEXNIKA TA'MINOTI**

6.1. Fermer xo'jaligida moddiy-texnika resurslari tushunchasi va vazifasi.....	63
6.2. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari.....	67
6.3. Fan-texnika taraqqiyoti, uning yo'nalishlari hamda samarali texnologiyalar .....	71
6.4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning ilg'or texnologiyalari.....	72
6.5 Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash.....	73

## **VII bob. INFRATUZILMA XIZMATLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH**

7.1. Infratuzilma va uning fermer xo'jaligida tutgan o'rni.....	75
7.2. Fermer xo'jaliklarida infratuzilmaning rivojlanishi.....	76
7.3. Fermer xo'jaligida agrokimyo servis xizmati va uning vazifalari.....	79
7.4. O'simliklarni himoya qilishda servis xizmatini tashkil etish.....	96
7.5. Muqobil mashina-traktor parklarining tashkiliy va huquqiy asoslari.....	103

## **VIII bob. INVESTITSIYA VA UNI JALB QILISH YO'LLARI**

8.1. Investitsiya haqida tushuncha va uning fermer xo'jaligida tutgan o'rni.....	114
8.2. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi va uni fermer xo'jaliklariga jalb etish yo'llari.....	117
8.3. Fermer xo'jaliklarida investitsiyadan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari.....	118

**IX bob. FERMER MAHSULOTLARI BOZORI VA****MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISH**

✓ 9.1. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozorini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	122
✓ 9.2. Fermer xo‘jaligida mahsulot tayyorlash tizimini rivojlantirish.....	124
✓ 9.3. Davlat va nodavlat korxonalariga mahsulot sotish va uni takomillashtirish.....	125
9.4. Fermer xo‘jaligida marketing xizmatini tashkil etish.....	126
9.5. Fermer xo‘jaliklarida tovar va fond birjalaridan foydalanish yo‘llari.....	130

**X bob. FERMER XO‘JALIGINING IQTISODIY FAOLIYATINI****TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODIY ALOQALARINI**

10.1. Iqtisodiy aloqlar tushunchasi. Shartnoma va uni tuzish yo‘llari.....	134
10.2. Fermer xo‘jaliklarining faoliyatidagi muvofiqlash- tiruvchi iqtisodiy aloqlar.....	139
10.3. Fermer xo‘jaligida biznes-reja va uni tuzish yo‘llari.....	141
10.4. Fermer xo‘jaligida bank ishi va kreditdan foydalanish.....	147
10.5. Fermer xo‘jaliklarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g‘alla yetishtirish xarajatlarini kreditlash.....	149
10.6. Fermer xo‘jaligida sug‘urta.....	153
10.7. Fermer xo‘jaligida soliq va soliq stavkasi.....	157
10.8. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar.....	162

**XI bob. FERMER XO‘JALIKLARINI BOSHQARISHDA****MENEJMENT**

11.1. Xo‘jalik faoliyatini boshqarish tizimi.....	173
11.1.1. Fermer xo‘jaliklarini boshqarish faoliyati .....	175
11.2. Xo‘jalikda boshqarish usullari va tamoyillari.....	181
11.3. Xo‘jalikni boshqarishda menejment va uning faoliyati.....	182
11.4. Fermer xo‘jaligida menejment faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash yo‘llari.....	185

**XII bob. FERMER XO‘JALIGI FAOLIYATI SAMARADOR-****LIGI VA UNING TAHLILI**

12.1. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va mezoni.....	188
12.2. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari va ularni aniqlash usullari.....	189
12.3. Foya va rentabellik.....	192

<b>XIII bob. FERMER XO‘JALIGIDA DON VA PAXTA YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI HAMDA CHORVACHILIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH</b>	
13.1. Paxta yetishtirish va uning agrotexnologiyasi.....	196
13.2. Don yetishtirish va uning agrotexnologiyasi.....	198
13.3. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari faoliyatini tashkil etish .....	207
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>214</b>
<b>ILOVA.....</b>	<b>218</b>

*Fermerlar – agrar islohot tizimining birinchi qaldirg‘ochlari. Ularning qanotini sindirmaylik. Ularni asrash, avaylash, parvarish qilish kerak. Fermerlarimizga ko‘rsatilgan bir yaxshilikka ming yaxshilik bilan javob qaytishiga imonim komil.*

I.Karimov

## KIRISH

Mустақиллик шарофати билан О‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligining асосиј тармог‘и бо‘лган agrar соҳани rivojlantirishda qator iqtisodiy islohotlar olib borildi. Qishloq xo‘jaligida mulkchilikka асосланган erkin tovar ishlab chiqaruvchi subyektlar shakllandi. Agrar соhadagi xo‘jalik yuritishning bu turli shakllari kooperativ(shirkat), fermer, dehqon xo‘jaliklari bo‘lib, respublika qonunchilik organlari томондан ularning huquqiy асослари yaratilib, xalq muhokamasidan so‘ng qonuniy асос sifatida amaliyotda o‘z ijobjiy natijalarini bermoqda.

Muhtaram Prezidentimiz I. Karimov томондан ishlab chiqilgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi dasturlarining асоси bo‘lган bozor va bozor munosabatlari асосида har bir tarmoqni rivojlantirish orqali yuqori samarali natijalarga erishish ko‘zda tutilgan. Ayniqsa, agrar tarmoqni rivojlantirishda bu dasturning bajarilishi o‘z samarasini berib kelmoqda. Avvalo, dehqonning ishlab chiqarishga va mulkka egalik hissining ortishi, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishi, daromad олиши, uni o‘z imkoniyatlarida erkin taqsimlashi hamda tasarruf etish imkoniyati yaratildi. Respublika agrar соҳасида faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklari boshqa subyektlarga nisbatan, amaliyotda o‘zining bir qancha ijobjiy hamda iqtisodiy ustunliklarini ko‘rsatdi. Bu esa bozor munosabatlariда qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish va uning samaradorligini oshirishdagi afzalliklari bilan bugungi istiqbolli xalq xo‘jalik yo‘nalishiga mos kelishini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagи «Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning асосиј yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi PF-3226-sonli Farmoni qabul qilinib, unda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish qilib belgilandi. Farmonni amaliyotga tatbiq qilish bo‘yicha fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ko‘zda tutildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342-sonli «2004-2006- yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli «2004-2006- yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi va 2004-yil 24-dekabrdagi 607-sonli «2005-2007- yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar bilan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning asosiy shakli sifatida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va ularning faoliyatni uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, qishloqda bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish asosiy masala qilib belgilandi.

Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning aniq chora-tadbirlari ishlab chiqilib, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish to‘g‘risida istiqbolli yo‘nalishlar ishlab chiqildi. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda fermer xo‘jaliklarining mahsulot ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, unga huquqiy asos yaratish, tayyorlov, ta‘minot va servis xizmati ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni yaxshilash ishlari amalga oshirilmoqda. Sir emaski, ayrim tayyorlov, ta‘minot va servis xizmatlari korxonalar oldiga qo‘yan vazifalarini yetarli darajada bajara olmay kelmoqda. Endilikda ushbu infratuzilmalarni rivojlantirish orqali fermer xo‘jaliklari faoliyatini yaxshilash asosiy vazifamiz bo‘lib qoldi. O‘zbekiston Respublikasi agrar sohasida 2005-yilda 3646 ming hektar ekin maydoniga dehqonchilik qilingan bo‘lsa, unda fermerlar hissasi 2139,7 ming hektarni yoki 58,7 % ni tashkil etdi. Fermer xo‘jaliklarining salmog‘i ortib borayotganligi bois, ularning iqtisodchi kadrlarini o‘qitish va malakasini muntazam oshirib borishda ushbu o‘quv qo‘llanma samarali xizmat qiladi. Ma‘lumki, fermer xo‘jaliklari tashkil etishning huquqiy-iqtisodiy asoslari, ishlab chiqarish infratuzilmalari bilan shartnoma munosabatlari, yerdan foydalanish va ekinlarni joylashtirish, suv va melioratsiya ishlari, mol-mulk, mehnat resurslaridan foydalanish, xo‘jalikni boshqarishda marketing va menejment, xo‘jalikning iqtisodiy faoliyatini tashkil etish, investitsiyalash, ta‘minot va servis xizmatlari, infratuzilma, investitsiya, mahsulot yetishtirish va uni sotish mexanizmlari, kooperatsiyalashuv jarayonlarini tashkil etish, fermer daromadini ko‘paytirish hisobiga ish o‘rinlarini ochish, yangi zamonaviy texnologiyalar kiritish hamda dehqonchilikda ilg‘or agrotexnologiyalardan foydalanishda yetarli bilimga ega bo‘lish orqali xo‘jalikni barqaror rivojlantirish mumkin.

Ushbu o‘quv qo‘llanma orqali aynan fermer xo‘jaligini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar iqtisodiyotini hamda istiqbolli ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘rganish mumkin.

### 1.1. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda olib borilayotgan islohotlarning mohiyati

Qishloq xo'jaligi xalq xo'jaligining eng muhim va yirik tarmog'i bo'lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mamlakatimiz agrosanoat majmuasining yetakchi tarmog'i bo'lib, dehqonchilik, chorvachilik va meva-sabzavotchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jaryonlarini o'z ichiga oladi.

Respublika qishloq xo'jaligida asosiy e'tibor mamlakatning iqlimi, yersuvi va moddiy resurslaridan hamda xalqning asrlar davomida to'plangan dehqonchilik madaniyatidan unumli foydalanish negizida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga qaratilgan. Dehqonchilikda g'allachilik, paxtachilik, sholikorlik, mevachilik, uzumchilik, polizchilik, sabzavotchilik sohalari, chorvachilikda esa qoramolchilik, qo'yichilik, qorako'lchilik, echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, asalarichilik, pillachilik tarmoqlari faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston jahonda yalpi paxta hosilini yetishtirish bo'yicha 4-o'rinda, paxta tolasining eksporti bo'yicha 2-o'rinda (AQSHdan keyin) turadi. Shuningdek, respublikada yetishtiriladigan meva, uzum, sabzavot, poliz mahsulotlarining asosiy qismi qo'shni davlatlarga chiqariladi. O'zbekiston o'zining sifatli pillasi va qorako'li bilan ham dunyoga mashhurdir. Respublika to'liq don mustaqilligiga erishib, chetga eksport ham qilmoqda.

Respublika qishloq xo'jaligida: kooperativ (jamoa xo'jaliklari), xo'jaliklararo korxonalar, shirkatlar uyushmalari, davlat xo'jaliklari negizida tashkil etilgan xo'jaliklar, jamoa mulkiga aylantirilgan fermalar va boshqalar); davlat (davlat xo'jaliklari, naslchilik zavodlari, o'quv-tajriba hamda tajriba xo'jaliklari); xususiy (dehqon va fermer xo'jaliklari, xususiy lashtirilgan korxonalar) hamda aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari (shaxsiy ehtiyojlar uchun ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish) mavjud. Respublika qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligi (yakka ziroatchiligi)ning qaror topishi oqibatida 1987-yilga kelib, 2107,7 ming hektar yoki jami sug'oriladigan ekin maydonining 60 %dan ko'prog'iga paxta ekildi. Natijada ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimi izdan chiqdi, mineral o'g'itlar, gerbitsidlar, ayniqsa, inson salomatligiga zararli bo'lgan pestitsidlar me'yordan ortiqcha ishlatalishi natijasida dehqonchilik qilinadigan joylarda ekologik sharoitlar buzildi, yerlarning meliorativ holati yomonlashdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin mamlakat qishloq xo'jaligida atroflicha islohotlarni amalga oshirish davri boshlandi. Respublika hukumati mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarni shakkantirish, mulkchilikning nodavlat shakliga o'tish, mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, dehqon, fermer xo'jaliklari faoliyatini yo'lga qo'yish kabi masalalarni hal etishga e'tibor berildi. Respublika parlamenti qishloq xo'jaligida tub burilishlarning huquqiy asoslarini yaratadigan qonunlarni qabul qildi.

Respublika Prezidentining 1994-yil 21-yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-martdagi «Chorvachilikda xususiy lashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi va boshqa qarorlari iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, bozor tamoyillarining erkin ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratish, xo'jaliklarni nodavlat shakllariga aylantirish, mahsuldarligi past chorva fermalarini jamoaga mulk qilib berish yo'li bilan qishloq xo'jaligida islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, dehqon va fermer xo'jaliklari, o'rta va kichik biznes ishini yo'lga qo'yishga keng imkoniyatlar ochib berdi.

Dehqonchilikda kartoshka, meva-sabzavot mahsulotlari, chorvachilikda sut, go'sht, tuxum, teri va jun mahsulotlarini erkin (kelishilgan) narxlarda sotish joriy etildi. Bu esa xo'jaliklarga o'zлari yetishtirgan mahsulotlardan ixtiyoriy foydalanishga imkoniyat yaratdi. Davlat buyurtmasi faqat paxta, don, sholiga nisbatan saqlanib qoldi.

Olib borilgan tadbirlar xo'jalik yuritish mexanizmini takomillashtirishga, xo'jaliklarni iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga, qishloq mehnatkashlari turmush darajasini yaxshilashga hamda xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta rivojlantirishga keng yo'l ochib beradi.

Yerdan samarali foydalanishda Respublika Prezidenti I. Karimov: «Qishloqda bozor mexanizmlarini rivojlantirish, dehqonda sohiblik hissini uyg'otish, mulkchilik munosabatlarni takomillashtirish, jamoa xo'jaliklarning o'zida ijara munosabatlarni chuqurlashtirish, yerni meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanishga berib qo'yish orqali, shuningdek, dehqon, fermer hamda shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni keng rivojlantirish asosida ro'y berishi lozim!», –deb ko'rsatib o'tdi.

Dehqon, fermer o'zi hosil to'plab, uni yig'ish bilan shug'ullanmasa, ish unumi va samarasini bo'lmaydi. Ularga o'z vaqtida bank servis xizmati, ta'minot, iste'molchi va qayta ishslash korxonalarini yordam bersa, ular ko'proq mahsulot ishlab chiqaradi va iste'mol bozorini boyitadi.

<sup>1</sup> Karimov I. A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». –T.: «O'zbekiston», 1995, 246 b.

Bozor munosabatlari asosida mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan qishloq xo‘jalik subyektlarida iqtisodiy tadbirlar zarurligini hisobga olib, Prezidentimiz I. Karimovning «Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. Unda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida jamiyatimizning yangilanishi, demokratik jarayonlarning rivojlanishi ko‘p jihatdan agrar sohadagi islohotlarning nechog‘li samarali qishloq hayotiga kirib borishiga bog‘liqligi ta‘kidlandi.

Respublika agrar tarmog‘i yalpi ichki mahsulotning 41,7 foizini, mamlakatga valuta tushumlarining 33,2 foizdan ortig‘ini tashkil qilmoqda. Mamlakatimiz xalq xo‘jaligida band bo‘lgan aholining 40 foizga yaqini va barcha aholining 60 foizidan ortig‘i qishloqlarda yashaydi. Ularning moddiy ahvoli, turmush darajasi va moddiy faravonligi qishloq xo‘jaligidagi ishlarning holaqiga, uni rivojlantirishning tezkorligi va samaradorligiga bog‘liq.

Respublika agrar sohasida mulkiy munosabatlarni shakllantirish, mulkchilikning nodavlat shakliga o‘tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish agrar islohotlarning muhim yo‘nalishlaridir.

Islohotlarning ilk bosqichida mamlakat qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlash va rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki asoslari yaratildi.

Agrar sohada mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga va xususiylash-tirishga muhim ahamiyat berildi. 1066 ta davlat xo‘jaliklari (sovxozi) tugatilib, ular negizida jamoa xo‘jaliklari tashkil etildi. Chorvachilik fermalari, bog‘ va tokzorlar, kichik yer maydonlari hamda issiqxonalar xususiylashtirildi.

Islohotlarning ikkinchi bosqichida «Yer kodeksi», «Qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida», «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida», «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonunlar va tegishli hukumat qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Bunday huquqiy poydevorning yaratilishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga zamin yaratdi. Qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning bozor munosabatlari mos keladigan shirkat, fermer va dehqon xo‘jaliklari ustuvorligi belgilandi.

Islohotlarning uchinchi bosqichi 2000-yildan boshlangan bo‘lib, u qishloq xo‘jaligida tovar ishlab chiqaruvchilar haq-huquqlarini himoya qilish ustuvorligi; tovar ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy erkinligini yanada kengaytirish va davlat buyurtmasi bo‘yicha yetishtirilayotgan mahsulotlarga baho belgilashda dunyo bozori narxlariga mos keluvchi tizimni shakllantirish; birinchi navbatda past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan shirkat xo‘jaliklarini fermer xo‘jaliklari aylantirish asosida qayta tashkil etish mexanizmi joriy etilishi; qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko‘rsatuvchi zamonaviy infratuzilma tizimining barpo etilishi bilan xarakterlanadi.

Qishloqda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning navbatdagi muhim vazifasi – yerga bo‘lgan mulkchilik munosabatini hal qilishdir. Yerga mulkchilik huquqi ortiqcha rasmiyatchilikka, qog‘ozbozlikka berilgan shaklda emas, balki zamonaviylashgan va bozor munosabatlariga asoslangan tartibda joriy etilishi lozim. Bunda yerlarni uzoq muddatga ijara berish asosida fermer va dehqon xo‘jaliklarini yanada rivojlantirish ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash va oshirib borish; qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi va iste’molchilarga yetkazib beruvchi korxona hamda tashkilotlar aksiyalarini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida taqsimlash orqali ularni aksiyadorlashtirish; o‘zaro kreditlash borasidagi imkoniyatlarni kengaytirish; qishloq xo‘jaligi boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish va davlat xarid narxlarini hamda butun narx-navoning shakllanish tizimini o‘zgartirish; fanning innovatsiyasini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan uzviy aloqalarini tiklash va rivojlantirish; soha xodimlariga huquqiy va kasbiy ta’lim berishga doir tadbirlar tizimini ishlab chiqarish respublikada agrar siyosatning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Iqtisodiy islohotlar nafaqat qishloq xo‘jaligi, unga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar, mahsulotni qayta ishlovchi sohalar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma bo‘g‘inlari va tashqi savdo sohalarini isloh qilishni ham o‘z ichiga oladi.

## **1.2. Xalq xo‘jaligi iqtisodiyotida fermer xo‘jaliklarining o‘rnini va vazifalari**

Makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, iqtisodiyotda xususiy sektorning roli va ahamiyatini oshirish, kapital qurish, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan choratadbirlar, shuningdek, ishlab chiqaruvchilarga moddiy-texnika mablag‘laridan foydalanishlari uchun qulay sharoitlar yaratilishi va fiskal o‘zgarishlarning muvofiqlashdirilishi YAIMning o‘sish tendensiyasini saqlashni ta’minalaydi. Iqtisodiyotning yanada o‘sishida eksport uchun qulay bozor konyunkturasi, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishning rag‘batlantirilishi, amalga oshirilayotgan islohotlarning qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning ko‘payishiga ta’siri, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa sektorlarini barqaror ishlashi kabi omillar ta’sir ko‘rsatdi.

2005-yilda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari 7 foizni, inflatsiya darajasi 7,8 foizni tashkil etdi, sanoat ishlab chiqarishi 7,3 foizga, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish 17,7 foizga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi 6,2 foizga o‘sdi. Davlat budjeti kutilayotgan 1 foiz taqchillik o‘rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan ijro etildi. Endilikda bizni YAIM

o'rtacha yillik o'sish sur'atining 4-4,5 foizda bo'lishi qoniqtirmaydi. Shu boisdan kelajakda, ya'ni 2010-yilga kelib, YAIM o'rtacha yillik o'sish sur'atini 6-8 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 7-8 foizga yetkazish mo'ljallanmoqda. 2010-yilgacha YAIMning tarkibi ham o'zgarib, uning daromadlar tarkibidagi ish haqining ulushi hozirgi 35 foizdan 60-65 foizga o'sishi oqibatida aholi turmush darajasining ancha yaxshilanishi ko'zda tutilmoqda. Shu davrda sanoat mahsulotlari 2,3-2,5 barobarga, qishloq xo'jalik mahsulotlari esa 1,82 barobarga ko'payadi. Respublika YAIMning o'sish dinamikasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

#### 1.2.1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi YAIMning o'sish dinamikasi

Davr	YAIM		YAIMning ishlab chiqarish tarkibi, %				
	Mos davrlar-da joriy baholarda, mlrd. so'm	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % (taqqoslama baholarda)	Sanoat	Qish-loq xo'jaligi	Qurilish	Xizmat ko'rsatish sohasi	Sof soliq-lar
2000	3255,6	103,8	14,2	30,1	6,0	37,2	12,5
2001	4925,3	104,2	14,2	30,2	5,8	28,2	11,9
2002	7450,2	104,2	14,5	30,1	4,9	37,9	12,6
2003	9837,8	104,4	15,8	28,6	4,5	37,4	13,7
2004	12189,5	107,7	17,1	26,8	4,5	37,6	14,0
2005	15923,4	107,0	21,2	25,3	4,8	38,1	10,6
2006	20759,3	107,0	22,1	25,0	5,1	36,7	11,2

Jadval ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, 2006-yilda YAIMning 7,0 %ga, sanoatning ulushi 22,1 %, qishloq xo'jaligi – 25 %, qurilish 5,1 %, xizmatlar sohasi – 36,7 % o'sdi. Respublika iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida agrar tarmoqning hissasi yuqori bo'lmoqda. Mazkur sohada mulkchilik munosabatlari shakllanib, eng ustuvor yo'nalishlardan fermer xo'jaliklari bugungi kunda iqtisodiy jihatdan o'zini oqladi.

**Fermer xo'jaligining asosiy vazifasi** qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, aholini iste'mol mollari bilan ta'minlash, moddiy resurslardan samarali foydalanish, tuproq unumдорligini oshirish, tejamkor

texnologiyalarni amaliyotga joriy etish, atrof-muhit ekologiyasini yaxshilashdan iborat. Hozirgi kunda hukumat tomonidan shu sohani rivojlantirishga asosiy e'tibor berilib, qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, amaliyotga keng joriy etilmoqda.

#### 1.2.2-jadval.

#### **Fermer xo'jaliklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.
Fermer xo'jaliklari soni, dona	87552	103921	125668	189235
Ularga biriktirilgan yer maydoni, ming. ga	2148,1	2935,4	3775,3	4953,2
Fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar soni, ming kishi	603,0	765,3	954,2	1381,1
Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarida fermer xo'jaliklarining ulushi, %	14,1	24,1	38,1	55,0
Bitta fermerga to'g'ri keladi, ga	24,5	28,2	30,0	26,2

Respublikamizda, 2004-2006- yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, 2007-yilga kelib fermer xo'jaliklariga biriktirilgan yer maydonlarining umumiyligi qishloq xo'jaligi yerlaridagi salmog'i 17,5 foizdan 63,3 foizgacha, sug'oriladigan maydonlardagi salmog'i 72,1 foizgacha yetadi. Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushini 25 foizgacha yetkazish yoki fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish hajmini uch yil ichida 2 barobarga ko'paytirish belgilandi. Fermer xo'jaliklarining umumiyligi soni 189,2 mingtaga, ularga biriktirilgan yer 4,9 mln. ga yetdi. Fermer xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 2003-yilda 14,8 %dan, 2006-yilda 32,3 %ga, jami ekin maydonlari 36,9 %dan 74,5 %ga ortdi. Paxta yetishtirish 37,9 %dan 86,3 %ga, bug'doy 35,8 %dan 71,0 %ga ortdi. Ekspertlar xulosasiga ko'ra, fermer xo'jaliklarida shirkat xo'jaliklariga qaraganda, paxta va bug'doyni yetishtirish unumдорligi yuqori bo'lidi. Respublika xalq xo'jaligi iqtisodiyotida fermer xo'jaliklarining salmog'i ortib borishi, avvalo, fermerlar sonining ortib borishi, ularga biriktirilgan yer maydonlari va mahsulot hajmining ortib borishidir. Hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni amaliyotga keng joriy qilish orqali fermer xo'jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

### **1.3. Fanning maqsadi, vazifasi, predmeti, fanlar bilan aloqasi va usullari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari bir-birlari bilan uzviy bog‘langan holatda faoliyat ko‘rsatadi. Tarmoqni rivojlantirish hukumat tomonidan qabul qilingan qonunlar va iqtisodiy islohotlardan keng foydalanishni taqozo etadi. Shu maqsadda «Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti» fani agrar sohani rivojlantirishda samarali xizmat qiladi. Bu fan iqtisodiy fan bo‘lib, fermer xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishning samarali yo‘llari, ishlab chiqarish munosabatlari, ishlab chiqaruvchi kuchlar; obyektiv iqtisodiy qonunlarni amaliyotga tatbiq qilish; xo‘jalikni biznes-reja asosida yuritish; fermer xo‘jaligiga rahbarlik qilish; ishlab chiqarishga fan-teknika yangiliklarini va ilg‘or tajribalarni joriy etish; pul-kredit munosabatlari; arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqarish yo‘llarini ko‘rsatadi.

«Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti» fani quyidagi iqtisodiy fanlar – «Iqtisodiy geografiya», «Qishloq xo‘jaligi iqtisodi», «Biznes-reja», «Tadbirkorlik», «Iqtisodiy statistika», «Menejment», «Marketing», «Buxgalteriya hisobi va audit», «Texnika iqtisodiyoti» va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadadir.

«Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti» fani qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida qabul qilingan iqtisodiy qonunlarni ishlab chiqarishga tatbiq qilish va mahsulot yetishtirishdan iboratdir.

**Fanning predmeti** – fermer xo‘jaligini tashkil etishning huquqiy-iqtisodiy asosini, ishlab chiqarish faoliyati va unga xizmat qiluvchi infratuzilma, iqtisodiy qonunlarni tatbiq qilish, moddiy ta‘minot va korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari va ish yuritishda mehnat unumdarligini oshirishni o‘rganishdan iboratdir. «Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti» fani qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy samaradorlikni, qonunlar o‘zgarishini vajamiyat rivojlanishini o‘rganib sintez qilib turadi. Fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi iqtisodiy qonunlar xo‘jalikni ijobjiy rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

**Fanning obyekti** – fermer xo‘jaliklari va uning ishlab chiqarishiga bevosita o‘z hisssasini qo‘sadigan barcha korxonalar faoliyatidir.

**«Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti» fanining maqsadi** qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish va unga xizmat qiluvchi tarmoqlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash; mehnat jarayonlarini bozor munosabatlarda rivojlantirish; mehnat unumdarligini oshirish; yer-suv hamda asosiy vositalaridan samarali foydalanishdan iboratdir. Fermer xo‘jaliklarining mahsulot ishlab chiqarishini, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini o‘rganishda qilinadigan tahlillar quyidagi usullar orqali ifodalanadi. Ushbu usullar yordamida ishlab chiqarishda ro‘y beradigan hodisalarni iqtisodiy baholaydi.

**1. Statistik guruhash usuli** – yer fondidan ratsional foydalanish, mahsulot tannarxi, mehnat resurslari, mehnat unumdorligining o'sishi, texnikalardan ratsioal foydalanish va boshqa ko'rsatkichlarni o'rganadi. Bu usul yordamida ko'rsatkichlarning tarkibi, bir-biriga bog'liqligi, ko'p yillik o'sish darajasi, fermer xo'jaligini yanada rivojlantirish istiqbollari aniqlanadi.

**2. Monografik usul** – tajriba almashish maqsadida xo'jaliklarning umumiy va ayrim tarmoqlarining faoliyatini, ishlab chiqarish jarayonlarini, rivojlanish istiqbollarini aniqlab berishdan iborat.

**3. Analitik hisob usuli** – fermerlar faoliyatini tahlil qilish, fermer xo'jaliklarning barcha tarmoqlarini rivojlantirish yo'llarini belgilaydi.

**4. Iqtisodiy matematik usul** matematik raqamlardir. Fermer xo'jaligining barcha ishlab chiqarish sohalari bo'yicha ko'rsatkichlarini tahlil qilishda matematik raqamlar 3 manbadan olinadi:

- 1) biznes-rejadan;
- 2) xo'jalikning yillik hisobotidan;
- 3) me'yoriy ma'lumotlar, texnologik karta va ma'lumotnomalardan.

Iqtisodiy matematik usul bir qancha bosqichlarga bo'linadi. Tayyorlash, iqtisodiy tahlil, abstrakt raqamlar, ma'lumotlar yig'ish va uni o'rganish.

**5. Loyiha konstruktorlik ishlari usuli** – loyihalashtirilgan obyektlar va jamlab bo'lmaydigan har xil ko'rsatkichlarni tahlil qilishdan iborat.

Yuqoridaagi usullar yordamida fermer xo'jaliklari va investitsiya loyihalari, xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning ishlab chiqarish faoliyati hamda iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinib, kelgusida rivojlantirish istiqbollari belgilab olinadi.

Fermer xo'jaliklari mustaqil subyekt sifatida teng huquqli qishloq xo'jalik korxonasi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda o'z yechimini topmagan ko'plab masalalar mavjud. Shu maqsadda fermer xo'jaliklari boshliqlarining ma'lumoti, mutaxassisligi hamda tadbirkorlik faoliyati tahlil qilinganda, ularning asosiy qismi o'rta ma'lumotli, turli kasb egalari, tadbirkorlik faoliyatini endi boshlaganlar ekanligi aniqlangan. Shu sababli, fanning fermer xo'jaliklarini rivojlantirishdagi ahamiyati, avvalo, fermer xo'jaliklarini tashkil etishning iqtisodiy, huquqiy ishlab chiqarish asoslarini o'rganish; hukumat tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlar; fermer xo'jaliklarning xalq xo'jaligidagi o'rni va istiqbollari; yer-suv resurslaridan; asosiy fondlardan foydalanish; fermer xo'jaligini boshqarish va mehnat unumdorligini oshirish; moddiy-texnika resurslari; investitsiya va uni amaliyatga jalb etish; mahsulot ishlab chiqarishning samaradorlik ko'rsatkichlari, mahsulot yetishtirish agrotexnikasi; infratuzilma va servis xizmatlari ko'rsatish; tejamkor texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini o'rgatishdan iborat.

#### 1.4. Fermer xo'jaligini rivojlantirish yo'llari

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jalik korxonalaridan fermer xo'jaligi o'zining ishlab chiqarish salohiyati va olingen iqtisodiy samarasi bilan ajralib turmoqda. Shuning uchun fermer xo'jaligini rivojlantirishga mamlakat Prezidenti juda katta e'tiborni qaratdi. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish ishlari, asosan, 4 bosqichda amalga oshirilmoqda. **I bosqich.** Fermer xo'jaligini tashkil qilish jarayonining boshlanishi (1998-2001- yillar). **II bosqich.** Fermer xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha huquqiy me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi (1992-1996- yillar). **III bosqich.** Fermer xo'jaliklarini qishloq xo'jaligida ustuvor xo'jalik yurituvchi shakl sifatida rivojlanishi (1997-2000- yillar). **IV bosqich.** Fermer xo'jaliklarining rivojlantirilishi (2001-yildan boshlab). Bu keyingi davrni o'z ichiga olib, bu davr fermer xo'jaliklarini istiqbolda ustuvor rivojlantirish dasturlarining qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda respublika Prezidentining 2003-yil 24-martidagi №PF-3226 sonli «Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida» va 2003-yil 27-oktabrida №PF-3342 sonli «2004-2006- yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi to'g'risida»gi Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvarda №8 sonli «Qishloq xo'jalik korxonalarini fermer xo'jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2003-yil 30-oktabrida №476 sonli «2004-2006- yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» va 2004-yil 24-dekabrda №607 sonli «2005-2007- yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari qabul qilindi.

Fermer xo'jaligini rivojlantirish Konsepsiyasining asosiy vazifalari: qishloqda ijara munosabatlarni rivojlantirish asosida yer maydonlaridan foydalanishni tartibga solish, shuningdek, yer va suv resurslaridan maqsadli foydalanishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish; mahsulot yetishtirishda, moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy mustaqilligini lizing va servis xizmatlaridan samarali foydalanish; fermer xo'jaliklariga kredit berish va uning tartibini soddalashtirish; mahsulot yetishtirishni o'z vaqtida moliyalash va kreditlashni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish; xo'jalikda mahsulot yetishtirish, uni qayta ishslash, sotish va ijtimoiy infratuzilmani keng ko'lama rivojlantirish; fermerlarni o'qitish va qayta tayyorlashning zamonaviy tizimini tashkil qilish; fermerlarga fan-texnika taraqqiyoti, yangi agrotexnikalar va ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish; istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirishda bo'shab qoladigan ishchi xodimlarni fermer xo'jaliklariga joylashtirish tadbirlarini amalga oshirish va undan samarali foydalanishdan iboratdir. Fermer

xo'jaliklarini rivojlantirishda hukumat tomonidan quyidagi imtiyozlar berildi: fermer xo'jaliklari tashkil etilgan paytdan boshlab, ikki yil muddatga yagona yer solig'i to'lashdan ozod etildi; fermer loyiha asosida o'z hisobidan o'zlashtirgan yer uchun besh yil davomida yagona yer solig'i to'lashdan ozod qilindi: Respublika Muvofiglashtiruvchi Kengashining ruxsatisiz fermerlar faoliyatini tekshirishga chek qo'yildi; xorijiy texnologiyalarni olib kirgan dehqon va fermer xo'jaliklari bojxona to'lovlaridan ozod qilindi; yangi tashkil etilgan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 150 barobari, fermer xo'jaliklariga esa 300 barobari miqdorida boshlang'ich sarmoyalarni berish yo'lga qo'yildi; fermer xo'jaliklariga lizing asosida texnikalar berila boshlandi; davlat ehtiyoji uchun don va paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklariga beriladigan avans mablag'larini oldindan kredit tarzida berilishi yo'lga qo'yilmoqda. Uyushma tomonidan tashkil etilgan va qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarni tashkil etilgan vaqtidan boshlab, besh yil muddatga daromaddan olinadigan soliqdan ozod etildi.

---

### ***Qisqacha xulosalar***

*Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda olib borilayotgan islohotlar asosida mulkchilik munosabatlari shakllanib, barcha tarmoqlar bozor munosabatlarda faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika agrar sohasining barcha tarmoqlarida mahsulot yetishtirish imkoniyatlari kengayib, huquqiy asoslar yaratildi. Islohotlar natijasida qishloq xo'jaligini uchta bosqichda rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilib, samarali joriy etildi. Qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar orasida fermer xo'jaligi o'zining iqtisodiy va mahsulot ishlab chiqarish salohiyati bilan ustuvorligini ko'rsatdi. Fermer xo'jaligini kelgusida rivojlantirish to'g'risida barcha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda.*

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. *Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda islohotlarning zaruriyatini aytib bering.*
2. *Mulkchilik munosabatlarni shakllantirish tushunchasi nima?*
3. *Qishloqda iqtisodiy islohotlarni chugurlashtirish yo'llari nimalardan iborat?*
4. *Fermer xo'jaligi nima uchun ustuvor deb tan olindi?*
5. *Fermer xo'jaligini rivojlantirishda fanning vazifasi nimalardan iborat?*
6. *Fermer xo'jaligini rivojlantirish bosqichlarini aytib bering.*
7. *Fermer xo'jaligini rivojlantirish konsepsiyasining mohiyati va natijalari nimalardan iborat?*

**2.1. Fermer xo‘jaligi tushunchasi, maqsadi, vazifasi, faoliyati va  
uning yo‘nalishlari**

**F**ermer xo‘jaligi – tanlov asosida uzoq muddatli ijara ga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, yuridik shaxs huquqlariga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir.

**Fermer xo‘jalogining maqsadi** – qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlarini yetishtirish yo‘li bilan daromad (foyda) olish, o‘zining ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlарini qondirishdir.

**Fermer xo‘jalogining vazifalari** – ajratilgan yer va suv resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanishni ta‘minlash; tuproq unumdorligini saqlash va oshirish hamda yerkarni muhofaza qilish; mustaqil ravishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish, shuningdek, xizmatlar ko‘rsatish; veterinariya qoidalariga rioya qilgan holda, chorva mollarining mahsuldarligini oshirishdan iborat.

**Fermer xo‘jalogining faoliyatiga** – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, shuningdek, bozorlarda, shu jumladan, o‘z savdo shoxobchalari orqali sotish; tijorat faoliyati va marketing tadqiqotlarini tashkil qilish; yuridik va jismoniy shaxslarga pulli xizmatlar ko‘rsatish; tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish; faoliyatning qonun hujjatlarda taqiqilanmagan boshqa turlarini amalga oshirish kiradi.

**Fermer xo‘jaliklarining asosiy yo‘nalishlari** – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagи «Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi Farmonida belgilab berilgan: fermer xo‘jaliklari zarar bilan ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkatlar negizida barpo etiladi; fermer xo‘jaligi yuridik shaxs sifatida, asosan, xususiy korxona shaklida, keyinchalik ular turli shakldagi kooperatsiyalarga birlashish huquqi bilan barpo qilinadi; yer maydonlari fermerlarga tanlov asosida ellik yilgacha uzoq muddatga, ijara muddati davomida meros qilib qoldirish huquqi bilan ijara foydalanish uchun beriladi; fermer xo‘jaliklariga beriladigan yer maydonlari shirkat xo‘jaliklarining balansidan chiqariladi; yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish hamda moddiy-texnika resurslari va xizmatlarni olish

uchun shartnomalarni faqat fermer xo'jaliklarning o'zлari tayyorlov, qayta ishlash hamda xizmat ko'sratish korxonalarini va tashkilotlari bilan to'g'ridan-to'g'ri tuzadilar.

Fermer xo'jaliklarini tashkil etish ishlari quyidagi yo'naliishlarda amalga oshiriladi:

1. *Mehnat resurslari yetarli bo'limgan va yangi sug'oriladigan yerlar hamda zaxira yerlarda fermer xo'jaliklari tashkil etiladi.*

2. *Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlari)ning yerlarida fermer xo'jaligi tuzish uchun berilgan arizaga binoan, umumiy majlisning qarori bilan ajratiladigan yerlarda fermer xo'jaliklari tuziladi.*

3. *Surunkasiga zarar ko'rib ishlayotgan istiqbolsiz yoki past rentabelli xo'jaliklar Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida qayta tashkil etilib, to'lig'icha fermer xo'jaliklariga aylantiriladi.*

Fermer xo'jaligi aksariyat hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo'limgan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi.

Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo'jaligiga ijara ga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda, Andijon, Namangan, Samarcand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektarni, sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijara ga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun kamida 10 gektarni, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 1 gektarni tashkil etadi.

Yer uchastkalari berilganda, fermer xo'jaligi o'z zimmasiga qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o'rtacha yillik hosil hisobida) yerning kadastr bahosidan kam bo'lmasligini ta'minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijara ga olish shartnomasida mustahkamlab qo'yiladi.

Fermer xo'jaligi shu xo'jalik boshlig'i tomonidan tashkil etiladi, u fermer xo'jaligiga tegishli, aloqador mol-mulk ajratib beradi va ustavini tasdiqlaydi.

Fermer xo'jaligi tashkil etish uchun uning boshlig'i belgilangan tartibda yer uchastkasi olishi kerak.

Fermer xo'jaligi belgilangan tartibda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran tashkil etilgan deb hisoblanadi. Fermer xo'jaligi vakolatli organ tomonidan davlat ro'yxatiga olingandan keyin yuridik shaxs maqomini oladi, bank muassasasida hisob-kitob varag'i va boshqa xil hisob varaqlari ochib, o'z nomi yozilgan muhrga ega bo'ladi.

## **2.2. Fermer xo'jaligini tashkil etish**

Fermer xo'jaligini yuritish istagini bildirgan fuqarolar, birinchi navbatda, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunda belgilab berilgan tartibda uzoq muddatli ijara yer uchastkasi ajratishni so'rab qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) boshqaruvi nomiga ariza beradilar. Bunda arizalarni berish va ko'rib chiqish qishloq xo'jaligi ekinlarini yig'ib olish tugagan vaqtga to'g'ri kelishi maqsadga muvofiqdir.

Fuqaroning arizasi va umumiy majlis qarori fermer xo'jaligining biznes-rejasi bilan birga tuman hokimiga yuboriladi. Ushbu hujjatlar tuman hokimi tomonidan besh kun muddatda yer uchastkalarini berish masalalarini ko'rib chiquvchi tuman komissiyasiga xulosa berish uchun topshiriladi. Komissiya o'n besh kun muddatda hujjatlar bilan tanishib chiqadi va bo'lajak fermer bilan suhbat o'tkazadi hamda ijara yer berish muvofiqligi yoki muvofiq emasligi haqida xulosa tayyorlaydi. Xulosani yuqoridagi hujjatlar bilan birga tuman hokimiga taqdim etadi.

Tuman hokimi o'n besh kun muddatda taqdim qilingan hujjatlarni ko'rib chiqib, fermer xo'jaligi yuritish uchun fuqaroga yer uchastkasi berish to'g'risida qaror tayyorlaydi. Tuman hokimining tavsiyasi bilan viloyat hokimiyatida tuzilgan komissiyaga yuboriladi. Komissiya xulosasiga asosan, tuman hokimi qaror chiqaradi. Tuman hokimi qaror qabul qilgandan so'ng, o'n kun muddat ichida hokimiyatning yer tuzish va yerdan foydalanish xizmati bilan fermer xo'jaligi boshlig'i o'rtaida yer ijarasini shartnomasi tayyorlanib, imzolanishi lozim.

Shartnomasi imzolanganidan so'ng, o'n kun muddatda tuman bosh yer tuzuvchisi va shirkat xo'jaligi vakili fermer uchun ajratilgan yerni ko'rsatadi va uch nusxadagi dalolatnoma bilan tasdiqlaydi. Fermer xo'jaligi tuman hokimligida davlat ro'yxatidan o'tadi. Buning uchun Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 22-avgustdagি Qaroriga muvofiq, ushbu toifadagi xo'jaliklar tuman hokimligiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

*1. Ariza.*

*2. Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) umumiy yig'ilishining yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonasi oliy boshqaruvi organi yoki ish beruvchi (ma'muriyati) ning fermer xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarori.*

*3. Notarial tasdiqlangan Nizomning ikkita asl nusxasi.*

*4. Davlat boji yoki ro'yxatdan o'tish to'lovi to'langanligi to'g'risida bank to'lov hujjati (eng kam ish haqining besh barobari miqdorida).*

*5. Vakolatli shahar (tuman) hokimiyati organlari tomonidan berilgan xo'jalik nomini tasdiqlovchi hujjat.*

*6. Hokimiyat qarori bilan tashkil etilgan tanlov komissiyasining yer uchastkasi berish haqidagi qarori, ishlab chiqarishni tashkil etishning biznes-rejasi nusxalari.*

*7. Muhr va shtampning uch nusxadagi eskizi.*

Fermer xo‘jaligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur hujjatlar bo‘lajak fermerning o‘zi yoki shartnomaga asosida tuman hokimligining fermer xo‘jaligini davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risidagi qarori yoki ro‘yxatdan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risidagi qarori ariza beruvchi ariza bergen kundan boshlab yetti ish kunida, tuman hokimligining fermer xo‘jaligini davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risidagi qarori bilan bir paytda qabul qilinadi. Shundan so‘ng, tuman hokimligi yangi tashkil etilgan fermerga «Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida»gi guvohnoma va tuman hokimiyati muhri bilan tasdiqlangan «ro‘yxatga olingan» belgisiga ega ta’sis hujjatlarini hamda muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomani topshiradi.

Fermer xo‘jaligi tashkil etishning ushbu Qonunda belgilangan tartibi buzilgan yoki xo‘jalikning ustavi qonunga muvofiq bo‘limgan taqdirda fermer xo‘jaligini davlat ro‘yxatiga olish rad etilishi mumkin.

Davlat ro‘yxatiga olish rad etilganligi, shuningdek, ro‘yxatga olish muddatlarining buzilganligi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

### **2.3. Fermer xo‘jaligining tashkiliy, huquqiy va ishlab chiqarish asoslari**

Respublika xalq xo‘jaligida bozor munosabatlari shakllangan bir paytda qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning turli shakkllari sinovdan o‘tkazildi va doimiy ravishda takomillashtirib borildi. Fermerga bo‘lgan hukumatning e’tibori tez orada o‘zining ijobjiy natijalarini bera boshladi. Mamlakatimizga chetdan olib keltiriladigan oziq–ovqat mahsulotlari miqdori keskin kamayib, uning o‘rnini mahalliy mahsulotlar egalladi. Chunki, davlat mulkini xususiylashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida yer munosabatlarini isloh qilishga alohida e’tibor berildi. Yer xalqimizning asosiy milliy boyligi bo‘lib, xalqni oziq-ovqat va sanoatni xomashyo bilan ta’minlashda muhim xizmat qilmoqda. Respublikamiz iqtisodiy taraqqiyoti ko‘p jihatdan yerdan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Yer» kodeksiga binoan, yer davlat mulki bo‘lib, davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlatning chiqargan qonunlari asosida har bir O‘zbekiston fuqarosi yerdan foydalanish huquqiga ega. Bozor munosabatlarini erkinlashtirish jarayonida yerdan foydalanishning quyidagi tizimlari qabul qilindi:

*1. Shirkat xo‘jaliklariga qishloq xo‘jaligi yerkari doimiy foydalanish uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ta’minlash maqsadlarida beriladi.*

*2. Dehqon xo‘jaliklari yerdan meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanadilar.*

*3. Fermer xo'jaliklariga yer 50 yilgacha muddatga ijara ga beriladi.*

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va xususiy lashtirish jarayonini muvaffaqqiyatli oxiriga yetkazish maqsadida 1998-yil 30-aprelda «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishi agrar islohotlarni jadallashtirish uchun huquqiy negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu tizimda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda istiqbolli subyektlardan biri bo'lgan fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijara ga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir. Fermer xo'jaligini tashkil etish, ularning faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar mazkur qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Fermer xo'jaligi yuridik shaxsnинг barcha huquqlariga ega bo'ladi. Fermer tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirishga va boshqa shakllardagi xo'jalik yurituvchi korxonalar bilan teng huquqlarga ega.

Fermer xo'jaligi faoliyati qonun hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshirilib, ular: fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini yer uchaskasi to'g'risidagi nizomga asosan, tashkil etish; yetishtirilayotgan mahsulotga mustaqil baho belgilash; yetishtirgan mahsulotini iste'molchilarga o'z xohishi bo'yicha realizatsiya qilish; xarid etilgan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers bitimlari tuzish; tadbirdorlikni qonun hujjatlarda belgilangan tartibda yuritish; qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish, sotish va erkin savdoga mo'ljallangan aksiyalarini sotib olish; kreditlar olish, sug'urta va boshqa hollarni ta'minlagan holda, imtiyozli kreditlashga jalb etish; ijara ga berilgan yer uchaskasini kredit olish uchun garovga qo'yish; o'rta va kichik korxonalar uchun belgilangan imtiyozlardan foydalanish; xodimlarni ishga yollash va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish huquqlariga ega.

Qonun hujjatlarda fermer xo'jaligining boshqa huquqlari ham nazarda tutilishi mumkin.

Fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligi kooperativi umumiy majlisining qarori bilan belgilangan ixtisoslashuvga muvofiq, o'z faoliyati yo'nalişlarini, ishlab chiqarish tuzilmasi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Fermer xo'jaligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qonunlarda taqiqlanmagan har qanday turli qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan ham shug'ullanadi. Fermer xo'jaligi o'zi yetishtirayotgan mahsulotini sifatli, me'yoriy standartlarga mos, ekologiya, sanitariya qoidalari asosida ishlab chiqishdan iborat. Fermer xo'jaligi faoliyatining huquqiy asoslari uning nizomida belgilab qo'yiladi.

## **2.4. Fermer xo‘jaliklari faoliyatida qonun hujjatlaridan foydalanish tartibi**

Σ Fermer xo‘jaliklarini tashkil etish, ularning faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi bilan bog‘liq munosabatlар «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qонун ва boshqa qонуности hujjatlari bilan tartibga solinadi. ↗

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida fermer xo‘jaligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qонун hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqa qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.


Yer bilan bog‘liq bo‘lgan barcha munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasining «Yer» kodeksidan foydalaniladi. «Yer» kodeksining asosiy prinsiplari quyidagilar: eng muhim tabiiy resurs, qishloq xo‘jaligining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish; yerlardan oqilona, samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta‘minlash; qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerkarning, eng avvalo, sug‘oriladigan yerkarning alohida muhofaza etilishini, kengaytirib borishning hamda ulardan qat’iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta‘minlash; qishloq xo‘jaligi yerkarning unumdorligini oshirish, yerkarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerkarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo‘li bilan va boshqa tarzda qo‘llab-quvvatlash; yerga va tabiiy muhitiga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash; yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtiroychilarining teng huquqligini ta‘minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish; yerdan foydalanganlik uchun haq to‘lash; yerkarning holati haqidagi axborotning to‘liq bo‘lishini hamda undan erkin foydalanishga yo‘l qo‘yilishini ta‘minlash.

Umuman, «Yer» kodeksida yuqoridaq prinsiplardan kelib chiqqan holda, fermer xo‘jaligining yer bilan bo‘ladigan barcha munosabatlari aniq ko‘rsatib berilgan. Fermer o‘z faoliyatida «Yer» kodeksidan va me’yoriy hujjatlar to‘plamidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Bu hujjatlardan foydalanish tartiblari Vazirlar Mahkamasining Qarori asosida Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi.

Σ Fermer o‘zining ish faoliyatini, «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qонун bo‘yicha amalga oshiradi.

**Qонunning 8-moddasi** fermer xo‘jaligining Nizomi to‘g‘risida bo‘lib, ustavning mohiyati, mazmuni, fermer xo‘jaligini boshqarish, ishlab chiqarishni tashkil etish, fermerning huquq va majburiyatlari, xo‘jalikni qayta tashkil etish yoki tugatish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal etish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 30-oktabrdagi 476-sonli Qarori bilan «Fermer xo‘jaligining namunaviy Nizomi» tasdiqlangan. Ushbu hujjat orqali har bir fermer o‘zining sharoiti, ixtisosligini hisobga olgan holda fermer xo‘jaligining Nizomini qabul qiladi.

**Qonunning 23-moddasida** Ishlovchilarni mehnatga jalg qilish, haq to'lash, sug'urta badallarini to'lash kabi umumiy qoidalalar belgilangan. Ularni qanday rasmiylashtirish va amalga oshirish bo'yicha «Mehnat» kodeksidan hamda Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 30-oktabrdagi 476-sonli Qarori bilan «Fermer xo'jaligi xodimlarini yollash to'g'risidagi namunaviy shartnomalar» tasdiqlangan hujjatdan foydalanildi.



*1-rasm. Fermer xo'jaligida qonun hujjatlaridan foydalanish tartibi.*

Fermer xo'jaligi tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarni sotish, moddiy ta'minot va servis xizmati ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan bo'ladijan iqtisodiy munosabatlari «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunda belgilangan bo'lib, uni tashkil etish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 30-oktabrdagi 476-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi», «Moddiy-texnika resurslari yetkazib berishga namunaviy shartnomalar», «Xizmatlar ko'rsatishga (Ishlarni bajarishga) namunaviy shartnomalar» hujjatlarida aks ettirilgan.

*Fermer xo'jaligi faoliyatini yuritish jarayonida qo'llanadigan me'yoriy hujjatlardan foydalanishda birinchi navbatda qonunlarni hayotga tatbiq etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan tasdiqlangan yoki Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan qonunosti hujjatlarini o'rganib chiqishlari va tegishli moddaning asl mohiyatini bilib olishi lozim. Shundan keyin o'zining huquq va majburiyatlarini talab qilishlari mumkin.*

### Oisqacha xulosalar

**F**ermer xo'jaligi o'ziga tanlov asosida uzoq muddatli ijara ga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo'jaligining ustuvor subyekti hisoblanadi. Respublika qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar orasida har tomonlama ustuvor bo'lgan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish to'g'risida hukumatning ko'plab qarorlari qabul qilindi. Unda fermer xo'jaligining huquqiy asoslari, xo'jalikni tuzish tartibi, ishlab chiqarish faoliyati, yer uchastkasidan foydalanish tartiblari, Prezident, Oliy Majlis va Senat, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan hujjatlardan foydalanish tartiblari, fermerning haq-huquqlari to'g'risidagi barcha qonuniy asoslar yaratilib, keng joriy etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Fermer xo'jaligining maqsadi va vazifasini tushuntiring.
2. Fermer xo'jaligi qanday tashkil etiladi?
3. Tashkiliy-huquqiy va ishlab chiqarish asoslari nima?
4. Namunaviy Nizomning vazifasini tushuntiring.
5. Qonun hujjatlaridan qanday foydalaniladi?

## **FERMER XO'JALIKLARINING YER VA SUV RESUSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHI**

### **3.1. Yer resurslari va undan samarali foydalanish**

**Q**ishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib, kishilarning yerga ishlov berishi bilan ishlab chiqarish shakllanadi. Yer bir paytda mehnat predmeti (mehnatga yo'naltiradigan obyekt sifatida) va mehnat quroli (yerda zarur biologik sharoitlarni tug'dirish natijasida o'simliklar rivojlanadi) sifatida qishloq xo'jaligida yuzaga keladi. Yer har bir xalqning asosiy boyligidir.

O'zbekiston Respublikasi 447,4 mln. gektar yer maydoniga ega. Respublika qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydonlarining 81 foizi yoki 26,6 mln. gektari yaylov va pichanzorlarni tashkil etadi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 16 foizi haydaladigan yerlarni tashkil etadi. Shundan 3,0-3,2 mln. gektari haydaladi va lalmi dehqonchilik bilan shug'ullaniladi. Qolgan qismidan namlik juda kam bo'lganligi sababli foydalanilmaydi.

Respublika yerining bir qismi shaharlar va aholi punktlari, bir qismi transport va kommunikatsiyalari, daryo va suv havzalari bilan band yerlar, o'rmon xo'jaligi yerlari, harbiy maqsadlar uchun ajratilgan yerlar va davlat zaxira fondidan iborat. Biz uchun eng muhimmi, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar hisoblanadi. Respublikaning yer manbalari cheklangan va u qishloq xo'jaligi tarmog'ida foydalaniladigan resurs sifatida kamayib bormoqda.

Qishloq xo'jaligida yer fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Yer tabiatda chegaralangan. Uni inson xohlagancha ko'paytirish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun, mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish darkor. Bundan tashqari, sanoatning, kommunikatsiyaning o'sishi, aholining ko'payishi tabiiy holda bir kishiga to'g'ri keladigan yer maydonining qisqarishiga olib keladi. Qolaversa, insoniyatning yerdan to'g'ri foydalan-masligi sababli, ularning qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketish hollari ham yuz bermoqda. Tuproq eroziysi, sho'r bosish, kasalliklarga chalinish kabi taraqqiyotning salbiy oqibatlarini kamaytirish har bir davlatning, yerdan foydalanuvchilarning asosiy vazifasidir.

2. Yer – tabiat mahsuli.

3. Yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir.

4. Turli joylarda mavjud yer maydonlari turli sifatga, ya'ni unumidorlikka ega. Yerning tabiiy va sun'iy unumidorligi bir-biridan farqlanadi. Tabiiy unumidorlik bu inson aralashuviziz tabiat tomonidan vujudga kelgan yerning hosil bera olish

qobiliyatidir. Inson aralashuvi natijasida vujudga kelgan unumdorlik sun'iy unumdorlikdir. Bu unumdorlikni oshirish imkoniyatlari katta.

5. Yerni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish mumkin emas. Mavjud yerlarda ekin turlarini joylashtirish, texnikadan foydalanish, ishlab chiqarish hajmiga bo'lgan talablarni keltirib chiqaradi.

6. Yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Yerdan to'g'ri foydalanib, iqtisodiy unumdorlikni oshirishga e'tibor berilsa, almashlab ekish, ekinlarni to'g'ri joylashtirish, tarmoqlarni bir-biri bilan ixtisoslashtirilganda, uning fizik strukturasi buzilmay, tuproq unumdorligi oshadi.

Yerdan foydalanish unumdorligi uch xil bo'ladi:

**1. Tuproq unumdorligi** – namlik sig'imi, suv o'tkazuvchanligi, mexanik, fizik, ximiyaviy, biologik tarkibi, ozuga moddalarining umumiyliz zaxirasi bilan o'lchanadi.

**2. Tuproqning tarkibiy unumdorligi** – yerga vaqtincha dam berish, daraxt barglari, yovvoyi o'tlar tanalari, ildiz chirishi, dukkakli ekinlar ekish bilan tuproq ozuqasi boyitiladi.

**3. Tuproqning sun'iy unumdorligi** – kishilarning o'z mehnati va qo'shimcha kapital sarflashi yo'li bilan ozuqani ko'paytirish tushuniladi.

Yerning unumdorligini oshirish organik, mineral o'g'itlar, almashlab ekish, progressiv texnologiyalarni qo'llash, agrotexnika, mehnat vositalari, ishlab chiqarish vositalaridan, rejalarini to'g'ri, real tuzish, sho'rланishga yo'l qo'ymaslik kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

### 3.1.1-jadval.

#### Qishloq xo'jaligi ekinlarining maydonlari dinamikasi

Ekin turlari	1980 y.	1990 y.	2000 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	1980- yilda 1980- yilga nisbatan %
Donli ekinlar	1173,8	1008,1	1614,0	1666,5	1615,2	1616,5	137,7
Texnika ekinlari	1912,1	1876,3	1512,5	1516,8	1517,7	1476,9	77,2
<i>shundan:</i>							
<i>paxta</i>	1877,1	1830,1	1444,5	1455,7	1472,0	1447,5	77,1
<i>sabzavot,</i>	104,3	140,2	129,9	137,6	137,4	154,2	147,8
<i>kartoshka,</i>	23,3	41,8	52,2	52,4	49,6	52,6	225,4
<i>poliz ekinlari</i>	52,1	79,8	36,9	35,0	33,8	37,0	71,0
<b>Jami:</b>	<b>3994,6</b>	<b>4194,2</b>	<b>3778,3</b>	<b>3691,5</b>	<b>3646,0</b>	<b>3633,6</b>	<b>90,9</b>

Respublika bo'yicha qishloq xo'jaligi ekinlari maydoni keyingi jadvalda keltirilgan.


Jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turubdiki, respublikaning ekin maydonlari 1980-yilni 2006-yilga nisbatan solishtirilganda 90,9 foizga kamaygan bo'lsa, donli ekinlar 37,7%, sabzavot 147,8%, kartoshka 212,8 foizga oshdi. Paxta ekin maydonlari qariyb 429,6 ming getktarga kamaydi.

Respublikadagi mavjud ekin maydonlaridan samarali foydalanishni bozor munosabatlarda tashkil etish mulkchilik munosabatlari asosida yerga va uning hosildorligini oshirishga qaratilgan. Qabul qilingan «Yer» kodeksi yerdan samarali foydalanishning huquqiy asoslarini yaratib bergan. Yerdan foydalanuvchi har bir fermer qonunda belgilangan tartib asosida yerdan foydalanishda tuproq unumdorligini va bonitet balini oshirmoqda.

Bu tadbirlarni bajarishda fermer xo'jaliklarining hissasi katta bo'lib, ular yerdan samarali foydalanib kelmoqda. Shuning uchun fermer xo'jaliklari soni va ularga biriktirilgan ekin maydonlari ortib bormoqda. Bu holat quyidagi diagrammada aks etgan.

3.1.1-diagramma.

**Fermer xo'jaliklarida yer maydonining o'sishi  
(gektar hisobida)**



1992-yilda fermer xo'jaliklari 201 506 hektar yerda dehqonchilik qilgan bo'sha, 2006-yilga kelib, bu ko'rsatkich 495 3179 hektarga yoki 25 baravarga oshdi. Chunki, fermerlar har bir hektar yerdan samarali foydalanib, yuqori hosil olishga va tuproq unumdonligini ko'tarishga harakat qilmoqda.

*Qishloq xo'jaligida yerdan samarali foydalanish quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:*

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarida yer fondidan foydalanish darajasi (qishloq xo'jalik yerlarining umumiyligi yer maydoniga nisbati).
2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi (100 ga qishloq xo'jalik yeriga yetishtirilgan mahsulot, pul va natura ko'rinishida).
3. Yerdan samarali foydalanish, har bir hektar yerdan olingan hosil, bir hektar yerga to'g'ri keladigan sof daromad, rentabelligi va hokazo.

### **3.2. Yerni iqtisodiy baholash va uning monitoringi**

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning qiymat bahosi (me'yoriy narxi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 19-may-dagi 120-soni «1998-2000- yillarda qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq aniqlanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning qiymat bahosi mayjud me'yoriy ma'lumotlar asosida aniqlash uchun mo'ljallangan.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning me'yoriy baholari, banklaridan ipoteka qarzlarini berishda, xususiy turarjoylar qurish uchun yer ajratib berish va dehqon xo'jaliklariga me'yordan ortiqcha yer ajratib berishda, yer solig'i stavkalari miqdorini aniqlash, auksion orqali yer uchastkalarini sotish va qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa hollarda shu yerning dastlabki bahosini belgilash uchun qo'llaniladi. Demak, yerlarning me'yoriy bahosi quyidagicha hisoblanadi:

✓ *xo'jalikning ichki miqyosida; tuproq sifati (boniteti) bir xilda teng bo'lgan ekin yerlari va boshqa qishloq xo'jalik yerlarining alohida uchastkalarini: bu holda yerning me'yoriy bahosi xo'jalik ichidagi masalalarni yechish, dehqon va fermer xo'jaliklariga, qurilishga, sug'oriladigan yerlarni rekonstruksiyalashga va boshqa maqsadlarga yer ajratish uchun aniqlanadi;*

✓ *umumiyligi miqyosida: qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi korxonalarining yer maydoni yoki qishloq xo'jalik yerlarining asosiy turlari. Bu holda, yerning me'yoriy bahosi, yerga soliq solish stavkasi*

*miqdorini hisoblab chiqish, banklardan yer uchastkalarini garovga qo'yib kredit olish uchun aniganadi. Davlat rejalarini tuzish maqsadida yerning me'yoriy bahosini hisoblashning hududiy birligi tuman miqyosida yer uchastkalari, viloyat miqyosida esa ma'muriy tumanlar hisoblanadi.*

**Yer uchastkasi** – o'z chegaralangan belgisi, maydoni, joylashish joyi, huquqiy strukturasiga (yer egasi, yerdan foydalanuvchisi va boshqalar) ega bo'lgan yer sathining qismi.

**Shartli kadastrli gektar** – hosildorligi paxta bo'yicha gektariga 8 sentnerni tashkil qiluvchi, boniteti 20 balli, past sifat yerning mahsuldarlik me'yori.

**Tuproq bonitirovkasi** – qishloq xo'jalik ekinlari o'sishini va ball bonitetlarda (100 balli tizim bo'yicha) ifodalanish uchun, ularni ahamiyatliroq tabiiy xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiyalash.

**Yalpi mahsulot** – maydon birligidan chiqqan jami dehqonchilik mahsulotlarining qiymatda ifodalanishi.

**Sof daromad** – yalpi mahsulot qiymati bilan uni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar o'rtaсидagi farq.

**Kadastrli hisoblangan hosildorlik** – 100 ballik baholash shkalasi bo'yicha 1 ball bahoga qabul qilingan s/ga hosildan kelib chiqib, qishloq xo'jalik ekinlarining hisoblangan hosildorligi.

### 3.2.1-jadval.

#### Ball bonitetlari bo'yicha asosiy qishloq xo'jalik ekinlarining kadastrli hisoblangan hosildorligi, s/ga

Ball bonitetlari	Paxta	Don	Beda	Don uchun makkajo'xori	Bir yillik o'tlar	Ildiz mevalilar
10	4	.6	20	7,5	30	90
20	8	12	40	15	60	180
30	12	18	60	22,5	90	270
40	16	24	80	30	120	360
50	20	30	100	37,5	150	450
60	24	36	120	45	180	540
70	28	42	140	52,5	210	630
80	32	48	160	60	240	720
90	36	54	180	67,5	270	810
100	40	60	200	75	300	900
I ballning bahosi	0,4	0,6	2,0	0,75	3,0	9,0

1 hektar sug'oriladigan yerdan olinadigan so' daromad quyidagicha aniqlanadi:

$$CHDn = \frac{VPn \cdot Pn}{100};$$

**Bunda:** *CHDn – 1 ga sug'oriladigan yerning me'yoriy so' daromadi;*

*VPn – 1 ga sug'oriladigan yerning me'yoriy yalpi mahsuloti;*

*Rn – har xil sifatli yerlar foizidan hosil bo'lgan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining hisoblangan daromadi me'yori.*

Asosiy ekinlarni birga qo'shish bo'yicha me'yoriy yalpi hosilni hisoblash quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- *yerni baholayotgan obyektning ekin maydonlari tarkibi va shu ekinlarni sotish baholari bo'yicha o'rtachasini qo'llab;*

- *umumiylar ekin maydonidagi ekinlar bo'yicha baholar hisoblab chiqilib, quyidagi tartibda hisoblanadi:*

$$\frac{X \cdot R + Z - R + K \cdot R}{(X + Z + K)};$$

**Bunda:** *X – 1 gektardagi paxta xomashyosining qiymati;*

*Z – 1 gektardagi don mahsulotining qiymati;*

*K – 1 gektardagi ozuqa ekinining qiymati;*

*R – ekinlarning foiz (%) hisobidagi solishtirma miqdori.*

Sug'oriladigan 1 hektar yerning me'yoriy bahosi quyidagicha aniqlanadi:

$$Sn = \frac{CHDn \cdot K}{P};$$

**Bunda:** *Sn – sug'oriladigan yerning 1 gektarining me'yoriy bahosi;*

*CHDn – sug'oriladigan yerning 1 gektaridan olinadigan me'yoriy so' foyda;*

*P – kapitalga bank qo'yadigan ssuda foizi;*

*K – qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida, xo'jalik yuritish mavqeい va intenzivlik darajasini hisobga oluvchi koeffitsiyent.*

Respublikadagi barcha yerlar xalqimiz farovonligining asosidir. Undan faqat bugunni emas, kelajak avlodlarning manfaatini ko'zlab, ilmiy asoslangan holda oqilona, samarali foydalanish, uni muhofaza etish umummilliy dolzarb masala hisoblanadi. Bu vazifani hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Makhkamasi 2000-yil 23-dekabrida «Yer monitoringi to'g'risidagi Nizom»ni tasdiqladi. Yer monitoringi respublika yer fondidagi barcha o'zgarishlarni o'z vaqtida ilmiy asoslangan holda aniqlash, yerkarta baho berish (sifat hamda iqtisodiy jihatdan), ularga ta'sir etuvchi salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini izchil tugatish

maqsadida yerning holatini kuzatib borish bilan bog'liq bo'lgan axborotlar tizimidan iboratdir. Respublikaning barcha yerlari monitoring obyekti hisoblanadi.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya, kartografiya va davlat kadastro Bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, respublikadagi boshqa manfaatdor vazirliliklar, idoralar va tashkilotlarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Yer resurslari davlat qo'mitasi zimmasiga vazirliliklar va idoralar faoliyatini va yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtirishdek muhim vazifa yuklatalgan. «O'zdavyerloyiha» institutining Yer kadastro sho'ba korxonasi yer monitoringi amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha qishloq xo'jalik yerlari tuproq monitoringini amalga oshirish uchun tuproqshunoslik tadqiqotlariga oid to'plangan baracha ma'lumotlarni umumlashtirib, monitoring tadqiqotlarini olib borish maqsadida respublika, viloyatlar hamda tumanlar hududida asosiy maydonlarni tanlash va ularni asoslash; vaqt o'tishi bilan tuproqlarning asosiy xususiyatlari o'zgarganligini isbotlovchi ma'lumotlarni teran va to'liq tahlil etish; tadqiqot olib boriladigan asosiy hamda ekologik maydonlarda tuproqlarning holatini isbotlovchi ko'rsatkichlar majmuasini asoslash, tashkil etish hamda yuritish; tuproqning holatini kuzatish, unga oid ma'lumotlarni sifatli to'plash hamda ularga o'zgartirishlar kiritish ishlarini olib boradi. Buning uchun qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarini suv va shamol eroziyasi ta'siri oqibatida o'zgarishi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari sho'rlanganlik darajasining o'zgarish jara-yoni monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari og'ir metallar bilan zaharlanganlik hamda zaharlanganlik darajasining o'zgarishi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining texnogen o'zgarishi monitoringi; neft mahsulotlari salbiy ta'siri natijasida tuproqlarning ifloslanishi monitoringi; barcha o'simliklarning og'ir metallar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining gerbitsid v pestitsidlar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; mineral o'g'iltdan foydalanish natijasida tuproqlar tarkibidagi o'zgarishlar monitoringi amalga oshiriladi.

Yer monitoringi yer tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarining oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat. Davlat yer kadastro yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta'minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

O'zbeiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Yer» kodeksiga binoan, yer umummilliy boylik bo'lib, davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yerdan davlatning chiqargan qonunlari asosida har bir fuqaro va korxona foydalanish huquqiga ega. Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligida shirkat

xo‘jaliklariga doimiy foydalanish uchun, dehqon xo‘jaliklari yerdan meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod foydalanish, fermer xo‘jaliklari uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalardan foydalanish huquqi berilgan. Qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi subyektlar, har bir gektar yerdan qonun hujjatlari asosida samarali foydalaniishi lozim.

### **3.3. Fermer xo‘jaliklariga yer uchastkalari berish tartibi va undan foydalanish**

O‘zbekiston Respublikasining «Yer» kodeksi, «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonunlariga muvofiq, fermerlarga yer uchastkalari uzoq muddatli ijaraga berish tartibi bo‘yicha beriladi.

Yer uchastkalari fermer xo‘jaliklariga tanlov asosida ijaraga berilib, ijara muddati qonun hujjatlariiga muvofiq belgilanadi.

Fermer xo‘jaliklariga quyidagi yerlardan ijaraga beriladi:

- zaxira yerlaridan;
- yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo‘jaligi yerlaridan;
- qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) hamda boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlari yerlaridan;
- qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlari yerlaridan beriladi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalariga, Oliy o‘quv yurtlariga, akademik litseylariga, kasbhunar kollejlariiga va umumta’lim maktablariga, o‘quv-tajriba, nav sinash maqsadlari uchun berilgan yerlar hamda suv fondi yerkari fermer xo‘jaliklariga berilmaydi.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaligi xo‘jalikning biznes-rejasida nazarda tutilgan kamida 30 shartli bosh chorva molalarini boqish shartlari bilan tashkil etiladi. Bunda shartli ravishda har bir bosh mol hisobiga quyidagi koeffitsiyentlardan foydalilanadi: korxonalar (sigirlar, nasol olinadigan novvoslar, bo‘rdoqiga boqiladigan novvoslar) va otlar uchun 1 ga, yosh qoramollar uchun – 0,6, qo‘y va echkilar uchun – 0,1, cho‘chqalar uchun 0,3 hamda parrandalar uchun – 0,025.

Fermer xo‘jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami har bir shartli bosh chorva moliga hisoblanadi;

Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerkarda – kamida 0,30 gektarni;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlardagi sug‘oriladigan yerkarda kamida 0,45 gektarni:

- sug‘orilmaydigan (almikor) yerkarda – kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashayotgan fermer xo'jaliklariga ijara beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami:

- paxtachilik va g'allachilik uchun – kamida 10 gektarni;
- bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlar yetishtirish uchun – kamida 1 gektarni tashkil qiladi.

Yer uchastkasi fermer xo'jaligiga imkonи boricha yagona mavze bo'yicha, kontaktlar yaxlitligi saqlab qolning holda beriladi, uchastka chegaralari sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, yo'llar va boshqa topografik elementlar bo'yicha belgilanadi. Fermer xo'jaligiga berilayotgan yer uchastkasi boshqa yerdan foydalanuvchilarning yerlardan foydalanishi uchun noqulayliklar vujudga keltirmasligi kerak.

Fermer xo'jaliklariga ijara berilgan yer uchastkalaridan qat'iy, maqsadga muvofiq holda foydalaniлади, ular xususiy lashtirilishi va oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo'lishi mumkin emas.

Fermer xo'jaliklariga ijara berilgan qishloq xo'jaligi yerlari ekinlaridan qishloq xo'jaligi ekinlari shartnomasida nazarda tutilmagan, belgilangan maqsadlardan boshqa maqsadlarda foydalanilishi, amaldagi qonun hujjatlarida va mazkur Nizomda nazarda tutilgan barcha kelib chiqadigan oqibatlari bilan birgalikda ijara shartnomasining qo'pol ravishda buzilishi hi-soblanadi.

Agar bo'lish vaqtida yangi tashkil etilgan yer uchastkalari «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida va ushbu Nizomda nazarda tutilgan eng kam o'lchamlardan kam bo'lmasa, fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasi fermer xo'jaligi qayta tashkil etilganda bo'linishi mumkin.

Fermer xo'jaliklariga yer uchastkalarini ijara berish bo'yicha materiallar yer tuzish xizmati organlari tomonidan davlat budjeti mablag'lari hisobiga tayyorlanadi.

Yer uchastkalari berish qoidaga ko'ra, fermer xo'jaligini tashkil etish va yer uchastkasini ijara olish to'g'risidagi barcha hujjatlar qishloq xo'jaligi ekinlari yig'ishtirib bo'lingan muddatda rasmiy lashtirilgan holda amalga oshiriladi.

Yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlarda va zaxiradagi yerlardan yer uchastkalari berish tartibi – bunda tuman hokimi yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo'jaligi maqsadidagi yerlardan va (yoki) zaxiradagi yerlardan yer uchastkalari ajratish to'g'risida, shuningdek, ushbu yerlarni fermer xo'jaliklariga berish bo'yicha tanlov o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Hokimning tanlov o'tkazish to'g'risidagi qarori mahalliy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari boshqaruvi (ma'muriyati) binolarida osib qo'yilishi kerak. E'londa quyidagilar ko'rsatilishi lozim: yer uchastkasining o'lchami, joylashgan joyi, sifati va boshqa tavsiflari, tashkil etilayotgan fermer

xo'jaligining mo'ljallanayotgan ixtisoslashuvi, tanlovnning o'tkazilish vaqtini va joyi. Tanlov uni o'tkazish to'g'risidagi qarorlar qilingan vaqtdan boshlab, bir oy mobaynida o'tkazilishi kerak.

Yer uchastkalari berish to'g'risidagi ariza tashkil etilayotgan xo'jalikning biznes-rejasi yoki faoliyat dasturi ilova qilingan holda tanlov e'lon qilingandan boshlab bir oy mobaynida tuman hokimiga beriladi. Ariza beruvchining familiyasini, ismini va otasining ismini, uning turarjoyi, so'r alayotgan yer uchastkasi joylashgan joy, uning maydoni, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi)ning nomi, mo'ljallanayotgan ixtisoslashuv, chorvachilik yo'nalishidagi fermer xo'jaligi tashkil etishda-boqilishi mo'ljallanayotgan mollarning turlari bo'yicha bosh soni, yer uchastkasini ijaraga olish muddati ko'rsatiladi. Fuqarolarning arizasi maxsus daf-tarda ro'yxatdan o'tkaziladi.

Tuman hokimi arizani yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyaga beradi, komissiya fermer xo'jaligiga yer uchastkalari berish bo'yicha tanlov o'tkazadi.

Komissiya qarori bayonnomma bilan rasmiylashtiriladi va tuman hokimiga beriladi. Tuman hokimi komissiya qarori asosida, uch kun mobaynida fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risida qaror chiqaradi va ushbu qarorni hamda tanlov komissiyasi ishi natijalarini viloyat hokimi boshchilik qiladigan yer uchastkalari berish (sotish) masalalarini ko'rib chiquvchi viloyat komissiyasiga tasdiqlash uchun yuboradi. Viloyat hokimi boshchilik qiladigan komissiya taqdirmi etilgan hujjatlarni ko'rib chiqadi va tuman hokiminining fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to'g'risidagi qarorini tasdiqlash (yoki tasdiqlashni rad etish) haqida qaror qabul qiladi.

Fermer xo'jaligining yer uchastkasiga egalik qilish hamda undan foydalani-shidagi huquq va majburiyatlar qonun hujjatlari belgilanganadi. Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalaridan qat'iy belgilangan maqsadda foydalilanadi. Ular xususiyasiga berilishi, oldi-sotdi, garov, hadya, ayirboshlash obyekti bo'lishi va ik-kilamchi ijaraga berilishi mumkin emas.

Yer uchastkasini ijaraga olish huquqi kreditlar olishda fermer xo'jaligi tomonidan garovga qo'yilishi mumkin.

Yer uchastkasining o'lchami va chegaralari faqat fermer xo'jaligi boshlig'ining roziligi bilan o'zgartiriladi. Fermer xo'jaligi boshlig'i vafot etgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish huquqi qonun hujjatlariga muvofiq ijaraga olish shart-nomasining amal qilish muddatiga meros bo'yicha o'tadi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasining amal qilish muddati tugaganidan keyin fermer xo'jaligi ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga ega. Fermer xo'jaligining boshlig'i vafot etgan taqdirda, ijaraga olish shartnomasini yangi muddatga uzaytirish huquqiga uning merosxo'ri ega bo'ladi.

Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi taraflar o'rtasida nizolar chiqqanda, sud tomonidan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Fermer xo'jaligi tugatilgan taqdirda, yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda bekor qilinishi lozim.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasidan foydalanganlik uchun haq mahliliy budgetga to'lanadigan har yilgi ijara haqi tariqasida yer uchastkasi-ning si-fatiga, joylashgan yeri va suv bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab, yerning kadastr bahosini inobatga olgan holda belgilanadigan yagona yer solig'i stavkasi miqdorida undiriladi.

Davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida, fermer xo'jaligi yer uchastkasidan foydalanganlik uchun ijara haqi to'lashdan ozod etiladi.

Fermer xo'jaligi loyiha asosida yerni o'zlashtirsa, besh yil davomida o'zlashtirilgan yer uchun yagona yer solig'i to'lashdan ozod qilinadi.

### 3.4. O'zbekistonda suv resurslaridan foydalanish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi qurg'oqchilik zonasida joylashgan bo'lib, yoz oylari havosi haddan tashqari issiq bo'ladi. Tuproqdagagi suv namlari parlanib tuproq tarkibidan chiqib ketadi. Ekilgan ekinlar suvsizlikdan qurib, nobud bo'ladi. Bu esa sug'orib dehqonchilik qilish usulidan foydalanishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi hududidan ikki daryo – Amudaryo va Sir-daryo oqib o'tadi. Bu daryolarning yillik suv o'tkazish quvvati 121690 mln. m<sup>3</sup> ni tashkil etib, ularning suvlaridan O'zbekiston (63020 mln. m<sup>3</sup>), Qirg'iziston (5140 mln. m<sup>3</sup>), Tojikiston (13230 mln. m<sup>3</sup>), Qozog'iston (25010 mln. m<sup>3</sup>) iste'mol qiladilar. Bu suv zaxiralari qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishga (85,6 %) sanoat va maishiy xizmatlarga (14,4 %) foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasida yiliga 72,4 km<sup>3</sup> suv foydalanilib, 61 km<sup>3</sup> oqova suvlar, 11,3 km<sup>3</sup> yer osti suvlarini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida yillik ob-havo haroratiga qarab, suv zaxiralari ham o'zgaradi. Suv eng kam yillari suv zaxirasasi suvgaga bo'lgan talabning 67 %ni qoplay oladi, xolos. Nati-jada qishloq xo'jaligi ekinlarining suv bilan yetarli ta'minlanmasligi oqibati-da hosildorligi pasayadi, har xil kasalliklar bilan kasallanish darajasi ortadi, mahsulot sifati yomonlashadi. Kelajakda O'zbekistonda suvgaga bo'lgan talab orta borib, talabni qondirish muammolari ko'payadi.

O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuniga asosan, suvgaga doir munosabatlarni tartibga solish, qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanish, suvni bug'lanish, ifloslanib ketish va kamayib ketishdan saqlash, suvning zararli ta'sirining oldini olish va bar-taraf qilish, suv obyektlarining holatini yaxshilash, shuningdek, suv ta'minoti

korxonalari bilan suv iste'molchilari o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini yaxshilashdan iboratdir.

Sug'orish magistral kanallar, suv omborlari va boshqa suv xo'jaligi obyektlaridan ichki va umumiy tizim rejalarini asosida amalga oshiriladi.

Ikki tomonlama ishlovchi zax qochirish tarmoqlarida suvdan foydalanish melioratsiya qilingan yerlardagi suv rejimini tartibga solish, ichki xo'jalik va umumiy tizimi rejalarini asosida amalga oshiriladi.

Fermerlar suvdan limit bo'yicha foydalanishadi. Foydalanish tartibi ma'muriy, hududiy suv taqsimlash qoidasiga binoan amalga oshiriladi.

Suvdan limit bo'yicha foydalanish tartibi suv xo'jaligi organlari tomonidan belgilanadi.

Suvdan foydalanishda haq to'lashni joriy etish, suvdan limit bo'yicha foydalanish, nazorat qilish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Suv obyektlari doimiy yoki vaqtincha foydalanishga beriladi.

Muddati belgilanmagan suvdan foydalanish – doimiy foydalanish deyiladi.

Suvdan vaqtincha foydalanish muddati: qisqa – uch yilgacha va yigirma yilgacha bo'lishi mumkin. Suv olish va uning hisob-kitobini qilish suv xo'jaligi oragani bilan tuzilgan shartnomaga asosan, amalga oshiriladi. Suv xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari yer solig'idan ozod qilingan.

Xo'jalikda sug'orish ichki suv yo'llari orqali yoki drenaj, suv chiqarish quduqlari yordamida amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan suvni monitoring qilish orqali salbiy oqibatlar o'rganilib, suvlarning samaradorligi oshiriladi.

Suvdan foydalanuvchilar qonunlarda belgilangan tartibda irrigatsiya-melioratsiya ishlarini amalga oshiradi.

Fermer xo'jaliklari suv olishni ko'paytirishi yoki kamaytirishi, kanallardagi va suv omborlaridagi gidrotexnika inshootlaridan o'zboshimchalik bilan foydalanishi yoki nasos stansiyalari va boshqa inshootlar qurishlari taqilanganadi.

Suv resurslaridan samarali foydalanishda suvni aniq hisob-kitob qilib, iste'molchiga keladigan suv o'lhash qurilmasi va gidropostlarni qurish tashkil etiladi.

Xo'jalik ichki ariqlarini tozalashda xo'jalik bilan fermerlar o'rtasida kelishmovchiliklar bo'lib turishi sababl, ichki ariqlarini tozalanmasdan, suv sarfi va isrof garchiligi ortib boradi. Natijada xo'jalik rahbarlari va fermer xo'jaliklari boshliqlari irrigatsiya ishlarini o'zları bilganicha bajarmoqda. Oqibatda suv ta'minotining buzilishiga yo'l qo'yilmoqda. Suv taqsimoti eski usulda taxminiy ko'z bilan chamlab bo'linmoqda. Natijada bosh mirob xo'jalik ichida suvni

to‘g‘ri taqsimot qilolmay, tuman suv xo‘jaligi bo‘limlaridan qo‘sishimcha suv so‘rab, suv sarfini ko‘paytirmoqda.

Suv ta’minoti korxonalarining asosiy vazifasi suv iste’molchilariga suvni o‘z vaqtida shartnoma asosida yetkazib berishdir. Iste’molchilar esa suv uchun sarf – xarajatlarni o‘z vaqtida to‘lab borishlari kerak.

### **3.5. Fermer xo‘jaligida SFUlar faoliyatidan foydalanish**

Suv resurslaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida respublika fermer xo‘jaliklariga o‘z vaqtida suv bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo‘lib, uning bajarilishi ta’minlanmoqda. Masalan, 2000-yilda 141 ta SFU tashkil qilingan bo‘lsa, 2006-yilda 406 ta SFU tashkil qilinib, respublikada jami bo‘lib 1502 ta uyushma faoliyat ko‘rsatmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2003-yildagi 476- sonli Qarorida belgilangan 255 ta SFUning o‘rniga 223 ta (87,4%) tashkil etilib, ularning ba-lansiga 4702 million so‘m mablag‘ o‘tkazildi hamda ko‘plab mol-mulk va texnika vositalari berildi.

Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari faoliyatini yaxshilash to‘g‘risidagi asosiy vazifalar:

- SFUlar suvdan foydalanuvchilarga ajratilgan limitlar doirasida suv yet-kazib beradi;
- uyushma ta’sischilari va boshqa suvdan foydalanuvchilar hamda suv xo‘jaligi tashkilotlari bilan ichki suv xo‘jalik obyektlarini ta’mirlash va ishlash bo‘yicha shartnomalar tuzishadi va uning bajarilishini ta’minlaydi;
- uyushma xo‘jaligi hududidagi suv xo‘jaligi obyektlarini tozalash va ta’miriash, rekonstruksiya qilish ishlarini tashkil etadi;
- suv o‘lchash asbobolarini qurishni tashkil etadi va ularni belgilangan taribda pasportlarini tuzadi, shahodatlash hamda ro‘yxatdan o‘tkazishni ta’minlaydi;
- yer egalariga sug‘oriladigan yerlarning sho‘rini yuvish, suvdan maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatadi;
- suvni iqtisod qiluvchi ilg‘or tajribalarni hamda texnologiyalarni joriy etishni tashkil etadi;
- uyushma balansidagi asosiy vositalarni texnik ko‘rikdan o‘tkazib bora-di, ta’mirlash va yangilash, resurslarni iqtisod qiluvchi texnika va texnologiyalarni joriy qilish va istiqbolli rejalarini ishlab chiqish hamda har bir suvdan

*foydalanuvchining badallarini hisob-kitob qilib, belgilangan tartibda ta'sischilarning umumiy yig' ilishida tasdiqlaydi.*


O'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, SFUlar fermer xo'jaliklariga suv yetkazib berish ishlarini amalga oshirmoqda. Respublika dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasining Farg'ona shahri vakilligi qoshida «Vodiy-sharshara» suvdan foydalanuvchilar markazi 120 dan ortiq fermer xo'jaliklariga suv yetkazib berish yuzasidan shartnomaga tuzgan.

Suvdan foydalanuvchilar markazi shartnomaga asosan, suvdan foydalanuvchilarga ajratilgan limit doirasida suv yetkazib berish, ichki suv xo'jalik obyektlarini ta'mirlash, tozalash va rekonstruksiya qilish ishlarini tashkil etgan bo'lib, bu sohada bir qancha muammolar mavjud. SFU tomonidan shartnomaga asosan, ichki suv xo'jalik obyektlarini ta'mirlash, tozalash va rekonstruksiya qilish ishlari talab darajasida bajarilmayapti. 2004-yilda SFUlar 35 mingdan ortiq fermer xo'jaliklar bilan 4848 mln. so'mlik shartnomaga tuzgan bo'lib, 2402 mln. so'mlik yoki 49,5 foiz xizmatlar ko'rsatilgan, xolos. Tuzilgan shartnomalarning bajarmasligiga sabab, suvdan foydalanuvchilar uyushmalarining moddiy-texnika bazasi shakllanmaganligidir. Qashqadaryo viloyatida Vazirlar Mahkamasining 476-sonli Qaroriga asosan, tugatilgan shirkat xo'jaligi o'rnda tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga 25 ta SFUlar tashkil etilgan. Lekin SFU balansida birorta texnika yo'q. SFUlar fermer xo'jaliklari bilan suv limiti asosida shartnomaga tuzmagan. SFUning 2005-yil uchun xarajatlar smetasi tuzilgan. Fermer xo'jaliklariga yer taqsimlab berilgan. Xarajatlar smetasida yillik ish haqi fondi 5379 ming so'mni, ishlab chiqarish xarajatlari 1562 ming so'mni, ma'muriy xarajatlar 608 ming so'mni, jami 2005-yil uchun xarajat 7549 ming so'mni tashkil qilgan. Xarajatlar smetasida suv-dan foydalanuvchilar uyushmasining moddiy-texnika bazasini shakllantirish uchun mablag' ajratish ko'zda tutilmagan. SFUlar xizmat ko'rsatayotgan 121 ta fermer xo'jaliklariida sug'oriladigan yer maydoni 2649 hektarni tashkil etadi. Shundan har bir gektarga 2850 so'm suvdan foydalanganlik uchun haq to'lash ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, o'tkazilgan tahlil natijalari va Respublika dehqon fermer xo'jaliklari uyushmasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Respublikamizning Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida tashkil etilgan ayrim Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari nomigagina faoliyat ko'rsatmoqda. Moddiy-texnika bazasi va mablag'iga ega bo'lmagan suvdan foydalanuvchilar uyushmalari ilg'or tajri-balarni, resurslarni, texnika va texnologiyalarini joriy qilish hamda a'sosiy vo-sitalarni yangilash kabi ishlarni olib borishlari kerak.

### **3.6. SFUdan foydalanishdagi iqtisodiy munosabatlar**

Butun dunyoda bo‘lganidek, mamlakatimizda ham suv resurslariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Shu sababli, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanishga hukumatimiz tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Suv xo‘jaligini boshqarish tizimida ham islohotlar amalga oshirildi. Mavjud suv resurslaridan foydalanish Havza boshqaruv tizimiga o’tkazildi. Qishloq xo‘jalik korxonalarida suvdan foydalanish tizimi Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU) orqali amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi.

SFUdan foydalanish tizimining yo‘lga qo‘yilishi 2000-yildan boshlab Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari bilan past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan shirkat xo‘jaliklari tarqatilib, fermer xo‘jaliklariga aylantirish jarayonida tashkil etila boshlandi. Fermer xo‘jaliklarini suv bilan ta’minlashda asosiy korxona SFUlar hisoblanadi.



*2-rasm. SFUning tashkiliy tuzilmasi*

SFUlar nima? Ular bugungi kunda qanday vazifalarni bajaradi va uning boshqaruv tizimi qanday tartibda amalga oshiriladi?

Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU) bir yoki undan ortiq suvdan foydalanuvchilarning xohish istagi bilan tuziladigan nodavlat-notijorat tashkilotdir. SFUga qishloq xo‘jaligida shirkat, fermer va dehqon xo‘jaliklari ki-rib, ularga beriladigan suvlarni adolatli taqsimlab, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini, magistral kanallar va suv yo‘llarini ta‘mirlash uchun taqsimlash va undan o‘z vaqtida foydalanishdan iboratdir.

SFU a’zoligiga yerga egalik huquqini qo‘lga kiritgan yuridik yoki jismoniy shaxslar kiradi.

Uyushma a’zolarining bevosita o‘zлари yoki ularning vakillari SFU faoliyatini demokratik tamoyillar va uning Nizomi asosida boshqaradilar. SFU-ning boshqaruva tashkiliy tuzilmasi quyida aks ettirilgan.

SFUning oliv boshqaruva organi umumiy yig‘ilish qarori bo‘lib, unda barcha uyushma a’zolari yoki suvdan foydalanuvchilar vakillari qatnashadi. Ularning har biri bir ovozga ega hisoblanadi. Umumiy yig‘ilish vakolatiga SFU faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan ichki hujjatlarni tasdiqlash, ishchi va xizmatchilarning ish haqlarini belgilash, badal to‘lovlarini hamda joriy va uzoq muddatli ish rejalarini tasdiqlash kiradi.

Umumi yig‘ilishda kengash va taftish komissiyasining hisobotlari eshitiladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

SFU kengash a’zolari esa \_\_\_\_\_ kishi (jamoatchilik) asosida (ish haqisiz) faoliyat yuritadi va har oyda o‘z yig‘ilishlarini o‘tkazadi.

Taftish komissiyasi Uyushma va kengashning moliyaviy hamda xo‘jalik faoliyatini (tahlii) nazorat qiladi va bu to‘g‘risida umumiy yig‘ilishga hisobot beradi.

Ijro organi va boshqaruvchi SFUning kundalik faoliyatini amalga oshiradi. SFUning moliyaviy manbalari, uyushma a’zolarining badallari, shartnomalar asosida ko‘rsatilgan boshqa xizmatlar uchun to‘lovlardan tashkil topadi.

Fermer xo‘jaliklari uchun suvdan foydalanish limitlari vakolatli organlar tomonidan belgilanadi.

Fermer xo‘jaligi quyidagi huquqlarga ega:

- berilgan yer uchastkasida o‘z ustavida nazarda tutilgan ixtisoslashuvga va ijara ga olish shartnomasiga muvofiq fermer xo‘jaligining ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish;

- ixtisoslashuvni hisobga olgan holda va tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirishni amalga oshirish;

- xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to‘lanadigan fyuchers kontraktlari tuzish;

- yetishtirgan mahsulotini, shu jumladan, bu mahsulotni iste’molchilarga realizatsiya qilish huquqini o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etish;

- yetishtirayotgan mahsuloti, bajarayotgan ishlari va ko‘rsatayotgan xizmatlariga narx belgilash;

- elektr energiyasi, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari yetkazib berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi yuzasidan shartnomalar tuzish;
  - tadbirdorlik faoliyatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan, cheklanmagan miqdorda daromad olish;
  - olgan daromadlarni, bank muassasasidagi o'zining hisob varaqlarida bo'lgan pul mablag'larini tasarruf etish;
    - aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni olish;
    - kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'lari hamda mol-mulklarini shartnoma asosida jalb etish hamda ularni ishlab chiqarishga va takror ishlab chiqarishga yo'naltirilish;
    - kreditlar olish uchun o'z mol-mulkini, shuningdek, yer uchastkasini ijara olish huquqini garovga qo'yish;
    - kichik hamda xususiy korxonalar uchun berilgan imtiyozlar va preferensiyalarning barcha turlaridan foydalanish;
    - zarur asbob-uskunalar, ishlab chiqarish vositalari hamda boshqa mol-mulkni olish, ijara olish, binolar va inshootlar qurish hamda ularni ta'mirlash;
    - o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish.
- Fermer xo'jaligi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **3.7 Dehqonchilikda sug'orish usullari va ilg'or texnologiyalar**

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarning III bosqichi davom ettirilmoqda. Qishloq xo'jalik korxonalarining qayta tuzilishi jarayoni intensiv ravishda amalga oshirilmoqda. Istiqbolsiz shirkat xo'jaliklari asosida fermer xo'jaliklari tashkil etilmoqda. 2005-yilda fermer xo'jaliklari soni 140 mingga yetdi. Ushbu fermer xo'jaliklarini suv bilan muntazam ta'minlashda 268 ta SFUlar tashkil etildi. Ikkinchidan, suv resurslarini boshqarish gidrografik asosda o'tkazildi. Uchinchidan, qishloq xo'jalik obyektlarini, inshootlarini modernizatsiya qilishni amalga oshirishga kirishildi. Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda sug'orishning quyidagi usullari, turlari mayjud:

1. Yer ustidan, yuzasidan sug'orish.
2. Yomg'irlatib sug'orish.
3. Tuproq ostidan, ichidan sug'orish.
4. Tomchilatib sug'orish.
5. Purkab, mayda dispersli, aerozol, tumanlatib sug'orish.

Sug'orish usuli sug'orish tartibiga, mehnat unumdorligiga, yerning meliorativ holatiga, tekislash ishlariga, suv tarmoqlari joylashishiga, konstruk-siyasiga, qurilish va ekspluatatsiya xarajatlariga, mahsulot unumdorligiga ta'sir qiladi. Uning turini to'g'ri tanlash qishloq xo'jalik ekinlari hosilini va mahsuldorligini belgilaydi.

Sug'orish usuli va turini belgilashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

**1. Tabiiy sharoitlar** (maydon relyefi, tuproq qalinligi, unumdorligi, suv sig'imi, suv o'tkazuvchanligi, svuga ta'siri, tuz miqdori, sifati va boshqalar, tabiiy namlanganlik, shamol tezligi va yo'nalishi, tuproq va havo, suv tanqisligi va bug'lanish maydonining zovurlanganligi, grunt suvlarining chuqurligi va mineralizatsiya, suv manbayi turi va rejimi, massivning suv bilan ta'minlanganligi va boshqalar).

**2. Xo'jalik sharoitlari** – mehnat resurslari, dala ishlarini mexanizatsiyalash darajasi, qurilish, elektr energiya, sug'orish mexanizmlari mavjudligi.

**3. Dehqonchilik tizimi** – qishloq xo'jalik ekinlari tarkibi, almashlab ekish, agrotexnik tadbirlari.

**4. Ekinlarning sug'orish tartibi** – ekinning talabi bo'yicha sug'orishlar.

**5. Sug'orishning iqtisodiy afzalliliklari** – kapital va ekspluatatsion xarajatlar, hosil, foyda, qoplash muddati.

**6. Tuproqda suv eroziyasiga yo'l qo'ymaslik** – sug'orishning tuproq va suvning fizik, ximik, mikrobiologik xossalariiga ta'siri.

**7. Sug'orishning yuksak unumdortligi** – mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish dala ishlarini maksimal mexanizatsiyalash va boshqalar. Sug'orish texnikasi, sug'orishni o'tkazish texnologiyasi parametrlari (egat, pol uzunligi, oralig'i, suv sarflari. Yomg'ir uchish uzunligi va boshqalar). Sug'oruvchi texnika, sug'orish o'tkazish uchun texnik moslamalar (mashinalar, mexanizmlar, qurollar va boshqalar).

Hozir har xil sug'orish turiga almashadiragan moslamalar, mashinalar ham yaratilmoqda. Sug'orish usullari qo'llashning asosiy maqsadlari va qo'llanish shart-sharoitlari yuqorida jadvalda keltirilgan.

Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish har bir ekin turi bo'yicha ishlab chiqilgan texnologik karta asosida va tuman hokimi tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida olib boriladi. Tog'li hududlarda sug'orish me'yorlari cho'l va yaylov yerlariga nisbatan kam belgilanadi. Lekin ob-havoning noqulay kelishi sababli sug'orish me'yorlari talabdan ortiqcha berilishi mumkin.

3.7.1-jadval.

### Sug'orish usullarini qo'llashning asosiy maqsadlari:

Sug'orish usullari	Tuproqni namlash	Havoni namlash	Tuproqda nam yig'ish	Sho'r yuvish	Tuproq yemirilishining oldini olish	O'g'it berish	Chiqindi suv bilan sug'orish	O'simlikni namlash	Begona o'tlarni oldindan o'ladirish (provokatsiya)
Yer ustidan	Q	-	Q	Q	-	x	x	-	Q
Yomg'irlatib	Q	Q	x	-	X	x	x	Q	Q
Tuproq ichidan	Q	-	Q	--	Q	Q	Q	-	-
Tomchilatib	Q	-	x	-	Q	Q	-	-	-
Subirrigatsiya	Q	-	Q	-	Q	-	-	-	-
Tuman hosil qilib	x	Q	-	-	Q	x	-	Q	X

Eslatma: «Q» - mumkin. «-» - mumkin emas. «x» - qisman mumkin.

3.7.2-jadval.

### Noqulay tabiiy sharoitlarda sug'orish usullari va undan foydalanish.

Sug'orish usullari	Sho'r tuproqlarda	Yengil qumyoq tuproqlarda	Og'ir tuproqlarda	Murakkab yer tuzilishiда	Katta nishablikda	Sho'r sizot suvi yaqin joylashganda	Sav zaxiralari yetishmaganda	Sho'r suv bilan sug'organda	Kuchli shamolda
Yer ustidan	Q	x	Q	x	x	x	x	x	Q
Yomg'irlatib	-	Q	x	Q	Q	Q	Q	-	x
Tuproq ichidan	-	x	x	x	Q	-	Q	-	Q
Tomchilatib	-	x	Q	Q	Q	-	Q	-	Q
Subirrigatsiya	-	x	Q	-	-	-	-	-	Q
Tuman hosil qilib	Q	Q	Q	Q	Q	Q	Q	-	Q

Ekiladigan qishloq xo'jalik ekinlarining turi yoppasiga ekiladigan ekinlarga va qatorlab ekiladigan ekinlarga bo'linib, ularning har qaysisi o'ziga mos sug'orish va suv berish usullarini talab qiladi. Sug'orish texnikasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- *talab qilinadigan sug'orish rejimini minimal suv xarajati bilan amalgamoshirishga, tuproqning zarur namligini yaratishga;*
- *sug'orish tizimining yuqori foydali ish koeffitsiyenti bilan ishlashga;*
- *tuproqning chuqur qatlamlariga suvni bekor filtratsiya bo'lmasligiga, bug'lanishga va tashlashga;*
- *yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga sug'orish, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga, dala ishlarini mexanizatsiyalashtirishga xalaqit bermaslikka;*
- *tuproq hosildorligini oshirishga, tuproqning g'ovaklik tuzilishini ta'minlashga;*
- *eroziyaning bo'lmasligiga.*

O'rta osiyo ilmiy-tadqiqotlar o'simlikchilik instituti (O' OITO'I) olimlari tomonidan Toshkent viloyati Parkent tumanining katta nishablikli yerlarda (0,09 – 0,11) jo'yaklar bo'yicha qishki bug'doy, makkajo'xori, qovunni sug'orish, T-9 polimeri bilan ishlangan egatlar, qishki bug'doy va makkajo'xorini sug'orish, polietilen shlanglar bilan qishki bug'doy, makkajo'xorini sug'orish, PPL-50-yig'ma ko'chuvchan polietilen lotoklar, kartoshka, qishki bug'doyni sug'orish, konturli egatlar bilan qishki bug'doy, makkajo'xorini sug'orish, teshikli polietilen plyonkalar bilan ekranlashtirilgan egatlarda paxta, makkajo'xori va lavlagini sug'orish sinab ko'rilgan va bu tajribalarda 900 m<sup>3</sup>/ga suvni tejashga, tuproq irrigatsion eroziyasini bartaraf etishga, hosildorlik-ning 1,5-2,0 barobar oshishiga, suvchilar mehnat unumdorligining 2 – 2,5 marta oshishiga erishilgan.

Uzumzorlarni va poliz ekinlarini (qovun, tarvuz, pomidor, patison, kartoshka, bodring, bulg'or qalampiri) katta nishablikli yerlarda (0,1 – 0,15) tomchilatib va tomchi-naycha usulida sug'orish texnologiyasini qo'llash natijasida 40-60% suvni tejashga erishilgan.

Sug'orishda marginal (kollektor-tashlama) suvlarini ishlatish natijasida kartoshka, makkajo'xori, olmadan yuqori hosil olingan Sirdaryo viloyati, SH. Rashidov tumani fermer xo'jaliklarida «Bayinlix» (Germaniya) yomg'irlatish mashinasи bilan g'o'zani sug'orishda ikki marta suv tejalishiga erishilgan. Farg'ona viloyati, Beshariq tumani «Do'stlik» fermer xo'jaligida o'rmon qatorlarini (qayrag'och, terak, lox, tol, tut, anjir, anor), zovur tashlama suvlari bilan sug'orish mumkinligi sinalgan.

Toshkent viloyati. Parkent tumanida polietilen plynoka bilan qoplangan egat orqali sug'orish texnologiyasi yaxshi natija beryapti. Bunda irrigatsion eroziyani bartaraf etish, bug'lanuvchi suvning kamayishi, tuproqning biologik aktivligi, hosildorlik oshishi kuzatilgan. O'zbekiston Respublikasi Paxtachilik ilmiy-teknichirish instituti (O'zPITI) markaziy tajriba bazasida paxtani almashlab ekish, ekinlarni kompleks tomchilab sug'orish sinab ko'rilgan va g'o'zadan 5-6 s/ga, makkadan 5 s/ga va 30-35% suv tejalgan. Shuningdek, yoppasiga ekiladigan ekinlarni ham tomchilatib sug'orish mumkinligi aniqlangan.

Xorazm viloyati yerlarida tejamkor sug'orish texnologiyalarini qo'llashda quyidagi natijalarga erishilgan:

- tomchilatib sug'orishda 45-50% suv tejalgan, g'o'za hosildorligi 38,1 s/ga oshgan;
- tuproq ichidan sug'orishda  $1660 \text{ m}^3/\text{ga}$  (30%) suv tejalgan, g'o'za hosildorligi 39,3 s/ga ortgan;
- egatni qarama-qarshi sug'orishda  $2775 \text{ m}^3/\text{ga}$  (48%) suv tejalgan, g'o'za hosildorligi 376 s/ga oshgan;
- diskret impulsli  $2735 \text{ m}^3/\text{ga}$  (48,8%) suv tejalgan, hosildorlik 34,9 s/ga oshgan;
- KD suvlari ariq suvi bilan sug'orishda  $2020 \text{ m}^3/\text{ga}$  (36 %), hosildorlik 27,8 s/ga ortgan.

Hozirgi davrda dalani sug'orishda suvning bug'lanishiga, filtratsiyaga va isrofgarchilikni kamaytirish uchun egat oralab sug'orish texnologiyasi suvni tejashta imkon beradi.

Tomchilatib sug'orishni qo'llash quyidagi masalalarni yechishni talab qiladi:

- *texnologik jihatdan fermer xo'jaliklari uchun (10-100ga) tomchilatib sug'orishning oddiy tizimlarini yaratish va ishlab chiqish;*
- *iqitisodiy jihatdan suvni tejash hisobiga suvchilarning mehnat haqini oshi-rish;*
- *tashkiliy jihatdan servis xizmatini, ehtiyyot qismlarni yaxshilash, kadrlar malakasini oshirish zarur.*

Katta nishablikli yerlarda egatda (O'zPITI) polietilen plynoka (1-10 sm oraliqda, 6-8 mm teshilgan) ekranli sug'orishni qo'llash natijasida sug'orish normasi  $4510 \text{ m}^3/\text{ga}$  teng bo'lган, bug'lanish kamaygan va mikrobiologik jarayon yaxshilangan, egatlab sug'orishda  $5840 \text{ m}^3/\text{gani}$  tashkil etgan. G'o'za hosildorligi 57,8 s/ga, egatlab sug'orishda 38,6 s/ga bo'lган. Magnitlangan suv bilan tomchilatib sug'orish esa, g'o'za hosilining 3-4 s/ga, makkajo'xori donining 2-4 s/ga oshishiga olib kelgan.

---

### ***Qisqacha xulosalar***

**O'**zbekistonning barcha yerlari 447,4 mln. hektar bo'lib, shundan 3-3,5 mln. hektari haydaladigan va lalmi yerkardir. Yer davlat mulki bo'lib, undan davlat tomonidan qabul qilingan «Yer» kodeksi va «Yer kadastr» to'g'risidagi qonunlarda belgilangan tartibda foydalaniladi. Yer fondidan foydalanishda fermerlarning haq-huquqlari, ularga yer uchastkalari berish tartibi, yerni iqtisodiy baholash va uning monitoringi ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda suv resurslari miqdori, suv bilan ta'minlanish manbalari berilgan bo'lib, suvdan samarali foydalanishda SFUlarini tashkil etish yuqori samara berishi asoslangan. Fermer xo'jaliklarini suv bilan ta'minlashda SFUlar o'rtaqidagi munosabatlari ishlab chiqilgan.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. O'zbekistonda yer fondidan foydalanish yo'llari va xususiyatlarini aytинг.
2. Tuproq unumдорлигини ошириш тадбирлари нималардан иборат?
3. Yerni iqtisodiy baholash ko'rsatkichlari va monitoring tushunchasini izohlang.
4. Suv resurslaridan foydalanish va SFUllarning tashkiliy asoslari deganda nima tushuniladi?
5. Sug'orish usullari va ilg'or texnologiyalarni aytib bering.

**4.1. Mehnat resurslari va undan foydalanish**

**K**ishilarning mehnat qilish qobiliyati, ularda bo'lgan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar yig'indisi ish kuchi deyiladi. Ish kuchi odamning mehnat qobiliyati bo'lib, har qanday jamiyatda va ishlab chiqarish sharoitlarida turlicha faoliyat ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligida mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolar mehnat resurslari deb ataladi. Ularning huquqiy asoslari Respublika Oliy Majlisи tomonidan qabul qilingan «Mehnat kodeksi»da (1996), «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi (1998) Qonunlarda batafsil ko'rsatilgan. Mehnat resurslari 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 55 yoshgacha bo'lgan ayollar hisoblanadi. Shu bilan birga, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'smirlar va nafaqaxo'rlar ham mehnat resurslari sanaladi.

Qishloq xo'jaligida fan texnika va chet el texnologiyalari natijasida oddiy mehnat murakkab mehnatga, qishloq xo'jalik mehnati esa intellektual mehnat turiga aylanib borishi kerak. Bu esa bozor talabi bo'yicha qishloqda mehnat resurslarining malakasini oshirishni talab etadi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi Oliy o'quv yurtlari, kollej va ixtisoslashgan mutaxassislik kurslari faoliyat ko'rsatib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan malakali kadrlar tayyorlab bormoqda. Kadrlar tayyorlash tadbirlarining asosiy maqsadi qishloq xo'jaligini yana sanoat usulida rivojlantirib, mexanizatsiyalash darajasini oshirishdir.

*Mehnat resurslari balansi – mehnat resurslari sonining rejalahtirilgan, bajariladigan ishlar uchun uning bajarilgan ishiga to'g'ri kelishidir.*

Mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasini mayjud resurslarning yillik ish vaqtি fondini, ishlab chiqarishning ish kuchiga bo'lgan talabiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Xo'jalikning ish kuchiga bo'lgan talabi, texnologik karta bo'yicha bajariladigan ish hajmiga qarab aniqlanadi. Qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlar kishi-kuni, kishi-soati hisobida belgilanadi. O'zbekiston sharoitida yilning 282 kuni davomida dehqonchilik ishlarini bajarish mumkin. Ishlovchining yillik ish vaqtি fondini aniqlash uchun yilning ishga yaroqli kunidan dam olish (52 kun), bayram (19 kun) ta'til kunlarini chiqarib tashlash kerak. Bu 282-52-19 kunni tashkil etadi.

## **4.2. Fermer xo'jaliklari mehnat resurslaridan foydalanish**

Fermer xo'jaliklari oilaviy xo'jaliklar bo'lganligi sababli, ularda mehnat qilayotganlarning aksariyati oila a'zolari hisoblanadi. «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, fermer xo'jaliklari boshlig'i 18 yoshga to'lgan, tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo'lgan, muomalaga layoqatlari, mazkur xo'jalik a'zolaridan biri bo'lishi mumkin. Xo'jalik faoliyatini yuritishda fermer qo'shimcha ish kuchini jalgan etib, shartnoma asosida ishlaydigan ishchilar mehnatiga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidagi oz bo'limgan miqdorda, taraflarning kelishuviga binoan, pul va natura shaklida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, yollanma ishchilar fermer xo'jaligi roziligi bilan pul yoki boshqa xil ulushni kiritishga ham qo'shgan ulushiga munosib ravishda xo'jalik daromadi (foyda) taqsimotida qatnashishi mumkin.

Fermer xo'jaligi a'zolari hamda shartnoma asosida ishlayotgan ishlovchilar Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi huzuridagi «Nafaqa» jamg'armasiga badallar to'lagan taqdirda, mehnat daftarchasi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan holda, ularning ish vaqtini mehnat stajiga qo'shiladi va pirovard natijada nafaqa olishlari mumkin.

✓ Respublika qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklari ulushi ortishi munosabati bilan fermer xo'jaliklarda mehnatga qobiliyatli qishloq aholisining salmog'i ortib borish imkoniyati kengaymoqda. Masalan, fermer xo'jaliklar soni 2003-yil 87552 ta bo'lgan bo'lsa, 2006-yilga kelib 189,2 mingtaga yetdi, ishlovchilar soni 603,0 ming kishidan 1381,1 ming kishiga, o'rtacha bitta fermer xo'jaligida 6-7 kishiri tashkil etmoqda.

Insonning jismoniy va aqliy faoliyatini mehnat hisoblanadi. Mehnat ongli faoliyat natijasidir. Ishlab chiqarishning samaradorligi ko'p jihatdan mehnatning holatiga bog'liq. Agarda qilinayotgan mehnat rozilik bilan, katta qoniqish bilan bajarilayotgan bo'lsa, uning unumдорligi ham yuqori bo'ladi. Har bir mamlakat aholisining mehnat qilish qobiliyatiga ega qismi, uning mehnat resurslarini tashkil etadi. O'zbekiston aholisining 40% ga yaqini mehnat qilish qibiliyatiga ega.

Qishloq xo'jaligi korxonalarini mehnat resurslari asosiy va yordamchi guruhlarga bo'linadi. Asosiy mehnat resurslariga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar kiradi. Yordamchi mehnat resurslariga 14-16 yoshdagagi o'smirlar va nafaqa yoshidagi ayol va erkaklar kiradi. Ulardan, asosan, qishloq xo'jaligi mavsumiy davrlarida foydalaniлади.

Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan foydalanishning darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi: har bir ishchi xodimning bir yilda ishlagan

kunlari. Odatda, erkaklar bir yilda 280 kun, ayollar 240 kun ishlaydilar. Ishlagan kishi kunlaridan foydalanish koeffitsiyentini ishlagan kunlarni me'yor bo'yicha ishlashi lozim bo'lgan yillik ish kunlari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi. Xo'jalikning mehnat resurslari holatini o'rganish uchun mehnat resurslari balansi tuziladi. Mehnat resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi yil davomida bir ishchi xodim hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdori bilan aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi iqtisodiy kategoriya bo'lib, konkret sarflangan mehnatning natiyjaviyligi yoki samaradorligidir. Mehnat unumdorligini vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori deb ham biladilar.

#### 4.2.1-jadval.

#### **Qishloq xo'jalik korxonalarining kunlik mehnatga haq to'lash tarif stavkalari (2003y.)**

	Toifalar					
	I	II	III	IV	V	VI
Traktorchi-mashinistlar:						
Mahsulotlar uchun hisoblanadigan baholar:						
I guruh	496-04	545-80	600-71	660-34	723-37	789-38
II guruh (Qoraqalpog'iston Respublikasi) mahsulot olguncha avans hisobida	604-74	665-40	732-35	805-04	881-89	962-36
I guruh	462-83	509-26	560-49	616-13	674-94	736-53
II guruh (Qoraqalpog'iston Respublikasi)						
Chorvachilikda hamda qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlarda:	563-76	620-32	682-72	750-49	822-13	897-15
Mahsulotlar uchun hisoblanadigan baholar	461-53	507-83	558-93	614-40	673-05	734-47
Mahsulot olguncha avans hisobida	431-34	474-61	522-36	574-21	629-02	686-42

Chorvachilikda hamda qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlarda mahsulot olguncha avans hisoblanganda kunlik tarif stavkalar ishchilar uchun belgilangan toifalar bo'yicha stavka miqdorini 25,4 kunga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, boshqa turdag'i ishlarda kunlik tarif stavkalarini aniqlashda, bu miqdor tarmoq koeffitsiyentlariga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi.

Masalan: 2003-yil 1-maydan V-toifali traktorchi – mashinistlar mahsulot uchun o'nlik tarif stavka miqdori viloyatlarda 15977: 25104x1,15 t 723-37 so'm, Qoraqalpog'iston Respublikasida 15977: 25104x1,402k 881-89 so'mni tashkil etadi.

Fermer xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanishda, avvalo, ishchining unumsiz ishlashiga yo'l qo'ymaslik, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ish va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash, ish haqini o'z vaqtida ta'minlash, moddiy va ma'naviy qiziquvchanligini oshirish va har bir ishlovchini pirovard natijaga bog'lagan holda fikrini o'zgartirish, musobaqa va rag'batlantirishni yaxshi yo'lga qo'yishdan iborat.

Ish haqni to'lash ishbay va vaqtbay asosida bo'lib, ishbay usulida 6 toifali tarif stavkasidan foydalaniлади. Fermer xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan traktorchi-mashinistlarga yuqoridaagi tarif stavkasi bo'yicha ish haqi beriladi.

Fermer xo'jaligi rahbari mehnat haqi fondini yil boshida ekin ekiladigan maydonlarning texnologik kartasi asosida hisoblab, mehnat resurslariga beriladigan ish haqini rejashtiradi. Fermer ish haqini to'lash tartibini ishchi bilan kelishilgan holda oylik maoshning hammasini yoki bir qismmini hosil yig'ishtirilgandan so'ng berishi ham mumkin. Fermer ish haqining foydadan soliq to'lovlarini chegirib qolingga qismini to'lab berish majburiyatini oladi. Har bir ishchi bilan mehnat shartnomasi tuzilganda fermer faoliyatiga va mulkiga zarar keltirmaslik hamda xavfsizlik, tijorat sirlarini sotmaslik, har bir so'mlik xarajat uchun kurashish ishlari kelishib olinadi.

#### **4.3. Mehnat resurslari bozori va mehnat unumdarligi**

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida aholining salmoqli qismi mehnatga yaroqli bo'lib, uning asosiy qismi qishloq xo'jalik korxonalarida faoliyat ko'rsatmoqda. Shuning uchun ishchi kuchi qishloq xo'jaligida juda arzon bo'lib, mahsulot tan-narxi tarkibida ish haqi 35-40 %ni tashkil etadi. Yetishtirilgan mahsulot hajmi va xaridorlar ham kamayib bormoqda. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligidagi ishchining ishga bo'lган munosabati va moddiy manfaatdorligi keskin kamayib bormoqda. Chunki yetishtirilgan mahsulot, birinchidan, yuqori bahoda sotilishi ta'minlanmay kelgan bo'lsa, ikkinchidan, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish pastligi, mehnatga yaroqli ishchilar-ning keskin ortib borishi tufayli, ishchining moddiy qiziquvchanligi kamayib, ishsizlar soni oshib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Kooperativ shirkat xo'jaliklari o'rniда fermer xo'jaliklari tashkil qilinishi sababli, qishloq xo'jaligida ko'plab mehnat resurslari bo'shatilib, ishchi o'rinalar kamayib bormoqda. Bu yo'l bilan qishloq aholisini sanoat korxonalarida ishlashga va ushbu sanoatni qishloqqa kiritishga manba yaratilmoqda. Qishloq xo'jalidan mehnat resurslarini ish bilan muntazam ravishda ta'minlash uchun tumanda, viloyat va respublika miqyosida mehnat bozorlari faoliyat ko'rsatmoqda. Mehnat bozorining asosiy maqsadi aholini ish bilan ta'minlash bo'lib, aholining malakasi, mutaxassisligi, ma'lumoti va ishbilarmonligiga qarab, uni u yoki bu hududlarda ishga joylashtirishdan iborat. Mehnat bozorlariga har bir ishsiz fuqaro o'z arizasi bilan murojaat qilib, bo'sh o'rnlarga qabul qilinadi. Mehnat bozorini shakkantirish, avvalo, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini bir tekis rovijlantirishdan iboratdir. Mehnat bozori har bir fuqaroning taklifiga asosan, ish bilan ta'minlaydi.

Fermer xo'jaligida mehnat unumdorligi bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi yalpi mahsulotning uni ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqtiga (kishi-soat) nisbati bilan aniqlanadi. Bu mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi bo'lib, u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Mu = \frac{YaM}{X};$$

**Bunda:**

*Mu – mehnat unumdorligi;*

*YaM – yalpi mahsulot (ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori);*

*X – yalpi mahsulotni yetishtirish uchun sarflangan ish vaqt (kishi-soat).*

Bu ko'rsatkich yalpi mahsulot ko'lami qancha ko'p bo'lsa va uni yetishtirish uchun sarflangan ish vaqt qancha kam bo'lsa, mehnat unumdorligining shuncha yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligida, ko'pincha, mahsulotlar bir yilda bir marta ishlab chiqariladi. Shuning uchun mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichlar: vaqt hisobiga bajarilgan qishloq xo'jalik ishi hajmi, bir gektar qishloq xo'jalik ekinini ishlash uchun sarflangan mehnat, bir bosh qoramol boqish uchun sarflangan mehnat kabi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi.

Mehnat unumdorligining o'zgarishi va uning darajasini aniqlashda natural va qiymat ko'rsatkichlaridan ham foydalilanadi. Agarda mehnat unumdorligi o'simlikchilik yoki chorvachilik bo'yicha aniqlanadigan bo'lsa, natural ko'rsatkich o'rniда qiymat ko'rsatkichidan foydalilanadi. Barcha yetishtirilgan mahsulotlar qiymat ko'rinishida bo'ladi.

#### **4.4. Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy masalalarini hal qilishning asosiy omillaridan biri mehnat unumdorligini oshirish hamda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini har tomonlama yuksaltirishga erishishdan iborat.

Ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishda ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi va ishlab chiqarish munosabatlarning xarakteriga bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish faoliyatining natijalari mujassamlashgan.

Fermerning mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar: 1) moddiy-teknika omillari (texnika jarayoni, tabiat resurslarining xarakteri, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, avtomatlashtirish va boshqalar); 2) shaxsiy omillar; (xodimlarning ixtisosligi, malakasi, tadbirkorligi); 3) ijtimoiy mehnatning qanday tashkil qilinganligini ko'rsatuvchi omillar (ixtisoslashtirish, kooperatsiyaslashtirish, ishlab chiqarishni kombinatsiyaslashtirish, korxonalarda mehnatni bozor sharoitlarida shakllantirish); 4) tabiiy omillar (ob-havo sharoti, suv, issiqlik temperaturasi va boshqalar) gruppasiga bo'lish mumkin.

Fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirishda ishlab chiqarish fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or tajriba yutuqlarini hisobga olgan holda intensiv rivojlanadi.

Fermer ishlab chiqarishining fond va energiya bilan qurollanish darajasining orta borishi natijasida mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqtiga tejaladi, mehnat sarfi kamayib har bosh chorvadan olinadigan mahsulot miqdori, har gektar ekin maydonidan olinadigan hosil miqdori ortib, oqibatda mehnat unumdorligi oshadi. Fermer xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish omillaridan biri ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashga o'tishni tezlashtirishdir.

Tuproq unumdorligini muntazam oshira borish, ko'plab qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va sarflangan mehnat samaradorligini oshirishdir. Yerni muntazam ravishda mineral va organik o'g'it bilan o'g'itlash, sug'orilip dehqonchilik qilinadigan ekin maydonlarini kengaytirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yuqori hosil beradigan ekin navlari hamda hayvon zotlarini yaratish va ishlab chiqarishda keng ko'lamda foydalanish, fan-texnika va agrotexnika talablariga to'la rioya qilgan holda yerga ishlov berish va boshqa tadbirlar tuproq unumdorligi ortishiga, hosil ko'payishiga, mahsulot sifati yaxshilanishiga va oqibatda mehnat unumdorligi ortishiga olib keladi.

Chorvachilikda mehnat unumdorligining ortishi ko'p jihatdan mustahkam ozuqa bazasi yaratish va hayvonlarni ilmiy ratsion asosida boqishni tashkil etishga bog'liq. Mehnat unumdorligini oshirishda mehnat intizomini mustahkamlash ham muhim rol o'yaydi.

Mehnat intizomi buzilgan yerda ishlab chiqarishni yuksaltirish mumkin emas. Mehnat intizomini mustahkamlasdan turib, kunlik ish me'yordi o'z muddatida bajarilmaydi. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha hukumat tomonidan qabul qilingan qonunlarga o'zgartirish kiritilib, yollanma ishchilarini jalb qilish va ularga mehnat qonunchiligi bo'yicha haq to'lash tashkil etiladi.

Fermer xo'jaligida mehnat intensivligini oshirish katta ahamiyatga ega bo'lib, uning natijasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonida faqat jonli va buyumlashgan mehnatgina tejalib qolmasdan, vaqt sarfi ham qisqaradi. Mehnat intensivligining o'sishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi, ishlab chiqarish vositalaridan unumli foydalaniladi. Ish kundan unumli foydalanishga erishish mehnatni ilmiy asosda me'yorlashtirishga ko'p jihatdan bog'liq. Mehnatni ilmiy asosda me'yorlashtirish va me'yorlarni takomillashtirish faqat mehnat resurslaridan to'la va unumli foydalanishga emas, balki asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Fermer xo'jaligida mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida sarflanayotgan mehnatning unumdoorligi oshishini ta'minlash mumkin. Bu fermerlar ixtiyoridagi barcha mashinalar, traktorlarning ishga yaroqlilagini oshirish hamda ulardan yil davomida foydalanishga erishishdan iborat. Fermerlarni ishlab chiqarish resurslari, moliyaviy resurslar bilan ta'minlash orqali mehnat unumdoorligini oshirish hamda kadrlarning malakasini oshirib, ularni joy-joyiga qo'yish hamda iqtisodiy siyosatni ommaga to'g'ri tushuntirish ham ijobjiy rol o'ynaydi.

Fermer xo'jaligida mehnat unumdoorligini oshirish tabiiy sharoitlarga va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishga ham bog'liq.

### *Qisqacha xulosalar*

*R*еспубликада mavjud mehnat resurslari va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari berilgan bo'lib, fermer xo'jaliklarida yollanma ishchilarini yollash va undan foydalanish ko'rsatkichlari hamda mehnat bozorlari faoliyati, ishlovchilarini ish bilan ta'minlash, mehnat unumdoorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Mehnat resurslari haqida tushuncha bering.
2. Mehnat bozori faoliyatini tushuntiring.
3. Mehnat unumdoorligi tushunchasi va uni oshirish yo'llarini aytib bering.
4. Mehnat bozorlari faoliyatini qanday baholaysiz?
5. Yollanma ishchilarining haq-huquqlarini izohlang.

### 5.1. Fermerning mol-mulki va undan foydalanish yo'llari

Fermerning mol-mulki o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan va yer uchastkalaridan foydalanib faoliyat ko'rsatadi.

Fermerning mol-mulkiga: binolar, inshootlar, qishloq xo'jaligi ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar, chorva mollari, parrandalar, yetishtirilgan mahsuloti, qishloq xo'jalik texnikasi, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk obyektlari, shuningdek, fermerning xo'jaligining balansidagi boshqa mol-mulklar kiradi.

Fermerning xo'jaliklari mol-mulkining shakllanish manbalari quyidagilar:

xo'jalik a'zolarining pul va moddiy mablag'lari; mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, shuningdek, faoliyatining boshqa turlaridan olingan daromadlar; qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar; kreditlar; yuridik va jismoniy shaxslarning beg'araz xayriya va boshqa badallari, ehsonlari; qonunlarda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Fermerning xo'jaliklari zarur mol-mulkni va ishlab chiqarish vositalarini birjalarda, yarmarkalarda, bozorlarda yuridik va jismoniy shaxslardan sotib oladi.

Fermerning xo'jaliklarining mol-mulki miqdori cheklanmagan bo'lib, u davlat tomonidan himoya qilinadi. Fermerning xo'jaliklarining mol-mulki ularning a'zolariga umumiy, birlgiligidagi mulk hisoblanadi.

Fermerning xo'jaliklarining mol-mulkini ko'paytirish va undan samarali foydalanishning asosi tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan, o'z tavakkalchiligi va mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari qatoriga o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingan va tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan yuridik va jismoniy shaxslar kiradi. Fermerning va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan dehqon xo'jaliklari kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyati subyektlari hisoblanadi.

Fermerning xo'jaliklarining mol-mulklaridan samarali foydalanish yo'llariga:

- *mavjud texnika vositalaridan intensiv foydalanish;*
- *bino-inshootlarini o'z vaqtida ta'mirlab borish;*
- *texnika vositalarining yuk ko'tarish qobiliyatidan maksimal foydalanish;*
- *ot-arava transportidan foydalanish va boshqalar kiradi.*

## 5.2. Asosiy ishlab chiqarish fondlari

Fermer xo'jaligining moddiy-texnika resurslari hisoblangan yer, mashinatraktor, kombaynlar, kimiyoiy vositalar, yonilg'ilar, yem-xashaklar, urug'liklar va boshqa vositalarning qiymat holidagi ko'rinishi fermer xo'jaligining fondlarini tashkil etadi.

Asosiy vositalar iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, ishlab chiqarish jarayonida bir necha yillar davomida qatnashib, qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlariga, bajarilayotgan xizmatlarga yilma-yil qisman o'tkazib boradi. Asosiy vositalar – hozirgi davrda respublikada 15 (*Rossiya federetsiyasida -50*) minimal oylikdan yuqori qiymatga ega bo'lgan va 1 yildan ko'proq xizmat qiladigan ishlab chiqarish vositalariga aytildi. Ularga fermer xo'jaligi yerlari, mashinalar, traktorlar, binolar, inshootlar, transport vositalari, qurilmalar, dastgohlar, ishchi, mahsuldar hayvonlar, ko'p yillik mevali daraxtlar va boshqalar kiradi. Ularning shakllanishi ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish fondlariga bo'linadi. Ular ishlab chiqarish jaryonida bevosita va bilvosita qatna-shadiganlarga bo'linadi.

Ular ishlab chiqarish jarayonidagi funksional faoliyatiga ko'ra, mehnat predmetlari hamda mehnat vositalariga bo'linadi. Fermer xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda inson mehnati yordamida ishlab chiqish jarayonida bir marta qatnashib, o'z shaklini to'liq o'zgartiradigan predmetlar fermerning mehnat predmetlari deyiladi.

*Fermer xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni* – mehnat predmeti, ish kuchi va ishlab chiqarish vositalarining birligida harakatidan paydo bo'ladi. Ishchi kuchi deganda mehnatga yaroqli ishchilar tushinilsa, ishlab chiqarish vositalari pul va natura shaklida bo'ladi.. Xo'jalikda barcha ishlab chiqarish vositalari natura ko'rinishida va xo'jalik balansi hisobidagi pul ko'rinishida bo'ladi. Fermer xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari xizmat qilish muddatiga qarab asosiy va aylanma fondlarga bo'linadi.

*Asosiy ishlab chiqarish fondlari* – qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotga o'z qiymatini yilma-yil asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi mehnat vositalariga aytildi. Masalan: transport vositalari, imoratlar, mahsuldar mollar, ko'p yillik daraxtlar va boshqalar.

Asosiy ishlab chiqarish vositalari xilma-xil bo'lib, ular doimo harakatda bo'ladi, ya'ni mehnat vositalari ko'rinishidan, mahsulot ko'rinishidan pul firmasiga o'tib, pul, o'z navbatida yana mehnat vositalarini tiklash va ko'paytirish uchun xizmat qiladi. Bunday harakatga fondlarning aylanishi deyiladi.

Fermer xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyatida bir marta qatnashib, o'z xususiyatini yo'qotadigan vositalalar aylanma fondlar deyiladi (o'g'it, yonilg'i, yem-xashak va hokazolar).

Asosiy fondlar boshlang'ich, qoldiq va tiklash baholariga ega bo'lib, boshlang'ich qiymat asosiy fondlarni tashkil etishdagi haqiqiy sarflangan xarajatlar; qoldiq qiymat – asosiy fondlar qiymatidan yeyilgan qiymat chiqimi; tiklash qiymati – bu mulklarni sotib olib to'ldirish qiymatidir.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ikki xil: jismoniylari va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida eskiradi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarining mahsulotga o'tgan qiymatini pul formasida ajratish yo'li bilan to'planadigan qismiga amortizatsiya fondi deyiladi.

Asosiy vositalarning eskirishini ularning amaldagi eskirish me'yorlari yordamida aniqlash mumkin. ularning eskirish qiymati amortizatsiya summalarini deb ataladi. Asosiy vositalarning eskirish me'yorni belgilab beruvchi amortizatsiya me'yori asosida ularning eskirish qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$As = \frac{Abq}{An} \cdot 100 \quad \text{yoki} \quad \frac{Abq}{An};$$

**Bunda:**

*As – asosiy vositalarning amortizatsiya summasi (so'm);*

*Abq – asosiy vositalarning balans qiymati (so'm);*

*An – asosiy vositalarning eskirish me'yori (koeffitsiyentda, yilda).*

Amortizatsiya ajratmalarining me'yori asosiy fondlarni tiklash va kapital ta'mirlash uchun zarur bo'lgan summalarini hisoblash uchun xizmat qiladi.

Asosiy fondlardan foydalanilganlik uchun amortizatsiya ajratmalarini ajratiladi. Bu asosiy fondlardan yil mobaynida foydalaniladi.

### 5.3. Aylanma mablag'lar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari

Aylanma mablag'lar deb, bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z shaklini to'la yo'qotib, o'z qiymatini butunlay boshqa yangi mahsulotga o'tkazadigan mehnat buyumlariga aytildi. Masalan, urug'lik, o'g'it, yonilg'i, yem-xashak va hokazolar.

Aylanma fondlar ish jarayonida ikki xil bo‘lib, birinchidan, ishlab chiqarish jarayoniga hozircha qatnashmagan, uzlusiz ishlab chiqarishni ta’minlash uchun zaxira mehnat buyumlari; ikkinchidan, ishlab chiqarishda qatnashib, o‘z qiymatini yangi mahsulotga o‘tkazuvchi vositalardir.

Aylanma fondlar aylanishi qancha sekin bo‘lsa, ishlab chiqarish samaradorligi shuncha past bo‘ladi. Fermer xo‘jaliklari uzlusiz ishlashi uchun aylanma fondlari bilan bir qatorda muomala fondlariga ega bo‘lib, muomala fondlariga – realizatsiya qilishdan tushgan pullar, aylanma vositalarini sifatli ishlatish, tashish, saqlash uchun ketadigan xarajatlardan tashkil topadi. Aylanma fondi va muomala fondi birgalashib, fermer xo‘jaligining aylanma mablag‘ini tashkil etadi. Aylanma mablag‘ning 75-80 %’i aylanma fondni tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fondlarning balans qiymati har xil narxda baholanganligi tufayli, hozirgi balans bahoga to‘g‘ri kelmay qoladi. Shu maqsadda fondlarni qayta baholash fondlarning tiklash bahosiga qarab amalga oshirilmoqda. Bu baholash usuli rejalashtirilganligi, hisob-kitobni yaxshilash, samaradorlikni aniqlash, amortizatsiyani hisobga olish imkoniyatini beradi.

Aylanma fondlar(vositalar)dan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalilanadi.

Aylanma fondlarning aylanish koeffitsiyenti – xo‘jaliklardi aylanma fondlarning bir yil davomida aylanish tezligini ko‘rsatadi. Uning miqdori imkoniyat doirasida birdan yuqori bo‘lgani ma’qul. Shu ko‘rsatkichga asoslangan holda aylanma fondlarning aylanish muddati ham aniqlanadi. Bunda sotilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining, ko‘rsatilgan xizmatlarning, bajarilgan ishlarning umumiy qiymatiga, asosiy podaga o‘tkazilgan yosh hayvonlarning qiymatini qo‘shib, undan asosiy podadagi hayvonlarni sotishdan tushgan mablag‘ni ayirgandan so‘ng, qolgan qiymati. Aylanma fondlarni yillik o‘rtacha qoldiq summasiga taqsimlash lozim. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K = \frac{Sk + Ex_K - Xs}{XAF_{kk}};$$

**Bunda:**

*K – aylanma fondlarning aylanish koeffitsiyenti;*

*Sk – sotilgan qishloq xo‘jalik mahsuloti, bajarilgan ish va xizmatlarning qiymati (so‘m);*

*ExK – asosiy podaga o‘tkazilgan yosh hayvonlarning qiymati (so‘m);*

*Xs – asosiy podadagi hayvonlarni sotishdan tushgan tushum (so‘m);*

*XAF<sub>kk</sub> – aylanma fondlarning yillik o‘rtacha qoldiq qiymati (so‘m).*

Yil davomida aylanma fondlar(vositalar) aylanishining o'rtacha davri – bir yildagi kalendar kunlari umumiy sonining (365 yoki 366) aylanish koeffitsiyentiga taqsimlashdir:

$$Ad = \frac{365}{K};$$

**Bunda:**

*Ad – aylanma fondlarning aylanish muddati, kun.*

#### 5.4. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari

Fermer xo'jaligidagi mahsulot yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi asosiy fondlar bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Xo'jalikda asosiy vositalar yetarli bo'lmasa, mahsulot hajmi, mehnat unumidorligi pasayib, sarf-xarajatlar keskin oshib ketadi. Agar talab darajasidan ortiqcha bo'lsa ham, mahsulot tannarxining ortishiga olib keladi. Shuning uchun xo'jalikdagisi mavjud asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishda quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalaniлади: fond bilan ta'minlanish, fond bilan qurollanish, fond sig'imi, fond qaytimi, fond rentabelligi.

**1. Fond bilan ta'minlanish** – fondlarning qishloq xo'jalik ekin maydoniga nisbati bilan belgilanadi.

$$Ft = \frac{Af}{Yem};$$

**Bunda:**

*Ft – fond bilan ta'minlanganlik;*

*Af – asosiy fond;*

*Yem – yer maydoni.*

**2. Mehnatni fond bilan qurollantirish** – ishlab chiqarish fondlari qiymatini mehnatga qobiliyatli ishlovchilarning o'rtacha soniga nisbati bilan belgilanadi.

$$Fk = \frac{Af}{Is};$$

**Bunda:**

*Fk – fond bilan qurollanganlik;*

*Af – asosiy fond;*

*Is – yillik ishlovchilar soni.*

**3. Fond qaytimi** – yalpi mahsulot qiymatini asosiy fondlarning yillik o‘rtacha qiymatiga nisbati.

$$Fq = \frac{YaM}{Af};$$

**Bunda:**

*Fq – fond qaytimi;*

*YaM – yalpi mahsulot qiymati;*

*Af – asosiy fond.*

**4. Fond sig‘imi** – ishlab chiqarish fondlarining yalpi mahsulot qiymatiga nisbati.

$$Fs = \frac{Af}{YaM};$$

**Bunda:**

*Fs – fond sig‘imi;*

*YaM – yalpi mahsulot;*

*Af – asosiy fond*

**5. Fondlar bo‘yicha rentabillik** – sof foydani asosiy fondlarning yillik o‘rtacha qiymatiga bo‘lib, 100 ga ko‘paytmasidir.

$$P\phi = \frac{C\phi}{\Phi} \cdot 100;$$

**Bunda:**

*Rf – fond rentabelligi;*

*Sf – sof foyda;*

*F – asosiy ishlab chiqarish fondi.*

**6. Asosiy fondlarning qoplanish muddati** – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatining sof foydasiga nisbati

$$T = \frac{Af}{Sf};$$

**Bunda:**

*T – asosiy fondning qoplanish muddati, yil;*

*Sf – sof foyda.*

### *Qisqacha xulosalar*

*Fermerning mol-mulkiga o'ziga tegishli bo'lgan barcha asosiy vositalar kiradi. Asosiy vositalar o'z ishlatalish xususiyatiga qarab, asosiy ishlab chiqarish va aylanma fondlarga bo'linadi. Asosiy fondlarni ko'paytirish va undan samarali foydalanish, fondlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari va ulardan foydalanish, samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Fermerning mol-mulkini shakllantiruvchi pul mablag'lari, ulardan samarali foydalanish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.*

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Fermerning mol-mulkiga nimalar kiradi?
2. Asosiy fond tushunchasi va uning tarkibi nimadan iborat?
3. Asosiy ishlab chiqarish fondlari va undan foydalanish yo'llari.
4. Aylanma fondlar va ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini aytib bering.

## 6.1. Fermer xo‘jaligida moddiy-texnika resurslari tushunchasi va vazifasi

Fermer xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari deganda, fermerning mavjud barcha asosiy fondlari va xo‘jalik inventarlari tushuniladi. Fermer xo‘jaligida texnikalar yetarli miqdorda bo‘lmasa, qishloq xo‘jaligi ishlari, o‘z agrotexnik muddatlarida bajarilmaydi. Bu, o‘z navbatida, mahsulot ishlab chiqarish darajasining pasayishiga olib keladi. Demak, ishlab chiqarishda moddiy-texnika resurslarining ahamiyati katta.

Respublikada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida fermer xo‘jaligining moddiy-texnika bazasi keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bormoqda. Fermer xo‘jaligi ishlab chiqarishiga «Keys», «Magnum» kabi yuqori unumli texnikalar kirib kelmoqda. Fermer va dehqon xo‘jaliklari uchun mini texnikalar ishlab chiqarilmoqda. Fermerlarga texnikalar lizing kompaniyalari orqali berilmoqda (6.1.1.- jadvalga qarang).

Fermer xo‘jaliklarining moddiy-texnika bazasi mustahkam bo‘lsa, ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish yuqori bo‘ladi. Fermer xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari tabiiy va iqtisodiy resurslardan tashkil topadi. Tabiiy resurslar – yer, suv, o‘rmon, chorva hayvonlari, issiqqlik hamda yog‘ingarchilik miqdoridan tashkil topadi. Ularning asosiy qismi davlat tasarrufida bo‘lib, korxonalarga, fuqarolarga foydalanish uchun beriladi.

Iqtisodiy resurslarga moliyaviy hamda mehnat resurslari kiradi. Fermer xo‘jaligini ta’minlashda moddiy-texnika va moliyaviy resurslar mavjud.

**1. Moddiy-texnika resurslariga** – ishlab chiqarishning moddiy vositalari, binolar, inshootlar, mashinalar, traktorlar, kombaynlar, barcha turdagи kimyoviy vositalar, o‘g‘itlar, urug‘liklar, yem-xashaklar, yonilg‘i-moylash, qurilish va boshqa materiallar kiradi.

**2. Moliyaviy resurslariga** – davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar, xo‘jaliklarning joriy, valuta hisoblaridagi, g‘aznadagi pullari, amortizatsiya fondi, aksiyalardan olayotgan foydalari, bank kreditlari hamda ichki va tashqi investitsiyalarni amalga oshirish natijasida olayotgan mablag‘lar, ta’sischilar va boshqa manbalardan kelib tushayotgan mablag‘lar kiradi.

6.1.1-jadval.

Fermerlar tomonidan lizing asosida olingan texnikalar

Hududlar nomi	2004-yilda			2005-yilda		
	Traktor-lar soni	O'tim-yig'lm-kombayn-lari soni	Tirkama-lar (agregatlar) soni	Traktor-lar soni	O'tim-yig'lm-kombayn-lari soni	Tirkama-lar (agregatlar) soni
Qoraqalpog'siston Respublikasi	89			164		1
Andijon	21		23	64		41
Buxoro	158			244		
Jizzax	125		27	195		79
Qashqdaryo	145		19	131		52
Navoiy	68		15	62		17
Namangan	43		19	212		75
Samarqand	161		18	152		64
Surxondaryo	63		8	56		9
Sirdaryo	118	2	45	107		193
Toshkent	58		26	28		21
Farg'ona	47	21	17	102	62	38
Xorazm	26		3	50		5

Fermer xo'jaligining mablag'lari quyidagilar:

**1. Fermer xo'jaligining mablag'lariga** – mahsulot sotish, ish va xizmatlar bajarish natijasida olayotgan pul daromadlari, taqsimlanmagan foydadan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondidan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondi hisoblangan mablag', foydalanilmayotgan ayrim ishlab chiqarish vositalarini sotishdan, ijara berilayotgan vositalardan foydalanish natijasida va boshqa manbalardan olingan mablag'lar kiradi.

**2. Chetdan jalb etiladigan mablag'lar** – Irrigatsiya-melioratsiyaga, ekologiyaga hamda ijtimoiy sohalarga davlat budgetidan ajratilayotgan mablag'lar, davlat ehtiyojlari uchun sotib olinayotgan mahsulotlarga davlat hisobidan ajratiladigan transh mablag'lari, tijorat institutlarining kredit mablag'lari, investitsiyalar, homiylardan, hamkorlardan va boshqa manbalardan

jalb qilinadigan mablag'lar kiradi. Shunday tartibda shakllantirilgan moddiy-texnika resurslaridan fermerlar yil mobaynida to'liq va samarali foydalansa, barcha turdagi tadbirlar vaqtida, sisfatli amalga oshiriladi.

Tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi ta'minot korxonalarini fermer xo'jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan o'z vaqtida ta'minlab tursa, mahsulot hajmi ortadi va fermerning to'lov qobiliyati oshadi. Agar moddiy-texnika ta'minoti o'z vaqtida amalga oshirilmasa, avval fermer xo'jaligining ish faoliyatiga, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga, undan keladigan daromadga salbiy ta'sir etib, to'lov qobiliyatini yo'qotadi. Shuning uchun iste'molchi bilan ta'minotchi o'rtaasida tuzilgan shartnomalar o'z vaqtida samarali bajarilishini ta'minlash kerak.

#### *6.1.2-jadval.*

#### **Fermer xo'jaliklariga moddiy resurslar yetkazib berish ko'rsatkichlari tahlili (2005).**

Hududlar nomi	Mineral o'g'itlar			Dizel yonilg'isi		
	Shart-noma soni	Hajmi, tonna	Haqiqat-da olindi, tonna	Shart-noma soni	Hajmi, tonna	Haqiqat-da olindi, tonna
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7861	29102	31625	5453	37950,9	38055
Andijon	3664	14656	12508	3006	120024	12754,2
Buxoro	6778	35652,4	35114	6842	67875	67625
Jizzax	9665	29362	29335	10025	49563	48978
Qashqadaryo	13424	19730	19730	14862	58921	58921
Navoiy	3300	13874	11131	3167	10186	9328
Namangan	4997	29630	28753	4428	18818	16051
Samarqand	7786	28632	28621	7683	20541	20542
Surxondaryo	2375	32870	32811	2364	15143	14714
Sirdaryo	6753	44210	41480,6	7913	38643	42253
Toshkent	5227	20865	2576,1	5205	19920,7	15981,9
Farg'onha	6913	38837	33593	6081	26835	22426
Xorazm	7827	29814	32125	7777	25114	23422
<b>Jami</b>	<b>86570</b>	<b>367234,4</b>	<b>339402,7</b>	<b>84806</b>	<b>509534,6</b>	<b>391051,1</b>

Shartnoma bo'yicha mineral o'g'it va dizel yonilg'isi olingen bo'lib, shartnoma bo'yicha respublika fermer xo'jaliklariga 367,2 ming tonna o'g'it yetkazib berilishi kerak edi. Aslida 339,4 ming tonna yoki 27,8 ming tonna yetkazib berilmadi. O'g'it hisobiga hosilning uchdan bir qismi yaratilsa – haqiqatda ushbu hosil olinmay qoladi. Dizel yonilg'isi bo'yicha respublikadagi 125,7 ming fermer xo'jaligidan 84,8 mingta fermer ta'minot tashkiloti bilan shartnoma tuzgan. Shartnoma bo'yicha 509,5 ming tonna yonilg'i yetkazib berilishi kerak bo'lsa, haqiqatda 391,0 ming tonna yoki 118,5 ming tonna ta'minlab berilmadi. Xo'jalikning mahsulot ishlab chiqarish uchun moddiy resurslari yetarli bo'lmasa, mahsulot hajmi ham oshmaydi. Shuning uchun, ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tuzilgan shartnoma shartlarini bajarishlari kerak.

2005-yilda respublika bo'yicha fermer xo'jaliklarida paxtachilikda hosildorlik 19,0 sentnerni tashkil etdi. O'tgan 1993-2005-yillar ichida 1990-yilda olingen 27,7 s/gadan kamayish 1995-yilda 24 s/ga dan (3,7 s/ga yoki 13,4 %), 2000-yilda 18,9 s/gacha (8,8 s/ga yoki 31,8%); o'rtacha kamayishi esa 6,7 sentnerni tashkil qildi. Ushbu yillar ichida paxta hosildorligining keskin pasayishi ba'zi bir obyektiv va subyektiv omillar (almashlab ekish tizimining buzilishi, mineral va organik o'g'itlarni solish me'yoringan kamayishi, suv tanqisligi, yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi va sho'rланish darajasining kuchayishi, agrotexnologik jarayonlarni o'z muddatida sifatli o'tkazmaslik, hasharotlar, o'simliklar kasalligi va zararkunandalarga qarshi kurashish) tufayli bo'lmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, o'tgan davr ichida paxtachilikda hosildorlikning pasayishiga ta'sir etadigan eng asosiy 8 ta omilning 4 tasi joylarda o'simliklar kasalligi va zararkunandalarga qarshi kimyoviy va biologik kurashlarning yetarli darajada olib borilmasligiga ko'proq bog'liq ekan.

Ushbu holatning bir nechta obyektiv va subyektiv sabablari mavjud bo'lib, eng asosiyisi, hali joylarda o'simliklarni kasalliklardan himoya qilish, hasharot va zararkunandalarga qarshi kimyoviy va biologik kurashish shoxobchalarining samarali faoliyat ko'rsatmasligi, ularning yetuk va tajribali kadrlar bilan ta'minlanmaganligi natijasida belgilangan tadbirlarni talab darajasida olib borilmasligi; «O'zkimyo-sanoat» kompaniyasi va hududiy «Qishloqxo'jalik-kimyo» bo'limnalari fermer xo'jaliklaridagi ekin maydonlarining tuproq unumdarligi va ekinlar hosildorligini «biznes-reja»ga asosan, aniq hisoblangan me'yorlar bo'yicha mineral o'g'itlar bilan ta'minlanmasliklari natijasida ro'y bermoqda.

Yonilg'i-moylash materiallari ta'minotida hududlar o'rtasidagi katta tafovut, eng avvalo, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob Jamg'armasi tomonidan transh mablag'larida vege-tatsiya davrlari bo'yicha yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar va boshqa moddiy xarajatlar summasining to'liq ko'zda tutilmasligi yoki mablag'larni xarajatlar turlariga nomutanosib tarzda taqsimlanishi; transh mablag'larni haqiqatda qilin-

gan sarf-xarajatlar bo'yicha taqsimot ishlarida mahalliy hokimiyatlarning noqonuniy aralashishi va ba'zi bir boshqa xarajat turlariga ortiqcha mablag'larni o'tkazib yuborishlari; joylarda paxta va g'alla maydonlarida yuqori hosil olish uchun qo'shimcha agrotexnika tadbirlarining o'tkazilishi yoki tabiiy ofatlar natijasida qo'shimcha maydonlarga qayta ekin ekish jarayonlari uchun zarur miqdorda yonilg'i-moylash materiallari ta'minotini to'g'ri yo'lga qo'ymasligi; joylarda fermer xo'jaliklari tomonidan yonilg'i-moylash materiallari uchun o'z vaqtida pul mablag'larining o'tkazib bermasligi sabab bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining yonilg'i-moylash materiallari bo'lgan talabini to'laroq qondirish, xo'jalik subyektlari o'ttasida debitorlik hamda kreditorlik qarzlarini kamaytirish maqsadida, 2004-yildan boshlab yonilg'i-moylash materiallarni fond orqali taqsimot usuli bilan bir vaqtida qishloq xo'jalik korxonalarini uchun ortiqcha yonilg'i-moylash materiallarni fond orqali taqsimot usuli bilan bir vaqtida qishloq xo'jalik korxonalarini uchun ortiqcha yonilg'i-moylash materiallarni tovar xomashyo birjasi orqali sotilishi yo'lga qo'yildi.

Agroservis xizmati ko'rsatish korxonalarini tashkil etishda asosiy masala, ya'ni ularni qay darajada mijozlarga yaqin va qulay masofada joylashganligi hisoblanib, bunda buyurtmachilarning xizmat xarajatlarining tejalishi, barcha xizmatlarning arzon, o'z vaqtida va sifatlari bajarilishiga erishiladi.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari o'z hududlarida fermer xo'jaliklarini turli xil servis xizmatlariga bo'lgan talablarini muntazam kuzatib borishga ixtisoslashgan marketing bo'limlarini tashkil etib, ular dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishi zarur.

## **6.2. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari**

Fermer xo'jaligini moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu sarflanadigan mehnat hamda mablag' xarajatlari kamayishi, mehnat unumдорligi yuksalib, foyda summasi ko'payishi uchun imkoniyat yaratadi. Fermer xo'jaligini moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlash va undan foydalanish jarayonini bilishni talab etadi. Shuning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin.

**1. Moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi** quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MTR_{II} = \frac{(Yek + (AFq - As) + AFs + BDGk)}{KXe};$$

**Bunda:**

$MTR_{II}$  – moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, so'm;

*Yek – qishloq xo'jalik yerlarining qiymati (so'mda);*

*Afk – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (so'mda);*

*As – asosiy vositalarning o'rtacha yillik eskirish summasi (so'mda);*

*Afs – aylanma vositalarning o'rtacha yillik summasi (so'mda);*

*BGk – bog'lar, tokzorlarning o'rtacha yillik summasi (so'mda).*

Bu ko'rsatkich yordamida har bir fermer ixtiyoridagi foydalanilayotgan 1 ga qishloq xo'jalik yeriga yoki ekin maydoniga qancha so'mlik moddiy-texnika resurslari to'g'ri kelayotganligi aniqlanadi. Uning miqdori talab, ya'ni me'yor darajasida bo'lishi kerak.

Fermer xo'jaligining MTR ta'minlanganlik darajasini, masalan, asosiy va aylanma fondlar yoki haydov, chopiq traktorlari bilan ta'minlanganlik darajasini shu ko'rsatkichning tarkibidagi boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ham alohida-alohida aniqlash mumkin.

**2. Energetik resurslar bilan ta'minlanganlik** – energetik resurslarning ekin maydoniga nisbati bilan aniqlanadi.

$$Ert = \frac{ERk}{Em(Kxe)};$$

**Bunda:**

*Ert – energetik resurslar bilan ta'minlanganlik;*

*ERk – jami energetik resurslar quvvati (ot kuchida);*

*Em(Kxe) – jami ekin maydoni (qishloq xo'jalik yerlari).*

**3. Mehnatning energetik resurslar bilan qurollanganlik darajasi.** Jami energetik resurslarni (ot kuchida) mehnat qilgan kishilarning o'rtacha yillik miqdoriga (kishilar) nisbati bilan aniqlanadi. Bunda ushbu tenglikdan foydalanish mumkin:

$$Erk = \frac{Erk}{Mr};$$

**Bunda:**

*Erk – energetik resurslar bilan qurollanganlik;*

*Mr – ishlagan mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni (kishi).*

Bu ko'rsatkichlar fermer xo'jaligida bajariladigan barcha ishlarning qay darajada mexanizatsiyalashayotganligini yoki avtomatlashayotganlik holatini o'rganishga yordam beradi.

**4. Ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalash darajasi** – traktor, mashinalar yordamida bajarilgan jami ish (etalon gektarda) miqdorini fermer xo'jaliklari bo'yicha bajarilgan jami ishlar hajmiga (etalon ga) nisbati va yuzga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

$$Md = \frac{Mi}{Ji} \cdot 100\% ;$$

**Bunda:**

*Md – ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi, foizda;*

*Mi – mashina, traktorlar va boshqa mexanizmlar yordamida bajarilgan ish (Et.ga);*

*Ji – jami bajarilgan ish miqdori (Et.ga).*

**5. Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish darajasi** yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan avval qilingan xarajatlardan, ular joriy etilganidan so'ng qilingan xarajatlar miqdori, summasi ayirilib, aniqlangan raqam dastlabki xarajatlarga taqsimlanadi va 100 foizga ko'paytiriladi:

$$Xt = \frac{X1 - X2}{X1} \cdot 100\% ;$$

**Bunda:**

*X1 – yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan oldingi xarajatlar (so'm);*

*X2 – yangi texnika, texnologiya joriy etilgandan keyingi xarajatlar (so'm).*

**6. Mashina-traktor hamda avtomashinalar parkidan foydalanish koeffitsiyenti** – xo'jalikda foydalanilgan mashina-tarktorlar sonining mavjud bo'lgan mashina-traktorlar soniga nisbatidir.

$$MTPFk = \frac{Fs}{Ms} ;$$

**Bunda:** *MTPFk – mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsiyenti.*

*Fs – foydalanilgan mashina-traktorlarning soni (dona);*

*Ms – mavjud bo'lgan mashina-traktorlarning soni (dona).*

**7. Mashina-traktorlar hamda kombaynlarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashganlik darajasi** – ishlagan mashina kunlari sonini ishlagan mashinalar soniga taqsimlash natijasida aniqlanadi.

$$\overline{M}k = \frac{\sum M_k}{Ms}; \quad \overline{T}k = \frac{\sum T_k}{Ts}; \quad \overline{K}k = \frac{\sum K_k}{Ks};$$

**Bunda:**

*$\overline{M}k$  – bitta mashinaning 1 oyda, mavsumda, yilda ishlagan (qatnashgan) o'rtacha kuni;*

$\sum M_k$  – jami ishlagan mashina kunlari;

$\sum T_k$  – jami ishlagan traktor kunlari;

$\sum K\kappa$  – kombaynlarning ishlagan jami kunlari;

$Ms$  – ishlagan mashinalar soni;

$Ts$  – traktorlar;

$Ks$  – kombaynlar soni.

Bu ko'rsatkich yordamida xo'jalikda 1 traktor, kombayn yoki mashina yil davomida necha mashina-kun ishlaganligi aniqlanadi.

**8. O'rtacha va alohida har bir mashina-traktordan, yuk mashinasidan, don kombayni, paxta teruvchi mashinadan foydalanish darajasi** – mashinalar ( $t/km$ ), traktorlar (et.ga), kombaynlar (hektar, tonna) yordamida alohida–alohida jami bajarilgan ish hajmini shu ishlarni bajarishda qatnashgan yuqorida ko'rsatilgan texnikalarning o'rtacha soniga taqsimlanadi.

$$TMKi = \frac{Ti}{Ts} ; \frac{Mi}{Ms} ; \frac{Ki}{Ks} ;$$

**Bunda:**

$TMKi$  – traktor, mashinalarning o'rtacha bajargan ishi (1 smenada, 1 kunda, mavsumda, 1 yilda etalon gektarda, tonna/km, tonnada, gektarda).

$\sum Ti, Mi, Ki$  – traktorlar, mashinalar, kombaynlar yordamida bajarilgan jami ish hajmi (etalon gektarda, tonna/km, tonnada);

$\sum Ts, Ms, Ks$  – shu ishlarni bajarishda qatnashgan traktorlar, mashinalar, kombaynlarning o'rtacha soni (dona).

Bu ko'rsatkichlar yordamida, 1 ta traktorning ma'lum muddatda bajargan ishi miqdori aniqlanadi.

**9. Moddiy-teknika resurslaridan foydalanishning samaradorligi** – 1 et.gektarning, 1 tonna km, 1 kVt soatning tannarxi aniqlanadi.

$$EG_{TN} = \frac{\sum Mx}{\sum ETga};$$

**Bunda:**  $EG_{TN}$  – 1 etalon ga, tannarxi (so'mda);

$\sum Mx$  – mexanizatsiya yordamida bajarilgan ishlarga qilingan jami xarajat (ming so'm);

$\sum ETga$  – jami bajarilgan ish hajmi (etalon gektar).

Yangi texnika-tehnologiyalarga qilingan investitsiyalarning samaradorligi ham shu tartibda aniqlanadi. Buning uchun ularni joriy etish tufayli tejalgan xarajatlar natijasida qo'shimcha olingan sof daromad summasini ularga qilingan investitsiyalar summasiga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar holatini aniqlab, moddiy-teknika resurslari holati, darajasi, samaradorligi tahlil qilinadi. Natijada ularga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, yaxshilash chora-tadbirlari belgilanadi.

### **6.3. Fan-texnika taraqqiyoti, uning yo‘nalishlari hamda samarali texnologiyalar**

Fermer xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanishi va ulardan samarali foydalanish, asosan, fan-texnika taraqqiyotiga bevosita bog’liq. Fan-texnika taraqqiyotida – qishloq xo‘jaligi bilan bog’liq bo‘lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlari esa takomillashtirilishi nazarda tutiladi.

Fermer xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan qulay va samarali mashina, traktor, mexanizm, uskunalar yaratilishi, mavjudlarini takomillashtirish, serhosil, tezpishar ekin navlari, sermahsul chorva zotlari, ilg‘or texnologiyalarni yaratishdan iborat.

Respublikada fan-texnikaning taraqqiy etishi natijasida qishloq xo‘jaligi uchun yangi, sifatlari haydov, ishllov beruvchi traktorlar, paxta terish mashinalari, kimyo sanoatida polietilen quvurlar, plynokalar ishlab chiqarilmogda hamda yomg‘irlatib, tuproq ostidan tomchilatib sug‘orish uchun yangi samarali texnikalar, ilg‘or texnologiyalar joriy etilishini ta’minlamoqda.

Fan-texnika taraqqiyoti yagona davlat siyosati asosida olib borilmoqda.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy maqsadi yangi, samarali qishloq xo‘jalik texnikalarini, ekologik talablarga javob beradigan kimyoviy vositalarni, yangi navlarni, zotlarni yaratish, mavjud vositalarni takomillashtirish, mehnatning xarakterini o‘zgartirib, uning unumdorligini oshirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini ko‘paytirish, sifatini yaxshilash, ularni qayta ishlab, iste‘molchilarga yetkazib berish orqali aholi, korxonalar va davlatning iqtisodiyotini yuksaltirishdir.

Fan-texnika taraqqiyoti fermer xo‘jaligida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

yangi yerlarni kompleks o‘zlashtirish, zax va sho‘rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv bilan ta’minlanish tadbirlarini ta’minlaydigan ishlab chiqarish vositalarini yaratish, takomillashtirish; tezpishar, kam suv talab etadigan, sifatlari va serhosil urug‘ navlarni, sermahsul chorva mollarini yaratish; fermer xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, elektrlashtirish, kimyolashtirish hamda mexanizatsiya-lashtirishni ta’minlaydigan vositalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish; fermer xo‘jaligiga servis xizmatlarini ko‘rsatish, mahsulotlarni qayta ishlab, saqlab, iste‘molchilarga yetkazib berish, tadbirkorlik subyektlarini shakllan-tirish; fermer xo‘jaligi iqtisodiyotini erkinlashtirilishini ta’minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni yaratish va ularni joriy etish; fan-texnika taraqqiyoti natijalarini fermer xo‘jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalariga o‘z vaqtida joriy etish qobiliyatiga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, faoliyat

ko'rsatayotganlarining rag'batlantirishni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan mexanizmlarni yaratish. Fan-texnika taraqqiyotining shu yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish ta'minlanadi; fan-texnika taraqqiyoti natijasida yaratiladigan moddiy-texnika resurslari fermer xo'jaligida yangi, samarali texnologiya vujudga kelishini, bu jarayon rivojlantirishini ta'minlaydi.

#### **6.4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning ilg'or texnologiyalari**

Qishloq xo'jaligi yerlariga ishlov berishning bizga odat bo'lib qolgan usuli tuproqdag'i hayvonot dunyosiga, chuvalchanglar, qo'ng'izlarga va boshqa mikroorganizmlarga o'zining salbiy fizik ta'sirini ko'rsatmoqda. Fermerlar 49 yilga ijara olgan yerning ekologik holatiga: tuproq unumдорligi, suvdan foydalanish darajasi hamda texnologik jarayonlarining o'z vaqtida bajarilishiga javobgar ekanligini inobatga olgan holda, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning ilg'or, tejamkor texnologiyalarini targ'ib qilish bugungi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Shudgorsiz ekish, yerga hech qanday mexanik ishlov bermaslik, odatda, oldindan gerbitsit moddalarini ishlatalib, o'simliklarni ekish, ba'zida esa urug'larini to'g'ri joylashtirish uchun kichik g'ovaklar hosil qilishdir.

Yerga minimal ishlov berish bo'yicha tadqiqotlar dastlab AQSH, Yangi Zelandiya va Shotlandiyada o'tkazilgan. «Ay-Si-Ay» firmasi 1961-yilda «paravkat» qo'llash bilan shudgorsiz ekishni tavsiya qilishdan oldin iloji boricha hal qilish lozim bo'lgan muammolardan biri tuproq bilan birikkandan so'ng, kuchini yo'qotib, parchalanib ketuvchi gerbitsitning qo'llanilishi yerdagi o'simliklarni nobud qilish bilan birga, tuproqqa mexanik ishlovsiz to'g'ridan-to'g'ri ekish imkonini berishini aniqlagan.

Respublikamiz sharoitida suv-yer resurslarini tejash texnologiyalaridan biri bu bug'doy va paxtani pushtaga ekish texnologiyasi hamda irrigatsiya tizimini takomillashtirish (latoklarni qo'llash) dir.

Fermerlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri yer va suv resurslarini tejashda har bir  $m^2$  yer maydoniga sarflanadigan xarajat va olinadigan foyda miqdorini oshirishdir. Yil davomida issiqxonadan foydalanish bilan gullar yetishtirish, uzum yetishtirish, gidrofonda har xil mahsulot yetishtirish va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan usul va uslublardan tashqari, maslahat beriladigan ish yuritish texnologiyalaridan biri bu aralash ekinlar hamda bir vaqtning o'zida chorvachilik bilan parrandachilikni ham rivojlantirishdir.

## **6.5 Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash**

Fermer xo'jaligida fan-texnika taraqqiyoti mavjud texnikani takomillashtirishni, yangi, samarali texnikani, texnologiyani, xomashyonni, materiallarni yaratish va joriy qilish, shuningdek, mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilishni hamda yaxshilashni o'z ichiga oladi. Fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni intensivlashtirish va uning samaradorligini oshirishning hal qiluvchi yo'nalishlaridan biridir.

Fermer xo'jaligi ishlab chiqarishidagi texnika taraqqiyotining muhim yo'nalishi texnikani muntazam ravishda takomillashtirishdan, eskirgan texnikani yangi, unumli va tejamli texnika bilan almashtirishdan iborat.

Fermer xo'jaligida texnikani takomillashtirish mashinalar, agregatlar va mexanizmlar quvvatini, ishlash tezligini oshirish, ko'p jismoniy mehnat sarflanishini talab qiluvchi moddiy mashinalardan yarim avtomat va avtomat mashinalar hamda liniyalarga, kompleks mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan sexlar hamda korxonalarga o'tish yo'li bilan bormoqda.

Fermer xo'jaligida ishlab chiqarishning intensiv texnologiyasi qo'llanilmogda. Bularning hammasi ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga yordam beradi. Shu sababli kichik biznes yoki katta hajmdagi qishloq xo'jaligi korxonasi yangi texnologiyani joriy qilsa, iqtisodiy samaradorlikka ega bo'ladi, yo'qmi shuni hisob-kitob qilish kerak. Agarda yangi texnologiyani ishlab chiqarishga joriy qilganda, iqtisodiy samaradorlikka erishsagina bunday texnologiyani tezda joriy qilish kerak. Aks holda, yangi texnolgiyani joriy qilishdan hech qanday naf bo'lmaydi. Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$Pq = (Ut \times St) - (U1 \times S1) \times A$$

**Bunda:**

*Pq – iqtisodiy samaradorlik, (foyda) so'm;*

*Ut, St – yalpi mahsulotning yangi texnikani qo'llashdagi «t» davridagi bahosi va tannarxi;*

*U1, S1 – yangi texnikani qo'llashdan oldingi yalpi mahsulotning bahosi va tannarxi;*

*A – «t» davridagi mahsulot hajmi.*

Formula  $(UtxSt) > (U1xS1)$  bo'lganida, yangi texnologiyani qo'llash fermer xo'jaligining yuqori iqtisodiy samara berishi tushuniladi.

### ***Qisqacha xulosalar***

**F**ermer xo'jaligi moddiy-texnika resurslaridan foydalanishi natijasida ishlab chiqarish jarayonida yuqori samaradorlikka erishadi. Unda jonli mehnat sarfi tejalib, mahsulot hajmi, mehnat unumдорлиги oshadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligida yangi fan-texnika, texnologiya va chet el tajribalarini qo'llash hisobiga ham samaradorlikka erishilmoqda. Respublikamiz agrar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan chet el texnikalari va texnologiyalari talab darajasida faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usullari keng yoritilgan bo'lib, resurslardan foydalanish ko'rsatkichlari hisob-kitob qilinmoqda. Amaliyatga ushbu yangi texnikalarning ish faoliyati samaradorligini aniqlash uslublarini joriy etish zarur.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. Moddiy-texnika resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Moddiy-texnika resurlarining fermer xo'jaligidagi ahamiyati qanday?
3. Fermer xo'jaligida fan-texnika taraqqiyotini izohlab bering.
4. Samarali texnologiyalar to'g'risida tushuncha bering.
5. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanishda samaradorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aytib bering.
6. Yangi texnika va texnologiyalarni qo'llashda qanday masalalarga e'tibor berish kerak?

### **7.1. Infratuzilma va uning fermer xo'jaligida tutgan o'rni**

**I**nfratuzilma (lotincha infra - quyi, struktura-joylashuv, tuzilish) – turli-tuman xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar transport, aloqa, savdo, moddiy-texnika ta'minoti, suv bilan ta'minlash, fan, maorif, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalarni o'zi ichiga oladi.

Ishlab chiqarishning hajmi o'sishi bilan qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslari, elektroenergiya, transport, aloqa vositalariga, mahsulotni saqlash joylariga bo'lgan talab oshadi. Qishloq xo'jalingining ta'mirlash – texnik xizmati, moddiy –texnika ta'minoti, zooveterinariya, agrokimyo servis xizmati kabi xizmatlar darajasi o'sadi. Bu jarayondan samarali foydalanish tarmoqlari va xizmatlari iqtisodiyotda **infratuzilma** deb yuritiladi.

**Infratuzilma** bu – iqtisodiy va ijtimoiy ishlab chiqarish uchun me'yoriy shart-sharoitlarni ta'minlovchi majnuadir. Bu ishlab chiqarish uchun texnologik, iqtisodiy va tashkiliy aloqalarning samarali ishlashini ta'minlaydi. Infratuzilma fermer xo'jaliklari mablag'lari, mehnat resurslari, xizmat qiluvchi tuzilmalarning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bunda agrokimyo, zooveterinariya, axborot konsalting xizmatlariga katta e'tibor beriladi. Infratuzilma fermer xo'jalik ishlab chiqarishini intensivlashtirish va samaradorligi o'shining eng muhim omili hisoblanadi.

Fermer xo'jaliklarini sanoatlashtirish va kimyolashtirishga melioratsiya va ishlab chiqarishning boshqa asosiy omillarini tez sur'atda o'sishiga mablag' resurslaridan samarali foydalanish tizimi tashkil etilishi hisobiga erishiladi. Bozor munosabatlari rivojlangan shart-sharoitda infratuzilmaning ahamiyati katta. Fermer xo'jaligi uchun material, resurslar, texnika bilan ta'minlovchi davlat tuzilmasi yo'q. Shuning uchun moddiy ishlab chiqarish infratuzilmaning fermer xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qilish faoliyati kamayib bormoqda. Infratuzilma ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Lekin, mahsulot ishlab chiqarmaydigan tarmoqlarda samaradorlikni kamaytiradi. Infratuzilma fermer xo'jaliklari uchun kadrlar tayyorlashga ham yordam beradi.

Infratuzilmaga kiradigan tarmoqlar ishlab chiqarish jarayoniga bir xilda ta'sir ko'rsatmaydi, lekin ishlab chiqarishda o'ziga xos o'rni egallaydi.

Fermer xo'jaligi ishlab chiqarishini industrialshtirish va ixtisoslash-tirishning rivojlanib borishi natijasida qishloq xo'jalik korxonalarida moddiy resurslar bilan ta'minlanish, texnikani ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish, o'g'it solish, melioratsiya ishlarini bajarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tashish, saqlash va

qayta ishlash bo'yicha tarmoqlar vujudga keldi. Fermer xo'jaligining barcha tarmoqlarini to'liq industrilashtirish, kompleks mexanizatsiyalash, elektrlashtirish va kimyolashdirish, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, melioratsiyalash ishlari amalga oshirilmoqda.

Fermer xo'jaligi tarmoqlarida ko'p qirrali xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar rivojlantirilib, bozor iqtisodiyotiga mos quyidagi muammolar hal etilmoqda:

1. Tuproq unumdorligini oshirish. 2. Seleksiya ishlarini tashkil etishni tubdan yaxshilash. 3. Har bir ekin o'z tabiatiga mos ravishda tegishli agrotexnologiyaga amal qilishni talab etadi. 4. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muammolarini ko'rib chiqish.

Fermer xo'jaliklariga agrotexnika xizmati ko'rsatishni yaxshilash, texnikalardan samarali foydalinish maqsadida, MTP, muqobil mashina traktor parklari tuzildi. Bu parklarda barcha haydov traktorlarining 43%ni, don va sholi o'rish kombaynlarining 48% bugungi kunda yer haydash bo'yicha 60%, g'alla yig'ib olish bo'yicha 55% ishlarni bajarmoqda. Hozircha, parklar qudratli kuchga aylangani yo'q. Shuning uchun mashina-traktor parklari tizimining faoliyatini yanada takomillashtirish, raqobat muhitini vujudga keltirishda servis xizmati ko'rsatish shoxobchalarini tuzish maqsadiga muvofiqdir.

Fermer xo'jaliklarida mahsulot yetishtirishning sa'maradorligini oshirishda, infratuzilmalarini qayta bo'lib, fermer xo'jaligida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini yanada takomillashtirish zarur. Xizmatlar bozoridagi infratuzilmalar quyidagilardan iborat: agrorximiya xizmati, seleksiya xizmatlari, urug'chilik, MTP xizmatlari, yonilg'i-moylash va ehtiyyot qismlar bilan ta'minlash, transport xizmatlari, uskunalar lizingi, ulgurji birjalar, birjalar bozori, moliya-kredit tizimi va boshqalar.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish davlat dasturi infratuzilma tarmoqlarini yanada takomillashtirish, ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va kelgusida servis xizmatlarini yaxshilash orqali mahsulot hajmini oshirishga qaratilgan.

## **7.2. Fermer xo'jaliklarida infratuzilmaning rivojlanishi**

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan fermerlar soni va uning ekin maydonlari hajmi tez sur'atlarda o'sib bormoqda. Bunday vaziyatda davlat mulki bo'lgan yerdan oqilona va samarali foydalinishning yanada ixcham, samarali va fermer xo'jaliklari uchun qulay bo'lgan usullarini topish va amaliyotga joriy etish talab etilmoqda. Buning uchun birinchi navbatda fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirish lozim bo'ladi.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasida har bir fermer faoliyatidagi infratuzilmani rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib, uni rivojlantirish to'g'risida

katta ijobiy ishlar olib borilmoqda. Fermerlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma faoliyatida ham o'zgarishlar yuz bermoqda.

*7.2.1-jadval.*

**Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma  
ko'rsatkichlarining tahlili**

	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2006 y.	Jami
Mini banklar	141	105	196	260	273	1041
Muqobil MTPlar	129	168	282	402	553	1826
Mineral o'g'ilalar sotish shoxobchalari	128	135	208	168	243	976
Neft mahsulotlari sotish shoxobchalari	140	138	236	321	282	1231
Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari	141	152	223	379	406	1502
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish shoxobchalari	-	-	88	136	270	550
Chorva mollarini sotish va zooveterinariya xizmati ko'rsatish shoxobehalari	-	-	91	116	130	417
Axborot ta'minoti va konsalting xizmati ko'rsatish shoxobchalari	-	-	60	102	108	310
Transport xizmat ko'rsatish shoxobchalari					68	78
Tara, idishlar va qadoqlash materiallari bilan ta'minlash shoxobchasi					72	84
Agrofirmalar					195	208

*Manba: O'zbekiston Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi ma'lumotlari*

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2002-2006- yillarda mini banklar soni 1041 taga, muqobil MTPlar 1826 donaga, Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi 1502 donaga oshdi. Ushbu infratuzilma fermer xo'jaliklar faoliyatini yaxshilashga zamin yaratadi. Mahsulot hajmi ortadi. Sarf-xarajatlar keskin kamayib, mahsulot hajmi ortadi. Fermer xo'jaliklarimizni rivojlantirish infratuzilma, ya'ni xizmat

ko'rsatuvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy ish usullaridan foydalanish, sifatli va arzon mahsulot yetishtirishdan iborat bo'ladi.

2006-yilda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan dehqon va fermer xo'jaliklariga turli servis xizmatlari ko'rsatuvchi 273 ta mini banklar, 282 ta yonilg'i, 243 ta mineral o'g'itlar va kimyoiy vositalar sotish shoxobchalar, 553 ta muqobil MTPlar, 406 ta suvdan foydalanuvchilar uyushmalari, 270 ta qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, 130 ta chorva mollarini sotish va zooveterinariya xizmati ko'rsatish va 108 ta axborot ta'minoti hamda konsalting xizmati ko'rsatish shoxobchalar tashkil etildi. 2000-yilga nisbatan bir necha barobarga servis xizmat ko'rsatuvchi korxonalar sonini oshganligini ko'rsatmoqda. Bu fermer xo'jaligini rivojlantirish uchun infratuzilmani rivojlantirishga asosiy e'tibor berilayotganligini ko'rsatadi. Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatayotgan korxonalar barchasi to'liq talab darajasida faoliyat ko'rsatmayapti. 2004-yilda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiya dasturida belgilanganiga nisbatan 8 ta neft mahsulotlari sotish, 10 ta mineral o'g'it sotish, 10 ta muqobil MTP, 33 ta SFU, 11 ta qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, 1 ta konsalting va axborot xizmati ko'rsatuvchi shoxobchalar tashkil etilmasdan qoldi. Fermer xo'jaliklari bilan xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtaida tuzilgan shartnomalar shartlari to'liq bajarilmasdan qolmoqda. Masalan, 2004-yil yakunida fermer xo'jaliklari yonilg'isi 10,3 ming tonna, mineral o'g'itlar 14,1 ming tonna, paxta shroti va 16,8 ming tonna sheluxa sotib olingan bo'lsa, fermerlar birjalar orqali sotib olgan yonilg'i va moylash materiallari, mineral o'g'itlar ta'minot bozorlari tomonidan o'z vaqtida bajarilmay qoldi. Oqibatda bu birja xizmati uchun to'langan mablag'larga, agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida bajarilmasligiga olib kelib, fermerlar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun 2004-yilda 9000 dan ortiq fermer xo'jaliklari davlatga don sotish bo'yicha shartnomalar rejasini bajara olmadi. Ular tomonidan 90,7 ming tonna don topshirilmasdan qolgan. Shartnomani bajarmagan fermerlardan xo'jalik sudlari orqali 3 mlrd. 274 mln. so'mlik zarar undirildi. Fermerlar tomonidan ixtiyoriy ravishda 20 ming tonna don va 632 mln. so'm mablag'lar topshirildi. Umuman, don topshirmagan 289 ta fermerning yer ijara shartnomasi bekor qilindi. Joriy yil hosili uchun 62 mingga yaqin fermerlar 1805 ming tonna paxta xomashyosini sotish uchun shartnomalar tuzgan bo'lsalar, ular shartnomalar rejasini ortig'i bilan bajardilar. Ular tomonidan sotilgan mahsulot xomashyo miqdori 1773 ming tonnani tashkil etgan. Ammo, 13,5 mingta fermer shartnomalar rejasini bajara olmagan. 333 ta fermerning 11 ming gektar yer ijara shartnomasi o'z arizalariga asosan, bekor qilindi. Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari (SFU) moddiy-teknika bazasini mustahkamlash borasida fermer va dehqon xo'jaliklariga ko'rsatadigan xizmatlari uchun mablag' shakllanishi ko'zdautilgan. 2004-yilda SFU lar tomonidan 17788 ta, 4848 mln. so'mlik shartnomalar

xizmat ko'rsatish uchun tuzilgan bo'lib, ularning 15208 tasiga 1576 mln. so'mlik yoki 48 foiz xizmat ko'rsatilgan. Sharhnomalarning bajarimmasligiga asosiy sabab, SFUarning moddiy-texnika bazasi shakllanmaganligi va malakali mutaxassislar jalb etilmaganligidir. Fermer xo'jaliklari faoliyatidagi infratuzilmalarni rivojlantirish fermer xo'jaliklarining rivojlanish konsepsiyasiga binoan olib borilishini tashkil etishdan iborat.

### **7.3. Fermer xo'jaligida agrokimyo servis xizmati va uning vazifalari**

1979-yildan boshlab mamlakatda yagona agrokimyo xizmatini tashkil qilish maqsadida «Qishloqxo'jaliktexnika» davlat komiteti tarkibidan barcha korxona va tashkilotlar, shuningdek, qishloq xo'jalik vazirligiga qarashli qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatuvchi tarmoq agroximbirlashma, agroximtrest, maxsus bo'lim, qishloq xo'jaligini kimyo lashtirish loyiha tadqiqot bo'limi, agroximiya laboratoriyalari, tuman agroximiya markazi, mexanizatsiyalashgan otryad, ishlab chiqarish korxonalar, shuningdek, ishlab chiqarish texnika bazasi obyektlari, «Soyuzqishloqxo'jalikkimyo» birlashmasi tarkibiga berildi.

«Soyuzqishloqxo'jalikkimyo» birlashmasi tarkibiga kiruvchi «Qishloqxo'jalikkimyo» birlashmalari har bir viloyat, tuman va tumanlararo tashkil etilishi qishloq xo'jaligini kimyo lashtirishda tub burilish yasadi.

2004-yilga kelib kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. Bu Qarorga ko'ra, «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik birlashmalari «O'zkimyosanoat» DAK tarkibiga qo'shib berildi. «O'zkimyosanoat» DAKning moddiy resurslar va jihozlar bilan ta'minlanishining bugungi kundagi faoliyati quyidagicha bo'lib, unda 12 viloyat «Qishloqxo'jalikkimyo» XAJ va uning 172 ta filiali, shundan 154 tasi tumanlarda va 18 tasi tumanlararo filiallari bo'lib, 172 ta filialning 129 tasida omborxonalar mavjud. Ularning soni 519 ta bo'lib, quvvati 1108,6 ming tonna, 115 ta filialdagi 237 ta omborxona to'liq zarur texnik jihozlar bilan ta'minlangan bo'lib, ularda ammiakli selitra saqlanmoqda. 43 ta tuman filiallariда ixtisoslashgan agrokimyo servis xizmati tashkil etilgan. Fermerlarga samarali xizmat ko'rsatish uchun 2005-yilgacha 513 ta shoxobchalar tashkil etilgan bo'lib, uning quvvati 478,3 ming tonnadir. Shoxobchalar sonini 2006-yilda 741 taga yetkazish va mineral o'g'it sotishni 136923 mln. so'mga, 2007-yilda 891 ta va 176959 mln. so'mga yetkazish hamda quvvatini 827,8 ming tonnaga yetkazish

ko‘zda tutilgan. Hududiy markaziy omborxonalardan soh holda 23056 tonna azotli, 22288 tonna fosforli va 4359 tonna kaliyli o‘g‘itlarni tashish rejalashtirilgan bo‘lib, ularni tashish uchun 3207 ta traktor tirkamalari bilan, 1402 ta yuk avtomobili, shoxobchalardan 17860 tonna azotli, 20290 tonna fosforli va 2608 tonna kaliyli, o‘g‘itlarni tashib berish uchun esa 1918 ta traktor tirkamasi bilan 853 ta yuk avtomobili zarur ekanligini ko‘rsatmoqda. Shuning uchun kompaniya oldida turgan asosiy vazifa xo‘jaliklarga sifatli va samarali xizmat ko‘rsatish uchun moddiy- texnika bazasini mustahkamlashni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Agrokimyo servis xizmatini tashkil etish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ilmiytadqiqot ishlari olib borilishi va faoliyatidagi xizmatlarning samarali istiqbolli yo‘nalishlariini amaliyotga tatbiq etish zarur. Shuning uchun agrokimyo servis xizmati ko‘rsatishni jadal sur’atlarda olib borish bo‘yicha qilinayotgan tadqiqotlar va amaliy tajribalarni umumlashtirgan holatda bir butun rivojlantirish istiqbollarini belgilash zarur. Bozor munosabatlarida shakllangan respublika iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligiga agrokimyo servis xizmat ko‘rsatishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab olish davri boshlandi.

Qishloq xo‘jalik ekinlariga mineral, organik o‘g‘it berish va zaharli ximikatlardan foydalanish hamda agrokimyoservis xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borib, ko‘pgina masalalarni ijobjiy hal etgan. Rossiyalik olimlardan L.M. Derjavin, V.A. Zaxarenko, V.V. Tokarev, N.N. Baronov, A.M. Artyushin, A.S. Mishelova, M.M. Alibekov, N.A. Dorofeyeva; O‘zbekistonlik olimlardan K.A. Xasanjonov, K.A. Choriyev, X.J. Xo‘jaqulov, A.J. Toshboyev, A.Mamadaliyev, A.Boymuhammedov, M.A. Sagatova, B.O. Mo‘minovlar shu borada tadqiqotlar olib borishgan.

Respublika qishloq xo‘jaligini kimyolashtirishning iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy asoslari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasi bugungi kunda ham o‘zining ijobjiy natijalarini bermoqda.

Bizning fikrimiz bo‘yicha respublikada mulkchilik munosabatlari shakllanib, xo‘jaliklar soni bir necha barobarga ortib borishi, azotli o‘g‘itlardan qat’iy nazorat orqali foydalanish sababli mineral o‘g‘itlar va ximikatlardan foydalanishning ustivor yo‘nalishlarini izlab topib, amaliyotga tatbiq etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, fermer xo‘jaliklari ustivor yo‘nalish bo‘lib, uning soni yildan yilga ko‘payib, mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalarning xarid bahosining keskin ortib borishi hamda me‘yor bo‘yicha yetishmasligi sababli xo‘jaliklarda va hududlarda raqobatbardosh agrokimyo servis xizmatlarini shakllantirish zarur. Unda kimyoviy ishlov berish, mineral va organik o‘g‘itlarni tashish, ishlatish, ilmiy asoslangan me‘yorlar bo‘yicha agroximkartogramma asosida ishlov berish, monitoring olib

borish, dilerlik konsalting xizmatlarini tashkil etish, kimyoviy vositalarni saqlash va ishlatish orqali hosilni oshirish bo'yicha servis xizmatlari tashkil etilmoxda.

Qishloq xo'jalik korxonalarida agrokimyo servis xizmat ko'rsatishning zaruriyati agrokimyo servis xizmat ko'rsatish korxonasi qishloq xo'jalik subyektlariga shartnoma asosida xizmat ko'rsatishdan iborat. Qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarishning natijasi unga juda bog'liq.

Qishloq xo'jaligining bozor iqtisodiyotiga o'tishida agrokimyoviy xizmat ko'rsatish darajasiga e'tibor beriladi. Yangi shakldagi qishloq xo'jaligini kimyolashtirish bevosita yerlarni rejali unumdarligini oshirish bilan bog'liq. Mineral o'g'itlarning iste'molchisi bo'lgan o'simlikchilik tarmog'inining asosiy turi – paxtachilikdir. Paxta ko'p mineral o'g'it talab etuvchi o'simlikdir. O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatkich 1965-yilda paxta bo'yicha – 2072,5 ming tonna fizik og'irlikda bo'lgan bo'lsa, 2000-yilga kelib azotli o'g'itlar – 303,0, fosforli o'g'itlar – 88,0, kaliyli o'g'itlar – 37,0 ni tashkil etadi.

Yerga ishlov berish va pestitsidlarni ishlatish xususiyati qishloq xo'jaligiga agrokimyoviy xizmat ko'rsatish yo'nalish tartibini asoslab beradi. Bu jarayon barcha ko'rildigan chorralarga bog'liq. Rivojlangan davlatlarning ilmiy agrokimyoviy ta'minoti ilmiy-tekshirish tashkilotlari, xususiy tashkilotlar, davlat budgeti va fermerlar tomonidan moliyalashtiriladi. Agrokimyoviy ishlab chiqarish xizmatiga ixtisoslashgan kimyoviy kompaniya va tashkilotlar qishloq xo'jalik korxonalarini va bevosita fermerlarga xizmat ko'rsatadi.

MDH davlatlarida agrokimyoviy xizmat ko'rsatish davlat va kooperativ agrokimyoviy markaz rivojlanishiga bog'liq. Davlatimizning katta e'tibori asosida kimyolashtirish, kimyoviy o'g'itlar ishlab chiqarish oxirgi ikki o'n yillikda yetarli darajada rivojlandi.

AQSHda o'g'it ishlab chiqarish darajasi MDH davlatlariga nisbatan 15 yil ko'proq tajribaga ega. 1972-yilda MDH davlatlari jahonda o'g'it ishlab chiqarish bo'yicha mutlaq birinchi o'ringa chiqib oldi. MDH davlatlaridagi kimyolashtirishning katta qismi qishloq xo'jaligiga agrokimyoviy xizmat ko'rsatishni ixtisoslashtirish va biriktirishni talab qildi. Bu davlat chiqargan qishloq xo'jalik texnika tizimining birinchi bosqichi qishloq xo'jalik korxonalarini kimyolashtirish vositalari va ta'minot funksiyasi bilan shug'ullanuvchi uncha katta bo'lмаган agrokimyoviy ishlarni ta'minlaydi. Davlat qishloq xo'jalik texnika ishlari tizimida agrokimyoviy xizmat xodimlari qishloq xo'jalik ishlab chiqarish natijasidan manfaatdor. Kimyolashtirish ishlari sifati, muddatlarning buzilishi, kuchi, o'g'itlarni tashish imkoniyati, uni saqlash va joylashtirish muammolari hal etilmasa o'g'itni ishlatish samaradorligi (qaytimi)ga ta'sir etadi.

Yana bir katta yetishmovchilik bor va bu o'g'itning yo'qolishiga olib keladigan ombor hajmining yetishmovchiligidir.

Davlat qishloq xo'jalik texnika tizimi faoliyatida agrokimyoviy xizmat ko'rsatuvchi ishchlarda qishloq xo'jalik ishlab chiqarish natijasiga bo'lgan qizi-qishni shakllantira olmadi. Bular agrokimyoviy xizmatlarni past darajaga olib keldi. Muddatlarning buzilishi, kuchining pastligi, o'g'itlarni yetkazib berish, ularni saqlash va yetkazish sharoitlari davomida vositalarni qabul qilingandan keyingi qaytimining unchalik katta emasligi, bundan tashqari, kimyoviy vositalarni yetkazib berish hajmi va ulardan foydalanish uchun bazaga yetkazib berish o'zaro mos kelmadи. Kimyoviy o'g'itlarni solish ishlarini mexanizatsiyalash muammosi sekin hal qilinmoqda. O'g'itning aralashmasini to'liq yetkazib berish yaxshi yo'nga qo'yilmagan.

Kimyo lashtirishning material texnikaviy bazasini shakllantirishdagи yetishmovchilikdan tashqari, uning samarasiz ishlatilishi ko'proq o'simlikchilikda agrokimyoviy xizmat ko'rsatishni tashkil etishning kuchsizligiga bog'liq.

Agrokimyoviy xizmat ko'rsatuvchi tizimdagi uzoq bo'Imagan vaqtga amal qiluvchi o'zaro idoralararo aloqa boshqarishda qiyinchilik tug'diradi, vositalarni sotish vazifasini bajarish va qishloq xo'jaligini kimyo lashtirishning barcha jarayonida oxirgi natija samarasini pasaytirishga olib keladi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi islohotlar sharoitida agrokimyoviy xizmatning roli pasaymadi. Regional kimyoviy vositalardan foydalanish javobgarligining barchasi agrokimyoviy ta'minotga yuklandi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy vositalar bilan ta'minlash qishloq xo'jaligiga agrokimyoviy xizmat ko'rsatishning ilmiy-uslubiy ta'minoti bilan birikishi asosida amalga oshiriladi, ishning sezilarli qismi qishloq xo'jalik korxonalariga agrokimyoviy ishlab chiqarish xizmatini amalga oshiruvchilar hissasiga to'g'ri keladi. Ko'p shakl-dagi funksiyani bajaruvchi o'simlikchilik o'sishida bevosita ishtirok etuvchi texnologik operatsiyalarini bajarishda «Agrokimyota'minot» bilan qishloq xo'jalik korxonalari o'tasidagi alohida ishlab chiqarish iqtisodiy munosabatlar orqali amalga oshiriladi. «Agrokimyota'minot» birlashmasi qishloq xo'jalik korxonasiga ilmiy ishlab chiqarish va ishlab chiqarish agrokimyoviy xizmatini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish, yetishtirish operatsiyalari ichidagi eng muhimlari quydagilar:

- ✓ *organik va mineral o'g'itlarni, o'simliklarni himoyalash vositalarini tashish va yetkazib berish;*
- ✓ *yem ishlab chiqarishni kimyo lashtirish;*
- ✓ *omborxona, fermalarni dezinfeksiyalash;*

- ✓ *zavod yetkazib beruvchidan kimyoviy vositalarni qabul qilib olish, nazorat qilash va saqlashni ta'minlash;*
- ✓ *yetkazib beruvchi xo'jaliklardan shartnoma bo'yicha franko shartli asosida kimyoviy vositalarni temir yo'l vagonlaridan o'zining transportigacha yetkazib berish.*

Haydaladigan yer va boshqa qishloq xo'jaligiga foydali bo'lgan tuproqni ekishning loyiha-smeta hujjatlari, me'yor va mineral hamda organik ishlarning qabul qilingan me'yorlari «Agrokimyo ta'minot»ning kimyolashtirish va agrokimyo laboratoriyasidagi loyiha qidiruv stansiyasida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida kimyoviy loyiha qidiruv stansiyalari va laboratoriyalarda amalga oshiriladigan agrokimyoviy ilmiy- ishlab chiqarish xizmatlari davlat budgeti hisobidan shakllanadi.

Shuning uchun Agrokimyo ta'minot xo'jaliklari bilan maydonning tarkibiy kafolatining yaxshilanishi, berilgan tuproq unumдорligi ko'rsatkichiga erishish bo'yicha shartnoma tuzadi. Agrokimyo ta'minot birlashmasi shartnomaga asosan, tuproq unumдорligini oshirish bo'yicha kompleks choralar amalga oshiriluvchi aniq maydonga xizmat qilishga birkirtiriladi. Mutaxassislar o'simliklarni yuqori aniqlikdagi programmalashtirish imkonini beradigan o'g'itli aralashmaning ratsionalroq bo'lgan me'yorini har bir maydon bo'yicha agrokimyoviy kartaga va maydon pasportiga tayanib asoslab beradi.

Agrokimyoviy ta'minot birlashmasi qishloq xo'jalik korxonalariga agrokimyoviy xizmat ko'rsatuvchi tuman (tumanlararo) ishlab chiqarish birlashmasini va xo'jalik xizmat bazasidagi kimyolashtirish punktlarini tuzishga javobgarlikni oladi.

Agrokimyoviy xizmat ko'rsatuvchi pastki (quyi) ishlab chiqarish bo'g'ini bu – xo'jalik kimyolashtirish punktidir. Ular o'zlarida qishloq xo'jalik korxonalarida kimyoviy vositalarni ishlatishda kerak bo'lgan asosiy va aylanma vositalar, ishchi kuchi bilan ta'minlangan ixtisoslashtirilgan ajratilgan bo'limni ifodalaydi. Kimyolashtirish punkti ishlab chiqarish punkti yoki sexlari kabi yaratiladi. U hozirgi vaqtida davlatning agrokimyoviy xizmat takliflarini asosiy ishlab chiqaruvchi bo'g'inidir. Shuningdek, hozirgi vaqtida yirik xo'jaliklarda kimyolashtirish bo'limi mavjud, boshqalari faqat hosildorlikka ajratish uchun tashkil qilinadi, asosan uchastka va bo'linmalar soniga bog'liq bir bo'linmaning o'zi har doim barcha ishlab chiqarish brigadalarida xizmatni sifatli tashkil etishga qodir.

O'zbekistondagi qishloq xo'jalik korxonalarida tuzilgan kimyolashtirish punkti ishlab chiqarishga kimyolashtirish vositalarini qo'llash xarajatlarini

qisqartirish imkonini beradi. Mamlakatimizning bir qancha tumanlarida xo'jaliklararo kimyolashtirish punktlariga va o'z faoliyatini to'liq xo'jalik hisobi asosida tashkil qilgan «Agrokimyo'ta'minot» aksiyadorlik jamiyatining tuman (tumanlararo) filiallarining rivojlanishiga ega bo'ldi. Kimyolashtirish punktlariga asosiy vositalar, omborxonalar, o'lhash qurilmalari, shiyponlar, texnika, qishloq xo'jalik aviatsiyasi uchun uchish-qo'nish yo'lakchalari, jihozlar, texnik xizmat ko'rsatish uchun yuvish joyi va boshqalar biriktiriladi.

Xo'jaliklararo kimyolashtirish punkti tarkibida bir yoki bir necha mexanizatsiyalashgan bo'linmalar tashkil qilinadi, ulardan har biri komplekslashgan va ixtisoslashgan bo'limlardir:

- ✓ *kimyoviy vositalar omborlarida tayyorlash va ortish-tushirish ishlari bo'yicha bo'lim;*
- ✓ *organik o'g'itlarni qo'llash bo'limi;*
- ✓ *mineral o'g'itlarni qo'llash bo'limi;*
- ✓ *o'simliklarni himoya qilish vositalarini qo'llash bo'limi;*
- ✓ *traktorlarga, avtomobil va qishloq xo'jalik mashinalariga texnik xizmat ko'rsatish punktlari.*

Agrokimyo'ta'minot aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish yo'naliшини yaratadi, ya'ni viloyat va tuman darajasida kimyoviy vositalardan samarali foydalanishga muhim zamin yaratadi.

Yagona ixtisoslashgan agrokimyo'viy xizmat ko'rsatish maqsadida bozor munosabatlariiga o'tish sharoitida qishloq xo'jaligiga agrokimyo'viy xizmat ko'rsatishning xo'jalik hisobiga o'tishi hamda samara va sifatni oshirishga yo'naltirilishi, yuqori yakuniy natijaga erishishdan iqtisodiy manfaatdorlikni oshirish, kimyoviy vositalarni yo'qolishini kamaytirishni tashkil qilish. Buning barchasi qishloq xo'jalik ekinlari hoslining keyinchalik ham o'sishini va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish mahsulotlari hajmini oshirishni ta'minlashi shart.

Agrokimyo'viy xizmat ko'rsatish turli shakllarining rivojlanishi uning xo'jalik bilan o'zaro aloqasining o'ziga xos xususiyatini, ya'ni yer usti va aviatsiya agrokimyo'viy ishlari va ularni agrokimyo'viy vositalar bilan ta'minlovchi tomonlar bilan tuzilgan shartnomalarni boshqarishni yaratdi. Shartnomada birgalikda bajariladigan barcha turdag'i ishlab chiqarish va qidiruv ishlari, ularning hajmi va qiymati, moliyalashtirish manbalari ko'rsatiladi (ohak bilan o'g'itlash, fosforlash va texnikaviy ishlar budget miablag'lari hisobidan bajariladi).

U yoki bu xo'jalikdagi ishlarning bajarilish muddati grafik bo'yicha amalga oshiriladi. Odatda, har bir xo'jalikda bo'limning ish muddati 2-3 haftadan

oshmaydi. Agrokimyota'minotni saqlab turgan vositalar manbayi, uning shartnoma bo'yicha bajargan ish va xizmatlaridan olingen daromad hisoblanadi. Ish natijasi shartnoma bo'yicha olingen pul vositalari va agrokimyoviy xizmat va faoliyatni ta'minlash xarajatlari farqi sifatida aks ettiriladi. Agrokimyoviy ishlardan olingen daromad va foydani tuman birlashmalarining asosiy fondlarini shakllantirishning yagona manbayi bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun o'z vaqtidagi o'zaro hisob-kitob hamda birlashma oladigan bajarilgan ish va foya hajmiga bahoni asoslash tizimini boshqarish asosida shartnomalarning sifatlari yakunlanishi mumkin.

Rejali iqtisodiyot davrida qishloq xo'jaligini kimyo lashtirish bo'limlari yirik qishloq xo'jalik tarkibida tuzilgan va kimyo lashtirish xizmatlari ichki xo'jalik tizimi asosida amalga oshirilgan. Agroximservis korxonalari esa «ta'minotchi» sifatida faoliyat ko'rsatgan. Endilikda agroximservis xizmatlari turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik shakllari talabidan kelib chiqqan holda quyidagicha ta'riflanadi.

**Agroximservis xizmati** – qishloq xo'jalik korxonalariga shartnoma asosida organik va mineral o'g'itlar, biologik va kimyoviy vositalarni yetkazib berish, qo'llash, ishlov berish, sepish, shuningdek agrokimyo kartogrammalari asosida solish va kimyoviy vositalarni qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan maslahatlar berish, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan turli tadbirlarni o'z ichiga olgan holda barcha agrokimyoviy xizmatlar majmuyidir.

**«O'zkimyosanoat» DAKning tashkiliy huquqiy asoslari.** Kimyo sanoat korxonalari va tashkilotlarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda ular faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish tarmoq korxonalarini aksiyalashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish; mineral o'g'itlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish; texnika bilan qayta jihozlash va zamonavylashtirish uchun xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida 2001-yil 13-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini «Kimyo sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorini qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 27-dekabrdagi F-1313 – son Farmoyishi bilan tuzilgan kimyo tarmog'ini boshqarish tizimini va qishloq xo'jaligini kimyoviy preparatlar bilan ta'minlashni takomillashtirib, ochiq aksiyadorlik jamiyat shaklidagi «O'zkimyosanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi.

O'zbekiston kimyo sanoati korxonalari uyushmasi o'mriga «O'zkimyosanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi faoliyat yuritadi. «O'zkimyosanoat» DAKning asosiy vazifasi:

- kimyo sanoati korxonalarini chuqur isloh qilish va xususiylashtirish, ushbu maqsadlar uchun chet el va mamlakatimiz investorlarini keng jalb etish;

- tarmoqni rivojlantirishning kimyo sanoatini barqaror rivojlantirishga, respublikaning mineral o‘g‘itlariga hamda kimyo mahsulotlarining boshqa turlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashga yo‘naltirilgan o‘rtacha va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- kimyo mahsulotlari tashqi bozorining marketing tadqiqotlarini amalga oshirish hamda shu asosda eksport salohiyatini kengaytirishni ta’minlash, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish va ularni eksportga yetkazib berish;
- kimyo sanoatini zamonaviylashtirish, rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta jihozlashga yo‘naltirilgan yagona texnika siyosatini o‘tkazish, resurslarni tejaydigani samarali texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni va butlovchi buyumlar tayyorlashni mahalliy lashtirishni rivojlantirish;
- menejmentning zamonaviy usullarini egallagan va bozor sharoitlarida samarali ishlashga qodir bo‘lgan muhandis-texnik va boshqaruvi kadrlari malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash kabi vazifalar yuqoridaqgi Qarorda belgilab berildi.

Kompaniya korxonalarini xorijiy investorlarni jalb qilgan holda bosqichma-bosqich ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish tadbirlarini belgilangan tartibda amalga oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo‘mitasi va «O‘zkimyosanoat» DAKga kimyo sanoati korxonalarini xususiy lashtirish uchun xorijiy konsalting va baholash kompaniyalari, moliyaviy agentliklarni jalb etishib, buning uchun zarur mablag‘lar ajratildi. «O‘zkimyosanoat» DAKga maqsadli Kimyo sanoati tashkilotlarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘ armasini tashkil etish huquqi berildi.

**«O‘zqishloqxo‘jalikkimyo» XAJning huquqiy asoslari.** Qishloq xo‘jalik korxonalariga mineral o‘g‘it, organik o‘g‘it va o‘simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalarini yetkazib berish va servis xizmatlari ko‘rsatish 2004- yilgacha «O‘zqishloqxo‘jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik kompaniyasi va ularning viloyat, tuman va tumanlararo birlashmalari zimmasida edi.

Mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni himoya qilish, kimyoviy vositalarni ishlab chiqarish va sotilishini yaxlit tuzilmasini yaratish, ularning qishloq xo‘jaligiga yetkazib berilganligi uchun hisob-kitoblarning o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishini ta’minlash, hududiy agrokimyo xizmatlarining mas’uliyatini oshirish, ular va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilash maqsadida, 2004-yil 23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo‘jaligiga agrokimyo xizmati ko‘rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi.

Bu Qarorga ko‘ra, «Qishloqxo‘jalikkimyo» DAK tugatildi. «Qishloqxo‘jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik birlashmalari «O‘zkimyosanoat» DAK

tarkibiga berilib, «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatlarining vazifasi qilib quyidagilar belgilab berildi:

- o'z tumanlararo va tuman filiallari orqali tegishli hudud bo'yicha haqiqiy talabni o'rganishni buyurtmanomalarda umumlashtirish hamda pirovard iste'molchilar – qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bilan mineral o'g'itlar va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarining aniq turlarini yetkazib berish yuzasidan shartnomalar tuzish;

- har yili 1-oktabrdan kechiktirmay, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarning buyurtmanomalarini umumlashtirish asosida respublika viloyatlari bo'yicha mineral o'g'itlar va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalariga bo'lgan ehtiyoj bashoratini shakllantirishni hamda mineral o'g'itlar va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalarida ishlab chiqarish bo'yicha kelgusi yil dasturini o'z vaqtida tayyorlash uchun «O'zkimyosanoat» DAKga taqdim etadi;

2004-yildan boshlab ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlarning asosiy turlarini va defoliyentlarni ulgurji sotish yuzasidan tashkil etiladigan yarmarka savdolarida «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatlar ulgurji xaridorlar sifatida ishtirok etadilar.

«O'zkimyosanoat» DAKning mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan vositachilik shartnomalari bo'yicha va «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatlarining omborlarida javobgarlik ostida saqlash uchun mineral o'g'itlar jo'natish taqiqlangani uchun, «O'zkimyosanoat» DAK tarkibiga kiruvchi mineral o'g'it ishlab chiqaruvchi korxonalarga maxsus jihozlangan omborxonalar ajratib berildi. Shuningdek, yuqorida qarorga binoan «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatlarining chakana savdo tarmog'i orqali dehqon va fermer xo'jaliklariga sotiladigan mineral o'g'itlar va kimyoviy preparatlarga qo'shilgan qiymat solig'ining olib tashlanishi «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatining huquqiy asosini kuchaytirdi.

**Mineral o'g'itlardan foydalanish yo'llari.** O'simlik uchun yorug'lik, issiqqlik, havo, suv va oziq moddalarini talab darajasida bo'lsa, uning rivojlanishi va hosil to'plashi yuqori bo'ladi. Shulardan biri mineral oziq moddalariga azot, fosfor, kaliy, magniy, kalsiy, oltingugurt, temir moddalarini kiradi. Mikroelement oziq moddalariga bo'r, marganets, rux, mis, molibden, kobalt va boshqalar kiradi.

O'simliklarning asosiy oziq elementi azot, fosfor va kaliy bo'lib, o'simlik ildizlari orqali mineral o'g'it holida, ba'zan esa organik holida oziq moddalarini tuproq orqali oladi. Dehqonchilikda foydalani layotgan oziq moddalar mineral va mahalliy o'g'itlardan iborat bo'lib, qattiq va suyuq holda ishlatiladi.

**Azotli o'g'itlar.** «Azot» so'zi grekcha bo'lib, aslida «hayotni to'xtatmoq» yoki «hayot to'sig'i» ma'nosini beradi. Azot bиринчи марта 1774-yilda havодан олинган. У о'simlik hujayrasining protoplazma tarkibini tashkil etuvchi modda bo'lib, oqsil moddalar asosini tashkil etadi. Bundan tashqari, у о'simlik hayoti uchun zarur bo'lган organik moddalar birikmasining hosil bo'lishida ham faol ishtirok etadi. Bunday organik birikmalar, alkaloid, fosforid, xlorofill va shu kabi ferment molekulalari tarkibida ham bo'ladi. Akademik D.N. Pryanishnikovning aniqlashicha, azot ishtirokisiz oziq moddalari hosil bo'lmaydi. Shuning uchun ham azot boshqa oziq moddalari qatori o'simlik hayotida katta ahamiyatga egadir. Azot me'yori yetarli bo'lmasa, o'simlik sust rivojlanadi, hosil kamayadi. Olingen hosil sifatsiz bo'ladi. Azot me'yordan ko'p solinsa ham, hosil sifatsiz bo'ladi. Demak, unga belgilangan me'yorda azot solish kerak.

Tuproq tarkibida mavjud bo'lган azot va fosfor hisobiga dehqonchilik madaniyatini rivojlantirib bo'lmaydi. Chunki uning umumiy miqdorida 1-2 foizgina mineral birikmalarni tashkil etadi. Shuning uchun madaniy o'simliklar mineral o'g'itlar bilan belgilangan agrotexnika qoidalari asosida muddatidagina oziqlantiriladi.

Azotli o'g'it turlaridan eng ko'p ishlab chiqarilayotgani ammiakli selitra bo'lib, uning tarkibida 34,5 foiz oziq moddasi bor. Bu o'g'itdan barcha ekinlarni oziqlantirishda foydalaniladi.

Qishloq xo'jalik ekinlariga mineral o'g'it berish fizik va ta'sir etish birligida beriladi. Unda o'g'itning natural ko'rinishi fizik birligi bo'lib, uning tarkibiy elementlarining o'simlikka bevosita ta'sir etishi oziq moddasi bilan belgilanadi. O'simliklarga, asosan, ta'sir etish ozuqa birligida hisob-kitob va o'g'itlar taqsimoti orqali olib boriladi. Shunga asosan o'g'itlarning tarkibiy tuzilishi jadval(7.3.1.)da keltiriladi.

**Fosforli o'g'itlar.** Fosfor ham xuddi azot singari o'simlik hayoti uchun eng zarur bo'lган oziq moddalaridan biri bo'lib, murakkab oqsil turiga kiradi. O'simlik fosforni neorganik holatda mineral birikmasini, ya'ni  $N_2RO_4$  ko'rinishida, shuningdek, uncha ko'p bo'lмаган miqdorda  $NRO_4$  ko'rinishidagi birikmani ham o'zlashtiradi. O'simlik tarkibidagi fosfor o'zlashtirishiga qarab organik va neorganik holatda bo'ladi. Organik fosfatlar tuproq tarkibidagi fosforning uncha ko'p bo'lмаган qisminigina tashkil etadi. Ularning ko'p yoki oz bo'lishi tuproqdagi organik moddalar miqdoriga bog'liq bo'lib, umumiy fosforning 10 foizidan oshmaydi. Organik fosfatlar o'simliklarning fosfor bilan oziqlanishida katta rol o'ynaydi.

O'simlik normal o'sishi uchun tuproqdan organik fosfatlar o'zlashtirishi kerak. Bu esa tuproqda juda oz miqdorda bo'ladi. Minerallashgan fosforlar ammoniy sulfat eritmasi yoki karbonat angidridga boy bo'lган suv orqali so'riladi. Bular

harakatchan yoki o'zlashtiriladigan fosforlar deb yuritiladi. Tuproq qatlami chuqurlasha borgan sari fosfor miqdori kamaya boradi. Harakatchan fosforning yerdagi miqdori fasllarga qarab ham o'zgarib turadi. Bundan tashqari, yerni mutazam ravishda ishlab turish va o'g'itlash natijasida ham harakatchan fosforlar miqdori o'sib borishi mumkin. O'simliklarni o'g'itlashdan ilgari, yerdagi mavjud bo'lgan fosforlar miqdorini qat'iy hisobga olish lozim.

### 7.3.1-jadval.

#### **Respublika qishloq xo'jaligida ishlatilgan mineral o'g'it ko'rsatkichlari tahlili.**

Ming tonna, 100 % sof holda

Yil-lar	Azot	Fosfor	Kaliy	Shu jumladan, paxta uchun				Hosil-dorligi, s/ga	Ishlatilgan kg/ga		
				Maydoni ming ga	Azot	Fosfor	Kaliy		Azot	Fos-for	Kaliy
1986	717,7	379,9	185,36	2058,8	500,3	244,84	128,71	24,3	243	119	63
1987	748,8	448,3	189,6	2113,7	507,3	288,3	131,67	23,0	240	136	62
1988	756,7	420,7	222,2	2020,8	499,13	265,67	146,82	26,6	247	132	73
1989	685,5	420,3	200,1	1970,6	472,94	264,06	147,79	26,8	240	134	75
1990	623,6	418,6	189,4	1813,9	421,7	233,80	120,84	27,6	231	129	66
1991	635,2	436,80	147,0	1720,5	410,06	244,80	86,92	27,0	238	192	50
1992	568,1	358,0	118,5	1667,0	388,4	201,42	74,89	24,8	233	121	46
1993	633,1	303,5	35,7	1695,2	420,8	182,6	29,6	25,0	248	108	17
1994	450,5	143,3	0,68	1534,7	326,3	96,28	0,62	24,1	213	63,0	0,5
1995	453,6	110,6	-	1484,8	292,62	64,66	-	22,3	191	43,5	-
1996	549,0	107,0	22,4	1477,2	314,59	62,12	13,62	22,6	213	42	9
1997	705,4	199,4	143,8	1408,6	361,75	109,68	66,53	23,0	258	78	47
1998	666,2	109,8	48,4	1531,7	353,09	67,63	38,40	21,6	230	44	25
1999	586,7	154,1	35,0	1557,4	391,46	79,94	26,13	23,8	192	53	17
2000	561,0	110,3	15,3	1444,4	290,0	62,0	6,5	21,1	201	43	4
2001	511,5	100,1	6,7	1451,9	281,96	50,24	4,51	23,3	194	35	3
2002	561,51	172,14	15,32	1411,8	303,3	86,48	10,36	22,7	215	61	7,3
2003	530,17	133,82	11,51	1392,7	263,51	76,73	6,31	21,8	189	55	4,5
2004	587,26	149,44	25,00	1430,4	308,63	65,15	23,51	22,3	216	46	16
2005	598,92	150,90	25,00	1426,0	302,03	67,83	17,69	25,2	212	48	12
2006	565,11	120,83	26,00	1391,4	308,5	52,10	12,57	25,6	222	37	9

7.3.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, Respublikamizda 1986-yilda azot 717,7 ming tonna ishlatilgan bo'lsa, 2006-yilga kelib 565 yoki 152,6 tonna kam ishlatilmoqda. Fosfor o'g'itni 379,9-120,8 yoki 259,1 ming tonna, kaliy o'g'iti 185,3-26,0 yoki 159,3 ming tonna kam ishlatilmoqda. Lekin paxta ekin maydoni 2058,8 ming gektardan 1391,4 ming gektarga yoki 667,4 ming ga kamaygan. Ekin maydoni va o'g'it ta'minoti kamayishi bilan paxta hosildorligi 24,3-25,6 s/ga ga yoki 1,2 s/ga oshdi. Shunday qilib, me'yor bo'yicha o'g'it ta'minoti kamayishiga qaramasdan undan tejaml foydalanish zarur.

Ilmiy tekshirish institutlari tomonidan me'yorlar ishlab chiqilgan bo'lib, ta'minot tashkilotlari tomonidan fermerlarga o'g'it fondlari belgilanadi (7.3.2-jadval).

### 7.3.2-jadval.

#### **Asosiy qishloq xo'jalik ekinlariga beriladigan madaniy o'g'itlarning ilmiy asoslangan o'rtacha me'yorlari, (kg/ga).**

100 % sof modda hisobida

Nº	Ekin turlari	Azot	Fosfor	Kaliy
1	Boshqoli don ekini: sug'oriladigan lalmi	150-200 50-60	100-120 40-50	50 -
2	Makkajo'xori (don uchun)	180-220	120-140	85-90
3	Sholi	200-220	140-145	150-180
4	G'o'za, sh.j. o'rtacha tolali ingichka tolali	215-240 230-250	145-165 155-165	95-100 100-110
5	Kanop	160-180	130-140	80-90
6	Tamaki	120-150	80-100	40-45
7	Kartoshka	120-150	85-100	60-75
8	Sabzavot	145-200	100-110	70-75
9	Poliz	50-75	100-110	45-50
10	Ozuqabop idizmeva	220	90	60
11	Makkajo'xori (silos uchun)	200	90	60
12	Eski beda	100	90-100	50-60
13	Meva beruvchi bog'	120-130	85-90	65
14	Meva beruvchi tokzor	135-140	90-95	70
15	Tutzorlar	100	60	40

**Kaliyli o'g'itlar** ham boshqa asosiy o'g'itlarga o'xshab o'simliklarning normal rivojlanishi uchun zarurdir. Tajribalarning ko'rsatishicha, har yili yerga solinadigan azot va fosforli o'g'itlar miqdori oshib borgan sari nihollarning kaliyli o'g'itlarga bo'lgan talabi ham ortib borar ekan.

Kaliyli o'g'itlar ikkita guruhg'a bo'linadi. Xlorli va xlorsiz. Kaliyli o'g'itning xlorli bir necha turlari mavjud (xloristiy kaliy, kaliy tuzi va boshqa). Xlorsiz kaliy o'g'iti asosan, kompleks o'g'it tarkibida keladi.

Respublika agrar tarmog'ida asosan, ma'dan o'g'itlardan samarali foydalanish uchun barcha huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslar yaratilmoqda. Sobiq ittifoq davrida ko'pchilik o'g'itlarning komponentlari hamdo'stlik davlatlari – Rossiya Federatsiyasi, Belorus va Qozog'iston Respublikalaridan olib kelib tayyorланardi. Endilikda mahalliy xomashyodan keng foydalaniilib, ma'dan o'g'itlar ishlab chiqarilmoqda.

**Murakkab o'g'itlar** – kimyoiy yo'l bilan olinadigan kuchli ta'sir qiladigan oziq elementlari bo'lib, tarkibida gomogen borligi bilan boshqa o'g'itlardan farq qiladi. Shuningdek, o'g'itlarni bu turiga murakkab aralash o'g'itlar ham kiradi. Ular ayrim o'g'itlarga kislota va ammiaklarni aralashtirish yo'li bilan olinadi.

**Aralash o'g'itlar** – bir xildagi o'g'itlarni bir-biriga mexanik usulda aralashtirish yo'li bilan olinadi.

**Kompleks o'g'itlar** – tabiiy fosfatlar azot kislotalari bilan aralashtirib yoki sulfat kislota hamda superfosfatni ammiak va ammiakatlar bilan birligida ishlash yo'li orqali olinadi.

Respublika qishloq xo'jalik korxonalarida keyingi yillarda tuproq unumdorligining pasayib borayotganligiga birinchi sabab, mineral o'g'itlar turi va oqilona foydalanimayotgani bo'lsa, ikkinchi sabab, tabiiy imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanimayotganidir. Tuproq unumdorligini oshirishda tabiiy imkoniyatlardan biri, almashlab ekishga qat'iy rioxaya qilishdir. Qishloq xo'jaligi ekinlаридан olinadigan hosilning yarmi mineral o'g'itlar hisobiga to'g'ri keladi. Ekinlarni almashlab ekish, dalaga mineral o'g'itlarni o'z vaqtida me'yorida va o'z muddatlarida ishlatish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Shuning uchun mineral o'g'itlarning me'yorini belgilashda hosil miqdori, tuproq unumdorligi, almashlab ekish, tuproq eroziyasi, sho'rланish va boshqa omillarga e'tiborni qaratish lozim. Bu sharoitni respublika qishloq xo'jalik korxonalar hamda xorijiy davlatlar qishloq xo'jaligida ham asosiy e'tiborni qaratadi. Respublikaning turli xil tuproq iqlim sharoitlarida paxta hosili uchun o'rtacha gektariga 200-250 kg azotli, 140-175 kg fosforli, 100-125 kg kaliyli o'g'itlar ishlatiladi.

AQSHda esa 150 kg azotli, 90-100 kg fosforli, 70-80 kg kaliyli o'g'itlar, Xitoyda 150-180, 100-120, 80-100 kg ga to'g'ri kelmoqda. Boshqoli don ekinlarining o'rtacha 1 hektar g'alla maydoniga Respublikada 150-200 kg azotli, 100-140 kg fosforli, 60-70 kg kaliyli o'g'itlar ishlatiladi. Rivojlangan chet mamlakatlardan Fransiyada azotli

o'g'it miqdori 125, fosforli 85, kaliyli 100 kg. Germeniyada 195, 100, 135. Yaponiyada 145, 162, 135. Xitoya 130, 80, 52. Hindistonda 150, 75, 50 kg ga to'g'ri kelmoqda. Respublika paxta va g'allachiligidagi ishlatalidigan o'g'itlar miqdori chet davlatlarga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun mayjud o'g'itlardan samarali foydalanib, o'g'it hisobiga yetishtirilayotgan hosilni oshirish chora-tadbirlarini ko'rish zarur.

**Organik o'g'itlardan foydalanish va uni ko'paytirish yo'llari.** Organik o'g'itlar tarkibida azot, fosfor, kaliy, kalsiy va o'simliklarni oziqlantrish uchun kerak bo'lgan boshqa elementlar, shuningdek, tuproqqa ijobiy ta'sir etadigan organik moddalar bo'ladi. Organik o'g'itlar tarkibida azot, fosfor va kaliy miqdori mineral o'g'itlar tarkibidagiga qaraganda kamroq bo'ladi, shunga ko'ra ularni uzoqqa tashib bo'lmaydi, to'plangan joyidan olib foydalaniлади va shuning uchun ham **mahalliy o'g'itlar** deb ham yuritiladi. Organik o'g'itlarga hayvonlar go'ngi, turli xil kompostlar, ko'k o'tlar kiradi.

**Go'ng** – eng muhim organik o'g'it hisoblanadi. Go'ngning tizimli ishlatalishi yerning oziqligini, suvliligini va havo tizimini yaxshilaydi, gumus tarkibini va mikrobiologik tarkibini yaxshilaydi, achchiq mineral o'g'itlarning zararli ta'sirini kamaytiradi. Shuningdek, atrof-muhitga ta'siri juda kam. Agroximiya laboratoriyanining tahlil natijalariga ko'ra, yirik shoxli qoramolning go'ngida umumiyl azot miqdori o'rtacha – 0,54 foiz, shundan: ammiakli – 0,70 foiz, fosfor – 0,28 foiz, kaliy – 0,60 foiz, organik oziqlar – 21 foiz, suv – 65 foiz. C:N=19:1 bog'lanishda. Ilmiy-tadqiqot ma'lumotlariga qaraganda go'ngning o'rtacha me'yori (gektariga 20 – 30 tonna) birinchi yili yerga solinganda hosildorlikni o'rtacha hisobda gektariga don ekinlarida 6–7 s., kartoshkada 60–70 s., ildizmevalilar va silosbop ekinlarda 150–200 s.ga oshiradi. Shuningdek, keyingi yillarda ham ekinlar hosildorligini oshiradi. Suyuq holdagi go'ngda ham azot va kaliy ko'proq bo'lib, u o'simliklar tomonidan oson o'zlashtiriladi.

1 tonna go'ngda azot (N), fosfor ( $P_2O_5$ ) va kaliy ( $K_2O$ ) ning miqdori taxminan 14 kg; organik oziqlar – 210 kg, qolgani suvni tashkil qiladi. Zamonaviy mineral o'g'itlarda oziq moddalar konsentratsiyasi o'rtacha 36 foizni, 1 tonnada 360 kgni, ya'ni go'ngga nisbatan 26 marta ko'proqni tashkil etadi.

Mineral o'g'itdagagi oziq modda elementlari aralashmasi (konsentratsiyasi) ortib borishi davom etsa, go'ng tarkibida esa tez kamayib boradi.

Kuniga 30-40 tonna go'ngning parchalanishidan 35 dan 65 kggacha  $CO_2$  karbonat angidrid ajralib chiqadi. Bu esa o'simlikning uglerod bilan oziqlanishini ancha yaxshilaydi. O'simliklar birinchi yili go'ng tarkibidagi umumiyl fosforming taxminan 30-40 foizini va kaliyning esa 60-70 foizini o'zlashtiradi.

**Yangi go'ngning tarkibi, % da.**

Tarkibi	Somonli to'shama					Torfli to'shama	
	aralash	sigir	ot	qo'y	cho'chqa	sigir	ot
Suv	75	77,3	71,3	64,6	72,4	77,5	67,0
Organik moddalar	21	20,3	25,4	31,8	25,0	-	-
Umumiy azot	0,50	0,45	0,58	0,83	0,45	0,60	0,80
Ammiakli azot	0,15	0,14	0,19	-	0,20	0,18	0,28
Fosfor ( $P_2O_5$ )	0,25	0,23	0,28	0,23	0,19	0,22	0,25
Kaliy ( $K_2O$ )	0,60	0,50	0,63	0,67	0,60	0,48	0,53
Kalsiy ( $CaO$ )	0,35	0,40	0,21	0,33	0,18	0,45	0,44
Magniy ( $MgO$ )	0,15	0,11	0,14	0,18	0,09	-	-

Parranda go'ng o'simliklar tomonidan oson o'zlashtiriladigan tarkibida azot, fosfor va kaliy bo'lgan tez ta'sir etuvchi o'g'itlardan hisoblanadi. U hamma ekinlar uchun asosiy o'g'it sifatida beriladi. Bu xildagi o'g'it yerni asosiy ishlash vaqtida tuproqqa plug yordamida ko'mib ketiladi. Respublika qishloq xo'jaligidagi organik o'g'itlardan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki organik o'g'it tuproqning unumdorligini oshirib qolmay, ekin hosildorligini ham oshiradi. Mahsulot sifatini yaxshilaydi, undan tashqari, sovet tuzumi parchalanib ketishi bilan mineral o'g'itlarni talab bo'yicha yetkazib berish imkoniyati bo'lmay qolmoqda. Chunki ayrim ma'dan o'g'itlarini hamdo'stlik davlatlaridan olib kelishga to'g'ri kelmoqda. Bu esa o'g'it tannarxini keskin oshirib yubormoqda. Shuning uchun organik o'g'itlardan kompost tayyorlab, sug'orish orqali shimdirligil holatda ekinga berish yaxshi natija bermoqda. Paxta hosildorligini 3-4 s/ga oshirishga imkon yaratib, gektaridan 78-104 ming so'm qo'shimcha daromad keltirmoqda. Don ekinlarida esa 6-7 s/ga yoki 54-63 ming so'mni tashkil etmoqda. Oldimizda turgan asosiy muammo organik o'g'itlarni o'z vaqtida to'plab, undan sifatli kompost tayyorlab qishloq xo'jaligiga yetkazishdan iboratdir. Biz, avvalo, respublikadagi mavjud organik o'g'it hajmini aniqlab olishimiz kerak. Shunda uni talab va taklifga asosan, ta'minlab berish va undan kompost tayyolash imkoniyati yaratiladi. Organik o'g'it hajmini ikki xil usul bilan hisoblash mumkin. Birinchidan statistik ma'lumotlar orqali, ikkinchidan me'yoriy hisob-kitoblar orqali aniqlanadi. Me'yoriy ko'rsatkichlar asosida organik o'g'itni har bir hayvonot turi bo'yicha bir kunlik go'ng va uni tarkibidagi NPK miqdori asosida belgilanishini 7.3.4 -jadvaldan ko'rib chiqamiz.

### 7.3.4-jadval

#### Organik o'g'it tarkibidagi azot, fosfor va kaliy miqdori, me'yori.

Chorva va parranda turi	1 sutkadagi chiqadi-gan go'ng miqdori	1 tonna go'ngda, kg		
		(N),	(P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> )	(K <sub>2</sub> O)
Qo'y ( <i>quruq</i> ) ( <i>nam</i> )	1 kg	16	5	14
Ot	15 kg	6	3	5
Aralash	-	3.5	2	5
Qoramol	15 kg	4	2.5	5
Cho'chqa	1 kg	4	2	6
Parranda	20 gramm	34	16	8
Ipak qurti ( <i>nam</i> ) ( <i>quruq</i> )	-	25	5	-
Fekalli ( <i>o'rada</i> ) ( <i>kompost qilingan</i> )	-	4,5	1,5	1,5
	-	6	2	2

Berilgan me'yor orqali respublikadagi mavjud mollar sonini kunlik go'ng chiqarish me'yoriga ko'paytiriladi va bu yig'indini 365 kunga ko'paytirilsa, yillik me'yoriy organik o'g'it hajmini azot, fosfor va kaliy me'yorik ko'rsatkichiga ko'paytirish yo'li bilan uning tarkibidagi mineral o'g'itlar salmog'i aniqlanadi.

Respublika qishloq xo'jaligidagi mavjud qoramollar sonini bir sutkalik yoki bir yilda chorvadan chiqadigan go'ng miqdoriga ko'paytirish yo'li bilan yillik shartli organik o'g'it miqdori aniqlanadi. Masalan, 2005-yilda respublika bo'yicha yirik shoxli qoramollar soni 6534,9 ming bosh bo'lib, yillik go'ng miqdori 35778,5 ming tonnani yoki undan chiqadigan azot miqdori 143114 tonna, fosfor 89446,3 tonna, kaliy esa 178892,5 tonnani tashkil etadi. Respublika bo'yicha chorva mollarining go'ng miqdori 40067,1 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa, undagi azot – 181218,2 tonnani, fosfor – 102189,0 tonnani, kaliy – 209031,6 tonnani tashkil etmoqda. Respublika qishloq xo'jaligi uchun yillik o'g'it sarfi azot – 619 ming tonna, fosfor – 121 ming tonna, kaliy – 26 ming tonnani tapshkil etmoqda. Demak, azotning 79 foizi, fosforning 86,9 foizi, kaliyning 85,6 foizini organik o'g'it hisobiga qoplash mumkin. Shuning uchun, avvalo, chorva bosh sonini ko'paytirib ixtisoslashtirilgan holatda boqishni, yig'ilgan go'nglarni o'z vaqtida dalaga yoki o'ralarga, maxsus belgilangan joylarda kompost tayyorlash yo'lga qo'yilsa, o'g'it miqdoriga hosil miqdori ortib uning sarf-xarajatlari keskin kamayadi.

**2005-yilda Respublika qishloq xo'jaligi bo'yicha organik o'g'it hajmining aniqlanishi.**

	1 sutkada chiqqidigan go'ng miqdori, kg	1 yilda chiqqidigan go'ng miqdori, kg	Respublikada mavjud chorva soni, ming bosh	Respublikada chiqqidigan jani organik o'g'it hajmi, ming tonna	1 tonna go'ngda mineral o'g'it me'yori, kg			Respublika bo'yicha go'ngdagি mineral o'g'it hajmi, tonna		
					N	P	K	N	P	K
Yirik shoxli qoramol	15	5.475	6543.9	35778,5	4	2,5	5	143114,0	89446,3	178892,5
Qo'y va echkilar	1	0,365	11248,4	4105,7	8	2,5	7	32845,6	10264,3	28739,9
Cho'chqalar	1	0,365	87,6	32	4	2	6	128,0	64,0	192,0
Parrandalar	0,02	0,0073	20670,6	150,9	34	16	8	5130,6	2414,4	1207,2
<b>Jami</b>				<b>40067,1</b>				<b>181218,2</b>	<b>102189,0</b>	<b>209031,5</b>

Kompost tayyorlashni xo'jaliklarda amalgalash mumkin. Chorva-chilikdan olinadigan organik o'g'itlarni dala boshida yoki maxsus transheya-larda tashilib, unga talabga qarab mineral o'g'it aralashtirilib, ustini yopiq holda bir yil muddatda saqlanadi. Ekinlarni oziqlantirish muddatlarida har bir konturdagi kartogramma ma'lumotlari bo'yicha organik o'g'it beriladi. Kompost traktor va qishloq xo'jalik mashinalari yordamida tirkama usulida dalaga sepiladi. Tayyor kompost sharbat usulida ham ishlatiladi. Kompost tayyor moslama yoki suv yo'llari uyumlariga shimidirilib, suv orqali egatlarga yuborilib, o'simlik oziqlantiriladi. Suv orqali oziqlantirish samarasini yuqori bo'lib, sarf-xarajatlar tejaladi va ekologiya buzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Mineral o'g'itlarga nisbatan arzon bo'lib, u kompostni uy sharoitida ham tayyorlash mumkin.

Respublika bo'yicha 2006-yil 1-yanvar holatiga kompost tayyorlash hajmi 1170 ming tonna bo'lib, amalda 315,7 ming tonna tayyorlandi. 1 tonna kompostning qiymati 2005-yilda 1826,30 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2006-yilda 3679,80 so'mni tashkil etdi. Organik o'g'it tayyorlash reja bo'yicha 167,7 ming tonna bo'lsa, amalda

173,2 ming tonna yoki 103,4 foizga yetgan. 1 tonna organik o'g'itning o'rtacha bahosi 2286,4 so'mni tashkil etdi.

**Ko'kat o'g'itlar yoki sideratlar** – dalalarda ayrim dukkakli o'simliklarni o'stirib, tuproqni azot va organik moddalar bilan boyitish uchun tuproqqa qo'shib yuboriladi. Dukkakli o'simliklar havodagi azotni o'ziga tez o'zlashtiradi. Ko'kat o'g'itlar yig'uvchi dukkakli sideratlar tarkibida 150 – 200 kg azot bo'lgan gektariga 40 – 50 tonna ko'k massa to'planadi. Tarkibida azot tutishi bo'yicha 1 tonna ko'kat o'g'it 1 tonna go'ngga teng keladi. Lekin o'simlik ko'kat o'g'it tarkibidagi azotdan foydalanish koeffitsiyenti go'ngnikidan ikki marta yuqori (7.3.6-jadval).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jalik ekinlarining hajmi va sifatini yaxshilashda turli tadabirlar o'tkazilib, amaliyot sinovidan o'tmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, chorva mollari kam bo'lgan hududlarda ko'kat o'g'itlardan organik o'g'it sifatida foydalanib kelinmoqda. U joylarda o'z samarasini bermoqda. Shuning uchun respublikamizda g'alla mustaqilligiga erishilgan bir paytda, fermer xo'jaliklari 850 ming gektar yerga dehqonchilik qilmoqda. Shu g'alla maydonlarida ko'plab somon va boshqa ko'kat o'tlar bo'lib, uni o'g'itga aylantirish va o'z vaqtida shudgorlash orqali ham tuproqni organik o'g'it bilan boyitishimiz mumkin. Biz g'alladan bo'shagan yerlar va tarkibida mineral oziqlar ko'p bo'lgan o'simliklarni ekib ularni o'g'itga aylantirishni tavsiya etamiz.

#### 7.3.6-jadval.

O'g'itlar	Tarkibidagi oziq moddalar			
	(N)	(P <sub>2</sub> O <sub>5</sub> )	(K <sub>2</sub> O)	CaO
Aralash go'ng	5.0	2.4	5.5	7.0
Lyupinning ko'k massasi	4.5	1.0	1.7	4.7
Qashqarbedaning ko'k massasi	7.7	0.5	1.9	9.7

#### 7.4. O'simliklarni himoya qilishda servis xizmatini tashkil etish

O'simlik zararkunandalariga qarshi kurashish vositalarini ishlab chiqarish va ta'minlash tashkilotlarining huquqiy asosi 2004-yil 23-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilingandan keyin o'zgardi.

1979-yildan boshlab tashkil qilingan «Qishloqxo'jalikkimyo» hududiy birlashma tarkibiga o'tkazilgan o'simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalari respublika bazasi yuqoridagi Qarorga binoan tugatildi.

Ma'muriy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni boshqarish tuzilmasini takomillashtirish maqsadida «O'simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalari respublika bazasi» aksiyadorlik jamiyatni, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Toshkent, Jizzax va Buxoro viloyatlari chigirkaga qarshi kurashish ekspeditsiyalarini; Respublika agrokimyo stansiyasini; Respublika o'quv ishlab chiqarish biolaboratoriyasini; zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish bo'yicha diagnostika; prognoz va biometod Respublika va hududiy laboratoriyalari Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufiga berildi.

**O'simliklar zararkunandalariga va kasalliklariga qarshi kurashish zaruriyati.** Qishloq xo'jalik mahsulotlarining sifati va salmog'i ini oshirishda turli tashkiliy tadbirlar amalga oshiriladi. Ayniqsa, agrokimyoviy tadbirlarni amalga oshirish hosilni oshirib qolmay, uning sifatini ham yaxshilaydi. Shuning uchun kimyoviy vositalardan samarali foydalanishga katta e'tibor berilmoxda. Mineral o'g'itlar ekinning hosildorligini, tuproq unumdorligini va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Zaharli ximikatlar esa, zarurkunanda hasharot va kasalliklarga qarshi kurashishda qo'llaniladi. Har yili o'rtacha 1 mln. tonna paxta, 1 mln. tonna g'alla qurt, zararkunandalar tomonidan nobud bo'ladi. Bunga qarshi kurashish uchun oxirgi yillarda zaharli ximikatlarning 35000 xili sinovdan o'tkazilib, 300 dan ortiq xili amalda samarali qo'llanilib kelinmoqda. Sobiq sovet tuzumi davrida zaharli ximikatlardan foydalanish me'yorga nisbatan, ba'zan 2-3 barobar ko'p ishlatilardi. Bu ximikatlar atrof-muhitga hamda inson organizmiga salbiy ta'sir o'tkazardi.

O'simliklarga, asosan, xonqizi, kuya, oqpashsha, ko'sak qurti va boshqa hasharotlar zarar yetkazardi. Ularga qarshi kurashishda turli usullardan foydalanilardi. Asosan, zararkunandalarga qarshi kurashish samolyotda, qisman texnikada olib borilardi. Endilikda batamom samolyotda pestitsidlarni sepish to'xtatildi. O'simliklarga ishlov berish faqat texnika yordamida amalga oshirilmoqda. Inson salomatligi, atrof-muhitni muhofaza etish maqsadida turli usullardan foydalaniermoqda. Ayniqsa, biologik usul bilan kurashish yaxshi natija bermoqda. Zararkunandalarga qarshi trixogramma, gabrabrakon va biomateriallardan keng foydalaniermoqda. Bu atrof-muhitni tozalashdan tashqari sarf-xarajatlarni kamaytirish manbayidir.

G'o'zaning asosiy kasalliklari – ildiz chirishi, gommoz va vilt hisoblanadi. O'simlik zararkunandasi – tiris, ishralar, oqkanop, tunlanlar, ko'sak qurtidi.

Qishloq xo'jaligi amaliyotida ma'lum bo'lgan 30 mingdan ortiq zarar yetkazuvchi kasalliklar, 100 mingdan ortiq xavfli hasharotlar mavjud.

Ushbu kasallik va hasharotlarga qarshi samarali himoya amalga oshirilganda, g'alla ekinlari-25 %ga, paxta-27,5 %ga, qand lavlagi-25,5 %ga, kartoshka-31,5 %ga, sabzavot ekinlari-27,0 %ga, bog' ekinlari-29 %ga va uzumlarni-32 %ga oshirish imkonini beradi. Natijada o'simliklarni himoya qilishni kuchaytirish orqali mamlakatda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 25 %gacha ortadi.

Bu kasallik va hasharotlarga qarshi kurashda ko'plab preparatlar kashf qilingan va ular amaliyotda keng foydalaniłmoqda. Lekin bu zararli hasharot va kasalliklarning ayrim turlarini preparatlarga tez moslashayotganligi yangi preparatlarni kashf qilishni talab qiladi. Chunki bu qishloq xo'jaligining doimiy zaruriyati bo'lib qoladi.

**Zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashda pestitsidlardan foydalanish yo'llari.** Zararli hasharotlar qarshi kurashish kimyoiy vositalari (o'simlik zararkunandalari va kasalliklari, ildizni zararlovchilar, qishloq xo'jaligi mahsulotini buzuvchi zararkunandalar va mikroorganizmlar, insonlar va hayvonlarga kasallik tashuvchilar va zarurkunandalar) yagona nom bilan ifodalanadi – pestitsid (lotinchadan olingen Pests – zararkunanda va cide—o'ldirish).

Pestitsidlarning quyidagi asosiy turlari mavjud:

• *insektitsidlар* – zararli hasharotlarga qarshi kurashish uchun, uning turlari: afitsidlар va iseckoalaritsidlар;

• *fungitsidlар* – o'simliklarning zamburug'li kasalliklariga qarshi;

• *gerbitsidlар* – o'simlik ildiz kasalliklariga qarshi va boshgalar.

Pestitsidlarning, shuningdek, o'simlik o'sishini tezlashtirishga va sekinlashtirishga, bargni to'kishiga ishlatiladigan aralashmalar (defoliantlari); o'simliklarni qurituvchi (desikentlar), davolovchi (attraktantlar) va sterlovchi (xemostreriyantlar) turlari mavjud.

Gerbitsidlarning kimyoiy tarkibiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: anorganik va organik gerbitsidlар. Anorganik gerbitsidlар: natriy xlorit, natriy rodaniy, ammoniy sulfat, kaliy siyenid, kalsiy sianamid, sulfat kislota, natriy nitrat.

Xalqaro shartnomalarga muvofiq, nihoyatda xavfli zararkunandalarga qarshi kurash boshqa davlatlar bilan amalga oshiriladi. Gerbitsidning tanlab ta'sir etuvchi turi foydali o'simliklarga ta'sir o'tkazmay, yovvoyi o'simliklarni yo'qotadi. Yalpi qiruvchi gerbitsidlар esa barcha o'simliklarni nobud qiladi.

Gerbitsidlар eritmalar, suspenziyalar, kukun, donador holatda ishlatiladi. Mamlakat hududida, 1500 turdan ortiq zararkunandalar bor, ulardan 70 tasi xavfli va 25 tasi o'ta xavflidir. Dunyoda ularning soni 200 dan ortiq – xavfli va 80 dan ortiq – o'ta xavfli mavjud.

O'simlik zararkunandalariaga qarshi kurashish bo'yicha fungitsidlар 2 ta asosiy guruhga bo'linadi:

1. O'simlik kasalliklarini davolash (tarqalish) yoki oldini olish maqsadidagi himoya aralashmalar (preparat) mis va simobning noorganik aralashmasi, sineb, polikarbatsin, kaptan, fitalen va boshgalar. Himoyalovchi fungitsidlар kaptangli yoki sistemali ta'sir etuvchi turlar bo'lishi mumkin.

2. Davolovchi aralashmalar (preparatlar), temir kuporosi, nigroaralashma, figon, polisulfad.

Jahonda fungitsidlarning 100 dan ortiq turi mavjud.

Urug'larni profilaktik dorilash – qishloq xo'jalik ekinlarining kasalliklariga qarshi kamyoviy kurashning samarali bir turidir. Dorilar zararli mikrofloralarni neytrallashtiradi, kombinatsiyalashgan dorilar esa tuproq kasalliklariga qarshi kurashishi kerak. Rtutorganik dorilar universal zamburuqqa qarshi va bakteriyalarga qarshi ta'sir etuvchi xarakterga ega. Kamyoviy urug'larni dorilashdan tashqari ayrim o'simlik urug'larini dorilashga (sholi, sabzavot, g'alladan) biopreparatlar (antibiologiklar) qo'llaniladi.

Respublikada agrokamyoviy xizmat ko'rsatish takomillashib bormoqda. Bu esa qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l hosil olish, uni to'la saqlash va erta yetiltirishda muhim rol o'yamoqda. Qishloq xo'jaligi ekinlari va hosilni ekologik usulda himoya qilishda zararkunandalarga qarshi kamyoviy kurashish ham davom ettirilmoqda. Chunki ekinlar va ular hosilining 1 mln. tonnasi zararkunandalar va kasalliklar evaziga nobud bo'ladi. Hasharotlarga qarshi o'z vaqtida, ta'sirchan chora–tadbirlar ko'rilmasa, fermerning yil davomida qilgan mehnatlari behuda ketishi mumkin.

Fermerlar ko'sak qurti keltiradigan ofatni yaxshi biladilar. Har yili ko'sak qurti 50-60% hosilni nobud qilishi mumkin.

Kemiruvchi zararkunandalar, ildiz qurti va ko'sak qurtlari hosilni zararlayotganligini bevosita kuzatish mumkin. Shira va o'rgimchakkana keltirgan zarar hosil yig'ishtirib olingandan keyin ma'lum bo'ladi. Bu zararkunandalardan zaiflashgan ko'chat kam hosil beradi va to'liq pishib yetilmaydi.

Zararkunandalarga qarshi kurashni va profilaktika ishlarini to'g'ri tashkil etish zarur. Zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurashni to'g'ri tashkil qilish uchun zararkunandalarning paydo bo'lish paytini, tarqalgan ko'lamini va zarar keltirish davrini aniq bilish lozim. Shuning uchun qishloq xo'jalik ekinlariga zarar yetkazayotgan asosiy zararkunandalarning turlari, hayoti, tarqalishi, hosilga yetkazayotgan zararini o'rganamiz.

**ILDIZ QURTI** – 160 turdan ko'proq o'simliklarni, jumladan, makkajo'xori, g'o'za, ildiz mevali va kuzgi g'alla ekinlarini kuchli zararlaydi. Ildiz qurti respublikada keng tarqalgan. Ildiz qurti kapalagining qanotlari yozilganda, 4 smgacha yetadi. Oldingi qanotlari qo'ng'ir yoki sarg'ish rangda tovlanib turadi. Oldingi qanotining qoramtilr yuraksimon dog'i bor, keyingi qanotlari oq. Tuxumi gumbazsimon, oqish, sirti qovurg'achali, rivojlangan sari qoraya boradi. Qurtning uzunligi 5 sm gacha yetadi. Ekilgan chigitni yoki endi unib chiqayotgan g'o'za ildizini shikastlab, nihollarni siyraklashtirib yuboradi. Ildiz qurtini aniqlash uchun, ertalab dalalar ko'zdan kechirilsa, yangi yiqilgan yoki so'ligan ko'chatlarning tagi 5-10 sm qazilsa, rangsiz yoki yer osti rangiga o'xshagan kichkina, bir- ikki yoshli yoki kulrang uch-besh yoshli qurtlarni ko'rish mumkin. Ildiz qurtining boshqa qurtlardan farqi shuki, uni

qoʻlga olish bilan darrov kulcha koʻrinishida oʻralib oladi. Ildiz qurti bir yilda uch marta avlod beradi. Paxtachilikda, asosan, birinchi avlodni oʻta zararli hisoblanadi. Kapalaklar mart oyining oxiri, aprel oyining boshida ucha boshlashadi. Har bir kapalak oʻrtacha 500-600 tadan tuxum qoʻyadi.

**1. Agrotexnik tadbirlar** – ekindan boʼshagan yerlarni kuzda chuqur shudgorlash, yaxob suv berish, dala chetlaridagi ildiz qurtlari qishlaydigan begona oʼtlarni olib tashlash, ekin maydonlarining atrofidagi tut daraxtlarini butash va ostini yumshatish zararkunanda tarqalishining oldini oluvchi asosiy omillardir. Mart oyining oxiri, aprel oyining boshlarida ildiz qurtining kapalaklariga qarshi zararlangan maydonlarda yagona va oʼtoq qilish maʼlum muddatga kechiktirilib turiladi.

**2. Biologik usul** – bunga uch marta trixogramma tarqatiladi. Dastlab ildiz qurti tuxum qoʼyishi boshlanishi bilan har gektar hisobiga 60 ming, ikkinchi marta 80 ming dona, uchinchi marta 60 ming dona trixogramma tarqatiladi.

**3. Kimyoiv usul** – tunda ildiz qurtiga qarshi har gektar maydon hisobiga 60 kg kunjara, Karate 0,5 l, Siperfos 1,5 l yoki NRU – 0,5 aggregatlari yordamida gʼoʼza ekilgan maydonlarga tunda sepiladi.

**Oʼsimlik bitlari (shiralar)** – bu zararkunanda oʼsimlik shirasini soʼrib oziqlanadi. Natijada koʼchat nimjonlashib, bir muncha rivojdan orqada qoladi. Gʼoʼzaning birinchi mevalari pishib yetilmay, nochorlikdan ochiladi, tolosi sifatsiz boʼladi. Shira 20-26 marta avlod beradi. Asosan, tirik tugʼishi oqibatida issiq kunlari 6-8 kunda bir marta avlod beradi, bitta urgʼochi shira 50-100 donagacha tirik tugʼadi. Shiralar erta va kech kuzda koʼplab tarqaladi. Shiralar, asosan, gʼoʼza unib chiqishi bilan paydo boʼlib, oktabr oyigacha hayot kechiradi. Erta bahorda – mart oyida, havo harorati 5 darajagacha isiganda qishlovdan chiqadi.

**TRIPS** – juda mayda zararkunanda boʼlib, uning uzun ikki juft qanoti bor, ogʼiz apparati sanchib soʼrvuchi, tusi oqish, sariq rangli boʼladi. Katta yoshdagisi, asosan, oʼsimlik qoldiqlarida qishlab qoladi. Erta bahorda begona oʼtlarda, keyinchalik gʼoʼzada rivojlanib koʼpayadi. Trips lichinkasining kattasidan farqi shuki, uning qanoti boʼlmaydi. Trips yangi unib chiqqan gʼoʼza nihollarining oʼsish nuqtasini zararlaydi, natijada gʼoʼza nihollari shoxlab ketadi. Trips 6-7 marta avlod berib, bitta urgʼochi 60 donagacha tuxum qoʼyadi.

**1. Agortexnik tadbirlar** – shira-tripsga qarshi yer maydonlarini oʼsimlik qoldiqlaridan tozalash, yerlarni ikki yarusli pluglarda chuqur haydash, yaxob berish, almashlab ekishni joriy etish, chigitni oʼz muddatida ekish, gʼoʼza nihollarini shira-tripsga qarshi chidamliligin oshirishda, har gektar maydonga 4,5 kg karbomid bilan 200 gramm kir yuvish poroshogi qoʼshib, 300 litr suvda eritib sepiladi. Imkoniyatga qarab, karbomid oʼrniga har gektar maydoniga 10 litrdan ammiakli suvni 300 litr suvgaga aralashtirib sepish ham mumkin.

Trips kuchli zararlangan maydonlarni zudlik bilan sug'orib, qo'shimcha oziqlantirish ham, asosiy agrotexnik tadbirlardan biri hisoblanadi. Zararlangan maydonlardan yagona va o'toq qilish paytida yilib olingan g'o'za va begona o'tlarni dala chetiga olib chiqib ko'mib tashlash shart.

**2. Biologik usul** bilan kurashishda oltinko'zdan foydalilanadi. Bunda maydonning zararlanish darajasiga qarab, har hektar maydonga 200 donadan 1000 donagacha oltinko'z tuxumi yoki lichinkasi tarqatiladi.

**3. Kimyoviy usul** ipak qurti uchun tut bargi kesib olingandan keyin boshlash kerak. Bunda har bir hektariga karbofos – 0,2 l/ga, siraks – 2,0 l/ga, karate-0,5 l/ga miqdorida OVX –28 agregati va qo'l apparatlari yordamida sepiladi.

**O'RGIMCHAKKANA** – g'o'zaning eng xavfli zararkunandalaridan biri bo'lib, o'simlik shirasini so'rib oziqlanadi. Ertabahordan to kech kuzga qadar hosilga zarar yetkazadi. O'rgimchakkanaani aniqlash uchun, g'o'za bargining orqa tomoni oq qog'ozga qoqib ko'rildi, agar qog'ozda harakatlanayotgan mayda sarg'ish, och qizil rangli nuqtalar ko'rinsa, demak shu o'simlikni o'rgimchakkana zararlayotgan bo'ladi. O'rgimchakkananing zararini oddiy ko'z bilan qaralganda, barglar va yosh hosil nishonalari to'kilib ketganda aniqlash mumkin. O'rgimchakkana bilan zararlangan maydonlardagi g'o'za nihollari o'sishdan orqada qoladi, kuchli zararlangan maydonlarda 40-60% gacha hosil nobud bo'lishi mumkin. Zararkunanda, asosan, agrotexnik tadbirlar buzilgan, rivojdan qolgan, atrofida tut daraxtlari va dala yo'llari bo'lgan maydonlarda tez tarqalib, hosilga sezilarli zarar yetkazadi.

O'rgimchakkana mavsumda 18-22 martagacha avlod berib, bitta urg'ochi o'rgimchakkana 100-160 tagacha tuxumni barg orqasidagi o'zi hosil qilgan o'rgimchak iplari bilan o'ralgan qismiga to'p-to'p qilib qo'yadi. Yoz oylarida har 7-8 kunda bitta avlod beradi.

**1. Agrotexnik tadbirlar** – erta bahorda dala betlaridagi tut daraxtlari va uvatlarga ohak – oltingugurt qaynatmasi (ISO) ha'mda o'rgimchakkana bilan zararlangan maydonlarga oltingugurt kukuni bilan ishlov berish, to'liq zararlangan g'o'za nihollarini yilib olib, dala tashqarisiga ko'mib tashlash, kultivatorlarga oltingugurt xaltachalarini o'rnatish zararkunandaning tarqalish xavfini kamaytiradi.

O'rgimchakkana ko'llatib sug'orilgan, kultivatsiya muddatlari o'tkazib yuborilgan va o'ta chanqatib qo'yilgan maydonlarda tez tarqaladi. Shuning uchun agrotexnik tadbirlarni o'z muddatida o'tkazish lozim.

**2. Ob-havoning quruq va o'ta issiq bo'lishi hamda muttasil esib turadigan shamollar** ham o'rgimchakkananing tabiiy kushandasini hisoblanadi. Zararlanish darajasiga qarab, har hektar maydonga 300-500 donadan oltinko'z lichinkasi chiqariladi.

**3. Kimyoviy usul** – o'rgimchakkananing tuxumiga qarshi Nissoran 0,2 kg/ga, tuxumlardan o'rgimchakkana chiqqanda omayt 1,5l/ga, dargit 1,5 l/ga, uzmayt 3kg/ga miqdorida kimyoviy vosita, albatta, barg ostiga, ya'ni zararkunandaning o'ziga tegishi shart.

**KO'SAK QURTI** – g'o'zaning eng asosiy zararkunandasi hisoblanadi. 3-4 marta avlod beradi. Paxtachilikda 2-3 avlod eng xavfli hisoblanadi. Har bir kapalak 1500-3000 donagacha tuxum qo'yishi mumkin. Sharoitga qarab 4-8 kunda tuxumdan qurt chiqadi. Zararkunanda ko'p tarqalgan paytlar paxta hosilining 40-50 foizini nobud qiladi. Ko'sak qurti tayyor meva, gul, shona va tugunchalarini zararlaydi. Bir dona qurt paxtaning 20 ta organini yeb tugatadi. Tuxumdan chiqqan yosh qurt avval shonani, shona tugagach, gulni va katta ko'saklarni zararlaydi. Qattiq zararlangan katta ko'saklar esa keyinchalik chiriydi, har 100 to'p g'o'zadan 5 tasida qurt bo'lganda ham har gektar yerda 5 ming dona qurt bo'ladi. Bu qurtlarning har biri 20 tadan hosil organini zararlasa, bir gektar 100 mingta hosil elementi yoki kamida 4 sentner hosil nobud bo'ladi.

**1. Agrotexnik tadbirdilar** – ekindan bo'shagan maydonlarni ikki yarusli qilib, chuqr shudgorlash, qish kunlarida yaxob suv berish yo'li bilan ko'sak qurtining tabiatdagagi birinchi avlodni ko'payishining oldi olinadi. Shaxsiy tamorqalardagi pomidor, g'o'za, don maydonlari chetlariga feromon, o'suv davri davomida har bir gektar maydonga ikki donadan feromon tutqichlar o'rnatiladi.

**2. Biologik usul** – ko'sak qurtining tabiatdagagi birinchi avlodni begona o'tlarda va pomidorda tarqalib, g'o'zada esa ikkinchi avlodni shonalash paytida tuxum qo'yishni boshlaydi. Bu may oyining 1-2 dekadasiga to'g'ri keladi. Shu jumladan, tuxumlardan qurt chiqishining oldini olishga e'tibor berish zarur, buning uchun biousul bilan ishlanadigan har bir gektarga 60000 dona trixogrammani 5x5 metr sxemada 400 ta joyga tarqatish kerak. Aks holda biologik usul samara bermaydi. Chunki trixogramma uzoqqa ucha olmaydi. Oradan 4-5 kun o'tgandan so'ng, 2-marotaba va yana shuncha kundan keyin 3- marotaba trixogramma tarqatiladi. Umuman, ko'sak qurtining har bir avlodiga qarshi yangilangan 200 ming dona aktiv trixogrammani havoning salqin paytida tarqatish tavsija etiladi. Paykallardan ko'sak qurti tarqalgan taqdirda esa, otalangan urg'ochi xabrabkondan o'rtacha 1:10 nisbatda, ya'ni 10 dona qurtga qarshi 1 dona xabrabkon tarqatiladi. Ko'sak qurtining 1 avlodiga qarshi kamida 2 marta xabrabkon qo'yiladi. Lekin bunday xabrabkonning aktivligi va ko'sak qurtining qalinligi hisobga olinadi. Umuman, xabrabkonni ko'plab tarqatgan ma'qul. Ko'sak qurtining tuxumi va kichik yoshdagagi qurtlarga qarshi oltinko'zdan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda har 5 ta tuxumga 1 dona va har 1 ta qurtga ham 1 dona hisobidan oltinko'z lichinkasi chiqariladi.

**3. Kimyoviy usul** – kamyoviy ishlov beriladigan maydonlarda har 100 tup g`o`zadan 8 ta qurt va tuxum bo`lsa, bu yergarning har gektariga deltafos – 1,5 l/ga, kinmiks – 0,6 l/ga, siperfos – 1,5 l/ga, karate – 0,5 l/ga, sumialfa – 0,6 l/ga miqdorida kamyoviy vositalarini sepish mumkin. Ko`sak qurti bilan birga o`rgimchakkana ham uchrasa, unda kamyoviy ishlovnii kompleks usulda olib borish mumkin. Bunda Deltafos 1,5 l/ga, Siperfos – 1,5 l/ga miqdorida qo`llaniladi.

**Ko`sak qurti bilan zararlanish darajasini aniqlashda** har gektar maydondan 1 tadan namuna olinadi. Namunada 100 ta o`simgilik bo`lib, ularning nechtasida qurti va tuxumi borligi, qurtlarning yoshlari va shu o`simglikdagi foydali hasharotlar oltin ko`z va xonqizi soni alohida hisobga olinadi. Dala nazoratchisi shu asosda tayyorlangan ma`lumotlarni zararkunandalarga qarshi kurash shtabiga yetkazishi va ana shu ma`lumotlar asosida biologik yoki kamyoviy usulda kurash olib borilishi kerak.

**Feromon tutqichlardan foydalanish** – fermer xo`jaliklarda feromon tutqichlar bilan ishlash agronom – entomolog va nazoratchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda har bir feromon tutqich belgilangan raqamga ega bo`lishi va uning natijalari nazoratchilar tomonidan maxsus daftarchaga yozib borilishi shart. Feromon tutqich bir necha asosiy qismlar: uyacha, maxsus entomologik kley, kley surtiladigan qog`oz vajinsiy feromon shimdirligani 1,5 smli rezinka naychadan iborat bo`ladi. Feromon tutqich oldindan yig`ilib, nazorat uchun avvaliga 10 gektariga bitta, kapalaklar ucha boshlagandan so`ng bir gektarga 2 donadan o`rnataladi. Uni shamol yo`nalishi bo`yicha o`rnatish maqsadga muvofiq bo`ladi. Dastavval, uch kunda bir, kapalaklar ucha boshlagandan so`ng esa har kuni nazorat qilinib, unga tushgan kapalaklar soni alohida daftarga yozib boriladi, eskrrib qolgan yelimli qog`oz yangisi bilan almashtirib turiladi. Ko`sak qurtining kapalaklari, asosan, kechki paytda va tunda uchadi. Shuning uchun ularni kechki salqinda o`rnatib, ertalab nazorat qilgach, yana yig`ishtirib olib qo`yish yaxshi natija beradi, chunki jinsiy feromon kapsulasini jazirama issiqdan saqlash hisobiga uni 10 kun emas, balki 15-20 kun ishlatish imkoniyati tug`iladi. Jinsiy feromon kapsulasinisovutgichda yopiq shisha idishlarda bir yilgacha saqlaganda ham o`z faolligini yo`qotmaydi.

## **7.5. Muqobil mashina-traktor parklarining tashkiliy va huquqiy asoslari**

Islohotlarni chuqurlashtirishning texnologik omillaridan: texnik servis ko`rsatish, qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, qishloqda texnika vositalaridan samarali foydalanish va agrotexservis xizmati tizimida raqobat muhitini vujudga keltirish maqsadida texnik servis xizmat ko`rsatuvchi nodavlat mulk shaklidagi muqobil MTPlarni tuzish obyektiv zaratratdir.

Respublika Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi № PF-3342 sonli «2004-2006- yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan mamlakatimiz bo‘yicha 2002-yilda 129 ta muqobil MTPlar tashkil etilgan bo‘lsa, 2007-yilda 292 ta yoki 2002-yildan to shu kungacha 976 ta muqobil MTPlar faoliyat yuritmoqda.

Muqobil MTPlarning huquqiy asoslari deganda, agrotexservis tizimidagi bu yangi xo‘jalik subyektini tashkil etishda va faoliyat turini belgilab berishda mavjud qonunlar, hukumat qarorlari va boshqa bir qator, me’yoriy hujjatlarni tushunish lozim.

MTPlarning tashkiliy asoslari qanday va qaysi mulk shakli asosida tuzish, ularning moddiy-texnika bazasini shakllantirish va mustahkamlash hamda boshqa bir qator tashkiliy masalalar ham kiradi.

Tashkiliy tomondan bu korxonalar aksioner jamiyatning, ya’ni texnika ishlab chiqaruvchi zavodning ikkilamchi tuzilmasidir (ustav kapitalining 20% aksioner jamiyatga tegishlidir). Texnik markazlar u yoki bu hududda mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi zavodlarning vakili sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Shu sababli ularning vazifalariga mashinalar, uskunalar, ehtiyoq qismlarni sotish, ularni sotishga tayyorlash, montaj va ishlatish, kafolat muddati davomida va undan keyingi texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash kabi vazifalar kiradi.

Muqobil MTPlarning yana bir shakli, bu fermerlarning texnikadan birgalikda foydalanish kooperativlaridir, texnikadan foydalanishning bu usuli qo‘shni mamlakatlarda qo‘llanilib, ijobjiy natijalar bermoqda. Muqobil MTPlarning yana bir shakli, bu xususiy tartibda tashkil etilgan MTPlardir.

Shirkat xo‘jaliklari ustaxonalari negizida (MTPlari) muqobillik asosida tashkil etiladigan mashina-traktor parklari qishloq ishlab chiqarish infratuzilmalarining yangi subyekti sifatida mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar, qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar va aholiga texnik servis xizmat ko‘rsatadi. Shirkat tarkibidagi mashina-traktor parki o‘z tasarrufidagi hamda uning xizmatidan foydalanuvchi o‘zga subyektlar texnika va boshqa asosiy vositalari bazasida kafolatlari servis xizmatini tashkil qiladi.

***MTPlarning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:***

- *mexanizatsiya ishlarini bajarish;*
- *transport xizmatlarini ko‘rsatish;*
- *yangiliklarni joriy qilish;*
- *texnika vositalarini ishlatish, shuningdek, mexanizator va injener-texnik xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish;*
- *texnika vositalari va ehtiyoq qismlar savdosi hamda ularning ta’minoti.*

Bu tuzilmada yuqori boshqaruv organi jamiyat a'zolarining umumiylig'i ilishi hisoblanadi. Umumiylig'i ilishlar orasidagi davorda jamiyatning rahbarligini olib borish uchun boshqaruv organi sayylanadi. Boshqaruv a'zolarining soni umumiylig'i ilish tomonidan belgilanadi. Jamiyat boshqaruvchisi bir vaqtning o'zida jamiyat boshqaruvi raisi hisoblanadi. Muqobil MTPning direktori jamiyat boshqaruvchisi tomonidan tayinlanib, jamiyat raisining o'rinnbosari hisoblanadi. Muqobil MTP direktori korxona faoliyatini boshqarishda tegishli qarorlar qabul qiladi va umumiylig'i ilish qarorlarining bajarilishi ustidan nazoratni olib boradi. Korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy, ta'minot va boshqa faoliyatlariga rahbarlik qiladi. Muqobil mashina-traktor parkining faoliyati natijasida ko'rilgan foyda (zarar) jamiyat tomonidan taqsimlanadi (qoplanadi).

Bizning sharoitimizda bu kabi ixtisoslashtirilgan firmafasi vazifasini 1995-yil 24-martdagи 152 sonli Vazirlar Mahkamasining Qaroriga asosan tashkil etilgan DAJ MTPlari bajarishi ko'zda tutilgan edi, biroq bu tashkilotlarning dehqon va fermer xo'jaliklaridan uzoqda joylashganligi (asosan, tuman markazida), xizmat ko'rsatish tariflarining yuqoriligi, asosan, yuqori quvvatlari (14-15 turdagи) texnikalar bilan jihozlanganligi, monopolligi, sababli, dehqon va fermer xo'jaliklari bu kabi tashkilot xizmatidan kam miqdorda yoki unumli foydalanmasligiga sabab bo'ldi.

Bunday sharoitda yuqoridagi talablarga tez moslasha oladigan (bir profilli) tashkilotlarni tuzish zaruriyati tug'iladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 10-martdagи «Mashina-traktor parklarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash va ularning xizmatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 106-sonli Qaroriga asosan, tuzila boshlangan nodavlat mulk shakllaridagi muqobil MTPlari ana shunday tashkilot vazifasini bajarmoqda.

Bularning asosiy vazifasi ham birinchi navbatda endigina shakllanayotgan dehqon va fermer xo'jaliklariga texnik xizmat ko'rsatish edi.

Muqobil MTPlarning tuzilishi dehqon va fermer xo'jaliklariga tanlash imkonini berdi, MTPlarning bular oldidagi javobgarligini oshirdi. Muqobil MTPlarning ushbu xo'jaliklarga masofa jihatidan yaqinligi, xizmat baholarining DAJ MTPlariga nisbatan pastligi va kichik o'lchamli yer maydonlariga yetarli darajada mexanizatsiya ishlarini bajarish imkonini mavjudligi sababli xizmat ko'rsatish tarkibida dehqon va fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish salmog'i yuqori bo'limoqda.

Ayniqsa, yirik shirkat xo'jaliklari ustaxonalari negizida tashkil etiladigan muqobil MTPlari xizmatidan foydalanish dehqon va fermer xo'jaliklari uchun qulaydir, chunki:

- **birinchidan**, bu turdagи MTPlari dehqon va fermer xo'jaliklariga masofa jihatdan yaqin;

• **ikkinchidan**, yer o‘lchamlaridan qat’i nazar, birdek sifatli xizmat ko‘rsatish imkonи mavjud;

• **uchinchidan**, shirkatning o‘zi ham qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi bo‘lganligi uchun xizmat tariflari optimal belgilanadi;


• **to‘rtinchidan**, shirkatda to‘plangan ilg‘or tajribalarni dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatida ham qo‘llash mumkin va hokazo.

Texnikalarni ijaraga berishda shartnoma tuzib, uzoq muddatli va qisqa muddatli ijara shakllaridan foydalanish zarur. Bunday texnika dehqon va fermer xo‘jaliklariga vaqtincha foydalanishga berilib (mexanizatorsiz), ijara muddati davomida texnikaga xizmat ko‘rsatish, agar shartnomada boshqacha tartib ko‘zda tutilmasa, muqobil MTP zimmasiga yuklatiladi. Shartnoma bahosini belgilashda esa ijaraga berilayotgan texnika amortizatsiya ajratmalari va ijaraga beruvchining o‘rtacha rentabellik me’yori hisobga olinishi lozim. Texnikalarni uzlusiz va soz ishlashini nazorat qilish va ta’minalash maqsadida muqobil MTPlari ko‘chma diagnostika va ta’mirlash-texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini tashkil qilishi lozim, bu xizmatlar uchun haq ham shartnoma tuzish davrida kelishib olinadi.

Ishlab chiqarish xizmati mavjud texnika bilan iste’molchilarining talabnomalari asosida ish hajmini bajarishlari kerak. Shuningdek, texnika vositalari doimo ishga shay bo‘lib turishi va talab qilingan ish miqdori qisqa muddatda bajarib berilishi zarur, bu nihoyatda muhim masala bo‘lib, iste’molchilar orasida ishonchning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, kafolatlangan ish bilan ta’minalish omili bo‘ladi. MTP tarkibida bu tizimni mayda guruhlarga bo‘lish (jumladan, markaziy ustaxona, avtosaroy, ta’minot saqlash, haydov, chopiq traktorlari guruhi va hokazo) noto‘g‘ri bo‘ladi. Bunday qilish ortiqcha buyrokratik holatni keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarish xizmatida ishlayotgan har bir muhandis, ta’mirlovchi yoki mexanizator bo‘ladimi, bir necha turdagи ishlarni bajarish, bir necha turdagи texnikada ishlashni bilishi kerak.

Muqobil MTP fermerlar mablag‘larini jamlash yo‘li bilan tuziladimi, shirkat xo‘jaligi mashina-traktor parki negizida tuziladimi, ushu tizimdan foydalanish mumkin, faqat tizimning yuqorisiga fermerlar kengashi yoki shirkat boshqaruvi qo‘yilishi mumkin (4-chizma).

Har bir xizmat turidan (marketing talabnoma va reklama, ishlab chiqarish, moliya-hisob tizimlari) band bo‘lgan ishchilar soni umumiyl bajarilayotgan servis xizmati hajmi va iste’molchilar soniga qarab belgilanadi.



**4-rasm. Fermer xo'jaliklari ta'sischilari bo'lgan muqobil mashinatraktor parklarining tashkiliy-boshqaruv tuzilmasining tavsiya qilinayotgan sxemasi**

Agrar siyosatning ustuvor vazifalaridan biri servis xizmatlarini rivojlantirishda davlat tomonidan moliyaviy, kredit, soliq, valuta va baho siyosati hamda zarur qonuniy hujjatlarni qabul qilish va boshqalar muhim o'rinn egallaydi. Bularni amalga oshirishda va muqobil MTP learning rivojlanishida davlatning qo'llab-quvvatlash siyosatini izchil yo'naltirish lozim, bizningcha, buni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borish zarur:

- moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish;
- bank muassasalarini bilan iqtisodiy-moliyaviy munosabatlarni mustahkamlash;
- soliqqa tortish tartibini soddalashtirish va unifikatsiyalash;
- sug' ortalash tizimini takomillashtirish va boshqalar.

**Fermer xo'jaliklariga konsalting xizmat ko'rsatish yo'llari.** Bozor tizimi faoliyatini tashkil etuvchi konsalting xizmatini tashkil etish mahsulotlar, xizmatlar, pul, qimmatli qog'ozlar, ishchi kuchi, xizmat ko'rsatuvchi o'zarlo bir-biriga bog'langan tashkilotlar tizimidir.

Bunday tashkilotlar – **institutlar** yoki **bozor xo‘jaligi infrastrukturasi** deyiladi.

**Bozor infratuzilmasi** – mahsulot (xizmat) ishlab chiqaruvchi va iste’molchini yagona bozor makonida bog’lovchi, institutlar va vositachi strukturalar tizimidir.

Bozor infratuzilmasining asosiy funksiyalari: tadbirkorlik faoliyatini kreditlash; tadbirkorlik xavfini sug’ortalash; mahsulotlarni transport tizimi orqali yetkazib berish; tadbirkorlikni ro‘yxatga olish; bitimlarni ro‘yxatga olish; tadbirkorlar huquqini yuridik himoyalash; tadbirkorlarga konsalting, injinering, auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish va boshqalar.

Infrastruktura quyidagi vazifani bajaruvchi asosiy 9 ta blokdan iborat: 1. Tadbirkorlarni o‘qitish va tayyorlash. 2. Xususiy tadbirkorlikni ro‘yxatga olish. 3. Moliya-kredit tizimi. 4. Ulgurji-vositachilik strukturalari. 5. Birja bozorlari. 6. Agroxizmatlar bozori. 7. Xizmatlar bozori. 8. Transport xizmati. 9. Tashqi iqtisodiy aloqalarni ta’minlash.

Bunday institutlarsiz bozor iqtisodiyotiga o‘tishni tasavvur qilib ham bo‘lmaydi. Hukumatimiz tomonidan iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida yuqorida tashkilot va muassasalarni tashkil etishga katta e’tibor berildi.

Qishloq xo‘jaligi – O‘zbekiston iqtisodiyotining asosi, qishloq xo‘jalik tarmog‘i hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida bozor infratuzilmasini tashkil etish va rivojlantirish qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga shart-sharoit yaratishda, qishloqni yangilash va qayta qurishda, qishloqda agrar munosabatlarni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor infratuzilmasi subyektlaridan biri – maslahat xizmati bo‘lib, bu tadbirkorlarga, u qaysi tarmoqda xizmat qilishidan qat’i nazar mahsulotlar, moddiy- texnika resurslari bozoridagi talab va taklif, Marx-navo to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganib tahlil qiladi. Fermer xo‘jaligini tashkil etish, ishlab chiqarish texnologiyasi, biznes-reja tuzish va boshqarish borasida maslahatlar beradi.

Boshqaruv masalalari bo‘yicha konsultatsiya berish fermerlar oldidagi amaliy vazifalarni yechishda va tahlil qilishda ko‘maklashuvchi, shuningdek, boshqalar tajribasini o‘rganishda yordam beruvchi muhim professional xizmat hisoblanadi. Boshqaruv bo‘yicha konsultatsiyalar berish fermerning muhim xo‘jalik bo‘yicha qarorlarini qabul qilishdagi tayyorgarligi hamda konsalting xizmati jarayonida rahbarlar, maslahatchilar bilan tajriba almashinish imkoniyati tug‘iladi.

Konsalting xizmati shartnoma asosida va maxsus tayyorlangan malakali mutaxassislar yordamida amalga oshiriladi. Mutaxassislar fermerlar oldidagi muammolarni aniqlashda, ko‘rsatilgan muammolarni yechishda kerakli ko‘rsatmalarini taklif etadilar va qabul qilingan qarorlarni amalga oshirishda ko‘maklashadilar.

Maslahatchi maxsus tayyorgarlikdan o'tganligi, boshqaruv muammolarii yechishda ma'lum bir amaliy tajribaga ega bo'lishi, kerakli ma'lumotlarni izlab topa olishi, muammoni chuqur tahlil qila olishi va mulohaza qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Professional maslahatchilar yangi maxsus adabiyot-larni, yangi qonunlarni va ilmiy markazdag'i tadqiqotlarni kuzatib boradi.

Bunday maslahatchilar boshqaruv sohasi bilan bir qatorda boshqa xizmatlarni – tashqi moliyaviy audit, buxgalterlik xizmati, yuridik xizmatlar, informatsion xizmatlar, investitsiyalar bo'yicha maslahatlar beradilar va xizmatlar ko'rsatadilar.

**Konsalting** – boshqaruv bo'yicha mutaxassislar tomonidan turli xil xo'jalik yurituvchi subyektlarning rivojlanishi, yuzaga kelgan muammolarni yechish yo'llarini ko'rsatuvchi birgalikda qarorlar ishlab chiqish orqali ishlab chiqarishga professional ko'maklashishdir.

***Konsulantlar rahbarlardan quyidagi jihatlar bo'yicha ustun turadi:***

1. *Ularning mustaqilligi.*
2. *Ularning dunyoqarashi kengligi, menejment va xo'jalikning turli sohalarida keng tushunchaga ega bo'lganligi.*
3. *Ularning boshqa tashkilotlarning tajribasini o'rganishga va qo'llashga yo'nalganligidir.*

Hozirgi paytda quyidagi asosiy konsalting xizmatlarining 8 guruhi mavjud. Bular:

**1. Umumiy boshqaruv bo'yicha konsalting xizmatlari:** boshqaruv tizimining samaradorligini aniqlash; biznesni baholash; innovatsiyalarni boshqarish; bozor konyunkturasini va raqobatbardoshligini o'rganish; biznesda yangi tarmoqlarni tashkil qilish; boshqaruvni baholash; xususiy lashtirish; proyektlarni boshqarish; tadqiq qilish va rivojlantirish; strategik rejalash.

**2. Administratsiya faoliyati bo'yicha konsalting xizmatlari:** ishchi xonalarni joylashtirish va rejalash; kanselyariya ishini tahlil qilish; ofisni boshqarish; bo'limlarni joylashtirish; xavfsizlikni ta'minlash; xavfsizlikni boshqarish.

**3. Moliyaviy boshqaruv bo'yicha maslahat xizmatlari:** hisob tizimi; kapital xarajatlarni baholash; firmanın xo'jalik aylanması; mahsulot va xizmatlar xarajatini pasaytirish; bankrotlik; daromadni oshirish; foydani oshirish; soliq va soliq qonunchiligi.

Oxirgi paytda ko'pchilik fermer xo'jaliklarida paydo bo'lgan moliyaviy muammolar ularning moliyaviy resurslarini to'g'ri ishlatmasligi natijasidir. Shuning uchun biznesning moliyaviy konsaltingi ko'proq ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Moliyaviy konsulantlar fermerlarga asosiy moliyaviy masalalar bo'yicha maslahatlar beradilar: xo'jalik va korxona faoliyatining moliyaviy tomoniga tegishli bo'lgan qarorlarni tayyorlash, qabul qilish va nazorat qilish; moliyaviy resurslarning

hajmini, muddatini maqsadga muvofiq aniqlash; aylanma mablag'ni oshirish; moliyaviy oqim harakati boshqaruvini takomillashtirish; xo'jalik xarajatlarini optimallashtirish; korxonaning bozordagi holatini istiqbollash; biznes-rejalar tuzish va amalga oshirish.

Biznes-reja o'z ichiga rejaning moliyaviy balansini, sotib olish va sotish rejalarini, pul mablag'lari harakati rejasini, foyda rejalarini oladi. Shuning uchun maksimal foydali va rentabellikka ega bo'lgan biznes-reja tuzish juda muhimdir. Bular quyidagilar: vaqtincha bo'sh mablag'larni ratsional boshqarish; molivani boshqarishda avtomatlashtirilgan tizimni qo'llash; moliyaviy-iqtisodiy maqsadlarni aniqlash; daromad, foyda, rentabellik, shaxsiy kapital bo'yicha rejalar tuzish; moliyaviy strategiyani aniqlash; soliq sohasidagi siyosatni shakllantirish; to'lov vositalari strukturalarini aniqlash va uni to'lashning qulay shaklini topish; xo'jalik budgetini tuzish.

**Moliyaviy konsalting vazifasi** – mablag'lar, fermer aktivlarini boshqaruvchining iqtisodiy samarasini oshirishdan iborat.

Bu quyidagi usullar orqali amalga oshirilishi mumkin: xavf-xatarsiz va foydali investitsion portfeli shakllantirish; bo'sh mablag'larni ratsional boshqaruv; ishlab chiqarishga tegishli bo'limgan xarajatlarni kamaytirishdir. Moliyaviy maslahatchilar korxona rivojlanishi strategiyasini ishlab chiqarishda, ratsional boshqaruv tizimini tashkil qilish, kapital boshqaruvini optimal modelini tanlashda, o'zaro hisob va qarzlarni uzish muammolarini yechishda, aksiyalarni sotishda, korxona qimmatli qog'ozlari kurslarini oshishida ko'maklashadilar. Chet el hamkorlarini fermer xo'jaligiga jalb qilishda, ular bilan qo'shma korxonalar tuzishda tadbirkorlarga yordam beradi. Bunday tashqari, moliyaviy maslahatchi market-meyker vazifasini o'z zimmasiga olishi, eng ma'qul depozitariyni maslahat berish, fermer aksiyalarini bozorda aylanishini takomillashtirish bo'yicha maslahatlar berishi mumkin.

**4. Audit.** Auditorlar sifatida buxgalterlik hisobi bo'yicha mutaxassislar fikrlarining moliyaviy hisobotini tekshiradilar va uning umumiy standartga mosligi, to'g'riliqi haqida xulosalar chiqaradilar.

Audit o'z ichiga quyidagi xizmatlarni oladi: moliyaviy bozorlarda segmentlarni o'tkazish; sug'urtalash shakllari va usullarini taklif qilish; biznes-rejalarini tuzish; buxgalterlik hisobi va moliyaviy hisobotlarda yetishmovchiliklarni yo'qotish, ularni qabul qilingan standartlarga moslash va korxona hisobotini takomillashtirish bo'yicha maslahatlar va tavsiyalar berish; investitsion dasturlarni takomillashtirish; soliq xavf-xatarini pasaytirish; korxonaning xo'jalik-moliyaviy faoliyatini tahlil etish; moliya, bank, soliq va boshqa xo'jaliklar qonunchiligi bo'yicha maslahatlar berish; xususiy lashtirish bo'yicha xo'jalik subyektlarini aksionerlik jamiyatlariga, shirkatlarga, kooperativlarga, kichik xoldinglarga, dehqon xo'jaliklariga aylantirish

bo'yicha maslahatlar berish; yuridik xizmatlarni ko'rsatish; shartnomalarni tuzish bo'yicha ko'maklashish; bankdan kredit olish uchun zarur bo'ladigan hujjatlarni tayyorlashda yordam berishdan iborat.

Audit qimmatli qog'ozlar bozori va fond birjalari kabi investitsion instrumentlar uchun katta o'rIN egallaydi. Uning vazifasi – berilgan xo'jalik, tashkilot yoki korxonani qanchalik moliyaviy jihatidan ishonchliligini aksiyadorlar, kreditorlar, investorlar va hamkorlarga ko'rsatishdan iborat.

**5. Marketing bo'yicha konsalting xizmati.** O'z ichiga quyidagi xo'jalik yoki korxona marketing faoliyatida maslahatlar va yordamlar beradi: reklama va mahsulotlar o'tishini rag'batlantirish; dizayn; jamoat bilan aloqa; bozorni o'rganish; xalqaro marketing; bahoni belgilash; yangi mahsulotlar tayyorlash; turli sotuv va dilerlar faoliyati; sotuvni boshqarish; u yoki bu mahsulot bozorida bozor holatini tekshirish, tahlil qilish va uni foydalanuvchilarga berish; qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish kanallarini shakllantirish; ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmini, assortimenti va sifatini tekshirish, mahsulotlarning raqobatbardoshigini ta'minlash; reklama faoliyatini o'tkazish.

*Fermer xo'jaligida reklama faoliyatining maqsadi – tadbirkorlarga texnologiyani to'g'ri tanlashda, uni boshqarishda, muammolarni birgalikda o'rganishda va ularga texnik yechimlar topishda ko'maklashishdir.*

Marketing bo'yicha maslahatchilar bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi fermerlarga marketing xizmatini yo'lga qo'yishda, ya'ni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va xizmatlarga to'lovga qodir bo'lgan talabni ta'minlashda ko'maklashadilar. Ular bozorni o'rganish, reklama, ya'ni mahsulotlar ishlab chiqarish, mahsulotlar assortimentini kengaytirish, narx-navoni belgilash, distributorlik tarmoqlari va mahsulotlarni qadoqlash, tovar sotish xizmatlarini boshqarish, reklama kompaniyalarini o'tkazish va tayyorlash, ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarda yordam beradi.

**6. Kadrlarni boshqarish bo'yicha konsalting xizmati:** kadrlarni boshqarish; teng imkoniyatlarni ta'minlash; ishlarni baholash; motivatsiya; psixologik baholash; menejmentni o'rganish; ishchi kuchini rejalashtirish; mukofotlash dasturini ishlab chiqish; ishchilar malakasini oshirish; mehnat munosabatlarini huquqiy himoyalash; kadrlar boshqarish tizimini informatsion ta'minlash; mehnat motivatsiyasini boshqarish.

Kadrlarni boshqarish bo'yicha maslahatchi xodimlarni saralash, tarkibini nazorat qilish, mehnatga haq to'lash tizimlari; kadrlar boshqaruvinu hamda malakasini oshirish, jamoada mehnatni muhofaza qilish bo'yicha savollarga yechim topadilar.

Kadrlarni boshqarish bo'yicha maslahatchilar quyidagi 3 vazifani ko'rib chiqishlari kerak:

**1) kadrlarni saralash.** Bu yerda maslahatchilar berilgan ishni bajarish uchun kadrlarning professional tayyorgarligi, tajribasi, malakasi bo'yicha saralash, bo'lajak kadrlar bilan suhbatlar va muloqotlar o'tkazishda maslahatlar beradilar;

**2) ishchilarning malakasini oshirish.** Kadrlarni o'qitish va ularga ta'lim berishni taklif qilishda maslahatlar berish;

**3) motivatsiya,** ya'ni ishchilarni bir qator maqsadlarga erishishi bo'yicha maslahatlar berish. Bu yerda maslahatchi, asosan, tashkilotda psixologik muhitni yaxshilash, ishchilarni mukofotlash va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahatlar berish bilan shug'ullanadilar.

**7. Injinering va reinjinering bo'yicha konsalting xizmati.** Injinering – turli fermer xo'jaliklariga obyektlarni qurish va ishlatishda, ishlab chiqarish jarayonini ta'minlashda muhandislik ikki guruhga bo'linadi: a) ishlab chiqarish jarayonini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar; b) ishlab chiqarish jarayonining o'zini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar.

Reinjinering, odatda, muhim ko'rsatkichlar bo'lishi sifat, servis darajasi, moliya marketing va sotish, informatsion tizimlarni qurish kabi ko'rsatkichlarni yaxshilash maqsadida biznesni qayta qurish va qayta ko'rib chiqish tushuniladi.

Bozorlarda texnologiyalarning doimiy o'zgarishi fermerlar raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun ishlab chiqarishni turli yo'nalishlarga o'zgartirishga majbur qilmoqda. Shuning uchun, reinjinering ko'pchilik korxonalarning doimiy elementi bo'lib qolmoqda.

**Reinjineringning asosiy vazifasi quyidagilar:** vazifalarni qo'yish, fermerlik strategiyasidan kelib chiqqan holda maqsadlarini o'rganish; fermer modelini tuzish; biznes jarayonlarini qayta loyihasi, samarali jarayonlarni qo'llash, informatsion jarayonlarni va texnologiyalarni ishlatish. xodimlar ishida kerakli bo'lgan o'zgarishlar kiritish; informatsion tizimlarni tayyorlash; ish usullarini, biznes jarayonlarini o'zgartirish va rivojlantirish.

Reinjinering fermerning hamma asosiy sohalari bo'lmish, marketing, mijozlarga xizmat ko'rsatish, kadrlar siyosati, ishlab chiqarishni rejalash va boshqa sohalardagi ish sifatini keskin oshirishda o'z takliflarini beradi. Reinjinering, asosan, xarajatlarni kamaytirish va korxona samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan, yangi loyihalarni tuzish bo'yicha yordam beradi.

**8. Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish bo'yicha konsalting xizmati:** ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish; asbob-uskunalarni ishlatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish; ishlab chiqarish injineringi; xomashyoni qayta ishslash; mahsulotlarni qadoqlash; sifatni nazorat qilish; ishlab chiqarishni boshqarish; korxonalar ishlarini tahlil qilish va sxemasini tuzish; ishlab chiqarishni rejalashtirish; ishlab chiqarish jarayoni uchun texnologiyani tanlash; mahsulotlarni takomillashtirish; xomashyo va asbob-uskunalarni ishlatish; ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish; mahsulot sifatini baholash va nazorat qilish.

**Bu yerda maslahatchining vazifasi** — fermer maqsadlariga erishishida optimal yo'llarni izlash. Ishlab chiqarishni boshqarish bo'yicha maslahatchi quyidagi vazifalarni tahlil qilishi zarur:

**a) mahsulotning o'zi.** Mahsulot sifatini aniqlash, uning ishlab chiqarish samaradorligini belgilashda maslahatchi quyidagilarni aniqlashi shart: mahsulot qanday qismlardan iborat; uning qismlarini takomillashtirish yoki standartlash mumkinmi? ba'zi bir qismlarini arzonroqlariga almashtirish mumkinmi? mahsulot ishlab chiqarayotgan asbob-uskunani takomillashtirish mumkinmi?

**b) ishlab chiqarishni tashkil qilish usullari.** Maslahatchi asbob-uskunalarni joylashtirish sxemasini takomillashtira borib, quyidagi masalalarga yechimlar izlaydi: ish joyini tashkil qilish sifatiga o'rnatilgan mashina va uskunalar ta'sir ko'rsatadimi? ishlab chiqarish jarayonlari to'g'ri ishlayapdimi? mashina va asbob-uskunalarni ishlatish bo'yicha kerakli ma'lumotni yig'ish va boshqalar.

Hozirgi kunda konsalting xizmatining aniq yo'naliishlari to'liq yoritib berilmagan, chunki u tez o'zgartirilib, aniqliklar kiritib borilmogda. Tashkil etilayotgan konsalting huquq idoralari, savdo va moliya iqtisodiy muassasa-lariga ixtisoslashgan edi. Konsalting firmalari fermerlarga yangi yo'naliish yo'llarini ko'rsatish, bozorni o'rganish va ularga kerakli bo'lgan maslahatlar berib boradi.

«Konsalting» so'zining tarjimasi yo'q bo'lib, uning ma'nosи «maslahat», «maslahat berish»dir. Hozirda fermer xo'jaliklari faoliyati juda tez, bozorga qarab o'zgarib turishni talab etmoqda, oldingi ish uslublari to'g'ri kelmay qoldi. Bu esa konsalting xizmati faoliyatini yanada oshiradi va keng sohalarga xizmat etishni talab etadi. Shunday qilib, fermer xo'jaliklarini har tomonlama rivojlantirishda konsalting xizmatini, yani, maslahat markazlarini tashkil etish va ular xizmatlaridan foydalanish orqali katta samaradorlikka erishiladi.

### *Qisqacha xulosalar*

**F**ermer xo'jaliklari xizmat ko'rsatuvchi Infratuzilmani rivojlantirish uchun hukumat tomonidan fermer xo'jalik-larini rivojlantirish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqilgan bo'lib infratuzilma obyektlari bilan fermer xo'jaligi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar takomillashib, mahsulot yetishtirishda samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Fermer xo'jaligida infratuzilma deganda nimani tushunasiz?
2. Servis xizmatlarini tashkil etish zaruriyati nimada?
3. Infratuzilmani rivojlantirish tadbirlarini izohlang.
4. Fermer xo'jaligida qanday servis xizmattari mavjud?
5. Servis xizmatidan foydalanish samaradorligi qanday aniqlanadi?

**8.1. Investitsiya haqida tushuncha va uning fermer xo'jaligida tutgan o'rni**

**B**ozor iqtisodi sharoitida investitsiya mablag'lari yangi, samarali texnologiya hamda intellektual mulkni barpo etishga xizmat qiladi. Investitsiya mablag'lari doimiy va o'zgaruvchan kapitalni hamda intellektni barpo etish, uni rivojlantirish uchun sarflanadi. Fermer xo'jaligining asosiy vositalarini sotib olish, qurish hamda ularni kapital ta'mirlashga sarflansa, bu sarflar uzoq muddatga mo'ljallangandir. Ular asosiy kapitalga sarflangan **investitsiyalar** deb ataladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida investitsiyalar aylanma vositalarga ham sarflanadi. Investitsiyalar fermer xo'jaligining ishlab chiqarish vositalarini barpo etadi va ishga yaroqliligini ta'minlaydi.

Fermer xo'jaligining ishlab chiqarish vositalariga sarflanadigan barcha mablag'lar investitsiyalar deb ataladi. Ular fermer xo'jaligining moddiy-texnika bazasini yaratib, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, kimyo lashtirish, elektrlashtirish, irrigatsiya-melioratsiyalash natijasida sarf-xarajatlarni kamaytirib, mahsulotlar hajmini ko'paytirish va sifatini yaxshilash orqali daromadni oshirishdan iborat.

Investitsiya mablag'laridan samarali foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslari haqida O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi (1998) Qonunlari qabul qilingan. Unda investitsiyalar maqsad va vazifalariga ko'ra, 3 ga bo'linadi:

**1. Kapital investitsiyalar** asosiy fondlarni barpo etishga, takror ishlab chiqarishga va moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga sarflangan investitsiyalardir. **2. Innovatsiya investitsiyalari** deb, texnika, texnologiyalar yangi avlodini yaratish va o'zlashtirishga sarflangan investitsiyalarga aytildi. **3. Ijtimoiy investitsiyalar** insон salohiyatini, malakasini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, moddiy iste'mollarning boshqa shakllarini rivojlantirishga sarflanadigan mablag'lardir.

Investitsiyalarning ikki turi bor: **1. Real investitsiyalar** – moddiylashgan asosiy va aylanma vositalarga mablag'lar. **2. Moliyaviy investitsiyalar** – qimmatli qog'ozlarni (aksiya, obligatsiya, veksel, sertifikat) shakllantirishga sarflangan mablag'lar. Real investitsiyalar kapital qo'yilmalar deb ham ataladi. Kapital qo'yilmalar yalpi va sof kapital qo'yilmalarga bo'linadi. Real investitsiyalarning umumiyligi summasi yalpi kapital qo'yilmalarini tashkil etadi. Real investitsiyalarni

sarflash natijasida ishga tushirilgan qismi sof kapital qo'yilmalardir. Sof kapital qo'yılma yalpi kapital qo'yılma summasiga teng yoki kam bo'lishi mumkin. Fermer xo'jaligida yalpi kapital qo'yilmani sof kapital qo'yilmaga aylantirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Sarflanayotgan real investitsiyalar moddiy lashtirilishini, ya'ni ishga tushirilishini ta'minlash zarur.

Milliy hisoblar tizimida kapitalga hamda moddiy ishlab chiqarish vositalariga sarflangan mablag'lar real investitsiyalar deb ham yuritiladi.

Kapital qo'yilmalarning fermer xo'jaligidagi ahamiyati yuqori bo'lib, birinchidan, **kapital qo'yilmalar** – jami xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi. Kapital qo'yilmalardagi o'zgarishlar jami talabga yetaricha ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, aholining bandligi va yalpi milliy daromad (YAMD) hajmining ham o'zgarishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, kapital qo'yilmalar fermerlarning asosiy fondlari jamg'arilishiga, ya'ni ko'payishiga olib keladi.

Uchinchidan, kapital qo'yilmalarning noratsional sarf qilinishi ishlab chiqarish resurslari, xarajatlar o'sishiga olib keladi, natijada YAMD qisqaradi.

Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) fermer xo'jaligini har tomonlama rivojlantirib, moddiy-texnika bazasini mustahkamlaydi. Ulardan samarali foydalanish natijasida jonli mehnat xarajatlari qisqarib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib, sof foyda summasi ko'payadi. Natijada fermer xo'jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Fermer xo'jaliklarining barcha investitsiyalari (kapital qo'yilmalar) ikkita manbadan: korxonaning o'z mablag'laridan va chetdan jalb qilingan mablag'lardan shakllanadi.

#### **Fermer xo'jaligining o'z mablag'lariga quyidagilar kiradi:**

- fermer xo'jaligining soffoydasidan ajratilayotgan mablag'lar;
- amortizatsiya fondidagi mablag'lar;
- asosiy vositalarni tugatishdan, sotishdan kelib tushgan mablag'lar;
- chorva mollarini sotishdan tushgan mablag'lar;
- fermer xo'jaligining qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olishidan kelgan mablag'lar.

#### **Chetdan jalb qilingan mablag'larga:**

- fermer xo'jaligiga davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar;
- hamkorlardan olinadigan mablag'lar;
- turli xil qarzlar va bank kreditlari;
- xo'jalik a'zolarining bo'sh mablag'larini jalb etish;
- xorijiy va mahalliy shaxsiy korxonalar hamda fuqarolarning mablag'lari;
- homiylar ajratayotgan xayriya mablag'lari va boshqalar.

Kapital kapital qurilishga va yangi texnikani joriy qilishda ishlataladi. Kapital qo'yilmalarning asosiy vazifasi – tarmoq mahsulotini ko'paytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlashdir.

**Kapital** – fermer xo'jaligi moliyaviy natijalarining bir qismi bo'lib, aylanma fondlarga qo'yilib, daromad keltiradi. Kapitalning aylanma fondlarga qo'yilishi to'g'ri portfelli investitsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya qilishda fermer xo'jaligining o'z mablag'laridan foydalanishi ikkita ustunlikka ega: birinchidan, fermer xo'jaligining tashqi to'lovlari mavjud bo'lmaydi (olingan kreditlar bo'yicha foiz, aksiyalar bo'yicha dividendlar, ijara haqi va hokazo), shuningdek, fermer xo'jaligini boshqarishda mustahkam pozitsiyani shakllantiradi.

Chetdan jalb etilayotgan investitsiyalar – chet davlatlarning, yuridik hamda jismoniy shaxslarning investitsiyalaridan tashkil topadi.

Chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad respublika hududida chet el investitsiyalari hisoblanadi. Ular O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligini boshqarishni takomillashtirishga va ishlab chiqarishni rivojlantirishga Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banklarining respublikadagi bo'limlari hamda AQSH, Germaniya, Isroil, Gollandiya, Fransiya va boshqa davlatlarning vakolatxonalari investitsiyalarni joylashtirish, sarflash bilan shug'ullanmoqda.

Investitsiyalar iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlardir. Qishloq xo'jaligida investitsiyalar quyidagi faoliyatda bo'ladi.

**Investitsiya faoliyati** subyektlarning investitsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq harakatlardir.

**Investor** – o'z mablag'larining, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larining, mulkiy boyliklarning va ularga doir huquqlarning, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarning investitsiya faoliyati subyekti hisoblanadi.

**Investitsiya faoliyati ishtirokchisi** investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati subyektidir.

**Reinvestitsiyalar** investor tomonidan kiritilgan investitsiyalarni boshqa davlatga yoki hududga berib yuborishdir.

## **8.2. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi va uni fermer xo'jaliklariga jalb etish yo'llari**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 24-dekabrda qabul qilingan «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonunida fermer xo'jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'llari ko'rsatilgan.

Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banklari, Osiyo «Krossroud» kredit kompaniyasi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O'zbekiston xususiyashtirish va investitsiyalar bo'yicha xalqaro «O'zprivatbanki» ABN AMRO bank, «Asaka» banki, Aksiyadorlik-tijorat «Paxta-Bank», Aksiyadorlik-tijorat «O'ztadbirkorbank» kabi qator moliya institatlari fermer xo'jaliklari loyihalarini moliyalash uchun qat'iy valutadan kreditlar berishadi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi kreditlarni faqat milliy kompaniyalarga beradi va hozirgi paytda qo'shma korxonalarini tashkil etishga ko'proq e'tibor qaratadi.

Shuningdek, xalqaro moliya korporatsiyasi maslahat berishda va boshqa moliyalash manbalarini jalb etishda ishtirot etadi. Uning O'zbekistondagi strategiyasining muhim qismi xususiy sektor, tarkibiy yangilanishlar va xususiyashtirish yo'naliishidagi aniq loyihalarni moliyalashtirishdan iborat.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan ochilgan kredit yo'naliishlari, asosan, Milliy bank va «Asaka» banki orqali amalga oshiriladi. Yaqin kunlarda ishlab chiqarishda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining kredit yo'naliishlari aksiyadorlik tijorat «Paxta-bank» orqali ochilishi kutilmoqda.

Kichik va o'rta biznes mezonlariga muvofiq keladigan xususiy, kichik, qo'shma, dehqon fermer xo'jaliklari va aksiyadorlik jamiyatlari Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki kreditlarining oluvchilariga aylandilar.

Kredit yo'naliishlarining resurslaridan xorijiy uskunalar va texnologiyalarini xarid qilishni moliyalashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlari va mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash, ishlab chiqilgan namunaviy yoki alohida loyihalarni asosida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni ko'zda tutadigan investitsiya loyihalarini ta'minlash bilan bog'liq dastlabki ishchi kapitalini shakllantirish uchun foydalaniлади.

Zamonaviy investitsiya siyosatining muhim tamoyillari har turli kapitalni bir martalik imtiyozlar bilan jalb etishdan emas, barqaror va o'zaro manfaatli investitsiya tartibi hamda real kafolatlar berishdan iborat.

Hozirgi bosqichda xalqaro xorijiy kapital harakatining shakllari turli-tuman bo'lgani holda bevosita xorijiy investitsiyalar ustuvor rol o'ynaydi, binobarin,

ular amalga oshiriladigan mexanizm va kanallar doimiy takomillashish hamda rivojlanish jarayonida bo'lib jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy yangilanishlar bilan birgalikda zamonaviylashtiradi.

Zamonaviy jahon xo'jaligi mintaqaviy va xalqaro miqiyosda milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va faoliyat ko'rsatishning yetarli darajada aniq qoidalariga ega. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ularga oqilona rioya etilishi xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va musobaqa tarzidagi raqobat tartibi muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishining garovi sanaladi.

### **8.3. Fermer xo'jaliklarida investitsiyadan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari**

Fermer xo'jaliklari mahsulot yetishtirish va xizmat ko'rsatishni tashkil qilish uchun sarmoya sarf etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, har bir investor sarmoyasini sarflashdan oldin sarmoya sarflanadigan tadbir qanday natija berishini, uning iqtisodiy samarasini qanday bo'lishini bilishni talab etadi. Fermer xo'jaligi ham sarflanadigan yoki yo'naltiradigan kapital sarflarni, uzoq muddatga foydalaniladigan vositalarni tashkil etishga qaratilgan mablag'lar samarasini loyihalashtirish jarayonini ko'zda tutadi.

Fermer xo'jaligi biron tadbirni amalga oshirish uchun tashqaridan mablag' jalb qiladigan bo'lsa, tadbirni ifoda etuvchi loyihamda ko'zda tutilgan sarf-xarajatlari, iqtisodiy samaradorligi aniq hisoblangan bo'lishi kerak. Bu loyihaning texnik-iqtisodiy jihatdan asoslanganligini (TEO) ifodalovchi hujjatda aks ettiriladi. Bu masalani hal qilishda kapital sarflar va investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usulidan foydalaniladi.

Uzoq muddatga qilinadigan investitsyaning absolut yoki mutlaq samaradorligi qiyosiy yoki nisbiy aniqlanadi.

Mutlaq samaradorlik fermer xo'jaligi sarf qilgan sarmoya natijasida qo'shimcha natija, ya'ni sarf qilgan sarmoyaning bir-birligiga olgan qo'shimcha yalpi daromad va foya bilan ifodalanadi. Fermer xo'jaligi bo'yicha bu quydagi formula bilan aniqlanadi:

$$SSa = \frac{\Delta YaDekiF}{S};$$

**Bunda:**  $SSa$  – mutlaq samaradorlik;

$\Delta YaDeKiF$  – qo'shimcha olingan foya;

$S$  – sarmoya (investitsiya) ning o'sgan qismi.

Masalan, fermer xo'jaligi bozor iqtisodi talablari darajasida bo'lishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlarni amalga oshirish xo'jalik foydasini har yili 8 mln. so'mga oshirish imkoniyatini beradi. Bunda sarf-xarajatlarning samaradorlik koefitsiyenti – 0,27 ni tashkil etadi.

$$Sa = \frac{8m \ln}{30m \ln} = 0,27 ;$$

Investitsiya ayrim vositalar va yo'nalishlar bo'yicha sarflanganda mutlaq samaradorlikni aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Sa = \frac{(T_0 - T_1) \cdot M}{S} ;$$

**Bunda:**  $T_0$  – sarmoya qilingunga qadar bo'lgan davrdagi mahsulot birligi;

$T_1$  – sarmoya qilingandan keyingi tannarx;

$M$  – sarmoya qilishi natijasida olingan mahsulot yoki ish hajmi.

Masalan, fermer xo'jaligi sigirlaridan sut sog'ib olishni mexanizatsiyalash uchun sog'ish agregatlarini sotib olib o'rnatdi. Bu tadbirlarga 15 mln. so'm sarf-xarajat qildi. Natijada 100 bosh sigirning har biri 3000 kg (30 sentner) sut beradigan, qo'lda sog'iladigan sigir mashinalar yordamida sog'iladigan bo'ldi. Sigirlar qo'lda sog'ilganda 1 sentner sut tannarxi – 1300 so'm bo'lgan bo'lsa, ularni mashinada sog'ish natijasida 1 sentner sut-tannarxi 1200 so'mni tashkil etdi. Shu tariqa har bir sentner sutni sog'ib olishdan – 100 so'm tejashta erishildi. Ma'lumotlarni yuqoridaq formulaga qo'yish orqali bu tadbiriga qilingan sarflari – investitsyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlaymiz:

Bu tadbiriga qilingan sarf-xarajat mutlaq samaradorlik koefitsiyenti – 0,2 ga teng bo'ldi. Sarmoya sarflarining me'yoriy samaradorlik koefitsiyenti – 0,14 so'mga teng. Endi sarf-xarajatlarning samaradorligini yanada to'liqroq tushunish uchun ularni qoplash muddatini bilish kerak, ya'ni bu sarflar o'z qiymatini olingan qo'shimcha daromadlar bilan necha yilda qoplaydi? Sarf-xarajatlarni qoplash muddati quyidagicha aniqlanadi:

Korxona bo'yicha:

$$MM = \frac{S}{\Delta F} = \frac{30000000}{8000000} = 3,7 \text{ yil} ;$$

Ayrim yo'nalishlar:

$$M = \frac{S}{(T_0 - T_1) \cdot 3000} = \frac{15m \ln}{3m \ln} = 5 \text{ yil} ;$$

Sarmoya turi bo'yicha me'yori:

$$QM \cdot t \cdot \frac{1,0}{0,14} = 7,14 \text{ yil} ;$$

Har ikkala tadbirda ham qoplash muddati me'yoriy muddatdan kam bo'lganligi sarf-xarajatning iqtisodiy samarali ekanligini ko'rsatadi.

Qiyosiy yoki nisbiy samaradorlik.

Bu usuldan biror bir tadbirni bir necha yo'nalishda amalga oshirish mumkin bo'lgan taqdirda foydalaniлади. Bu usulda iqtisodiy baho berishning asosiy mezoni eng kam xarajat qilish hisoblanib, quyidagi formula bilan ifodalanadi:

### **SQN\*K!min**

**Bunda:** *S –mahsulot yoki ish birligi uchun qoplangan joriy xarajatlar;*

*N- kapital sarflar yoki investitsiyaning me'yoriy darajasi;*

*T- u yoki bu yo'nalishdagi kapital sarflar yoki investitsiya.*

Masalan, fermer xo'jaligi boshoqli don ekinlari hosilini o'rib-yig'ib oluvchi kombayn xarid qilmoqchi. Ishlab chiqarish omillari bozorida 3 xil rusumdag'i kombayn mavjud bo'lib, biri Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan «Yenisey» kombayni, bahosi 16 mln. so'mni, ikkinchisi AQSHda ishlab chiqarilgan «Keys» kombayni, bahosi 22 mln. uchinchisi Germaniyada ishlab chiqarilgan «KSA» kombayni, bahosi 19 mln. so'm.

Kombaynlar pasportida ko'rsatilgan texnik ma'lumotlarga ko'ra, mavsumda «Yenisey» - 600 tonna, «Keys» -1200 tonna, «KSA» kombayni esa -840 tonna boshoqli donni o'rib-yig'ib olishi mumkin.

Har bir rusumdag'i kombayn bilan o'rib-yig'ib olishga ketgan joriy xarajatlar 1 tonna hisobiga «Yenisey» kombaynida – 50 ming so'mni, «Keys» kombaynida – 35 ming so'mni, «KSA» kombaynida – 40 ming so'mni tashkil etgan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni nisbiy (taqqoslama) samaradorlikni aniqlash formulasiga qo'yish orqali qaysi rusumdag'i kombaynni sotib olish fermer xo'jaligi uchun iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini aniqlaymiz:

«Yenisey»  $50+0,16*26,6=54,2$  ming so'm;

«Keys»  $35+0,16*18,3=37,9$  ming so'm;

«KSA»  $40+0,16*22,6=43,6$  ming so'm.

Hisoblardan ko'rinish turibdiki, fermer xo'jaligi «Yenisey» rusumli kombaynni sotib olganda 1 tonna boshoqli donni o'rib-yig'ib olishga – 54,2 ming so'm, «KSA» kombaynini xarid qilganda – 43,6 ming so'm, «Keys» kombaynidan foydalanganda – 37,9 ming so'm sarf qilgan bo'lardi. Yoki «KSA» kombaynidan foydalangandan ko'ra – 5,7 mingga, «Yenisey»ga

nisbatan esa – 16,3 ming so‘m kam sarf qilishga erishadi. Shuning uchun fermer xo‘jaligi «Keys» rusumli kombaynni sotib olgani ma’qul.

---

### ***Qisqacha xulosalar***

***M***ustaqlil bozor munosabatlarda shakllanayotgan Respublika iqtisodiyotiga investitsiya maʼlagʻlari, yangi samarali texnologiyalarning kirib kelishi mahsulot hajmini, assortimentini hamda daromadini oshirishga imkoniyat yaratdi. Investitsiyalar kapital, innovatsiya va ijtimoiy shakllarda Respublikaning barcha xalq xo‘jaligida samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. Hukumat tomonidan investitsiya olib keluvchi investorlarni huquqiy himoyalash to‘g‘risida barcha qonuniy asoslar yaratildi. Investitsiya olib kirish va undan hamkorlikda foydalanish hamda moliyalash mexanizmlari davlat tomonidan boshqariladi, tartibga solinadi va nazorat ishlari olib boriladi. Respublikaning jahon bozoriga chiqishi uchun yangi ishlar, texnologiyalar zarur ekan, bu sohani rivojlantirishga katta e’tibor saqlanib qoladi. Ayniqsa, fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda investitsiya mablag’lari va texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. Xalq xo‘jaligida investitsyaning o‘rnini tushuntirib bering.
2. Investitsiyalarning fermer xo‘jaliklari faoliyatidagi zaruriyatini izohlang.
3. Investitsiyalarning fermer xo‘jaliklari faoliyatidagi zaruriyatini izohlang.
4. Investitsiya samaradorligi qanday ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi?
5. Kapital qo‘yilma nima va unga pul mablag’i qayerdan kelib tushadi?

## **IX BOB FERMER MAHSULOTLARI BOZORI VA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISH**

### **9.1. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari bozorini rivojlantirishning nazariy asoslari**

Iqtisodiy islohotlar natijasida fermer xo‘jaliklari faoliyati rivoj topib, ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy qismini ishlab chiqarmoqda. Ammo davlat ixtiyoridagi tayyorlov va qayta ishlash korxonalar o‘rnida xususiy korxonalar, hissadorlik jamiyatlari paydo bo‘lishi, tez buziluvchi qishloq xo‘jalik mahsulotlarining son jihatidan ko‘p va makon jihatidan tarqoq ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetishtirila boshlashi, mahsulotlarning ko‘p qismi iste’molchilarga yetib borishi jarayonida nobud bo‘lishiga olib kelmoqda.

Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov ta’kidlaganlaridek: «Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash texnologiyasi juda orqada qolgani tufayli har yili kartoshka, tomat, karam, lavlagi, sabzi hamda boshqa sabzavot va mevalarning 20-40 foizi isrof bo‘lmoqda. Biz, ishlab chiqarish – qayta ishlash – sotish, degan yagona zanjirda ishlab, bu zanjirda band bo‘lganlarning manfaatini hisobga olishni o‘rganishimiz zarur. Jahon bozorini o‘zlashtirish ko‘pjihatdan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘rinishi bilan bog‘liq. Bunda mahsulotlarni navlarga ajratish, o‘rash, qadoqlash va iste’molchiga o‘z vaqtida yetkazib berish nazarda tutilmogda».

Bozorlarda savdo qilish sharoitlari doimiy o‘zgarib borishi va meva-sabzavot, chorvachilik mahsulotlarini iste’molchilarga yetkazish tizimi talablar darajasida emasligidan, mahsulot ishlab chiqaruvchisi va iste’molchi birday zarar ko‘rinoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori faoliyatini rivojlantirish bozorlar bilan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-oktabrdagi 452-sonli «Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olish va sotish bo‘yicha ulgurji bozorlar tizimini shakllantirish va rivojlantirish to‘g‘risida»gi Qarori asosida ochiq turdagи aksiyadorlik jamiyatlari maqomidagi ulgurji bozorlar tashkil etilayotgan bo‘lsa-da, hamon yoz va kuz oyalarida fermer katta yo‘l yoqalarida oylab vaqtini sarflab, yetishtirgan mahsulotlarini sotishi davom etmoqda. Hali-hanuz saqlash tarmoqlari, sovitish tizimiga ega

<sup>1</sup> Karimov I. A. «Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti – to‘kin hayat manbayı». –T.: «O‘zbekiston», 1997. 29 b.

omborxonalar, xizmat ko'rsatish infratuzilmalariga ega xalqimizga xos bozor madaniyatini mujassamlashtirgan ulgurji bozorlar rivojlanishda davom etmoqda.

Mahsulot yetishtiruvchi fermerda tadbirkorlik xususiyatlari rivojlanib, mahsulot sotishda zamonaviy tamoyillarga ko'proq murojaat qilinmoqda.

2005-yilda respublikada jami yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining 60,2 foizi dehqon xo'jaliklari, 15,3 foiz shirkat xo'jaliklari va 24,5 foizi fermer xo'jaliklari zimmasiga to'g'ri kelib, mahsulot yetishtiruvchilar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Lekin qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va qayta ishslash sohasining bugungi kun talablariga javob bermasligi, qishloq xo'jaligida moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchi sanoat korxonalarining monopol vaziyati, xizmat ko'rsatish sohasining rivoji talabga javob bermasligi, mahsulotni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga bo'lgan jarayondagi harakatini ta'minlovchi tarmoqlar rivoji sustligi kabi muammolar mavjud.

Mahsulot bozordan sotib olingandan keyin fermerning ishlab chiqarishga sarflagan mehnati ijtimoiy zaruriy mehnatga aylanadi. Ikkinchisi tomonidan, mahsulot xaridor tomonidan sotib olingandan keyingina, fermerning ishlab chiqarishga jalb etgan jonli va moddiylashgan mehnati sarfni qoplash imkonii tug'iladi. Demak, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni uchun moddiy asos paydo bo'ladi va mahsulot oldi-sotdi jarayoni ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonini bog'lovchi muhim bo'g'in hisoblanadi. Mahsulotning ishlab chiqarish samaradorligi bozor sharoitida, iste'molga yetkazish tizimining samaradorligi orqali belgilanadi. Chunki «mahsulot ishlab chiqarish-taqsimot-ayirboshlash va iste'mol qilish» tizimida «ayirboshlash va iste'mol qilish» jarayoni yakunlovchi bosqich hisoblanadi. Mahsulotni tayyorlash, saqlash, saralash, qadoqlash va iste'molchiga yetkazish jarayonida yangi mahsulot yaratilmasa-da, yangi iste'mol qiymati shakllanadi, mahsulot yangicha ko'rinish oladi, bozgiriligi ortadi.

Respublikamizda, mahsulotlarni iste'molchiga yetkazish, asosan, chakana savdo va ulgurji bozorlar orqali amalga oshiriladi.

Chakana savdo bozorlari mahsulotni iste'molchilarga naqd pulga sotishi, u yerda iste'molchilar sonining ko'pligi, xaridor sotib oladigan tovarlar miqdori esa kamligi va xarid qilish maqsadi bilan ajralib turadi.

Ulgurji bozorlar esa, tovarlar va xizmatlarni naqd pulga hamda pul o'tkazish yo'li bilan katta miqdorda va mayda ulgurji sotish orqali xaridorlarga yetkazuvchi bozorlar bo'lib, savdo hajmi yirikligi, asosiy xaridorlar soni kamligi bilan farq qiladi.

Ulgurji bozorlar tarkibida «Savdo xarid qilish korxonasi» (SXK) tashkil etilgan. Mazkur bo'lim tomonidan mahsulot yarmarkalari tashkil qilinadi, asosiy faoliyati esa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish hisoblanadi.

Bozorlarni ixtisoslashuviga ko'ra, dehqon bozorlariga, buyum bozorlariga, oziq-ovqat mahsulotlari bozorlariga, universal bozorlar va ixtisoslashgan bozorlarga bo'lish mumkin.

Dehqon bozorlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ularni qayta ishlashdan olingen mahsulotlar sotilsa, buyum bozorlarida nooziq-ovqat mahsulotlari savdosi amalga oshiriladi. Oziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida esa, maxsus jihozlangan turg'un savdo nuqtalari orqali tayyor va yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari savdosi amalga oshirilsa, ixtisoslashgan bozorlar jumlasiga chorva mollar, qurilish mollari bozorlari kabilarni kiritish mumkin.

## **9.2. Fermer xo'jaligida mahsulot tayyorlash tizimini rivojlantirish**

Agrar tarmoqda fermer xo'jaliklarining o'rni va ishlab chiqarishda davlat buyurtmasi asosida paxta, don, sholi yetishtirishdagi ulushlari ortib bormoqda. Ayniqla, iste'mol bozorini kartoshka, sabzavot va turli xil mevalar bilan ta'minlashda ularning hissasi juda kattadir.

Fermer xo'jaliklarining shakllanishida servis xizmat ko'rsatish va tayyorlov tizmini tubdan yangilashga to'g'ri kelmoqda. Chunki qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish bilan bir qatorda uni tayyorlash, saqlash, qodoqlash va iste'molchilarga talafotsiz yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. Ayniqla, tez buziladigan va transportda tashish noqulay bo'lgan mahsulotlarni va fermer tomonidan yetishtirilgan iste'mol mollari quyidagi sotish kanallari orqali yetkazib beriladi.

1. Ishlab chiqaruvchilar – Davlat – Iste'molchilar.
2. Ishlab chiqaruvchilar – Dehqon bozori – Iste'molchilar yoki ishlab chiqaruvchilar – Iste'molchilar.
3. Ishlab chiqaruvchilar – Xususiy (kichik) olib sotarlar – Dehqon bozori – Iste'molchilar.
4. Ishlab chiqaruvchilar – «O'zbekbirlashuv», «O'zbeksavdo» tashkilotlari – Chakana savdo – Iste'molchilar.
5. Ishlab chiqaruvchilar – Vositachilar – Tovar xomashyo birjalari – Ulgurji (xususiy) tayyorlov tashkilotlari – Chakana savdo – Iste'molchilar.
6. Ishlab chiqaruvchilar – Qayta ishlash korxonalari – Ulgurji savdo korxonalari – Chakana savdo – Iste'molchilar.
7. Ishlab chiqaruvchilar – Qayta ishlash korxonalari – Chakana savdo – Iste'molchilar.

Paxta xomashyosi, don, tamaki, asosan, birinchi kanal orqali tayyorlanadi. Ikkinci kanal orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotiladi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jalik mahsulotlarini o'z vaqtida iste'molchiga yetkazib berishda kamchiliklar bo'lmoqda. Xarid baholari ham ortib bormoqda. Chunki oxirgi yillarda meva-sabzavot va kartoshka saqlash omborlarida mahsulotlar zaxira qilinmagan. Buning asosiy sababi meva-sabzavot, kartoshka saqlaydigan omborlar yaroqsiz, ta'mirga muhtoj bo'lib qolgan.

Xo'jaliklardan kartoshka, meva va sabzavot sotib olish uchun tayyorlov korxonalarida yetarli mablag'larning yo'qligi, mahsulotlarni saqlash uchun elektr energiya xarajatlari yuqori bo'lganligi tufayli meva-sabzavot saqlash omborlari foydalanish uchun tadbirkorlarga ijara berilgan.

Kususiy lashtirilgan omborlarni esa tadbirkorlar qarzlarini to'lash uchun sotgan. Omborlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash uchun tara va konteynerlarning yetarli bo'lmasligi ham muammoni kuchaytirmoqda.

Umuman, qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlov tizimining past sur'atlar bilan rivojlanayotganligining asosiy sabablaridan biri tayyorlov korxonalarida pul mablag'larning kamligi va tara, xizmatlar hamda energoresurslar narxining oshayotganligi va sohada investitsiya oqimining pasayganligidir.

### **9.3. Davlat va nodavlat korxonalariga mahsulot sotish va uni takomillashtirish**

Fermer xo'jaliklari o'zlari yetishtirgan chorvachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va uzumchilik mahsulotlaridan o'z xohishicha foydalanoqda.

Davlat buyurtmasi faqat paxta va dongagina saqlanib qolgan bo'lib, uning miqdorlari 1995-yilda paxta va don bo'yicha 30 foizgacha qisqartirildi<sup>1</sup>.

Paxta xomashyosini tayyorlash, uni qayta ishlab, tolasini sotish markazlashtirilgan holda «O'zpaxtasonat» uyushmasi va uning hududiy aksiyadorlik birlashmalari orqali amalga oshirilmoqda. Davlat buyurtmasini bajargan xo'jaliklar ixtiyororda hosilning 70 foizi qoladi. Paxta yetishtiruvchilar bu paxtani erkin sota olmaydilar, uning xaridori «Paxtasonat» uyushmasining hududiy aksionerlik birlashmalaridir. Paxta yetishtirish rejasini bajargan xo'jaliklarga zavod ishlab chiqarish narxlarida yog', sheluxa va kunjara sotilmoqda. Paxta xomashyosini yetishtirish rejasini bajarmaganlarga bu mahsulotlar berilmaydi. Davlat buyurtmasidan ortiqcha paxta yetishtirgan (davlat buyurtmalari

<sup>1</sup> I.A.Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llida». T.: «O'zbekiston», 1995 y, 71 b.

narxidan yuqori narxlarda) xo‘jaliklar «Paxtasanoat» hududiy birlashmalariga paxtani shartnomaga bahosida sotadi. Chunki respublikada paxta davlat monopoliyasi bo‘lib, uning erkin bozori shakllanmagan, shu bois buyurtmadan ortiqcha paxta xomashyosini erkin sota olmaydilar. Fermer ishlovchilarga ish haqini pul va natura (yog‘, sheluxa va kunjara kabi mahsulotlar)da to‘laydi.

Paxta xomashyosini tayyorlash tizimida ichki bozorni erkinlashtirish zarur. Chunki fermer o‘zлari yetishtirgan paxta hisobiga sheluxa, kunjara, yog‘ va chigitni qayta ishslash zavodidan sotib olmoqdalar. Tayyorlov tashkilotlariga fermerning mahsuloti kerak bo‘lsa, chigitni qayta ishslash xarajatlari (hamda ularning foydalari)ni to‘lashlari kerak. Yog‘ zavodlari yog‘ (sheluxa, kunjara) narxidan, chigitning narxini chegirib tashlagan holda, hisob-kitob qilishlari lozim.

Shunday qilib, fermer xo‘jaliklari davlat buyurtmasidan ortiqcha paxta xomashyosini erkin bahoda sotish orqali o‘z faoliyatini integratsiyalashtiradi.

#### **9.4. Fermer xo‘jaligida marketing xizmatini tashkil etish**

Fermer xo‘jaligining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar ikki guruhga: *ishlab chiqarish va bozor munosabatlari* bo‘linadi. Ishlab chiqarish omillariga yer, suv, mehnat resurslari, asosiy va aylanma vositalardan foydalanishning samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish kabi omillar kiradi.

**Bozor omillariga** – bozor konyunkturasining holati, istiqboli, uning dinamikasi, raqobat sharoitlari va ko‘lami kiradi. Boshqacha qilib aytganda, *bozor omillariga - mahsulotning bahosi unga bo‘lgan talab va taklif, raqobatdagi mahsulotlar miqdori, raqobatchilarning bozor siyosati va boshqalar kiradi*.

Bozor munosabatlari o‘tish bilan tijorat iqtisodni o‘rganish, mahsulot sifatini yaxshilashga erishish, marketing tushunchasining asosini tashkil etadi.

**Marketing** (ingl. market-bozor) – bu tadbirkor muhitini, bozorini, iste’molchining aniq talabini va ular uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni ko‘zda tutishni o‘rganishga asoslangan, qishloq xo‘jaligi korxonalarining ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bozor konsepsiyasidir. Marketing tor ma’noda tovar ishlab chiqaruvchi va iste’molchi o‘rtasidagi xizmatni, tovari sotish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqarishni o‘z ichiga olgan tadbirkorlik faoliyatidir. AQSHda marketing keng ma’noda uzoqni ko‘ra bilish, boshqarish va tovarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, muomala vositasi orqali xizmatni tashkil etish, yangi g‘oyani hayotga tatbiq etish deb tushuniladi. Marketing faoliyati – baholar

sistemasi, mahsulotlarni saqlash, joylashtirish, savdo markazlarini yaratish, mahsulotni sotish, savdo xodimlarini boshqarish, kredit berish, mahsulotni tashish, sotsial talablarni bajarish, savdo shoxobchalarini ochish uchun joy tanlash, iste'molchilarni o'rganish, ulgurji, chakana savdoni va ko'rgazmalarni tashkil etish, jamiyat bilan munosabatlarni yaxshilash, bozor tadqiqotlarini olib borish, tovarlarning sifatiga kafolat berish bilan shug'ullanadi. **Marketingning vazifasi** – sotib olish, sotish, mahsulot tashish va uni saqlash, moliya mablag'iari bilan ta'minlash, mahsulotni ko'rgazmaga qo'yish va bozor ma'lumotlarini yig'ishdan iborat.

Qishloq xo'jaligi marketingining maqsadi – talabni shakllantirish va rag'battalnirish, ishlab chiqarish rejali, qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining asoslanganligini ta'minlash va mahsulotlar savdosi, bozor hissasi va foydasini ko'paytirishdan iborat.

Marketing tizimlaridan fermer xo'jaligini rivojlantirishda foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega.

*1. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish ko'p jihatdan ob-havo sharoitiga bog'liq.* Bu qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqaruvchilarining mahsulot sifati va hajmi (miqdori) ustidan nazorat olib borish imkoniyatini ma'lum darajada cheklab qo'yadi. Fermer xo'jaligi faoliyatida 3 model mavjud:

**Birinchi model** tovar ishlab chiqaruvchining qulay iqlim sharoitidagi faoliyati bilan aniqlanadi. Bu chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmining ko'payishi bilan bog'liq.

**Ikkinci model** iqlim sharoiti noqulay bo'lgan vaziyatga mo'ljallangan bo'ladi. Bunga hosilni saqlab qolish uchun qo'shimcha mehnat va boshqa resurslarni jaib etib, hosilni yig'ishtirib olishni jadallashtirish, hosilni saqlab qolishning boshqa tadbiralarini amalga oshirish kiradi. Nihoyat, **uchinchini model**, baxtsiz hodisalar ehtimoli bo'lganda, tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan qo'llaniladigan tadbirlardan iborat bo'ladi.

*2. Aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirish kafolatini bera oladigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish.*

Bu xususiyat sanoatga nisbatan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun ma'lum afzallikklar yaratadi, chunki qishloq xo'jaligida mahsulot sotishning noqulay sharoiti yo'q. Keltirilgan ma'lumotlar dehqonchilik sektorida ma'lum darajada zikr etilgan oldingi xususiyatlarning mavjudligi bilan qoplanadi.

*3. Tez buziladigan, katta hajmdagi mahsulotlar,* birinchidan omborlarning (sabzavot, poliz, meva saqlashga mo'ljallangan) mavjudligi, ikkinchidan, tovar ishlab chiqaruvchilarining qisqa vaqt ichida bu mahsulotlarni realizatsiya qilishini taqozo etadi.

**4. Bir xil tovar ishlab chiqaruvchilar qanchalik ko'p bo'lsa, bozorda ularning har biriga to'g'ri keladigan ulushi kichik bo'ladi.** Shu bilan marketing tadbirlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan zaruriy shartlar bo'lishi kerak.

a) ishlab chiqarish hajmining bozorga ta'sir etishi, talabning oshib borishi, xarajatlarni qoplash qobiliyati va boshqalar katta mablag'ni talab qiladi.

b) normal ishjarayoni – bozorga moslashish, tovar ishlab chiqaruvchining u yoki bu mahsulot yetishtirishga qodirligi, ishlab chiqarishdagi xavf-xatar va boshqalarga tovar ishlab chiqaruvchi mas'ul hisoblanadi.

Yuqorida ko'rindiki, marketing, eng avvalo, keyingi mahsulotni qayta ishlab chiqaruvchilar (oziq-ovqat va yengil sanoat korxonalariga yetkazib beradi. Har xil tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatini gorizontal integratsiya, qayta ishlovchi korxonalar va savdoni esa vertikal integratsiya asosida birlashtiradi.

Tovar ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarining birgalikdag'i faoliyati (hamkorlik formasi) mezomarketing (mezo-o'rtal, oraliq) bo'lib, agrar iqtisodiyotda hukmron mavqega ega. Shu bilan birga, sanoatning boshqa sohalarida bu shakl mikromarketing (kichik korxona va tovar ishlab chiqaruvchi) deb ataladi.

**5. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini**, asosan, shahar aholisini iste'mol qilishi ham har xil vositachilar mahsulotni sotish zaruriyatini tug'diradi. Bu esa tovar ishlab chiqaruvchilar oladigan daromadning kamayishiga olib keladi, chunki mahsulot qiymatining ma'lum qismi vositachilarda qoladi.

**6. Eng muhim sotsial jihatlardan biri**, qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqaruvchilarning bozordagi faoliyatini davlat tomonidan tartibga solib turish va uni sotsial himoya qilishdir. Rejalshtirish iqtisodidan bozor munosabat-lariga o'tish davrida bozordagi vaziyat sezilarli darajada o'zgaradi, bu esa har xil qishloq xo'jalik mahsulotlarining bozordagi holatining o'zgartirishiga ta'sir etadi.

Agar rejali iqtisodiyotda qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun davlat tayyorlov bahosi amal qilib, mahsulot sifatidan qat'i nazar, qabul qilish kafolati ta'minlangan bo'lsa, bozor iqtisodiyotida baho talab va taklifga qarab o'zgarib turadi.

**Marketing subyekti** – tovar ishlab chiqarishni va xizmatni tashkil etishni, ulgurji va chakana savdo tashkilotlarini marketing sohasi mutaxassislarini va har xil iste'molchilarini o'z ichiga oladi.

Marketing mahsulotni yetishtirish va sotishning aniq dasturini tuzish, bozordagi o'zgarishlarga tezda o'rganish va raqobatda ma'lum afzalliliklarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi. Marketing konsepsiysi xohlagan tovar ishlab chiqaruvchilar yoki xo'jaliklar (shirkat, dehqon, fermer xo'jaliklari va boshqalar) tomonidan ular yetishtirigan mahsulot turidan qat'i nazar, keng ko'lamda qo'llaniladi.

Mahsulot turlaridagi farq, mahsulotni bozorda sotishning o'ziga xos xususiyatlari savdo operatsiyalarini amalga oshirishda universal marketingdan foydalanan mumkin.

Marketing faoliyatining doirasi keng bo‘lib, unda baholar sistemasi, mahsulotni saqlash, joylashtirish, savdo markazlarini yaratish, mahsulotni sotish, savdo xodimlarini boshqarish, kredit berish, mahsulotni tashish, ijtimoiy talablarni bajarish, savdo shoxobchalari ochish uchun joy tanlash, iste’molchilarini o‘rganish, ulgurji, chakana savdoni va ko‘rgazmalarini tashkil etish, jamiyat bilan munosabatlarni yaxshilash, bozor tadqiqotlarini olib borish, tovarlarning sifatiga kafolat berish va hokazolar bilan shug‘ullanadi.

**Marketingning asosiy vazifasi** – funksiyasiga sotib olish, sotish, mahsulot tashish va uni saqlash, saralash, moliya mablag‘i bilan ta’minlash, mahsulotni ko‘rgazmaga qo‘yish va bozor ma’lumotlarini yig‘ishdan iborat.

Marketing bozor holati to‘g‘risida doimiy ma’lumotga ega bo‘lib, qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talab dinamikasi va bahosiga oid ma’lumotlar o‘rganish, dasturni ishlab chiqish uchun jahon bozori holati va dinamikasi to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega bo‘lish kerak.

Bunday ma’lumotlarni olish har xil yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, mamlakat miqyosida dehqonchilik mahsuloti bahosi va unga bo‘lgan talab tegishli axborot organlari tomonidan ta’milanadi. Ikkinchidan, amaldagi marketing bo‘linmalari xizmatiga murojaat qilish yoki bir necha tovar ishlab chiqaruvchilar kooperativini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tashqi bozor holati bilan tanishish uchun dehqonchilik bozori holatini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi eksport tashkilotlariga murojaat qilish lozim.

Tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatida ko‘rgazma muhim o‘rin tutadi. Ko‘rgazma tor ma’noda mahsulotga bo‘lgan talabni yanada oshirish uchun xizmat qiladi.

Mahsulot ko‘rgazmasini tashkil etish yo‘llari har xil. Axborot organlari orqali ko‘rgazmalar tashkil etish, katologlar, shiorlar, bukletlar ishlab chiqish va hokazo. Mahsulot turlari (sabzavot, meva, zotli mollar va qo‘ylar) bo‘yicha umumiyligi va ixtisoslashgan ko‘rgazmalar va mahsulotni sotish bo‘yicha yarmarkalar tashkil etish. Yarmarka va ko‘rgazmalar savdo bitimlari tuzish joyi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Marketing vazifalari orasida bozorni har tomonlama o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Turli guruhdagi iste’molchilar talabi va ehtiyojini qondirish uchun ishlab chiqarishga va mahsulotlarni realizatsiya qilishga bog‘liq tadbirlarni ishlab chiqishga to‘g‘ri keladi. Bu esa o‘z navbatida bozor iqtisodiyotini o‘rganuvchi mutaxassislar va marketinglar tomonidan tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning ilmiy va amaliy faoliyatiga tegishli axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish bilan bog‘liq bo‘lgan kompleks ishlarni bajarishdir.

Tovarning raqobat qobiliyatini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu bir xil tovar ishlab chiqaruvchilar tovarlarini taqqoslash yo‘li bilan, ya’ni tovarning sifati, bahosi va unga surʼat qilingan xarakatlar bilan aniqlanadi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish tovarning raqobat qobiliyatini oshiradi.

Mahsulot sifati muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, mahsulot sifatini yaxshilash aholini oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis qondirishga xizmat qiladi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish imkonini beradi. Mahsulot sifatiga talab, iste'molchilar va davlat organlari tomonidan shakllanadi. Mahsulot sifatini aniqlovchi omil-iste'molchining talabi, bozor va raqobatdir.

**Bozor segmenti: tushuncha va omillari.** Marketing tizimida iste'mol talabini o'rGANISH bozor segmentini tatbiq qilish bilan chambarchas bog'langan. **Bozor segmenti deganda** yagona bozor emas, balki alohida segmentlar yig'indisi (iste'molchilar guruhi, bozorda mahsulotlarni sotish shoxobchalari) doirasida mahsulotlarni sotish tushuniladi.

Bozor segmenti iste'molchilar talabiga ko'ra, bozor va ishlab chiqarishning bir - biriga mos ravishda rivoj topishidir.

Agar bozor hajmi kichik bo'lsa, tabiiyki, bo'linish natijasida shunday kichik segmentlar paydo bo'ladiki, bozorga kirish uchun sarf qilingan xarajatlar o'zini oqlamaydi va foyda ham keltirmaydi.

Bozor segmenti konsepsiysi bozor strategiyasini qayta qurishni taqozo etadi. Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish siyosatidan xaridorlar talablarini qondirishga o'tiladi.

Har bir tovar ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotlarini muvaffaqiyatl va qulay sharoitda realizatsiya qilish uchun o'ziga jalb etuvchi bozor segmentini topishi lozim. Bu yerda ketma-ket bosqichlardan iborat uch marketing bo'lishi mumkin. **Ommaviy marketing, tabaqlashgan tovar marketingi va maqsad marketingi.**

Ommaviy marketingga iste'molchilar uchun umumiy bo'lgan ishlab chiqarish, taqsimot va rag'batlantirish xarakterlidir. Tabaqlashgan tovar marketingida iste'molchilar xilma - xillik yaratish maqsadida sifat ko'rsatkichlari va xarakteristikasi bilan bir - biridan farq qiladigan, kamida ikkita, aksariyat hollarda bir nechta mahsulot turlarini ishlab chiqarish amalga oshiriladi.

## 9.5. Fermer xo'jaliklarida tovar va fond birjalaridan foydalanish yo'llari

**Qishloq xo'jalik tovar birjasi** – tijorat korxona bo'lib, ulgurji savdo, iste'mol va ishlab chiqarishga mo'ljallangan tovarlarni erkin bahoda yetkazib beradi. Birja o'z faoliyatini ochiq savdoda, ma'lum joyda, birja qoidasiga mos ravishda amalga oshiradi.

Birja faoliyati qonuniy, tashkiliy va iqtisodiy asosda olib boriladi.

**Qonuniy jihat** – birja a'zolari birja mulkining egasi bo'lib, qo'yilgan kapital mablag'lar va olingan daromadlar egasidir.

**Tashkiliy jihatı** – xaridor va sotuvchini uchrashtiradi (ochiq birjalarda) yoki vositachi mutaxassislar (broker, diler, maklerlar) orqali xaridor va sotuvchini o'rtasida bitim tuziladi (yopiq birjada).

**Iqtisodiy jihatı** – tovar birjalarining faoliyati yirik ulgurji tovar bozori, shu bilan birga, real bozor baholari asosi sifatida tavsiyalanadi.

**Tovar birjalari quyidagi turlarga bo'linadi:**

**1. Yopiq tovar birjalari.** Bunda birja a'zolari, broker, diler, maklerlar va Nizomga ko'ra birja a'zolari deb qabul qilingan shaxslar qatnashadi.

**2. Ochiq tovar birjalari.** Bunda birja savdosiga qatnashish xohishi bo'lgan barcha xodimlar ishtirot etishi mumkin.

**3. Ixtisoslashgan tovar birjalari.** Ma'lum turdag'i tovarlar bilan muomala xizmatini bajaradi.

Tovar birjalari a'zolari, yuridik yoki moliyaviy shaxs, jumladan, chet el fuqarosi bo'lishi mumkin. Birja a'zosi bo'lishi uchun brokerlik joyi sotib olinadi.

Tovar birjalari broker kompaniyalari orqali faoliyat ko'rsatadi. **Broker kompaniyasi** – bu alohida shaxs, shirkat, aksioner birlashmasi yoki tuzilma bo'lib, asosiy faoliyati mijoz (tovar ishlab chiqaruvchi, xaridor, savdo vositalari) va birja o'rtasida aloqa bog'lashga qaratilgan bo'ladi.

Broker kompaniyasi mijozlardan (fermer) xarid qilish yoki birja tovarlarini sotish bo'yicha arizalarni yig'ish, rasmiylashtirish va operativ ravishda o'z birja brokerlariga yetazib berdi. Broker olingan arizani bajaradi va bajarganligi to'g'risidagi xabarni broker kompaniyasiga va undan keyin mijozga jo'natadi. Bundan tashqari, kompaniya o'z brokerlarining to'lov qobiliyatiga kafolat ham beradi, ya'ni sug'urta to'lovi vazifasini bajaradi. Broker xizmat haqi broker kompaniyasi va mijoz o'rtasidagi kelishuv orqali aniqlanadi. Broker xizmat haqi tuzilgan bitimlar qiymatining o'ndan bir, ba'zida yuzdan bir foizini tashkil etadi. Taxminan bitim qiymatining 1-2 foizini mijozga marja (sug'urta to'lovi) sifatida to'lashi kerak. Tovar birjalarining vazifalari:

- xo'jalik subyektlari yoki qatnashuvchi birja vositachilari o'rtasida birja savdosi uchun sharoit yaratib berish;
- birja savdosini o'tkazish, tovarlar bo'yicha talab va taklifni o'rghanish, zarurat tug'ilganda vositachi vazifasini bajarish;
- tovarlar bahosini aniqlash va uni maxsus bulletenlarda chop etish;
- birja bitimlarini rasmiylashtirish;
- birja operatsiyalari bo'yicha tortishuvlarni hal etish;
- tovar aylanmasini o'rghanish, tartibga solish va yengillashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarni bajarish.

**Tovarlarni birjada savdo qilish** – bozorda olib boriladigan savdo singari amalga oshiriladi. Xaridor tovarni ko‘rgandan keyin, sifati, sertifikatiga qarab baho qo‘yiladi. Bundan tashqari, tovarlarning namunasini yarmarkaga yoki ulgurji bozorga qo‘yish orqali ham savdo qilinadi.

**Ikki tomonlhma bitimlar tuzishda (forvard-bitim)** – sotuvchi va xaridor mahsulotni yetkazib berish, qabul qilish, uning sifati, yetkazib berish muddati, bahosi, uni aniqlash uslubi va bajarilgan bitimga haq to‘lash qoidasi to‘g‘risida majburiyat oladilar.

Ikki tomonlhma forvard bitim barcha tovarga tuzilishi mumkin. Bozorda sotiladigan tovardan farqi, shartnomada mahsulotlarning standart ko‘rsat- kichlari ko‘rsatiladi.

**Fyuchers yoki shoshilinch bitim** – tovar ishlab chiqaruvchi birja xizmatchisi brokerga hali yetishtirmagan mahsulotini, ba’zida ekilmagan ekin uchun bitim tuzishda vositachilik qilgani uchun, ma’lum miqdordagi pulni beradi. Broker olinadigan mahsulot hajmini mo’ljallab, u bilan uzoq muddatli bitim tuzadi.

Fermer yuqori hosil olgandan keyin, hosilning ma’lum qismini o‘zida qoldirib, brokerga ham belgilangan ulushini beradi. Broker ziyon ko‘rmaydi, u vositachiligi uchun olingan haqni olgandan keyin, shartnomaga ko‘ra yetishtirilgan hosilning bir qismini qabul qiladi va tuzilgan bitim asosida tegishli shaxsga yoki tashkilotga mahsulotni beradi.

Agar hosil bo‘lmay qolsa, tovar ishlab chiqaruvchi brokerga hosilni olish uchun zarur bo‘lgan vositalarni (urug‘lik, mashina, o‘g‘it va boshqalar) qaytarmaydi. Bu holda broker yutqazadi. Fyuchers bitimi qatnashchilari bo‘lajak bozorni baholaydi va ishlab chiqaruvchi daromadini (rejalashtirilgan va haqiqiy baholar o‘rtasidagi qoldiq) olishga umid qiladi, xaridor esa sotib olingan shartnomani yuqori bahoda sotishga mo’ljallab ish yuritadi.

Fermer bahoning tushishidan keladigan xavf-xatar(zarar)ni kamaytirish va oldindan belgilangan maksimal miqdordagi daromadni olish uchun savdo opsonidan foydalanadi.

**Opcion** – bu ikkala shartnoma tuzuvchilar o‘rtasidagi bitim bo‘lib, bunda ulardan biri mukofot oladi, sotib olish yoki sotish majburiyatini oladi, boshqasi mukofot pulini to‘laydi va ma’lum tovarni belgilangan vaqt davomida aniq bahoda sotish huquqini oladi.

Marketing infratuzilmasining tarkibiy qismi fond birjalari hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi vaqtincha foydalanmayotgan pul mablag‘larini qayta taqsimlash va ulardan oqilona foydalanishni ta‘minlash, sotish, xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan birja operatsiyalari (aksiya, obligatsiya, bank sertifikatlari, xazina majburiyatları va boshqalar)ni amalga oshirish uchun qulay sharoit

yaratishdan iborat. Fond birjalari bu tashkiliy rasmiylashtirilgan, muntazam faol ishlab turuvchi bozor bo'lib, bunda qoidaga ko'ra qimmatbaho qog'ozlar savdosi amalga oshiriladi.

---

### *Qisqacha xulosalar*

*R*еспублика agrar sohasida mahsulotni yetishtirish bozor munosabatlarida shakllangan bo'lib, uning samarasi bozor munosabatlariga asoslangan. Mahsulotlarni yetishtirishda turli usullardan foydalanilmoqda. Asosan, davlat buyurtmasi, fyuchers shartnomasi, kontraktatsiya shartnomasi hamda erkin savdoga chiqib o'z mahsulotlari tovarlilik darajasini oshirishga harakat qilmoqda. Ayniqsa, paxtaning, g'alla va sholining bir qismi tadbirkorning o'z ixtiyori bilan kelishilgan bahoda sotilishi ham moddiy manfaatdorlikni oshirmoqda.

Tayyorlov va chet el kompaniyalari bilan investitsiya hamkorligi asosida shartnoma usulida mahsulot yetishtirish dehqonga katta iqtisodiy ishonch tug'diradi. Chunki o'z mahsulotini oluvchi xaridor borligi, mahsulot hajmini ko'paytirish isrofgarchilikka yo'l qo'ymasligi, hamkorlik talabi bo'yicha mahsulotni sifatli yetkazib berish manfaatdorligi oshmoqda. Fermer xo'jaligida mahsulot yetishtirish va uni sotish marketing xizmati bo'lib, uni tashkil etish har bir rahbarning asosiy maqsad bo'lishi kerak.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Xalq xo'jaligida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish zaruriyatini tushuntirib bering.
2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish yo'llarini aytинг.
3. Mahsulot xaridorgirligini oshirishdagi chora-tadbirlarni izohlang.
4. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saglash va sotishning zamonaviy usullari nimada?
5. Marketing tushunchasi nima?
6. Marketing xizmatiga nimalar kiradi?
7. Marketing xizmati qanday tashkil etiladi?

**10.1. Iqtisodiy aloqalar tushunchasi. Shartnoma va uni tuzish yo'llari**

Iqtisodiy aloqalar fermer xo'jaligi faoliyatida ishlab chiqarish, iqtisodiy, huquqiy munosabatlardan asosida shakllanadi va bunda yuqori samaradorlikka erishiladi. Moddiy ta'minot, servis xizmatlari bilan fermer xo'jaligi o'rta sidagi iqtisodiy aloqalar zamirida iqtisodiy manfaat shakllanib, xo'jalik yuritishning iqtisodiy mexanizmlari orqali tartibga solinadi. Xo'jalik yuritishning iqtisodiy mexanizmlariga rejalashtirish, baho, soliq, moliyalashtirish hamda kreditlash, shartnoma munosabatlari va hokazolar kiradi.

Fermer xo'jaliklarining boshqa tarmoqlar (sanoat, ayniqsa, qayta ishlash, urug'lik, mineral o'g'itlar, texnika bilan ta'minlovchi tarmoqlar korxonalari va h.k.) bilan iqtisodiy aloqalarini shartnoma asosida olib boriladi. Shartnomada shartnoma shartlari to'liq ko'rsatilgan bo'lib, har ikkala tomon manfaatlari yo'lida amalgalashiriladi.

Fermer xo'jaliklari yollanma ishchi xodimlari bilan iqtisodiy aloqalarini mehnat shartnomasi asosida olib boradi. Soliq, nafaqa ta'minoti, ekologiya, bank, moliya, sug'urta tizimlari bilan iqtisodiy aloqalar olib boradi.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan turli mulkchilik shakllarida faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar o'rta sidagi munosabatlardan qonuniy hujjatlar asosida tashkil etilmoqda. Chunki huquqiy yoki jismoniy shaxslar (subyektlar) o'rta sidada tuziladigan barcha turdag'i shartnomalar ularning moliyaviy faoliyatini qonunchilik yo'li bilan muyofiqlashtiradi, haq -huquqlarini belgilaydi va himoya qiladi.

Bu O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 29-avgustdag'i «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonunda o'z aksini topdi va o'zaro iqtisodiy munosabatlardan qonun yo'li bilan himoyalandi.

Fermer xo'jaliklarning boshqa korxona va tashkilotlar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlari shartnoma asosida amalgalashirilmoqda.

Fermer xo'jaliklari paxta, g'alla, meva, sabzavot, poliz, go'sht, sut va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishdan iste'molchiga yetkazib berish jarayonlarida turli tayyorlovchi, qayta ishlovchi va servis xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar bilan tuziladigan shartnomalar asosida faoliyat ko'rsatmoqda.

Aksariyat fermer xo'jaliklari mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha tegishli xo'jalik subyektlari bilan shartnomalar tuzishda mahsulotlarni himoyalash, ya'ni sug'urtalash, iqtisodiy hamda huquqiy maslahat markazlari xizmatlaridan, chet el investitsiyalari yoki mikrokreditlarni ishlab chiqarish faoliyatiga jalb qilish ishlarida qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Fermer xo'jaliklarining tayyorlovchi, xizmat ko'rsatuvchi va qayta ishlash korxonalarini bilan tuzayotgan shartnomalarida tomonlarning huquq va majburiyatları bir tomonlama, ya'ni tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar foydasiga hal bo'lmoqda.

Shu sababli, ko'plab fermer xo'jaliklari asossiz ravishda zarar ko'rmoqdalar. Chunki fermer xo'jaliklari rahbarlari shartnoma tuzish bo'yicha yetarli iqtisodiy-huquqiy bilim va malakalarga ega emas.

Respublikada fermer xo'jaliklarining rivojlanayotganini hisobga olib, shartnoma munosabatlari va ularning mohiyati haqida tushuncha berish ularning faoliyatini takomillashtirishga katta yordam beradi. Tomonlar o'rtasida shartnomaning kelishuv shartlariga O'zbekiston Respublikasi «Fuqorolik kodeksi»da: **«Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishivi shartnoma deyiladi»** - deb izoh berilgan.

Yuridik va jismoniy shaxslar ham o'zaro kelishgan holda qonunchilik hujjatlari asosida bir-birlari bilan shartnoma tuzishlari mumkin.

Tomonlar shartnoma tuzishdan oldin, uning mohiyati, oqibati tomonlarning moliyaviy holatiga ta'siri qanday bo'lishini to'la o'rganib chiqishlari kerak.

Shartnomani tuzish ikki bosqichni: birinchi tomon taklif etishi (oferta deyiladi) va ikkinchi tomon ushbu taklifni qabul qilishi yoki qabul qilmasligi (aksept deyiladi) bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Shartnomalar erkin tuziladi. Uni majburiy tarzda tuzish qonunchilik hujjatlariga asosan taqiqlanadi va jinoyat hisoblanadi.

Shartnoma bitta mahsulot yoki xizmat turiga tuzilishi mumkin. Shuningdek, ayrim hollarda bir necha mahsulot yoki xizmat turlariga shartnomalar tuzishga to'g'ri keladi. Bunday shartnomalar aralash shartnomalar turiga kiradi.

Tuzilayotgan shartnomalar beshta muhim va bitta qo'shimcha bo'limdan iborat bo'lib, unda kirish, shartnoma mazmuni, tomonlarning huquq va majburiyatları, tomonlarning javobgarligi va qo'shimcha shartlari bor. Shartnoma tuzishda tomonlarning roziliklari bilan ularga qo'shimchalar qilinishi yoki ilova taqdim etilishi mumkin. Bunday hollarda fermer xo'jaliklari rahbarlari shartnomaning qaysi asosiy shartlari qonunchilikda bevosita belgilab qo'yilganligini va qaysi shartlar o'zaro kelishish yo'li bilan tuzilishini bilish kerak.

«Fuqarolik kodeksi»ning 364-moddasiga muvofiq, tomonlarning o‘zaro kelishuv asosida shartnomaning barcha asosiy va qo‘srimcha shartlari bo‘yicha imzolangan shartnomaga tuzilgan hisoblanadi.

### **Shartnomalarning kirish qismida:**

- *shartnomaning to‘liq nomi (matni, har xil talqin qilmasligi uchun) va raqami;*
- *imzo chekilgan yil, oy va kun, ya’ni tomonlarning imzo chekkan vaqt, eng muhim shartnomaga muddati, ya’ni uning kuchga kirgan vaqt va uning oxirgi muddati;*
- *imzo chekilgan joy;*
- *tomonlarning manzilgohlari, to‘liq nomlari, ularning huquqiy maqomi;*
- *shartnomalar matnining qisqa va tushunarli bo‘lishi uchun taraflar nomlanishi zarur.* Masalan, mahsulot yetkazib berish shartnomasida «Mahsulot yetkazib beruvchi» yoki «Sotib oluvchi», ijara shartnomasida «Ijaraga beruvchi» va «Ijaraga oluvchi» yoki shunga o‘xshash «Ta’mintonchi», «Iste’molchi», «Buyurtmachi» kabi boshqa nomlar aniq ko‘rsatilishi shart.

**Shartnomaning mazmunida** uning maqsadi, umumiy summasi, miqdoriga ta’rif beriladi va ular o‘zaro kelishilgan holda ushbu bo‘limda batafsil aks ettiriladi.

Shartnomaning mazmuni dehqon va fermer xo‘jaliklarining qanday turdagi mahsulot yetkazib berishi, sotishi, xizmatdan foydalanishi kabi yo‘nalishlarining xususiyatlardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda asosiy shartlar bilan birgalikda tomonlarning o‘zaro kelishuvlariga asosan, belgilangan shartlar ham aks ettirilishi, shuningdek, mahsulot yoki xizmat turining o‘lchov birliklarining to‘g‘ri qo‘yilishiga alohida e’tibor berilishi lozim.

**Shartnomalarning huquq va majburiyatları** qismida shartnoma shartlarini buzgan tomonga nisbatan qo‘llaniladigan choralar aks ettiriladi va ular tomonlarning o‘z majburiyatlarini belgilangan muddat va miqdordarda bajarilishini ta’minalashga qaratilgan bo‘ladi.

Shartnoma shartlarini buzganlik yoki muddatlarga rioxaya qilmaslik holatlari uchun javobgarlik «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi Qonunning 25-32- moddalariga asosan, qo‘llaniladi. Aksariyat hollarda shartnoma shartlari buzilganda, shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga jarima yoki penya to‘laydi.

Ushbu Qonunning 25-moddasiga ko‘ra, tovarlarni yetkazib berish (xizmatlar ko‘rsatish) muddatlarini buzganlik uchun tovar yetkazib beruvchi (masalan, pudratchi fermer xo‘jaligi va boshqalar) sotib oluvchiga (buyurtmachiga) kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida, lekin uning 50 foizidan oshmagan miqdorida penya to‘laydi, shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini to‘lashdan bosh

tortganlik va to'lov talabnomasini butunlay ikki qismini rad etganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) mahsulot yetkazib beruvchi(fermer, pudratchi)ga o'zi to'lashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi, lekin ushbu summaning 50 foizidan oshmaydigan miqdorida jarima to'laydi.

Mazkur Qonunda, shuningdek, «Qishloq xo'jalik mahsulotlari kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish tartibi to'g'risi»dagi Nizomda ko'zda tutilgan boshqa jarima choralarini fermer xo'jaliklari rahbarlari yaxshi bilishlari va ularni tegishli korxona, tashkilotlar bilan tuziladigan shartnomalarda o'z haq-huquqlarini himoya qilish maqsadida oqilona foydalanishlari lozim.

Shartnomaning «Boshqa shartlar» bo'limida – shartnomaning kuchga kirish vaqtiga avvaldan kelishilganligini inobatga olib, ushbu vaqt o'zgarishi yoki boshqa ko'zda tutilgan holatlari yuzaga kelgan taqdirda shartnomalarning bajarilishi qanday amalga oshirilishi kerakligi yoki shartnoma yuzasidan shartnomani bajarish davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarni hal qilish, shartnomani o'zgartirish yoki uni bekor qilish shartlari va tartib, shartnoma asl nusxasininig miqdori va boshqalar ko'rsatiladi.

Shartnomaning imzolanishiga vakolat berilgan shaxsning to'liq ismi, otasining ismi va familiyasi, taraflarning manzili, pochta, bank, rekvizitlari, aloqa usullari kabi muloqotlar aniq ko'rsatilishi shart. Fermer xo'jaligida kontraktatsiya shartnomalari Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-sentabrda «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlarning bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi» 383-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorga binoan, «Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlash, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtaida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida Nizom» tayyorlandi va tasdiqlandi.

Mazkur Nizomning amal qilishi fermer xo'jaliklari bilan boshqa qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, qayta ishslash, moddiy-teknika resurslarini yetkazib berish, mexanizatsiya ishlarini bajaruvchi, xo'jaliklarga servis, agrokimyo, agrotexnika xizmatlari va hokazo tashkilotlar o'rtaida tuziladigan kontratatsiya shartnomalarida o'z ifodasini topadi.

Kontraktatsiya shartnomalarida tayyorlovchi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kelishilgan muddatlarda berish, xarid qiluvchi esa kelishilgan muddatlarda haq to'lab ushbu mahsulotni sotib olish majburiyatini oladi.

Moddiy-teknika resurslari tarkibiga kiruvchi ehtiyyot qismlari, urug'lik, o'simliklarni himoya qilish vositalari, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'it

va boshqalarni yetkazib berish yuzasidan tuzilgan shartnoma bo'yicha yetkazib beruvchi tashkilot xo'jalikka o'zi ishlab chiqaradigan yoki xarid qiladigan moddiy-texnika resurslarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda foydalanish uchun kelishilgan muddatda yetkazib berish majburiyatini oladi. O'z navbatida, xo'jalik moddiy-texnika resurslarini qabul qilib olish va ular uchun belgilangan, ya'ni kelishilgan narxlar bo'yicha haq to'lash majburiyatlarini oladi.

Begilangan tartibda qishloq xo'jalik mahsulotlarining ayrim turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish mayjud bo'lgan taqdirda tayyorlov tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilishni mablag' bilan ta'minlash to'g'risida shartnoma tuzadilar.

Tuzilgan barcha turdag'i shartnomalar qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin amalga oshirilishi belgilangan.

Shartnomalarda, uni tuzish tartibi, ya'ni mavzusi, mahsulotning nomi, assortimenti miqdorining hajmi, sifati narxlarining turi va hisob-kitoblar tartibi va shakli hamda muddatlari shartnomaning umumiy summasi, tomonlarning huquqlari va majburiyatlar, mahsulotni yetkazib berish tartibi va shartlari, topshirish, qabul qilib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) joylari va muddatlari (davlat), shartnomaning majburiyatlar bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi, shartnomalar bajarilishi monitoringini olib borish tartibi va yakuniy qoidalari aks ettiriladi.

Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish yuzasidan tuziladigan kontraktatsiya shartnomalarida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan hamda xo'jaliklar ixtiyorida qoladigan mahsulotlarning navi va miqdori ham ko'rsatiladi.

Yangi Nizomga muvofiq, shartnomalarni o'z vaqtida tuzib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchilarga yetkazib berish, tayyorlovchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga yuklatiladi va ularning javobgarligi oshiriladi. Ushbu korxonalarining vakillari shartnomalar tuzish uchun bevosita qishloq xo'jaligi yetishtiruvchilar manziliga borishlari belgilab qo'yilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar va tayyorlovchi, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtaida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish 7 ta bosqichda amalga oshiriladi:

**1-bosqichda**, asosan, shartnomalar tuzishga, agrotexnika tadbirlari boshlanishidan bir oy oldin tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

**2-bosqich**. Qishloq xo'jalik korxonalariga shartnomalar 7 kun mobaynida ko'rib chiqish va imzolash uchun taqdim etiladi.

**3-bosqich.** Tayyorlov, xizmat ko'rsatish va boshqa tashkilotlarga shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun 3 kun muhlat beriladi.

**4-bosqich.** Qishloq va suv xo'jaligi bo'limlariga shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun 3 kun muhlat beriladi.

**5-bosqich.** Qishloq va suv xo'jaligi bo'limlariga shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazgandan keyin tayyorlovchi, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlarga tarqatish uchun bir kun muhlat beriladi.

**6-bosqich.** Ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng, tayyorlov xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga 2 kun ichida shartnomalarni xo'jalikka yetkazish topshiriladi.

**7-bosqich.** Tayyorlovchi, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar, qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari, qishloq xo'jaligi korxonalariga jami shartnoma shartlari bajarilgandan so'ng, 3 kun ichida shartnomalarni saqlash uchun topshiriladi.

Yangi namunaviy shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari to'la aks ettirilgan.

## **10.2. Fermer xo'jaliklarining faoliyatidagi muvofiqlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar**

Respublikamizda fermer xo'jaliklari sonining ortishi bilan mahsulot yetishtirishda ularning salmog'i oshmoqda. Shuning uchun fermerlar faoliyatini, davlat va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlari o'rtafiga o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Fermer xo'jaliklari soni ko'payib borishi bilan ularning faoliyatini muvofiqlashtirishga hukumat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Prezidentining 1997-yil 18-martdagи «Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlashda ularning rolini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 28-apreldagi 215-sonli Qarori bilan Respublika shaxsiy tomorqa va dehqon xo'jaliklari uyushmasi tashkil etildi.

O'sha paytga qadar quyi bo'g'inda mustaqil fermer xo'jaliklar va jamoa xo'jaliklar negizida tashkil etilgan ichki fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ularning respublikadagi barcha tumanlarda, shuningdek, ba'zi viloyatlar bo'yicha uyushmalari tuzilgan bo'lib, mamlakat miqyosida esa, bu uyushmalar faoliyati qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi «Dehqon (fermer) xo'jaliklari boshqarmasi» tomonidan muvofiqlashtirilar edi. Fermer xo'jaliklari faoliyati viloyat va tumanlarda ikki yo'nalishda: tuman va viloyat fermer xo'jaliklari uyushmasida va qishloq xo'jalik boshqarmalari orqali muvofiqlashtirilardi.

Fermerlar uyushmasi esa bevosita fermer xo'jaliklari bilan ish olib boradi. Topshiriq va vazifalarni viloyat vakilligi va tuman hokimiyatidan olib, o'z navbatida, viloyat vakilligi faoliyatini takrorlaydi. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda tashabbus ko'rsatib, fermer xo'jaliklariiga bevosita amaliy yordam bera olmaydi. Uyushmaning asosiy vazifasi viloyat vakilligi va mahalliy hokimiyatlar buyrug'iga binoan, qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish va fondlarni markazlashgan usulda taqsimlash, moddiy-texnika resurslarini fermer xo'jaliklariiga yetkazishdir.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda fermer xo'jaliklarining faoliyati davlat tomonidan imtiyozli qarzlar, subsidiyalar va boshqa turdag'i moliyaviy yordamlar hamda kvotalar yordamida tartibga solinib turadi. Bu tadbirlarning hammasi bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida, maxsus davlat dasturlari orqali amalga oshiriladi.

Tarqatilgan shirkat xo'jaliklari negizida tashkil etilgan fermer xo'jaliklari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularga amaliy yordam berish maqsadida o'rtacha 5-6 kishidan iborat «Fermerlar birlashmasi» yoki «Fermerlar uyushmasi» tuzilgan. Uyushmada ziroatchi muhandis, muhosib, iqtisodchi kabi mutaxassislar bo'lib, fermer xo'jaliklari tomonidan ajratilgan ajratmalar hisobiga faoliyat yuritadi.

Uyushmalar hozirgi kunda ko'proq fermer xo'jaliklari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va huquqiy himoya qiluvchi emas, balki nazorat qiluvchi organga aylanib qolmoqda.

Shuning uchun, yoppasiga tarqatilgan xo'jaliklar zaminida tashkil topgan fermer xo'jaliklar o'zaro ixtiyorilik asosida kooperatsiya shaklida birlashishlari mumkin. Kooperatsiya raisi, uning ijroiya organi demokratik asosda fermerlar tomonidan saylanib, uning faoliyati faqatgina fermer xo'jaliklariiga barcha zaruriy ta'minot servis xizmati ko'rsatishni tashkil qilishdan iborat bo'ladi.

Fermer xo'jaliklarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi asosiy tashkilot fermer xo'jaliklari uyushmasi tuman vakilligi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 22-apreldagi «Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi 168-sonli Qaroridan maqsad belgilangan fermer xo'jaliklari faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning manfaatlarini huquqiy himoya qilishdan iborat.

### **10.3. Fermer xo‘jaligida biznes-reja va uni tuzish yo‘llari**

Fermer xo‘jaliklari mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tadbirkorlar sifatida kam xarajatlar hisobiga bozorgir, sifatli qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirib, daromadi miqdorini oshirishni asosiy vazifa darajasiga ko‘tarishi lozim. Xarajatlarni kamaytirishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li bu yetishtirilayotgan mahsulot birligi, ekin maydonlari yoki chorva mollari bosh soni hisobiga sarflanayotgan mehnat va moddiy-texnik resurslar miqdorini kamaytirishni yo‘lga qo‘yishdir.

Fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqiladigan biznes-rejalar ushbu me’yorlarga asoslanishi lozim.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun talab etiladigan mehnat va moddiy xarajatlar me’yorlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ma’lum hosildorlik ko‘rsatkichlariga bog‘langan va hosildorlik o‘zgarishi bilan sarf-xarajatlar miqdori ham o‘zgarishi mumkin.

Hosildorlikning o‘zgarishiga o‘g‘itlar, mehnat sarfi, yonilg‘i miqdori ta’sir etsa, bir gektarga sarflanadigan urug‘lik miqdoriga ta’sir etmasligi mumkin.

Fermer xo‘jaliklari mahsulot yetishtirish va ekinlarni parvarishlash bo‘yicha ishlab chiqilgan xarajatlar me’yorlarini majburiy emas, balki tavsiya sifatida qarash lozim, chunki fermerning moddiy va mehnat xarajatlari me’yordan ortib, mahsulot tannarxi oshib ketishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 1997-yil 24-iyundagi 317-sonli Qarori va Respublika Qishloq va suv xo‘jalik vazirligini 1997-yil 28-iyun 186-sonli «1998-2000- yillarda paxta, boshoqli don ekinlari, sholi va kartoshka ekinlari maydoni to‘g‘risida»gi Buyrug‘iga va viloyat qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmalari tomonidan xo‘jaliklarga yetkaziladigan topshiriqlar asosida hamda qolgan ekin turlarini ekishda xo‘jaliklarning o‘zлari bozor talablarini o‘rgangan holda, talab etiladigan maydonlarni belgilashlari, hosildorligi o‘rtacha 3-yillikdan kam bo‘lmagan miqdorda belgilab to‘ldiriladi.

Mehnat va moddiy xarajatlar me’yori – mehnat sarfi (kishi/soat), urug‘, yonilg‘i-moylash materiallari va mineral o‘g‘it O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘ribbosari tomonidan 1997-yil 7-aprel 11/48-81-sonli xati bilan tasdiqlangan «Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishga talab etiladigan mehnat va moddiy resurslar me’yorlari» ning 1, 6, 9, 10, 38 – jadvallarida belgilangan hosildorligiga tegishli me’yorlardan olib qo‘yiladi.

№1 jadvalni to‘ldirish uchun xo‘jaliklarda ekin turlari bo‘yicha, tuproqlarning xususiyatlariga ko‘ra esa mineral va madaniy o‘g‘itlarning aniq hisob-kitobi bo‘lishi va ish hisob-kitoblar asosida xo‘jalik bo‘yicha har bir

ekin ekiladigan maydon tuprog‘ining xususiyatlari ko‘ra esa mineral va madaniy o‘g‘itlarning aniq hisob-kitobi bo‘lishi va ish hisob-kitoblar asosida xo‘jalik bo‘yicha har bir ekin ekiladigan maydon tuprog‘ining xususiyatlari ko‘ra, urug‘, yonilg‘i-moylash materiallari, mineral va madaniy o‘g‘itlarning talab me’yori to‘g‘risida hisob-kitob chiqariladi.

#### 10.3.1-jadval

#### **Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun bir gektar yerga sarflanadigan mehnat va moddiy xarajatlar me’yorlari.**

Ekin turi	Mosildorlik sga	Mehnat sarfi, kishi/soati	Urug‘lik, kg	Yonilg‘i, kg	O‘g‘it jami, kg, sofi holda	Shu jumladan N, kg	P, kg	K, kg
Don	42	134	220	164	420	210	147	63
Shu jumladan, g‘alla	42	134	220	164	420	210	147	63
Paxta	27	964	45	340	485	220	155	110
Kartoshka	120	900	4000	325	240	110	75	55
Sabzavot	220	1680	20	200	285	135	95	55
Meva	40	800	x	263	270	120	85	65
Uzum	40	2000	x	333	295	135	90	70
Beda	120	123	16	294	240	100	90	50
Makka silos	300	46	40	250	330	150	105	75

Jadval-2. «Yerdan foydalanish». Ushbu jadval -1.XI.1997-yilgi ko‘rsatkichiga asosan (29.q/x) to‘ldiriladi.

#### Jadval-3. Dehqonchilik mahsuloti ishlab chiqarish.

Ushbu jadvalni to‘ldirishda belgilangan me’yorlar (jadval 1.) ekin maydonlariga ko‘paytirilib, (kishi/soati), urug‘lik, YOMM va o‘g‘itlar miqdorlari aniqlanadi va 5, 7, 9, 11 ustunlarga qo‘yilib, ularning qiymatlari joriy yildagi xo‘jalikka kirim qilinadigan baholar bilan hisoblanadi. Eng avvalo, xo‘jaliklarda har bir ekin turi bo‘yicha agrotexnika chora-tadbirlari tuzilgan bo‘lishi va shunga asosan, 3-jadval hisob-kitob qilinib to‘ldiriladi.

Soliq to‘lovlari Respublika hukumati tomonidan belgilangan me’yorlar darajasida hisob-kitob qilinib, mahsulot tannarxiga qo‘silmagan holda xo‘jalikning moliyaviy natijasida ko‘rsatiladi.

**Asosiy vositalarni saqlash (14-ustun)**-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 469-sonli Qaroriga muvofiq, 1997-yil 1-yanvardan 5-guruuhga birlashtirildi va guruhlar bo'yicha asosiy fondlarning yillik amortizatsiyasi normalari quyidagicha hisoblanadi:

- bino, inshoot va qurilmalar – 5 foiz;
- yengil avtobuslar, taksi, yo'llardan foydalanish uchun mc'ljallangan avtotexnikalar, maxsus qurilmalar, inventar va moslamalar, kompyuterlar, ma'lumotlarni qayta ishlashtirishga mo'ljallangan moslama va uskunalar hamda quyma ishlab chiqarish, temir-presslovchi, qurilish, qishloq xo'jaligi mashina va asbob-uskunalar, idora uchun mebel – 15 foiz;
- avtomobil transportining harakat qiluvchi qismi, 'yuk tashish avtomobili, avtobuslar, maxsus avtomobillar va avtopritseplar. Sanoatda barcha tarmoqlardagi mashina va asbob-uskunalar hamda quyma ishlab chiqarish, temir-presslovchi, qurilish, qishloq xo'jaligi mashina va asbob-uskunalar, idora uchun mebel – 15 foiz.
- boshqa guruhlarga kiritilmagan amortizatsiya lanadigan (eskiradigan) aktivlar – 10 foiz.

– temir yo'l, dengiz, havo transporti vositalari, kuch mashinalari, issiqqliq texnikasi, trubina asbob-uskunalar, elektro-dvigatellar va dizel generatorlar, elektr uzatish va aloqa moslamalari – 8 foiz. Yuqorida ko'rsatilgan foizlarning hisob-kitobini qilish uchun xo'jalikning 1997-yil hisobidagi asosiy vositalar harakati to'g'risidagi 3-jadval 12-ustun yil oxirida qoldiq olinib, unga 1998-yilda olinadigan asosiy vositalar, qishloq xo'jalik mashinalari va inventarlari qiymati qo'shilib, umumiy qiymat aniqlanadi va guruhlar bo'yicha yillik amortizatsiya normalari foizi va summasi hisoblanadi hamda har bir texnikaning qishloq xo'jalik ekin turlari bo'yicha bajarilgan ish hajmlariga mutanosib ravishda taqsimlanib mahsulot tannarxiga qo'shiladi va 14- ustunga qo'yiladi.

**Ishlar va xizmatlar 15-ustun** – xo'jaliklarga shartnoma asosida xizmat ko'rsatayotgan tashkilotlar va korxonalar xizmati uchun to'lanadigan xarajatlar, suv ta'minoti xo'jaliklaridan sug'orish va boshqa maqsadlarga olingan suv uchun to'lanadigan pul mablag'lari, xo'jalik ichidagi yordamchi korxonalarning ko'rsatgan xizmatlariga to'langan xarajatlar hisob-kitobi, hisob-kitob yildagi haqiqiy xarajatlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

**Sug'urta to'lovlari (16-ustun)** – «O'zagrosug'urta» Respublika tashkilotining hududiy bo'linmalari bilan ixtiyorilik asosida mahsulot turlariga alohida shartnoma tuziladi va ushbu ustunga qo'yiladi.

Umumiy ishlab chiqarish xarajati 17-ustun. Bu xarajatga xo'jalikning shtat jadvalida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning hamma turlari hamda xo'jalik xarajatlarining hisob-kitobi ekin turlari bo'yicha olib boriladi.

Ushbu xarajat miqdori umumiylar xarajatdan urug' qiymati chegirishidan qolgan qismi mutanosib taqsimlanib, ekin turligiga olib boriladi.

**Boshqa xarajatlar (18-ustun).** Yuqorida ko'rsatilgan xarajat turlariga taalluqli bo'limgan, ammo ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ushbu ustunda ekin turlari bo'yicha ko'rsatiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha xarajat turlarining qiymatdagi yig'indisi 4-ustunda ifoda etiladi. Mahsulot turlari bo'yicha jami xarajatlar summasidan qo'shimcha mahsulot qiymatini chegirishdan qolgan summasini (4-ustun) mahsulot miqdoriga (20-ustun) taqsimlanganda (4-ustun:20-ustun) 1 sentner mahsulotning tannarxi aniqlanadi va 23-ustunda qayd etiladi.

Mahsulotlar hosildorligini aniqlashda, ularning asosiy va qo'shimcha mahsulotlari aniq belgilanishi 20-ustunda qayd etilib, belgilangan miqdori (20-ustunni) ekin turlari bo'yicha ekilgan maydonga (3-ustun) nisbati har bir gektardan olingan hosildorlikni bildiradi va 21-ustunda qayd etiladi.

**4, 5, 6, 7-jadval.** Mollar, parrandalar, hayvonlar (bosh soni) va asalari oilasi sonining mavjudligi, mahsuldarligi, yem-hashak sarfi.

Ushbu jadvallarni to'ldirishda xo'jalikning 1997-yilgi yillik hisoboti (13-jadval)dan 6, 7, 8-ma'lumotlardan olinib, chorvachilikda poda harakati bo'yicha hujjat (vedomost) tuziladi.

Poda harakati hujjatiga asosan, chorva mollarining bosh sonlari yil boshi va oxiridagi o'zgarishlari, kirim va chiqimlari, ularning tirik og'irligi va umumiylar bahosi 4-jadvalda qayd etiladi.

4-jadvaldan va poda harakati hujjatidan kelib chiqqan holda mollar va parrandalarning tirik vazni o'sishi, 5-jadvalning 4-5- ustunlarida ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, aholidan shartnomaga asosida olinadigan mahsuloular: sut, go'sht, tuxum, jun va boshqa mahsulotlar ham to'liq ko'rsatilishi zarur.

Mollarning mahsuldarligi (6-jadval). Ushbu jadvaldagagi mollar va parrandalar bosh sonlari 4-jadvalning 3-ustuniga mos ravishda ularning mahsuldarliklari va jami mahsulot miqdori hisob-kitob qilinib chiqariladi.

**7-jadval. Mollar va parrandalarning ozuqalarga bo'lgan ehtiyoji va ularning ta'minoti.**

Ushbu jadvalda poda harakati hujjati bo'yicha xo'jalikdagi chorva mollarining turlari bo'yicha talab etiladigan ozuqalar miqdori ozuqa birligida, shu jumladan, konsentrat ozuqa va uning jami qiymati aniq hisob-kitob qilinadi. Bundan tashqari, talab etiladigan ozuqaning qancha miqdori sotib olinishi va uning qiymati, shuningdek, 1 sent. mahsulotga sarflanadigan ozuqa birligi me'yorlar qo'llanmasining 17-30 jadvallariga asosan aniqlanadi.

**8-jadval. Chorvachilik mahsulotlari ning tannarxi.** Ushbu jadvalni to'ldirishda «Biznes-reja»ning 3-jadvalini to'ldirish tartibida, shuningdek, me'yoriy

qo'llanmadagi me'yorlardan kelib chiqqan holda, kishi/soati, ozuqa miqdori va yonilg'i-moylash materiallari belgilanadi hamda ularning qiymatlari joriy yil bahosida hisoblanadi.

**9-jadval. Mahsulot balansi.** Ushbu jadvalni to'ldirishda xo'jalikning 1997-yil hisobotida mahsulotlar turlari bo'yicha qoldiq olinadi va uning miqdori 3-4-ustunlarda ko'rsatiladi. 1998-yilda ishlab chiqariladigan mahsulot turlari bo'yicha miqdor va qiymatlari 5-6- ustunlarda, sotib olinadigan va boshqa kirimlar miqdori va qiymatlari esa 7-8- ustunlarda ko'rsatiladi. Jami kirim qilingan mahsulotlar turi miqdor va qiymat holida 9-10- ustunda jamlanadi.

Yil davomida chiqim qilinadigan jami mahsulot turlari, shu jumladan, davlat buyurtmasi va shartnomma asosida sotiladigan mahsulotlar miqdori va qiymati 11-12-ustunlarda, xo'jalik a'zolariga va issiq ovqat uchun ishlatiladigan mahsulot turlari miqdori va qiymati 13-14-ustunlarda, erkin bozorda sotiladigan mahsulotlar 15-16-ustunlarda, barter asosida ayrboshlanadigan mahsulotlar 17-18-ustunlar, xo'jalikning chorva mollari va urug'lik fondigan ajratiladigan mahsulotlar 19-20-ustunlarda ko'rsatilib, jami kirim mahsulotlaridan (9-10-ustun) yuqorida ko'rsatilgan chiqimlar chiqarilib, yil oxirida qoldiq miqdori mahsulot turlari bo'yicha reja tannarxida ko'rsatiladi (21-22-ustunlar).

**10-jadval. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish.** Ushbu jadvalni to'ldirishda mahsulotlar miqdori (1-ustun) ko'rsatkichi konditsion hisobga o'tgan va tabiiy hollarda olinadi. Sotiladigan mahsulotlarning tannarxi (2-ustun) biznes-rejaning 3-8-9- jadvallaridan kelib chiqqan holda to'ldiriladi. Mahsulotlarni sotishdan tushgan pul daromadini hisoblashda (3-ustun) ularga belgilangan davlat buyurtmalari alohida hisob-kitob qilinib, shartnomma asosida sotiladigan qismiga qo'shiladi va o'rtacha narx chiqariladi. Har bir mahsulot uchun foydalilik darajasi 25-30 foizdan qo'shib, sotiladigan mahsulot miqdoriga ko'paytililadi va olingan summa 3-ustunga tushiriladi.

**Moliyaviy natija** – 4-ustunni to'ldirishda, sotiladigan mahsulotning tannarxi (2-ustun) va sotishdan tushgan pul daromadi o'rtasidagi farq, mahsulot turlarini sotishdan olingan moliyaviy natijasini bildirib, 4-ustunda qayd etiladi (foyda+; zarar -).

Bundan tashqari, xo'jaliklarda sanoat korxonalari (13-jadval), yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi, kichik ishlab chiqarish korxonalari (14-jadval) tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot xarajati va sotishdan kelgan daromadlari hamda olingan foydalari 10-jadvalning 4-ustunida ko'rsatiladi.

**11-jadval. Umum xo'jalik xarajatining mahsulot yetishtiruvchi bo'linmalariga taqsimoti.** Ushbu jadvalni to'ldirishda, xo'jalikda yetishtirilgan mahsulotning qiymati 3-8-13 va 14-jadvallardan olinadi, umumxo'jalik xarajatlari esa 15 jadvaldan foydalaniib to'ldirilib, 100 so'm mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat hisoblanadi.

**12-jadval. Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari.** Ushbu jadvalni to‘ldirishda biznes-rejaning 3,8,13,14-jadvallaridagi barcha xarajatlar elementi jamlanib, xarajat turlari bo‘yicha 3-ustunda aks ettiriladi. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanib, 5,6-ustunlari to‘ldiriladi.

**15-jadval. Xodimlarning soni va iste’molga yo‘naltirilgan mehnat haqi fondi.** Ushbu jadvalni to‘ldirishda biznes-rejadagi 3,8,13 va 14- jadvallardan hamda me’yoriy qo‘llanmada belgilangan shtatlar jadvalidan kelib chiqqan holda xodimlarning o‘rtacha yillik soni aniqlanib, 1-ustunga tushiriladi. Shuningdek, mehnatga haq to‘lash miqdori 2-ustunda, rag‘batlantirish 3-ustunda va yil yakuni bo‘yicha mukofotlash 4-ustunda ko‘rsatiladi.

**16-jadval. Tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari (mahsulot va xomashyo).** Ushbu jadvalda xo‘jaliklardan eksportga jo‘natiladigan mahsulotlar turlari bo‘yicha ularning miqdori va qiymati, shuningdek, import liniyasi bo‘yicha qabul qilinadigan mahsulotlari miqdori va qiymati aks ettiriladi.

**17-jadval. Mavjud va harakatdagi valuta.** Ushbu jadval xo‘jaliklarning hisob raqamida bo‘lgan valuta tushumi mavjud bo‘lgan hollarda to‘ldiriladi.

**18-jadval. Pul daromadlari va xarajatlar balansi.** Ushbu jadvalda joriy yilda hisob raqamida qayd qilinadigan daromadlar manbayi, shuningdek, xo‘jalikni yuritish uchun qilinadigan xarajat turlari bandma-band ko‘rsatilib, xo‘jalikning jami daromadi va xarajati to‘liq tahlil qilinadi.

**19-jadval. Budjetga to‘lovlar.** Ushbu jadvalni to‘ldirishda xo‘jalik tomonidan joriy yilda to‘lanishi zarur bo‘lgan soliqlar, boshqa turli to‘lovlar va ajratmalar turlari bo‘yicha hisob-kitob qilinadi va 3-ustunda aks ettiriladi.

**20-jadval. Korxonaning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichi.** Ushbu jadvalni to‘ldirishda xo‘jalikdagi ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari 3-8 jadval biznes-rejaning miqdori, 1996-yilning o‘rtacha bahosida (taqqoslama) hisoblanib, reja qismiga qo‘yiladi.

1997-yil hisob yilida ishlab chiqarilgan mahsulotlar, shu yilning haqiqiy bahosida (hisobot yili 6-APK).

1998-yil ishlab chiqariladigan mahsulot (biznes-reja) 1997-yil bahosiغا hisob-kitob qilinadi. Jadvaldagagi qolgan ko‘rsatkichlar hisobot yilining haqiqiy bahosidan kelib chiqqan holda to‘ldiriladi.

**21-jadval. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yalpi daromadi.** Ushbu jadvalni to‘ldirishda biznes-rejaning 3,8, 10-jadvallaridan foydalaniib, o‘simlikchilik hamda chorvachilik tarmoqlari bo‘yicha alohida yalpi mahsulot qiymati (tannarx bo‘yicha) hisoblanadi va ular umumlashtiriladi.

**22-jadval. Moliyaviy natija.** Ushbu jadvalni to‘ldirishda – mahsulotlarni sotishdan olingan daromad va xarajatlarning summasi 10-jadvaldan olinadi (biznes-

rejani satr-010-5 ustun, 060-6 ustun) natijasi 070-5 ustuniga ma'muriy xarajatlar (090-6 ustun) qo'yiladi. Qolgan bandlarda xo'jalikning qo'shimcha oladigan daromadi va xarajati bo'lsa, to'ldiriladi.

Biznes-rejada penya, jarima va noqonuniy to'lovlari to'lanishi rejalashtirilmaydi. Biznes-rejani to'ldirishda foydalanish uchun 1,2,3,4,5,6,7 va 8-ko'rsatkichli jadvallar ilova qilinadi.

#### **10.4. Fermer xo'jaligida bank ishi va kreditdan foydalanish**

Fermer xo'jaligini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha kredit berish ikki turda amalga oshiriladi. Birinchidan, tijorat banklari tomonidan mikrokredit berish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000-yil 22-fevraldagagi 464- sonli Qarori va Adliya vazirligining 2000-yil 29-fevraldagagi 903 raqam bilan ro'yxatga olingan «Tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari va kichik biznesning boshqa subyektlarini milliy va chet el valutasida mikrokreditlash» Tartibi va unga kiritilgan 1-tonli o'zgarishlar bilan amalga oshiriladi.

Mazkur Tartib tijorat banklari tomonidan yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari va kichik biznesning boshqa subyektlariga mikrokreditlar berishni tartibga soladi. Tijorat banklari tomonidan mikrokreditlarni berish, qaytarish, to'lash, ta'minlash, muddatli va maqsadli foydalanish shartlari asosida amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklariga va kichik biznesning boshqa subyektlariga beriladigan mikrokreditlar deganda, kredit beriladigan kundagi Respublika Markaziy banki kursi hisobida 10000 (o'n ming) AQSH dollari ekvivalenti miqdoridan oshmaydigan hajmda milliy yoki chet el valutasida beriladigan kreditlar tushuniladi.

Tijorat banklari mikrokreditlarni qarz oluvchilarga shartnomaga asosida 3 yilgacha bo'lган muddatga beradilar. Kreditlar mijozning talab qilib olinguncha depozit hisob raqami joylashgan manzil bo'yicha beriladi. Faqat dehqon va fermer xo'jaliklariga mikrokreditlarning 50 foizgacha miqdorining aholidayan chorva mollari, parranda, urug'lik va ko'chatlarni sotib olishiga, 1,5 yil(18 oy)gacha bo'lган muddatga qaytarish sharti bilan naqd pulda berilishiga ruxsat beriladi.

Mikrokreditlar qarz oluvchilarga quyidagi maqsadlar uchun beriladi:

- *kichik (mini) uskunalarini xarid qilish;*
- *fermer xo'jaliklarida xususiy ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirish, shujumladan, qishloq xo'jalik texnikasini sotib olish, inshootlarni qurish, urug'lik, chorva mollari, yosh chorva mollari, parranda, yem-xashak*

*va omuxta yem, veterinariya dori-darmonlari, kimyoviy vositalari va mineral o'g'itlarini sotib olish o'simliklarni himoya qilish;*

- xomashyo va materiallarga birlamchi ishlov berish;*
- mehnat qurollari, xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar va yordamchi ashyolarni xarid qilish;*
- xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati buyumlarini ishlab chiqarish;*
- hunarmandchilikni rivojlantirish, uy mehnati (kasanchilik) ni tashkil qilish;*
- servis xizmati va maishiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish;*
- soliq to'lashni rivojlantirish;*
- sayyohlik (turizm) sohasini rivojlantirish;*
- kichik ko'lamdag'i ishlab chiqarishlarni tashkil qilish.*

Mikrokreditlardan foydalanganlik uchun foiz stavkalarining miqdori qarz oluvchi va bank o'tasidagi o'zaro kelishuvga ko'ra, kredit shartnomasi asosida, ammo Markaziy bank tomonidan rasman o'rnatilgan qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'limgan miqdorda belgilanadi.

Maxsus mikrokreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan beriladigan mikrokreditlarda imtiyozli foiz stavkalarini belgilash tavsiya etiladi.

Mikrokreditlar olish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- mikrokredit olish uchun kredit buyurtmasi;*
- pul oqimi tahlili majburiy tarzda ko'rsatilgan biznes-reja;*
- oxirgi hisobot sanasiga Davlat soliq xizmatining mahalliy (tuman) idorasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik balansi (1-shakl), debitorlik va kreditorlik qarzi haqidagi ma'lumot nomaga (2 a)- shakl, shuningdek, 90 kundan ortiq muddatdagi qarz dorlikni solishtirish dalolatnomalari, moliyaviy natijalari haqida hisobot (2 shakl).*

Olingen mikrokreditni qaytarmaslik xatarining oldini olish maqsadida qarz oluvchi tez va erkin sotilish talablariga javob beradigan ta'minotga ega bo'lishi kerak. Qarz oluvchi bankka quyidagi ta'minot turlarining birini taqdim etish huquqiga ega:

- mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi;*
- bank yoki sug'urta tashkiloti kafolati;*
- uchinchi shaxsnинг kafilligi;*
- sug'urta kompaniyasining qarz oluvchining kreditni qaytara olmaslik xatarini sug'urta qilgani to'g'risidagi sug'urta polyusi;*
- fuqaro yig'inlarining, mahalla, qishloq, ovul Kengashlari kafilligi.*

Kreditlar mijozning talab qilib olinguncha depozit hisob raqami joylashgan manzil bo'yicha beriladi. Kreditlar alohida ssuda hisob raqamini ochiq va ushbu hisob raqamidan qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalari asosida moddiy-tovar boyliklari uchun naqd pulsiz, ya'ni pul o'tkazish yo'li bilan yoki mikrokreditning 50% foizigacha miqdorida naqd pul shaklida faqat dehqon va fermer xo'jaliklariga, ular tomonidan taqdim etilgan pul cheklariga naqd pulda beriladi.

Naqd pulda beriladigan mikrokreditlar va ularga hisoblangan foizlar belgilangan tartibda naqd pulda qaytariladi.

Qaytarish muddatlari pul oqimining kelib tushish istiqboliga qarab, bir necha bosqichda qoplashni ko'zda tutuvchi jadval shaklida taqdim etilishi mumkin.

Qaytarish muddati yetib kelganda va qarz oluvchining pul mablag'i mayjud bo'limgan taqdirda, kredit muddati o'tgan ssudalar hisob raqami orqali undirib olishga taqdim etiladi, u bo'yicha muddatli majburiyatnomalar esa, 2 kartotekaga joylashtiriladi va kalender navbatiga tartibda qaytariladi. Bunda foizlar kredit qarzlaridan oldin qaytariladi.

Tijorat banklari o'z nizomlariga va valuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun ularga O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziyada berilgan huquqlarga muvofiq ravishda, mazkur tartib sanab o'tilgan maqsadlarni amalga oshirish paytida, faqat o'z ishlab chiqarish faoliyati uchun respublikada ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskunalar, xomashyo va butlovchi qismlarni import yo'li bilan xarid qilishga chet el valutasida mikrokreditlar berishlari mumkin.

Chet el valutasidagi mikrokreditlar banklar bilan qarz oluvchilar o'rtaida tuziladigan kredit shartnomalarida belgilanadigan tijorat shartlari asosida, naqd pulsiz shaklda beriladi.

Chet el valutasida berilgan kreditlar bo'yicha foizlarning to'lovi, to'lov sanasidagi Markaziy banklarning kursi bo'yicha milliy valutada amalga oshiriladi.

Asosiy qarzni to'lashda hisob raqamida chet el valutasida mablag'i mayjud bo'limgan taqdirda – to'lov sanasidagi Markaziy bankning kursi bo'yicha milliy valuta to'lanishi mumkin.

## **10.5. Fermer xo'jaliklarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini kreditlash**

Fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat bapklari orqali kreditlash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003-yil 8-noyabrdagi 124- sonli, Markaziy bank boshqaruvining 2003-yil 8-noyabrdagi 242-V sonli qarorlari bilan

tasdiqlangan va Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 6-yanvarda 1285 raqam bilan ro'yxatga olingan «Fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida» Nizom asosida amalga oshiriladi.

Nizomda 2003-yil hosildan boshlab, Buxoro, Namangan, Farg'ona, Xorazm viloyatlarida joylashgan fermer xo'jaliklariga, 2004-yil hosildan boshlab, Andijon, Jizzax, Navoiy, Samarqand viloyatlarida joylashgan fermer xo'jaliklariga va 2005-yil hosildan boshlab, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo va Toshkent viloyatida joylashgan fermer xo'jaliklariga davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari va budgetdan tashqari fondlar hisobidan quyidagi kredit ajratmalari berilishi belgilangan.

10.5.1-jadval.

**Respublikadagi dehqon va fermer xo'jaliklariga tijorat banklari va budgetdan tashqari fondlardan ajratilgan kreditlar. (mln. so'm)**

Hududlar nomi	Dehqon va fermer xo'jaliklariga ajratilgan kreditlar, mln. so'm				2005-yilda 2004-yilga nisbatan	
	2004-yilda		2005-yilda		Farg'ona	
	Soni	Miqdori	Soni	Miqdori	Soni	Miqdori
Qoraqalpog'iston Respublikasi	498	996	538,9	1077,8	40,9	81,8
Andijon	841,5	1683	1008,75	2017,5	167,25	334,5
Buxoro	1710	3420	1715,1	3430,2	5,1	10,2
Jizzax	1212	2424	1220,5	2441	8,5	17
Qashqadaryo	1388,5	2777	1410,3	2820,6	21,8	43,6
Navoiy	948,5	1897	965,1	1930,2	16,6	33,2
Namangan	416	832	619,75	1239,5	203,75	407,5
Samarqand	1814,5	3629	1822,65	3645,3	8,15	16,3
Surxondaryo	787	1574	852,8	1705,6	65,8	131,6
Sirdaryo	1401	2802	1413,25	2826,5	12,25	24,5
Toshkent	1362	2724	1376,85	2753,7	14,85	29,7
Farg'ona	1540,5	3081	1253,05	2506,1	-287,45	-574,9
Xorazm	682,5	1365	998,8	1997,6	316,3	632,6
<b>Jami</b>	<b>14602</b>	<b>29204</b>	<b>151958</b>	<b>303916</b>	<b>3938</b>	<b>13716</b>

2004-yilda 14602 fermerga 29204 million so‘m kredit berilgan bo‘lsa, 2005-yilda 15196 fermerga 30391,6 mln. so‘m kredit berildi. 2004-2005-yillarda kredit miqdori 1187,6 mln. so‘mga oshdi.

Kreditlar fermer xo‘jaliklari ular tomonidan davlat ehtiyojlari uchun sotiladigan g‘alla va paxta xomashyosi qiymatining 50 foizigacha miqdorida beriladi.

Fermer xo‘jaliklari tomonidan davlat ehtiyojlari uchun yetkazib beriladigan mahsulot hajmining qiymati «O‘zpaxtasanoat» uyushmasi va «O‘zdon-mahsulot» DAK korxonalari (bundan keyingi matnda – tayyorlov korxonalari) bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalaridan kelib chiqqan holda o‘rnataladi.

Bunda, kredit miqdori tayyorlov korxonalari tomonidan fermer xo‘jaligiga yetkazib beriladigan urug‘lik mahsulot qiymatiga kamayadi. Kredit miqdorini aniqlash uchun kredit shartnomasini tuzish vaqtida xarid narxlar asos qilib olinadi. Xarid narxlari tasdiqlangach, kredit miqdori qayta hisoblab chiqilishi lozim.

Mazkur kreditlar faqat quyidagi maqsadlar uchun berilishi mumkin:

- ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to‘lash uchun;
- mineral o‘g‘it va o‘simliklarni kimyoiy va biologik himoya qilish vositalarini xarid qilish uchun;
- yonilg‘i-moylash materiallarini xarid qilish uchun;
- MTPlar, muqobil MTPlar, SFUlar (suvdan foydalanuvchilar uyushmasi) va boshqa shaxslarning xizmatlariga to‘lovlar uchun;
- xo‘jalik ixtiyoridagi texnikalarga ehtiyyot qismlarni sotib olish uchun;
- moliyaviy lizingga berilgan texnika vositalarining lizing to‘lovlar uchun;
- elektroenergiya to‘lovlar uchun;
- plyonka ostiga ekiladigan paxtaga polietilen plyonkasini xarid qilish uchun;
- kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash xizmatlariga to‘lovlar uchun;
- yagona yer solig‘i to‘lovi uchun.

Beriladigan kredit miqdorini aniqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan agrotexkartalardan kelib chiqqan holda, har bir qishloq xo‘jaligi ekinisini bo‘yicha har bir xarajat turining eng ko‘p me’yori (qishloq xo‘jalik yilining tegishli davrlari yoyilmasi bilan) har yili hosil uchun tasdiqlanadi.

Fermer xo‘jaligining biror bir xarajat turi bo‘yicha to‘lov larga ehtiyoji bo‘limgan hollarda, mazkur oy uchun umumiy ajratilgan mablag‘lar fermer xo‘jaliklari tomonidan boshqa ruxsat etilgan ehtiyojlari uchun (ish haqidani tashqari) o‘rnatilgan yillik me’yor doirasida ishlatalishi mumkin.

Kreditlar tegishli qishloq xo'jalik mahsuloti bo'yicha fermer xo'jaliklari bilan yakuniy hisob-kitoblar yakunlanguncha, lekin 18 oydan ko'p bo'limgan muddatda, qaytarish muddatini uzaytirish huquqisiz beriladi. Bu kreditlar bo'yicha imtiyozli foiz stavkasi yillik 5 foiz miqdorida belgilanib, uning 2,5 foizi bank marjasini tashkil qildi.

Fermer xo'jaliklari bilan kontraktatsiya shartnomalari tuzilgandan so'ng, to'lov shartnomalariga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi har bir bank filiali bo'yicha ma'lumot tayyorlab, kreditlashni rasmiylashtirish uchun ularning viloyat filiallariga taqdim etishadi. Banklarning viloyat filiallari o'z navbatida bu ma'lumotlarni fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi filiallarga yetkazadi.

Fermer xo'jaliklari kredit olish uchun ularning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob varag'iga xizmat ko'rsatayotgan bankka ariza bilan murojaat etadi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- tayyorlov tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalarining nusxalari;
- biznes-reja;
- so'nggi hisobot davri uchun Davlat soliq xizmatining mahalliy organi tomonidan tasdiqlangan buxgalteriya balansi (1 shakl, debitorlik-kreditorlik qarzlar to'g'risida ma'lumotnoma (2a shakl), muddati 90 kundan oshgan qarzdorlarga solishtirma dalolatnomalar, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2 shakl).

Imtiyozli kreditlar qaytishini ta'minlash maqsadida, bank davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xomashyosi va g'alla yetishtirishni moliyalashtirish maqsadida fermer xo'jaliklariga berilgan imtiyozli kreditlar qaytarilishi bo'yicha o'zining tadbirdorlik xavfini sug'urta qilishi mumkin. «O'zagrosug'urta» kompaniyasining imtiyozli kreditlarining qaytmasisligi xavfini sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta badallari hajmi olinayotgan kredit summasining 1,25 foizi miqdorida bo'ladi va tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan to'lanadi. Taqdim etilayotgan kredit miqdori «O'zagrosug'urta» DASK bilan kelishilgan sug'urta pulidan ko'p bo'lmasligi zarur. Barcha zarur hujjatlar taqdim etilgandan so'ng, bank fermer xo'jaligining arizasini ko'rib chiqishi va 5 kun muddat ichida u bilan kredit shartnomasi tuzishi lozim.

Kredit shartnomasi tuzish bilan bir vaqtida fermer xo'jaligiga ssuda hisob varag'i ochiladi. To'lovlar ssuda hisob varag'idan, qarz oluvchining to'lov topshiriqnomalari, asosan, naqd pulsiz shaklda (ish haqidan tashqari) faqat ushbu Nizomda ko'rsatilgan maqsadlar uchungina amalga oshiriladi.

To'lovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- oylik ish haqi to'lovlari uchun agrotexkartalarda belgilangan me'yorlarda;
- mineral o'g'it va o'simliklarning kamyoviy vositalari uchun to'lovlardacha, mablag'lar «Qishloqxo'jalikkimyo» DAK, «O'zkimyosanoat» DAK tegishli

korxonasing maxsus 23222 hisob raqamiga o'tkaziladi. Biomahsulotlarni shirkat xo'jaliklaridan sotib olishda, mablag'lar ularning maxsus 23222 hisob raqamiga o'tkaziladi;

• «O'zagromashservis» uyushmasi MTPlarning xizmatlari uchun to'lovlardan, mablag'lar tegishli ravishda bo'linib, 50 foizi ularning maxsus 23218-sonli va qolgan 50 foizi 23210 (23220) sonli hisob raqamlariga o'tkaziladi;

• yonilg'i-moylash mahsulotlari va elektroenergiya uchun «O'zneftmah-sulot» kompaniyasi, «O'zbekenergo» DAK korxonalari va shirkat xo'jalik-lariga to'lovlardan, mablag'lar ularning maxsus 23210 (23220) hisob raqamiga o'tkaziladi;

• muqobil MTPlar, SFUlar, boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hamda olingan mahsulotlar uchun to'lovlardan, mablag'lar ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlarning talab qilib olinguncha depozit hisob raqamlariga o'tkazib beriladi.

Kreditlardan foydalaniylganlik uchun foizlar kreditning amaldagi qoldig'iiga har kuni hisoblab boriladi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlov korxonalariga sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan:

• g'alla yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha yilning iyul oyidan boshlab va kreditni to'liq qaytarish vaqtigacha;

• paxta xomashyosini yetishtirishni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha yilning noyabr oyidan boshlab va kreditni to'liq qaytarish vaqtigacha undiriladi.

Bunda fermer xo'jaliklari kreditni va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarishlari mumkin.

## 10.6. Fermer xo'jaligida sug'urta

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirdorlik subyektlarini, shu jumladan, fermer xo'jaliklarini kutilmagan tabiiy ofat, baxtsiz hodisa, ya'ni avariya va boshqa holatlardan zarar ko'rishdan hamda bu sohada band bo'lganlar hayoti va salomatligini himoyalashning asosiy yo'li bu sug'ortalash hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida sug'urta faoliyati muhim rol o'ynaydi. Fermer xo'jaliklari bankdan kredit olishda garovga qo'yiladigan mol-mulkini, tabiiy ofatlar tufayli bo'lg'usi paxta va g'alladan, bog' va uzumzorlardan kam hosil olish natijasida ko'rildigan moliyaviy zararni, lizingga olingan texnikalarni, chorva hayvonlarini, yaylovlarni, mol-mulkini va boshqalarini sug'urta qildirishlari mumkin.

**Respublikada quyidagi sug‘urta kompaniyalari mavjud:**

1. «O‘zagrosug‘urta» DASK.
2. «Madad» SA.
3. «Kafolat» DSK.
4. «O‘zbekinvest» SA.
5. «Xususiy sug‘urta kompaniyalari».
6. «Chet el sug‘urta kompaniyalari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 21-fevraldaggi Farmoniga asosan Moliya vazirligi huzuridagi Davlat sug‘urta Bosh Boshqarmasi negizida «O‘zagrosug‘urta» Davlat aksiyadorlik sug‘urta kompaniyasi tashkil etildi. Bu kompaniya qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarning manfaati uchun hamda qishloq xo‘jalik korxonalarini va qishloq aholisi o‘rtasida quyidagi majburiy sug‘urta turlarini amalgalashadi.

1. *Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish ishlarini o‘tkazish uchun avans tariqasida beriladigan va fyuchers kontraktlari bo‘yicha mablag‘larni qaytarish sug‘urtasi.*

2. *Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiruvchilarning olgan avansi uchun garovga qo‘yilgan mol –mulk sug‘urtasi.*

3. *Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiruvchilardan tashqari korxonalarining garovga qo‘yilgan mol-mulk sug‘urtasi.*

4. *Qishloq joylarida transport egalarining fuqarolik javobgarlik sug‘urtasi.*

Vazirlar Mahkamasining mazkur Qarori bilan kompaniyaga ixtiyoriy sug‘urta turlarini rivojlantirish topshirilgan. Bugungi kunda kompaniya fermer xo‘jaliklariga quyidagi ixtiyoriy sug‘urta turlarini taklif qilib, amalgalashmoqda:

1. Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jalik ekinlari hosilini ixtiyoriy sug‘urtalash.

2. Qishloq xo‘jalik ekinlarini qayta ekishni ixtiyoriy sug‘urtalash.

3. Dehqon va fermer xo‘jaliklari chorva mollarining sug‘urtasi.

4. Dehqon va fermer xo‘jaliklari asosiy vositalarining sug‘urtasi.

5. Bog‘ va uzumzorlar hosili sug‘urtasi.

6. Fermer xo‘jaliklarining tabiiy pichanzorlari, yaylovlarining va tut daraxtlari barglari hosilining sug‘urtasi.

7. Pilla hosili sug‘urtasi.

8. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchi tomonidan jo‘natiladigan yuklarni sug‘urta qilish.

9. Dehqon, fermer va ijara xo‘jaliklarining mol-mulkini sug‘urta qilish.

10. Mashina-traktor parklari, muqobil mashina-traktor parklari, qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlari) va fermer xo‘jaliklariga moliyaviy lizingga beriladigan qishloq xo‘jaligi texnikasi (traktorlar va o‘rim-yig‘im texnikasi)ni sug‘urtalash.

11. Fermer xo'jaliklarining chorva mollarini oqsil (yashur) kasalligidan sug'urta qilish.

Sug'urta **majburiy** va **ixtiyoriy** ravishda amalga oshiriladi.

**Majburiy sug'urta** davlat qonunlari va tartiblarida belgilangan holda amalga oshirilib, davlat majburiy sug'urtasi davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Sug'urta tashkiloti majburiy sug'urta qilingan obyektlarning ustidan nazorat olib boradi.

**Ixtiyoriy sug'urta** tomonlarning o'z ixtiyori bilan amalda oshiriladi. Sug'urtalanuvchi va sug'urtalovchining haq-huquqlari sug'urta shartnoma-larida ko'rsatilib, amalga oshiriladi.

Sug'urta shartnomasini tuzish uchun sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga belgilangan shaklda yozma ravishda ariza taqdim etadi yoki sug'urta chartnomasi tuzish niyatida ekanligi haqida mumkin bo'lgan boshqa usulda ma'lum qiladi.

Sug'urta shartnomasida sug'urtalanuvchi va uning huquqiy vorisi, sug'urtalovchi, sug'urta puli hamda sug'urta badalining miqdorlari, shartnomaning amal qilish muddati ko'rsatiladi, sug'urta hodisasi tavsifi beriladi va boshqa shartlar qayd etiladi.

**Ekinlar hosili sug'urtasi.** 1997-yildan boshlab qishloq xo'jaligi korxonalarining mol-mulki va ekinlari bo'yicha ixtiyoriy sug'urta shartnomalari tuzish orqali ish tashkil etilgan.

Sug'urta obyekti qishloq xo'jaligi ekinlari hosili hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosili sug'urtasi ularning muzlash, garmsel, do'l, sel, sug'orish manbalaridagi suvsizlik yoki kamsuvlik sababli, suv bosish, zararkunandalar, yong'in natijasida nobud bo'lish yoki zararlanishi va kuchli shamol hamda uzoq davom etgan yog'ingarchilik natijasida yotib qolish kabi hodisalar yuzasidan o'tkaziladi.

Sug'urta shartnomasi mahsulot yetishtiruvchilarining yozma arizasiga asosan, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va «O'zagrosug'urta» DASK tasdiqlagan ekish taqvimi muddatlaridan kechiktirilmagan holda tuziladi. Kompaniya tomonidan Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchilariga g'alla va paxta hosilini sug'urtalash uchun katta imkoniyat berilgan bo'lib, g'alla hosili bo'yicha 1-martgacha, paxta hosili bo'yicha 1-maygacha shartnoma tuziladi. Shartnoma ekin unib chiqqanidan so'ng tuzilib, unda quyidagi ma'lumotlar ilova qilinishi kerak:

- *rejadagi ekin maydonga ekilganligi to 'g'risida;*
- *ekinlarning to 'liq unib chiqqanligi va rivojlanish darajasi to 'g'risida;*
- *ko 'chatlarning qalinligi me'yoriy talablarga javob berishi to 'g'risida ma'lumot.*

Mazkur hujjatlar bo'lmasa, shartnoma kuchga kirmaydi.

Sug‘urta to‘lovlari hisoblash uchun qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilining qiymati xo‘jalikning hisob-kitobi va boshlang‘ich hisobot hujjatlari bo‘yicha mazkur yilda rejalashtirilgan 1 ga ekin maydonidan olinadigan hosildorlik (oxirgi uch yil ichida olingen o‘rtacha hosildorlikdan yuqori emas) mahsulotni sotish narxi va ekin maydoniga asosan hisoblanadi.

Agar mazkur yilda rejalashtirilgan hosildorlik oxirgi uch yildagi o‘rtacha hosildorlikdan ortiq bo‘lsa, sug‘urta to‘lovlari o‘rtacha uch yillik hosildorlik bo‘yicha hisoblanadi.

Agar xo‘jalik oxirgi uch yil davomida ekin ekib, uch yildan birontasida ham hosil olinmagan bo‘lsa, shu ekin turi sug‘urta qilinmaydi.

Paxta, g‘alla, sholi ekinlariga sug‘urta to‘lovini hisoblashda davlat tomonidan tasdiqlangan preyskuran bahosi asos qilib olinadi.

Yil davomida fermer xo‘jaligi mulkining tarkibi va qiymati o‘zgarsa ham, sug‘urta to‘lovlari qayta hisoblanmaydi. Har bir qishloq xo‘jalik ekinlari hosilining qiymati alohida hisoblanadi.

Sug‘urta to‘lovlaring tarif stavka(miqdor)lari har yili ko‘rilgan zararga asoslanib, qayta ko‘rib chiqiladi.

Hisoblangan sug‘urta to‘lovlari hisobga kelib tushgach, sug‘urtalanuvchiga sug‘urta polisi (3-ilova) yozib beriladi. Sug‘urta polisi, sug‘urta hodisasi yuz berganda, sug‘urta qoplamasi to‘lash uchun kerak bo‘ladigan asosiy hujjatlardan biridir.

Qishloq xo‘jalik ekinlari hosilining zararlanishi yoki nobud bo‘lishi sug‘urta hodisasi hisoblanadi. Sug‘urta hodisasi yuz berganda, qishloq xo‘jalik korxonasi, bu haqida sug‘urta bo‘limiga uch kun ichida xabar berishi shart. Qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun sug‘urta to‘lovlarni hisoblashda qabul qilingan bir gektar hosilning qiymati bilan hisobot yilida bir gektar maydonda yetishtirilgan o‘rtacha hosildorlik qiymati orasidagi farq xo‘jalik ko‘rgan zarar hisoblanadi.

Sug‘urta shartnomasi sug‘urtalanuvchining sug‘urtaga olinayotgan mulkning ro‘yxati to‘liq aks ettirilgan arizasi asosida tuziladi. Sug‘urta shartnomasi tuzlgandan so‘ng, ushbu ariza shartnomalarning ajralmas qismi bo‘lib qoladi. Sug‘urta shartnomasi bir yil muddatga tuziladi. Sug‘urta shartnomasi sug‘urtalovchining hisob raqamiga pul kelib tushgan kundan boshlab kuchga kiradi. Agar shartnomada berilgan kungacha sug‘urta badali to‘lanmasa, shartnomaga tuzilmagan hisoblanadi. Sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati shartnomada ko‘rsatilgan kundan bir kun oldin yakunlanadi.

Sug‘urta shartnomasi yozma ravishda tuziladi va yozma ravishda tuzilmagan shartnomaga haqqoniy emas deb hisoblanadi. Sug‘urta to‘lovlari tushgandan so‘ng sug‘urtalanuvchiga sug‘urta polisi yozib beriladi.

Sug‘urtalanuvchi sug‘urtalovchiga yozma ravishda ariza bilan sug‘urta hodisasi ro‘y bergani to‘g‘risida, barcha zaruriy hujjatlarni ilova qilgan holda

(yong'indan himoya qilish bo'limining, ichki ishlab chiqarish bo'limining, gidrometeorologiya boshqarmasining ma'lumotnomasi) murojaat qilishi shart.

Zarar miqdori va sug'urta hodisasi sabablari sug'urtalovchi tomonidan joyida ko'rib chiqilib, ekspertiza va hujjatlar asosida aniqlanadi.

Sug'urta qoplamasni barcha kerakli hujjatlar rasmiylashtirilib bo'lgandan keyin besh bank kuni mobaynida to'lab beriladi. Aniqlangan sug'urta qoplamasni xo'jalikdan 29 shakldagi qishloq xo'jalik statistik hisoboti olingach, 60 %, qolgan 40 % esa xo'jalikning yillik hisoboti tasdiqlangach, to'lab beriladi.

## 10.7. Fermer xo'jaligida soliq va soliq stavkasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-oktabrdagi PF-2086-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-dekabrdagi 539-sonli Qaroriga muvofiq, qishloq xo'jalik korxonalarida yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining budget bilan hisob-kitob qilish mexanizmini belgilaydi.

Yagona yer solig'i amaldagi barcha umum davlat soliqlarida (alkogolli mahsulotlarga aksiz solig'idan tashqari) hamda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun belgilangan quyidagi mahalliy soliqlar va yig'imlarni to'lash o'rniiga joriy etiladi:

- *daromad (foyda) solig'i;*
- *qo'shilgan qiymat solig'i;*
- *alkogolsiz ichimliklar va meva sharbatlariga aksiz solig'i;*
- *ekologiya solig'i;*
- *suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;*
- *yer ostidan foydalanganlik uchun soliq;*
- *ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;*
- *boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlar.*

Yagona yer solig'ini to'lovchilarga boj to'lovi, davlat boji, litsenziya yig'imlari, budgetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar va shuningdek, alkogolli mahsulotlarga aksiz solig'ini to'lash tartibi saqlab qolinadi.

Ushbu tartib quyidagi larga tegishli bo'lmaydi:

- *o'rmonchilik, baliqchilik, ovchilik xo'jaliklariga;*
- *ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va ilmiy muassasalarining tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklariga;*
- *mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan yordamchi qishloq xo'jaliklariga;*
- *dehqon xo'jaliklariga, ular uchun O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan soliq solish shartlari saqlanib qolinadi.*

Yagona yer solig‘ini barcha qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar to‘laydi.

Soliqqa tortish obyekti qishloq xo‘jaligini yuritish uchun egalik qilingan, foydalanishga yoki ijara berilgan yer maydonlari yagona yer solig‘iga tortish obyekti hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi maydonlari yerning sifati, joylashgan joyi, yer balansi, tuproq xaritalari, tekshiruv materiallari, yer-kadastr hujjatlari bo‘yicha qabul qilinadi. Respublika bo‘yicha qishloq xo‘jalik yerlariga yagona yer solig‘ining muvaqqat bazaviy stavkalari tuzatish koeffitsiyentlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq stavkasi 2000-yildagi 37,1 foizdan 2005-yilda 32,2 foizga, davlat budjetiga olib qo‘yish esa 22,6 foizga pasaydi.

Yagona yer solig‘i olinmaydigan yer uchastkalari:

- *qishloq aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari;*
- *ixota daraxtlari egallagan yerlar;*
- *sport inshootlari, stadionlar, sport maydonchalari, suzish havzalari, sportning texnik turlari obyektlari va boshqa jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish komplekslari band qilgan yerlar;*
- *yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatini yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug‘oriladigan yerlar – loyiha nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar boshlanganidan e’tiboran, ko‘pi bilan besh yilga;*
- *maorif, madaniyat va sog‘liqni saqlash obyektlari band qilgan yerlar;*
- *yangi o‘zlashtirilgan bog‘lar va tokzorlar band qilgan yerlar, ular meva bera boshlaydigan muddatgacha;*
- *yangidan tut daraxtlari o‘tqazilgan yerlar; uch yillik muddatga xo‘jalik ekinlari navini almashtirishning amaldagi sxemalar doirasida xo‘jaliklarga ajratilgan yerlar, 1999-yildan boshlab uch yil muddatga;*

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq soliq solinmaydigan yerlar:

- yangi tashkil etilgan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar, shu jumladan, fermer xo‘jaliklarining yerlari, davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytdan boshlab ikki yil muddatga;
- qorako‘lchilik sohasidagi naslchilik, tovar va bo‘rdoqichilik xo‘jaliklarining yerlari, 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab uch yil muddatga;
- daromad (foyda) solig‘i va yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilingar, boshqa qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining yerlari.

Yagona yer solig‘i to‘lovchilar tomonidan mustaqil ravishda yerlarning maydoni, bazaviy stavkalari va tuzatish koeffitsiyentlari asosida hisoblab chiqiladi.

Qishloq xo‘jaligi yerlariga yagona yer solig‘ining bazaviy stavkalari sifatida quyidagilar qabul qilingan:

- sug‘oriladigan yerlar bo‘yicha – 1-toifali yerlar (ball-boniteti 10 gacha );
- lalmi yerlar bo‘yicha – tekis zona yerlari;
- pichanzorlar va yaylovlar bo‘yicha – «Cho‘l mintaqasidagi» yerlar;

Yerlar joylashishining tafovutlari va sifati(ball-bonitet)ga qarab bazaviy stavkalar tegishli tuzatish koeffitsiyentlariga o‘zgartiriladi.

Yerlarning har bir turi bo‘yicha yagona yer solig‘i summasi quyidagi formulaga ko‘ra belgilanadi:

$$N = Sz \times Cb \times Ki$$

**Bunda,** *N* – yagona yer solig‘ining summasi, so‘mlarda;

*Sz* – yer uchastkasining maydoni, hektarlarda;

*Cb* - 1 hektar uchun soliqning bazaviy stavkasi, so‘mda;

*Ki* – tuzatish koeffitsiyenti.

Barcha yerlar bo‘yicha bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsiyentlari qo‘llaniladi. Stavka va koeffitsiyentlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan umumiy belgilangan tartibda to‘lovchilarga yetkaziladi.

Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari bo‘yicha bazaviy stavkalar tegishli tuman va shahar bo‘yicha tasdiqlanadi.

Lalmi yerlar, pichanzorlar va yaylovlar bo‘yicha bazaviy stavkalar viloyatlar miqyosida tasdiqlanadi.

Ijtimoiy imoratlar, suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo‘llar bilan band bo‘lgan yerlar, shuningdek, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar bo‘yicha bazaviy stavkalar tuman va shaharlarning sug‘oriladigan yerlari doirasida tasdiqlangan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

Qishloq xo‘jaligi yer uchastkalaridan soliq yer uchastkasi ajratilgan oydan keyingi oydan boshlab to‘lanadi.

Yer uchastkasi qaytarib olinganda, to‘xtatiladi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona yer solig‘i summasini ilovadagi shaklga binoan hisoblab chiqadilar va davlat soliq inspeksiyalariga hisob-kitob joriy yilning 1-fevraliga qadar taqdim etadilar.

Yagona yer solig‘i bir yilda uch marta to‘lanadi:

1. *Yillik to‘lanadigan soliq summasining 20 foizi;*

2. *1-sentabrgacha 30 foizi;*

3. *1-dekabrgacha bo‘lgan muddatda – soliqning qolgan 50 foizi to‘lanadi.*

Ma’lumki, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2004-yildagi davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi 567-

Qaroriga binoan, yer uchastkalariga ega bo'lgan ilmiy muassasalar, eksperimental tajriba xo'jaliklari uchun ham 2004-yil 1-yanvardan boshlab yagona yer solig'i joriy qilingan.

2004-yil 1-yanvardan boshlab tajriba tariqasida Samarqand va Toshkent viloyatlaridagi fermer xo'jaliklariga belgilangan 2 foizli miqdor 2005-yildan boshlab 1 foiz qilib belgilandi.

10.7.1-jadval

**1999-yili qishloq xo'jaligi ekinzorlariga yagona yer solig'inining muvaqqat bazali stavkalari. 1 ga uchun so'm**

Mintaqalar	Sug'oriladigan yerlar (1-toifa)	Lalmi yerlar(tekislik)	Pichanzorlar va yaylovlari (cho'p poyasi)
QQR	375,1	-	10,6
Andijon	569,2	68,4	14,4
Buxoro	493,4	-	14,4
Jizzax	429,6	64,6	13,3
Qashqadaryo	415,7	71,4	17,1
Navoiy	400,0	64,6	14,4
Namangan	586,7	-	14,4
Samarqand	596,6	64,6	13,3
Surxondaryo	640,0	86,1	9,5
Sirdaryo	343,1	64,6	13,3
Toshkent	598,7	68,4	13,3
Farg'ona	528,9	-	13,3
Xorazm	456,0	-	10,6
Toshkent shahri	1471	-	-

Shuni ham ta'kidlash kerakki, yagona yer solig'i fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish va moliyaviy natijalariga bog'liq emas. Ya'ni, fermer foyda oladimi, zarar ko'radimi, bundan qat'i nazar, belgilangan yagona yer solig'ini to'lashga majbur.

Yagona yer solig'ini to'lash mexanizmi quyidagi afzalliklarga ega:

- soliq miqdorini hisoblash va soliqni yig'ish mexanizmining soddalashtirilganligi;

- yagona yer solig'i miqdori soliq to'lovchilarga tuproqning ball-bonitetiga qarab o'rnatilishi va yer uchastkasining joylashishi hamda suv bilan

ta'minlanganligiga qarab tuzatuvchi koeffitsiyent bilan muvofiqlashtirilishi soliq miqdorini real belgilash imkoniyatini berishi.

#### 10.7.2-jadval

#### 1999-yil 1-yanvardagi holat bo'yicha qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari to'laydigan yagona yer solig'ining hisob-kitobi

<b>Yer turlari</b>	<b>Maydon ga</b>	<b>1 ga uchun bazavly soliq stavkas, so'm</b>	<b>Tuzatish koef- fisbiyeni- tari</b>	<b>Soliq summasi- so'm</b>
<b>A</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
1. Jamoatga tegishli sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari:				
1- toifa (0-10 ball)				
2- toifa (11-20 ball)				
3- toifa (21-30 ball)				
4- toifa (31-40 ball)				
5- toifa (41-50 ball)				
6- toifa (51-60 ball)				
7- toifa (51-60 ball)				
8- toifa (71-80 ball)				
9- toifa (81-90 ball)				
10- toifa (91-100 ball)				
Baholanmagan yerlar				
<b>JAMI</b>				
2. Lalmikor, pichanzor, bo'z yerlar va sug'orilmaydigan ko'p yillik daraxtzorlar: tekislik (yog'in bilan ta'minlanmagan) hududda				
Tekislik-tepalik (yog'in bilan yarim ta'minlangan) hududda				
Tog'oldi va tog'lik (yog'in bilan ta'minlangan) hududda				
<b>JAMI</b>				
3. Sug'orilmaydigan pichanzor va yaylovlari:				
Cho'l mintaqasida				
Adir mintaqasida				

Tog' mintaqasida				
4. Suv havzalari, kannallar, kollektorlar, yo'llar band etgan yerlar				
5. Jamoat imoratlari va hovlilar				
6. Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar				
<b>JAMI</b>				
Shu jumladan, to'lash muddatlari bo'yicha:				
1- iyulcha				
1- dekabrgacha				
7. Soliqqa tortilmaydigan yerlar (yerlarning turlari va maydonlari. Yo'riqnomaning 4.1-bandiga muvofiq keltiriladi)				
Jami soliqqa tortilmaydigan yerlar				

Rahbar

(imzo, familiya, ismi-sharifi)

### 10.8. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunga asosan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 1997-yil 15-yanvar 5-somli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Korxona (tashkilot)larning chorak va yillik moliyaviy hisobot shakllari va hajmini tasdiqlash to'g'risida»gi Yo'riqnomaga asosan, quyidagi buxgalteriya shakllari yiliga bir marta topshiriladi:

«Buxgalteriya balansi» 1-shakl;

«Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» 2-shakl;

«Debitorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risidagi ma'lumotnoma» 2 a-shakl;

«Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» 4-shakl.

O'zbekiston Respublikasida dehqon va fermer xo'jaliklari uchun yuqorida soddalashtirib ko'satilgan buxgalteriya hisobida hisoblar rejasи va hisobotidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasiga yuqoridagi qonun va qarorlarga zid bo'Imagan qo'shimchalar kiritishga ruxsat beriladi.

**FERMER XO'JALIGIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL  
ETISH SXEMASI (IKKI YOQLAMA YOZUV USULI ASOSIDA)**

**Balans va hisobot shakllari**

Xo'jalik muammolarini hisobga  
olish daftari (K-I shakl)

Hisob-kitob raqamlari  
bo'yicha hisob-kitoblarni  
hisobga olish vedomosti

**Dastlabki hujjatlar**

Pul mablag'lari va qummatali qog'ozlarni  
hisobga olish daftari (1-jadval)

Materialni hisobga olish daftari (2-jadval)

Ishlab chiqarish xarajatlarini va mahsulot  
chiqishini hisobga olish daftari (3-jadval)

Asoziy vositalarini hisobga olish daftari (4-  
jadval)

Mol va parrandalarni hisobga olish daftari  
(5-jadval)

Shartnomalarni jo'natiladigan va kelib  
tushadigan hujjatlarni ro'yxtarga olish daftari  
(6-jadval)

*10.8.1-jadval*

**Pul mablag'lari va kreditorlarni hisobga olish daftari  
5110-Hisob-kitob raqami.**

200    yil.

1.01.2002- yilga qoldiq			1426000	-	-
----------------------------	--	--	---------	---	---

### 6910-Hisob. Qisqa muddatli bank kreditlari.

Sana	Xo'jalik muomalasi, hujjatning tartib raqami	Muomala mazmuni	Olingan so'm	Qaytarilgan so'm	Esclarma
y.ga			4000000	-	-
qoldiq					

*10.8.2-jadval*

### Ishlab chiqarish zaxiralari, mahsulotlar o'lchov birligi (s) Mahsulot nomi. Beda pichani.

Ishlab chiqarish zaxiralarini, mahsulotlar o'lchov birligi (s)		Mahsulot nomi. Beda pichani.		Beda pichani sarfi		Beda pichani sarfi	
1.01. 2002 yilga qoldiq				120	42800	-	-
10.01. 2002 y.	1-Yem-xashak sarflash vedomosti va h.k.	Beda pichani sarfi		-	-	20	12340

*10.8.3-jadval*

### Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot chiqishini hisobga olish daftari.

Sana	Xo'jalik muomalasi, hujjatning tartib raqami	Muomala mazmuni	Kirim, so'm		Chiqim, so'm	
			migdor	summa	migdor	summa
1.01.						
2002 yilga qoldiq	1-Yem-xashak sarflash vedomosti va h.k.	Beda pichani sarfi	123.340	-	-	-

**10.8.4-jadval**

**Asosiy vositalar va mulklarni hisobga olish daftari**  
**Asosiy vositalari hisobi 200\_yil uchun 1 bino-inshoot va texniklar.**

No	Yozuv asesi (xo'jalik muomalasi, hujjatning tartib raqami)	Nomi	Miqdori	Olymati, soʻm	Eslatma
1.	1.01 ga qoldiq	Ferma binosi Traktor T28x4 Pritsep va h.k.	1 1 1	641000 42000 96000	
<b>Jami:</b>					<b>70057000</b>

**Asosiy poda. Chorva mollari turi va guruhi.  
sog'in sigirlar**

No	Xo'jalik muomalasi, hujjatning tartib raqami	Miqdori	Chitmati	Chitmati
			qiy-mati	qiy-mati
1.01.ga qoldiq		64	20480	7000 000
8.11	No2 shartnoma va h.k.	Hisobdan chiqarilib boquvgaga qo'yildi	-	-

**10.8.5-jadval.**

**Yosh mollar va parrandalar turi. Buzoqlar.**

No	Xo'jalik muomalasi, hujjatning tartib raqami	Miqdori	Chitmati	Chitmati
			qiy-mati	qiy-mati
1.01. 2002ga qoldiq	41	4920	420000	-

*10.8.6-jadval.*

**Shartnomalarни, jo'natiladigan va kelib tushadigan hujjatlarnи ro'yxatga olish daftari.**

Shartnomalarning fuzilayotgan nomi	Nomiga qarab surʼati
Shartnomalarning fuzilayotgan nomi	Nomiga qarab surʼati
Shartnomalarning fuzilayotgan nomi	Nomiga qarab surʼati
Shartnomalarning fuzilayotgan nomi	Nomiga qarab surʼati
Shartnomalarning fuzilayotgan nomi	Nomiga qarab surʼati

**Misol:** Yangi tashkil qilingan «Nur» fermer xo'jaligining 2000-yil 1-yanvar balansi quyidagicha.

Balans (10.8.7-jadval) ma'lumotlaridan ko'rindan, «Nur» fermer xo'jalida faoliyat boshlash uchun 2002-yil 1-yanvarda jami 10052,0 ming so'mlik mablag'i mavjud.

Shundan 6050,0 ming so'mi fermer xo'jaligi egasi (Aytboyev G.K.)ning o'z xususiy kapitali, 2,0 ming so'm kreditor qarz va 4000,0 ming so'm esa bankdan olingan qarz(passivda). Endi «Nur» fermer xo'jaligi faoliyat yuritish

*10.8.7-jadval.*

**Balans**

**«Nur» fermer xo'jaligi 1.01.200\_yil (ming so'm).**

**Aktiv**

**Passiv**

Hisob No	Balans moddalarini	Yil bo shiga	Vakolat Tizimi	Hisob No	Balans moddalarini	Yil bo shiga	Vakolat Tizimi
0100	Asosiy vositalar	8157,0	-	8510	Ustav kapitali	6050,0	-
1000	Materiallar	43,0	-	6010	Kreditorlar	2,0	-
1100	Yosh mollar va parrandalar	420,0	-	6910	Bank kreditlari	4000,0	-
2010	Asosiy ishlab chiqarish	6,0	-				
5110	Hisob-kitob raqami	1426,0	-				
<b>Balans</b>		<b>10052,0</b>	-	<b>Balans</b>		<b>10052,0</b>	-

uchun yetarli mablag'ga ega. Lekin tadbirkor shu mablag' (10052,0 ming so'm)ning 6050,0 ming so'mi o'z mablag'i, 4002,0 ming so'mi esa qarz ekanligini e'tiboridan chiqarmasligi lozim.

Demak, korxona mablag'lari balansining aktiv tomonida, shu mablag'larning vujudga kelish manbalari esa passiv tomonida ko'rsatilib, ma'lum muddatga fermer xo'jaligining ahvolini ifodalaydi. Balans ma'lumotlaridan xo'jalikning qanday mablag'larga ega ekanligi va shu mablag'larning qaysi manbalardan paydo bo'lganligini, ya'ni o'z mablag'i yoki qarz ekanligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, asosiy hisobot ham hisoblanadi.

Shundan so'ng, «Nur» fermer xo'jaligi faoliyat boshladi va unda yanvar oyi davomida quyidagi xo'jalik muammolari sodir bo'lgan. Bu muammolar tegishli dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, ro'yxatga olindi (10.8.8-jadval) va hokazo.

#### 10.8.8-jadval.

#### **«Nur» fermer xo'jaligida sodir bo'lgan xo'jalik muomalalari bo'yicha tuzmagan provodkalar.**

№	Muomala mazmuni va asos bo'luvchi qastlabki hujjatlar	Summa	Hisobdan bog'lanishi	
			D	K
1.	Beda pichani sarflanadi. 20s. 1-yem-xashak sarflash vedomosti	12340	2010	1060
2.	Bir bosh sigir asosiy podadan hisobdan chiqarilib, boquvga qo'yildi. 12.01.2002 y. №2 Dalolatnoma.	64600	1120	0171
3.	7.10.15.18.20. va 26 yanvar kunlari aholiga sotilgan sut uchun kassaga naqd pul kirim qilindi (kassa kirim orderi)	42000	5110	9010
4.	Shu kunlari kassaga kirim qilingan daromadlar bankdagi hisob raqamiga topshirildi (pul topshirganlik to'g'risidagi patta (kvitansiya) nusxasi va bank ko'chirmasi)	42000	5110	5010
5.	Elektr ta'minoti va kommunal xizmatlar (28,01) uchun tegishli idoralarning hisoblari to'landi (to'- lov topshirig'ining nusxasi va bank ko'chirmasi)	2400	6010	5110

6.	29.01. Ish haqi hisoblash vedomosti (V-8 shakl)ga asosan, hisoblangan ish haqi summasi ushlandi: a) nafaqa fondiga ajratma (2,5%) b) daromad solig'i (stavka bo'yicha) v) kasaba uyushmasi badali (1,0%)	66000 1650 22885 660	2010 6710 6710 6710	6710 6520 6410 6520
	<b>Jami:</b>	<b>25195</b>	<b>6710</b>	-
7	Ish haqi summasiga nisbatan ajratmalar hisoblanadi			
29.01	a) kasaba uyushmasi (federatsiyasiga) (1,2 %) b) bandlik fondi (birja)ga 1,5 % v) ijtimoiy sug'urta fondiga 37, 3 %	792 990 24618	2010 2010 2010	6520 6410 6520
	<b>Jami:</b>	<b>26400</b>	<b>2010</b>	-
	<b>Hammasi:</b>	<b>51595</b>		
8.	Yuqorida hisoblangan soliqlar, sug'urta organlariga ajratmalar va boshqa qarzlar hisoblashuv schotidan o'tkaziladi (to'lov topshirig'ining nusxasi va bank ko'chirmasi)			
9.	Ish haqidan ushlangan summalar: A) kasaba uyushmasiga 1,0% Nafaqa fondiga ajratma 2,5% Daromad solig'i (stavka bo'yicha)	660 1650 22885	6520 6520 6410	5110 5110 5110
	<b>Jami:</b>	<b>25195</b>	-	<b>5110</b>
	<b>Hammasi:</b>	<b>51595</b>	-	-
9.3 02	Bankdagi hisob-kitob schotidan kassaga olindi (chek, kassa kirim orderi,bank ko'chirmasi): -ish haki berish uchun -xizmat safari uchun			
		40805 1250	5010 5010	5110 5110
	<b>Jami:</b>	<b>42055</b>	<b>5010</b>	<b>5110</b>
10.	Kassadan berildi (to'lov vedomosti, kassa chiqim orderi): -ish haqi -xizmat safari uchun Allayarov K.ga			
		40805 1250	6710 4420	5010 5010
	<b>Jami:</b>	<b>42055</b>	-	<b>5010</b>

Yil boshida yoki korxona faoliyat boshlagan vaqtida dastlabki balansga asosan, «Xo'jalik muomalalarini hisobga olish daftari» (T-1 shaki)ga barcha mavjud mablag'lar va manbalar bo'yicha tegishli hisoblar ochilib, ularga balansdagi hisoblardan qoldiqlar o'tkaziladi. So'ngra oy davomida sodir bo'lgan xo'jalik muomalalari tegishli dastlabki hujjatlarda rasmiylashtirilib, har bir muomala mazmuniga qarab ushbu dastlabki hujjatlarda oldindan hisoblar aloqasi belgilanadi. Shundan so'ng T-1 shaklining 3-«Muomala mazmuni» degan ustunida oy va shu oyda sodir bo'lgan barcha xo'jalik muomalalari pozitsiyali usul bilan xronologik tartibda (muomalaning sodir bo'lishiga qarab ketma-ket) yozib boriladi. Shu bilan birga, daftarning «Summa» ustunida qilingan har bir muomala summasi ikkiyoqlama yozuv usuli bilan bir vaqtning o'zida mablag'lar va manbalarning tegishli turlarini hisobga olish uchun mo'ljallangan hisoblarning «Debet» va «Kredit» ustunlarida ham aks ettiriladi.

Fermer xo'jaliklarida mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashuvlar, daromaddan budgetga to'lanadigan soliqlar hamda sug'urta organlari va boshqa fondlarga ajratmalarni hisobga olish uchun «Ish haqini hisobga olish vedomosti» (V-2 shakl) yuritiladi (10.8.9-jadval).

Vedomostda ish haqi va unga qo'shimcha hisoblash, daromad solig'i, nafaqa fondiga ajratma, aliment, kasaba uyushmasiga ajratma kabilar ish haqidan ushlaniib hamda ish haqi summasiga nisbatan hisoblanib budget va sug'urta organlariga o'tkaziladigan summalar hisob-kitob qilinadi. Summalar jamlanib, tekshirilgandan so'ng, bevosita vedomostda, oldindan provodka tuziladi va tegishli (T-1) shaklga o'tkaziladi. Bunda 3-«Muomala mazmuni» ustuniga «V-8 shakl-Ish haqi hisoblangan vedomostiga asosan» deb yozilib hisoblangan, qo'shilib hisoblangan va ushlangan summalarining har bir turi bo'yicha nomma-nom alohida qator bilan tegishli summalarini o'tkaziladi. So'ngra vedomostning shu betiga «summalar T-1 shaklga o'tkaziladi» deb yoziladi va shu kungi sana bilan buxgalter imzo qo'yadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodi sharoitida budgetga to'lanadigan soliqlar, sug'urta organlariga va boshqa budgetdan tashqari organlarga ajratmalar turlari ko'payadi hamda ularning me'yori (stavkasi) o'zgarib ham turadi. Ularning hisoblanishi, to'lanishi (o'tkazilishi)ni va oy oxiriga qarz bo'lib qo'ayotganini turlari bo'yicha aks ettirish va nazorat qilib borish uchun «Budget, sug'urta hamda boshqa debitor va kreditorlar bilan hisoblashuvlar» vedomosti (10-jadval) ochish maqsadga muvofiqdir.

Oy oxirida mablag'lar va ularning manbalarini hisobga oladigan barcha hisoblarning debet va kredit aylanmalari jamlanadi. Barcha hisoblar bo'yicha

debet va kredit aylanmalarining alohida jami 4-ustundagi summalar jamiga teng bo'lishi kerak. Bu tenglikdan summalarning hisoblarda to'g'ri aks ettirilganligiga ishonch hosil qilinadi va oxiriga, ya'ni keyingi oyning 1-sanasiga qoldiq chiqariladi.

Ushbu chiqarilgan qoldiqlar tekshirilib, to'g'riligiga ishonch hosil qilinganidan so'ng keyingi oyning 1-sanasiga (bizning misolimizda 1-fevralga balans tuziladi). Buning uchun chiqarilgan qoldiqlar tegishli hisoblar bo'yicha «debet» ustunidagilari balansning «aktiv»ga, «kredit» ustunidagilari «passiv»ga o'tkaziladi.

Demak, hisobning soddalashtirilgan shaklida balans tuzish bevosita «Xo'jalik muomalalarini hisobga olish daftari» (T-1 shakl) orqali amalga oshirishlar ekan, keyingi oylarda ham hisob yuritish shu tartibda davom ettirilaveradi.

Balans hisoboti fermer xo'jaliklarida asosiy hisobot shakllaridan bo'lib, uning to'g'ri, aniq va o'z vaqtida tuzilishi ko'p jihatdan joriy hisobni to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

#### 10.8.10-jadval.

#### **Budjet, sug'urta va boshqa debetorlar hamda kreditorlar bilan hisoblashuvlar VEDOMOSTI (2002-yil yanvar).**

Analitik hisoblar	Oy boshiga qoldiq	6410, 6520, 6710 hisoblar debetsiz	Kt aylanma lar bank ko'chimi asus asosan	Oy oxiriga qolish
(so'10, Ne aylanma to'g'ri sug'urta va t.k.)				
	3	4	5	6
			7	8
			9	10
			11	12

#### 6410 «Budjet bilan hisoblashuvlar» hisobi bo'yicha

1. Daromad solig'i	-	-	-	22885				22885		22885
2. Bandlik fondi (1,5%)	-	-	990	-				990		990
jami:	-	-	990	22885				23875		23875

6520 «Sug' urta bo'yicha hisoblashuvlar» hisobi bo'yicha										
1.	Nafaqa fondiga (2,5%)	-	-	-	1650				1650	1650
2.	Kasaba uyushmasi fondiga (1,2)			792	-				792	792
3.	Ijtimoiy sug'urta fondiga (37,3%) va h.k.	-	-	24618	-				24618	24618
<b>Jami:</b>										
6010 «Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan hisoblar»										
1.	Elektroset	-	2400	-	-			-	2400	-
	<b>Hammasi:</b>	-	<b>2400</b>	<b>2400</b>						

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, fermer xo'jaliklarida buxgalterlik hisobining soddalashtirilgan shakli quyidagi shart-sharoitlar bo'lganda qo'llanilishi mumkin:

- xarajatlar hisobot davri (oyi)da to'laligicha mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish va xizmat ko'rsatish)ga sarflanganda;
- olgan mahsulotlari (bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar) uchun buyurtmachilarning kichik korxonadan hamda kichik korxonaning boshqa tashkilotlardan qarzi bo'lmaganda, ya'ni sotilgan mahsulot olingan materiallar hamda bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisoblashuvlar muomala sodir bo'lishi bilan darrov amalga oshirilganda;
- oddiy ishlab chiqarish usulini amalga oshirish, ya'ni murakkab bo'lmagan sikl doirasida bir yoki bir necha xil mahsulotlar ishlab chiqarilganda (ish, xizmat bajarilganda), buyurtma bo'yicha ish bajarilganda;
- oldindan (avans qilib) xarajat va mahsulot olish hollari bo'lmaganda;
- daromadlar va xarajatlarni olingan hamda to'langan naqd pullar asosida hisobga olish imkonining mavjudligi kichik korxonalarda buxgalterlik hisobining soddalashtirilgan shaklini qo'llashda muhim omil hisoblanadi, ya'ni daromadlar sotilgan mahsulotlar (bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar) uchun kassaga naqd pul bilan olinganda;
- xarajatlar esa materiallar, ish va xizmatlar uchun to'langan naqd pul sarflanishi kabi qayd qilib borilganda.

### *Qisqacha xulosalar*

**B**ozor munosabatida turli mulkchilik shakllari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular o'rtasida o'zaro ishlab chiqarish va iqtisodiy aloqalar orqali faoliyat yuritib hamkorlik qilinmoqda. Ayniqsa, fermer xo'jaligi bilan ta'minot va servis xizmat ko'rsatuvchi o'rtasida bo'ladigan iqtisodiy aloqalar, uni takomillashtirish to'g'risida barcha qonuniy asoslar yaratildi hamda xo'jalik yuritish faoliyatida shartnoma va shartnoma munosabatlari, xo'jalik yillik faoliyat yuritishining biznes-rejasi, fermerga xizmat ko'rsatish banklari va kreditlash mexanizmi, baxtsiz voqealarni inobatga olib mulkni sug'urtalash xo'jalik faoliyatidan olingan daromadidan yagona yer solig'i to'lash yo'llari, xo'jalikda olib boriladigan hisob-kitob ishlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoblar to'liq yangi tartibda ishlab chiqildi. Unga qonuniy asos yaratilib, iqtisodiy mexanizmlari me'yoriy hujjatlar asosida qayta amaliyotga joriy etilmoqda.

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Iqtisodiy aloqalar tushunchasi va uning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Xo'jalikda shartnomaning zarurligi va uning tuzilishi nimadan iborat?
3. Biznes-reja nima va uni tuzish yo'llarini aytинг?
4. Bank ishi va kreditlash mexanizmini tushuntiring.
5. Sug'urta turlari va sug'urtalash mexanizmi o'z ichiga nimani asos qilib oladi?
6. Yagona yer solig'i nima va u qanday undiriladi?
7. Buxgalteriya hisobining maqsadi va moliyaviy hisobotlarning vazifasi nimadan iborat?
8. Iqtisodiy faoliyat tizimi deganda nimani tushunasiz?

### 11.1. Xo'jalik faoliyatini boshqarish tizimi

Qishloq xo'jaligini boshqarishning asosiy maqsadi yuqori darajada foyda Qolishdir. Qishloq xo'jaligi boshqaruva apparatining tuzilishi deganda boshqaruva apparati va uning tarkibidagi bog'lanish tushuniladi. Boshqaruva apparatining tarkibi bir-biri bilan bog'langan birikmalar va bo'g'inlar bilan to'ldirilishi uning **tashkiliy tizimi** deyiladi.

Tashkiliy tizim boshqaruva tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, boshqaruvchi tizim, boshqaruva subyekti tashkiliy tuzilish shakli demakdir. Boshqaruva tizimida ishchi va xodimlarni boshqarishni tashkil qilishning rasmiy qoidalari tartibga solinadi.

Idoralar bu tizimning tarkibiy qismlari, bo'g'inlaridir. Har bir idora o'z harakat doirasiga ega. U mazkur idoraga ma'qul bo'lgan masalalar doirasini, uning faoliyati chegaralarini, vakolatlari va javobgarligini belgilaydi. Boshqaruva tizimi tashqi va ichki omillarning ta'siri ostida tarkib topadi. Tashqi omillar orasida eng muhim ishlab chiqarishdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqaruva idoralari o'rtasidagi aloqalarning turiga qarab tizimlarni 3 ta asosiy turga ajratish mumkin, ya'ni lavozimli, vazifaviy va aralash, ya'ni kombinatsiyali muntazam tizimlardir. Ularda bitta lavozimda idoralarning har bir guruhi idora qilish qo'llanmalariga asosan, yuqori darajada o'zining rahbarlik idorasiga ega bo'ladi.

Muntazam tizimda boshqaruvning barcha masalalari bitta kanal orqali hal etiladi.

**Dasturli tizim** – maqsadli tizimlarning alohida turi hisoblanadi. Boshqaruvning aniq tizimini shakllantirish ijodiy jarayondir. Biroq tizimning ilmiy jihatden ishlab chiqilgan shakllari qo'llanilsa, bu ishlarni yanada osonlashtirish imkonini beradi.

Boshqaruva tizimi xodimlari zarur ishchanlik xislatlariga ega bo'lishi bilan birgalikda bilimdon bo'lishlari zarur. Tashkilotchilik qobiliyati, yangilikni his qilish, yangi texnikaviy va tashkiliy g'oyalarni munosib baholay o'ishi, ularni qo'llashda mahorat, shuningdek, muhim ishchanlik xislatlaridan biri omilkorlik xodimga qo'yiladigan asosiy talablardandir.

Boshqaruva mutaxassislari ish jarayonida boshqarishning obyekt va subyektlarini ajratib foydalanadi. **Obyekt** bu – rahbarlar bilan ishslash tizimining asosiy unsurlari bo'lib, mutaxassislar tanlash, baho berish va hokazolar bo'lsa, subyekt bu – xodimlar bilan ishslash vazifasidir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqaruv xodimlari faoliyatlarining vaqt-i vaqt bilan baholanib borilishi ular ishidagi kamchiliklarni bartaraf qilish imkonini beradi. Baholash attestatsiyadan o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Rahbar ishining asosiy omillariga quyidagilar kiradi: boshqarish faoliyatining mohiyati, boshliqning rollari, boshqarish funksiyalari va muvaffaqiyatiga qaratilgan boshqaruv. Bu omillarni chuqurroq o'rganish zarur.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarish faoliyatida rahbar-menejer olib boradigan boshqaruv ishlarning soni juda ko'p, lekin ular ishining asosiy mohiyatini aniqlab olish lozim bo'ladi. Ma'lumki, rahbar va ishchilarning olib boradigan ishlari bir-biridan farq qiladi. Rahbar – menejerlarning lavozimlaridan qat'i nazar, ularning ish faoliatlari bir-biriga o'xshash, ya'ni ular boshqa uv bilan shug'ullanadilar. Ishchilarning bajaradigan ishlari, asosan, texnologik kartalar va biznes-rejada ko'rsatilgan talablar yordamida olib boriladi. Lekin rahbar – menejerlarning kun davomida bajaradigan ishlari har xil va tez-tez o'zgarib turadi. Boshqaruv ishlarning o'zgarib turishiga asosiy sabab xo'jalikda sodir bo'layotgan holatlardir. Bunday holatlarda boshqaruv ishlarning olib borilishi, bajarish uslublari va qoidalari hamma rahbar-menejerlar uchun, asosan, bir xildir.

Rahbar-menejerning ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan ishlari ma'lum. Rahbar – menejer qanday lavozimda bo'lishidan qat'i nazar, bu rollarni o'zgartira olmaydi, lekin o'zi bilmaydigan usulda, o'ziga xos ravishda bajaradi. Rahbarning rollari quyidagilardan iborat: shaxslararo, informatsion va qaror qabul qilish. Rahbarning shaxslararo roli rahbarning vazifasi va funksiyasida belgilangan. Rahbar informatsion rolni bajarish uchun ishlab chiqarish va tashqi muhitlardan ma'lumotlar olib, uning tahlili asosida qaror qabul qilish rolini ijro etadi va amalda qo'llaydi. Masalan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida resurslarni ratsional taqsimlaydi va sodir bo'lgan holatlarda o'z yechimiga ega bo'ladi.

Boshqarish faoliyatida rahbar-menejerlar tomonidan boshqaruv funksiyasi ijro etiladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish vazifalari: boshqaruvni rejalashtirish, tahlil qilish, nazoratdan iborat.

Mehnatning gorizontal taqsimoti qishloq xo'jaligi korxonalarida (shirkat, agrouchastka, fermer, oila pudrati)ning paydo bo'lishiga olib keladi, bu tizim va tuzilmalarning mutanosib ishlash yo'llarini ko'rsatib beradi. Natijada boshqaruv funksiyalari paydo bo'ladi. Ularning vertikal taqsimoti natijasida boshqaruv pog'onalari tashkil etiladi. Boshqaruv pog'onalari asosan uchta: yuqori, o'rta va quiy়i pog'onalarga bo'linadi. Yuqori pog'onaga xo'jalik-tashkilot rahbari, uning o'rindbosarlari, menejerlar bo'lsa, o'rta pog'onaga dehqonchilik, ta'minot, servis xizmati rahbarlari va mutaxassislar, quiyi pog'onaga oilaviy pudrat, fermer va sex rahbarlari kiradi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni boshqarish tizimida mehnat resurslarini boshqarish juda muhimdir. Biznes yoki kunlik topshiriqlarni hech kim bajarmasa, u hech narsaga arzimaydi, boshqarish va ishlab chiqarish masalalarining markazida dehqonlar, menejerlar, mutaxassislar va rahbarlar turadi. Boshqarishdagi vazifalarning o'z vaqtida samarali bajarilishi shu rahbarning ishga bo'lgan munosabatini belgilaydi.

Fermer – fermer xo'jaligining muassasasi – fermer xo'jaligining rahbari hisoblanadi, u o'n sakkiz yoshga to'lgan, muomalaga layoqatlari, qishloq xo'jaligida tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

#### ***Fermer xo'jaligining rahbari:***

– fermer xo'jaligi ustavini qabul qiladi va unga belgilangan tartibda o'zgarishlar kiritadi;

– fermer xo'jaligi faoliyatining biznes-rejasini tasdiglaydi;

– fermer xo'jaligi faoliyatini tashkil qiladi;

– yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda fermer xo'jaligi nomidan ish ko'radi;

– ishonchnomalar beradi, shartnomalar tuzadi va ularning bajarilishini ta'minlaydi, shuningdek, fermer xo'jaligi xodimlari bilan mehnat shartnomalarini imzolaydi;

– fermer xo'jaligi xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

– ichki mehnat tartibi qoidalarini belgilaydi;

– daromadni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etadi;

– xodimlarning xavfsiz hamda unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratib beradi;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mexnat daftarchalari yuritilishini tashkil etadi, ish haqi to'lashni ta'minlaydi, mehnatga haq to'lash miqdorini va moddiy rag'batlantirish usullari va intizomiy jazo choralarini belgilaydi;

– fermer xo'jaligi nomidan hujjatlarni imzolaydi;

– fermer xo'jaligini qayta tashkil etish va tugatish masalalarini hal etadi.

#### **11.1.1. Fermer xo'jaliklarini boshqarish faoliyati**

O'zbekiston fermer xo'jaliklari uyushmasi va uning hududiy vakilliklari nodavlat va notijorat tashkilot sifatida faqatgina ixtiyorilik va ko'ngilli ravishda a'zo bo'lgan fermer xo'jaliklarining manfaatlarini huquqiy himoya qiladi. Fermer xo'jaliklari uyushmasi hamda uning hududiy vakilliklari nodavlat va notijorat jamoa tashkiloti bo'lib, ular fermer xo'jaliklarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tuzilgan. Uyushmaning asosiy vazifasi:

- fermer va dehqon xo'jaliklarining huquq va manfaatlarini davlat tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlar oldida himoya qilish;
- fermer va dehqon xo'jaliklarining faoliyatini rivojlanirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, qabul qilish, joriy etish va davr talabidan kelib chiqqan holda, ularga o'zgartirish va to'ldirishlar kiritish to'g'risida takliflar ishlab chiqish yoki ularning tayyorlanishida ishtirok etish;
- qishloq xo'jaligida yer munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksporti, shuningdek, xorijda ishlab chiqarilgan ilg'or texnologiyalarni joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;
- fermer xo'jaliklari rahbarlari va a'zolarining kasbiy malakalarini oshirishga qaratilgan seminarlar, konferensiylar yoki ko'rgazmali amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;
- fermer xo'jaliklari uchun iqtisodiy, huquqiy va boshqa turli yo'nalishlar bo'yicha yo'rqnomalari, qo'llanmalar va axborotnomalar tayyorlab chop etish;
- konsalting va marketing xizmatlarini tashkil qilish, fermerlarni o'qitish kabi dolzarb masalalar bo'yicha huquqiy va amaliy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanishi zarur.

Uyushma o'z-o'zini moliyaviy mablag' bilan ta'minlash tamoyili asosida faoliyat ko'rsatib, quyidagi moliyaviy mablag'lar uning asosiy daromad manbayi hisoblanishi mumkin:

- o'z a'zolarining badallari;
- seminar, konferensiya va ko'rgazmali amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;
- chet el grantlari va turli homiylik yordam mablag'lari;
- fermer xo'jaliklari uchun turli yo'rqnomalari, qo'llanmalar va axborotnomalar tayyorlab chop etish va boshqa tadbirlar.

Fermer xo'jaliklari uyushmasi o'z a'zolarining huquqiy manfaatlarini himoya qilish, yangi texnologiya va ilg'or tajribalarni joriy qilishda hamkorlik ko'rsatish, turli xil konsultativ-axborot markazlarini tashkil etib, ular orqali dehqon va fermer xo'jaliklari rahbarlari va a'zolarining iqtisodiy-huquqiy bilimlarini oshirishga yordam beradi.

'Fermer xo'jaliklari uyushmasining raisi va uning o'rinnbosarlari uyushmaning oliv organi bo'lgan syezd tomonidan saylanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tasdiqlansalar-da, uyushmaning hududiy vakilliklari rahbarlari tegishli (viloyat, tuman) hokimliklarning tavsiyasiga binoan, Uyushma raisi tomonidan tayin-lanadilar.

Fermer xo'jaliklari uyushmasining viloyat filiallari ajratilgan shtatlar, tashkil etilgan bo'limlar, qo'yilgan maqsad va vazifalari jihatidan Respublika fermer

xo'jaliklari uyushmasining markaziy ijro boshqaruvini takrorlaydi. Viloyat vakilligi xodimlarining asosiy vazifasi Respublika uyushmasi va viloyat hokimligidan olingen topshiriq va vazifalarni, taqsimlangan moddiy-texnika fondlarini tuman vakilliklariga yetkazish va uni bajarilishini nazorat qilishdan iborat. Uyushmaning viloyat va tuman vakilliklari yuqorida belgilangan vazifalarni bajarib, joylarda fermer xo'jaliklaring muammolarini hal qilish yoki ularga muayyan bir xizmat turini ko'rsatishda bevosita qatnashadilar.

Uyushmaning tuman filiallari fermer xo'jaliklari bilan ish olib borgani holda, ular ham barcha topshiriq va vazifalarni viloyat vakilligi va tuman hokimiyatidan olib, o'z navbatida, viloyat vakilligi faoliyatini takrorlaydi. Fermer xo'jaliklарini rivojlantirish va ularning huquqlarini himoya qilish, dolzarb muammolarni hal qilishda tashabbus ko'rsatib, fermer xo'jaliklaringa bevosita amaliy yordam beradi. Tuman vakilliklarining asosiy vazifasi viloyat vakilligi va mahalliy hokimiyatlar buyrug'iiga binoan, qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish va fond bo'yicha markazlashgan moddiy-texnika resurslarini bevosita fermer xo'jaliklaringa yetkazishdan iborat.

Yangidan tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklari «majburiy-ixtiyoriy» ravishda bir vaqtning o'zida «fermerlar birlashmasi (uyushmasi)»ga, shuningdek, dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi tuman vakilligiga yoki qishloq va suv xo'jaligi bo'limiga a'zo bo'lmoqda. Amaliyot tajribalarining ko'rsatishicha, mazkur birlashmalar(uyushma) hozirgi kunda ko'proq fermer xo'jaliklari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va huquqiy himoya qiluvchi emas, balki nazorat organiga aylanib qolmoqda.

Bundan tashqari, dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasining tuman vakilligi va ma'nalliy organlari tomonidan har yili fermer xo'jaliklari rahbarlarini attestatsiyadan o'tkazish amaliyoti qo'llanilib, attestatsiyadan o'tish uchun fermerlar birlashmasi (yoki uyushmasi) raisi fermer xo'jaligining faoliyati bo'yicha yozma xulosa bermoqda. Anashu xulosalarga asosan, fermer xo'jaligining rahbari attestatsiyadan o'tkaziladi. Bizning fikrimizcha, ushbu holat fermer xo'jaliklari faoliyatiga noqonuniy aralashish va ular erkinliklarini cheklash hisoblanib, qonun tomonidan qat'iy man etilgan. O'tkazilayotgan attestatsiyani olib borish tartibi, tashkiliy va boshqa jihatlarining saviyasi juda past bo'lib, ko'p hollarda bosh mezon sifatida fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish rejasining bajarilganligi yoki bajarilmaganligi to'g'risidagi ko'rsatkichlari olinadi.

### **Fermer xo'jaliklarning kooperativ boshqaruvi**


Shirkat xo'jaliklari negizida tashkil etilgan fermer xo'jaliklarni demokratik boshqarish tizimini yaratish, fermer xo'jaligi faoliyatini muvofiqlashtirish, ularga ishlab chiqarish va iste'mol yo'nalishlarida o'zaro

yordam berishga qaratilgan «Fermerlar Konsepsiysi» Nizomining maqsadi, fermer xo'jaliklarini kooperatsiyalash jarayonini tashkil etishdan iborat.

Kooperatsiyaning samarali faoliyati uning tarkibini tashkil etuvchi va o'zaro bir-biriga bog'liq subyektlarning munosabatlariiga bog'liq. Bu subyektlar quyidagilardan iborat:

- *kooperatsiya a'zolari (fermer xo'jaliklari va ularning faoliyati bilan bog'liq turli sohada ishlayotgan tashkilot va korxonalar);*
- *boshqarishning demokratik tamoyillariga asosan, saylanadigan kooperatsiya Kengashi;*
- *ijro guruhi (yollanma mutaxassislar).*

Kooperatsiyaga kiruvchi fermerlarning mustaqilligi daxlsiz bo'lib, ular tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan mustaqil ravishda shartnomalardan tuzadilar.



### ***1-chizma. «Fermer xo'jaliklari kooperatsiyasi»ning namunaviy tashkiliy tuzilmasi***

Kooperatsiya Kengashi fermerlarning umumiyligi majlisi tomonidan bir yil muddatga tuziladi va Kengash hay'ati saylanadi. Kengash hay'ati kooperatsiyaga kirgan fermerlar soniga qarab 5-7 kishidan iborat bo'lishi mumkin. Kengash va uning raisi jamoatchilik asosida ish yuritib, uning a'zolaridan biri bir yil muddatga Kengash raisi qilib saylanadi.

#### **Kengash vakolatiga quyidagilar kiradi:**

- yer, suv va boshqa resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- fermerlarga mahsulot yetishtirishda ularni ixtisoslashtirish bo'yicha tavsiyalar berish;
- ekinlar navlarini tanlash va yuqori hosilli o'simliklar urug'larini tanlashda maslahat va tavsiyalar berish;
- agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazishga ko'maklashish;
- servis xizmatidan foydalanish va servis xizmati baholarini belgilash bo'yicha tavsiya berish;

**Hisoblangan debet va kredit hisoblari.**

- tijorat banklaridan kredit olishga ko‘maklashish, kredit kooperativini tashkil qilish;
- mahsulotlarni sotishga ko‘maklashish, fermerlar mablag‘larini birlashtirish hisobiga tayyorlov, qayta ishlash, sotish yoki xizmat ko‘rsatish korxonalarini tashkil qilish;
- fermerlar huquqlarini himoya qilish;
- fermerlarni axborot ma’lumotlari bilan ta’minlab turish.

Kooperatsiyaning tashkiliy asoslariga – kooperatsiya jarayoniga kiruvchi a’zolarning arizasi, kooperatsiyaning nizomi, uning boshqaruv kengashi va organlari, ishlab chiqarish tizimlari reja va buxgalteriya bo‘limlarini tashkil etish, texnologik jarayonni boshqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini moddiy-texnika resurslari bilan ta’minalashni tashkil etish va boshqa tashkiliy omillar kiradi. Uning iqtisodiy asoslariga – moliyaviy mablag‘lar, turli shartnomalar, kooperativ to‘lovları, badallari, soliq va boshqa to‘lovlar, kreditlar, investitsiya shu kabi iqtisodiy omillar kiradi.

Kengash oldiga qo‘yilgan vazifalar ijro apparati orqali amalga oshiriladi.

Ijro guruhi Kengash tomonidan tanlov asosida olingan 4-5 yollanma mutaxassislardan iborat bo‘lib, shartnomaga asosida faoliyat yuritadi. Ijro guruhi mutaxassislarining maoshi fermer xo‘jaliklari daromadidan ajratma hisobiga to‘lanadi.

Ijro guruhi mutaxassislari kooperativ Kengashiga va fermerlar umumiy yig‘ilishiga hisobot beradilar. Ijro guruhi bosh menejeri tuman hokimiysi va tashkilotlari bilan fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashdiruvchi hamda fermerlar va servis xizmati ko‘rsatuvchi korxonalar bilan munosabatlarni fermerlar bergen vakolat doirasida amalga oshiradi.

Xullas, fermer xo‘jaliklari kooperatsiyasi qishloq xo‘jaligining quyi bo‘g‘inida boshqaruv tizimining asosiy tashkiliy va huquqiy shakli hisoblanib, sodda va demokratik tamoyillarga asoslangan bo‘lib, unda barcha kooperativ a’zolari – fermerlarni boshqaruvda qatnashishini ta’minalaydi.

Boshqarishning bu demokratik shaklining to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi va fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarishni samarali faoliyat yuritishi uchun kooperatsiya munosabatlarini tashkil qilish va rivojlantirishni davlat miqyosida iqtisodiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlash zarur bo‘ladi. Jumladan, respublikamizda «Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi to‘g‘risida» maxsus qonun qabul qilinib, unda qishloq xo‘jaligidagi barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarni ixtiyoriylik asosida kooperatsiyaga a’zo bo‘lib kirishining tartibi, tomonlarning majburiyatları va javobgarligi, kooperatsiya kengashi boshqaruvini tashkil etish va uning vakolatlari doirasi, pay badallarini to‘lash miqdori, tartibi va muddatlari, kooperatsiyadan chiqish va unga a’zo bo‘lish kabi talablarning huquqiy yechimi o‘z aksini topishi zarur. Bundan tashqari, amaldagi soliqqa tortish tizimida kooperatsiya faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan imtiyozlar ko‘zda tutilishi lozim.

Fermer xo'jaliklarining faoliyatini o'zaro kooperatsiya shaklida boshqarish va muvofigqlashtirib, yanada samarali ishlashlarini ta'minlashga qaratilgan ushbu uslub chet ellarda amaliy tajribalar natijasida asoslangan va dastlabki davrda fermer xo'jaliklarining oyoqqa turishi va bosqichma-bosqich rivojlanishida muhim rol o'ynagan.

## **11.2. Xo'jalikda boshqarish usullari va tamoyillari**

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida boshqaruv usullari qishloq xo'jaligi korxonalari oldiga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida, yuqori sifatli qilib bajarilishini ta'minlash uchun ularga nisbatan ko'rildigan chora-tadbirlarni va ta'sirchan usullarning qo'llanilishini bildiradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarishda qo'llaniladigan barcha usullar, bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, boshqaruv usullari o'zining tavsifiga ko'ra iqtisodiy, ma'muriy va psixologik usullarga bo'linadi.

**1. Iqtisodiy usullar.** Boshqarishning bu usuli mutaxassislar va dehqonlar moddiy manfaatlariga asoslangan bo'lib, davlat, jamoa va har bir mehnatkashning moddiy manfaatdorligini bir-biri bilan uzviy bog'laydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy usullariga tannarx, baho, foyda, rentabellik, xo'jalik hisobi, moddiy rag'batlantirish fondi kiradi. Iqtisodiy boshqaruv usullarining asosiy vazifasi ishlab chiqarishda har bir mahsulot birligiga sarflanadigan xarajatlar miqdorini kamaytirib, qishloq xo'jaligida islohotlarni va chet el texnologiyalarini amaliyotga joriy etishdir.

**2. Tashkiliy-ma'muriy boshqaruv usuli** yakkaboshchilik munosabatlari, intizom va mas'uliyatga asoslanadi.

Tashkiliy-ma'muriy boshqaruviga mahsulot turlarini rejaga asosan yetishtirish, mahsulot sifatini yaxshilash, mehnatga haq to'lash me'yorlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish, mehnat intizomini mustahkamlash va tez hal qilinadigan masalalar to'g'risidagi ko'rsatmalar kiradi.

**3. ijtimoiy-psixologik usullarga** - xo'jalikning mahsulot ishlab chiqarish, ish jarayonlarida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratishdir. Xo'jalik ishlovchilari tomonidan mehnat intizomi bo'yicha chiqqan nizolar bu usulning holatiga baho beradi.

Nizo rahbar bilan ishlovchi va boshqa xodimlar orasidagi kelishmov-chiliklardan kelib chiqadi.

### ***Boshqarishining quyidagi uch xil tizimi mavjud:***

*1. Chiziqli boshqarish tizimida har bir xodim faqatgina bitta boshliqqa bo'ysunadi.*

*2. Funksional boshqarish tizimida boshqarish funksiyasi 2-3 rahbar o'rjasida ixtisosiga qarab taqsimlanadi. Bu tizimda boshqarish ancha ixtisoslashgan bo'ladi.*

*3. Murakkab boshqarish tizimi funksional va chiziqli boshqarish tizimining yig'indisidan tashkil topgan. Hozir bu boshqarish tizimi qishloq xo'jaligi korxonalarida ustunroq turadi.*

Qishloq xo'jaligi korxonalaridagi dispetcherlik xizmati, bu korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatiga, uning bo'limlariga telefon, faks, radio, ratsiya va boshqa vositalar yordamida markazlashtirilgan holda operativ rahbarlik qilishdir.

Boshqarish – qarorlarni tayyorlash va qabul qilish, ya'ni axborotni to'plash, uni ishlab chiqish, tahlil etish, qabul qilingan qarorlarni ijro etuvchiga yetkazish va bu qarorlarning bajarilishini tekshirish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Hukumat qarorlarida hozirgi sharoitda rejallashtirish sistemasini va qishloq xo'jaligini boshqarishni takomillashtirish uchun iqtisodiy-matematik usullarni keng qo'llash va elektron hisoblash texnikasini, ilg'or aloqa texnikasidan foydalaniлади.

Qishloq xo'jaligida shirkat, fermer va dehqon xo'jaligi davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab, yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va faoliyatini qonun hujjatlariga hamda o'z nizomiga asosan boshqaradi.

Ustavga amal qiladi, o'zining mustaqil balansiga, bank muassasasida o'z hisob varaqlariga, nomi yozilgan dumaloq muhr va tamg'asiga, O'zbekiston Respublikasi hududida ham, shuningdek, undan tashqarida ham qonun hujjatlariga va o'z ustaviga zid bo'limgan har qanday bitimlarni tuzish huquqiga ega bo'ladi, sudda da'vogar va javobgar sifatida ishtiroy etishi mumkin.

### **11.3. Xo'jalikni boshqarishda menejment va uning faoliyati**

Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishdan avval mahsulotni kimga, qancha va qanday qilib ishlab chiqarish rejalarini tuzamiz. Mahsulotni kimga, qancha va qanday miqdorda yetishtirish masalasi bo'yicha marketing shug'ullanisa, shu mahsulotni ishlab chiqarishni boshqarishni menejment boshqaradi.

Qishloq xo'jaligida menejment (ing. boshqarish, mudirlilik, tashkil etish) – zamонави ishlab chiqarishni boshqarish (rejalash, tartibga solish, nazorat qilish), shuningdek, ishlab chiqarishga rahbarlik qilish, uni tashkil etish, demakdir.

Menejerlar korxona va kompaniya egalari bo'limgan yollanma malakali boshqaruvchilardir.

Qishloq xo'jaligida menejment ilg'orlar tajribasini o'rganib va umumlashtirib, iqtisodiy vositalarni hamda tabiat va jamiyat iqtisodiy qonunlarining amal qilishini ochib beradi, qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirish sur'atlarini jadallashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ilmiy asoslangan tarzda hal qilish qonuniyatlarini aniqlab beradi.

**Qishloq xo‘jaligida menejmentning vazifasi** mehnatni tashkil etish, ishchilarni ish bilan ta’minlash; xizmat va resurslarni tarmoqlar bo‘yicha taqsimlash; taqsimotning ratsional shakllarini asoslab berish, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va sifatiga qarab xodimlarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish; rejalarning bajarilishiga rahbarlik qilish; ular ustidan nazorat qilish va hokazolardir.

Qishloq xo‘jalik menejeri qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etishni, rejalashtirishni, nazorat qilishni, boshqarishni to‘liq egallash bilan birga, qishloq xo‘jaligi texnikasiga doir fanlardan, ularning barcha yangi muvaffaqiyatlaridan xabardor bo‘lishi lozim.

Qishloq xo‘jaligida menejment tabiat va jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonunlariga amal qilib, xo‘jalikni iqtisodiy jihatdan assoslangan holda yuritish bazasi bo‘lib xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligida menejment qishloq xo‘jaligida boshqaruvin, resurs va odamlarni boshqarishdan tashqari olinadigan foydani ko‘paytirishidir.

Qishloq xo‘jaligida menejment usullarini shartli ravishda quyidagi asosiy usullarga bo‘lish mumkin: iqtisodiy, ma’muriy va ijtimoiy-ruhiy usul.

Qishloq xo‘jaligi menejmentida qo‘llaniladigan iqtisodiy usullarga rejalashtirish, rag‘batlantirish va tijoratlashtirish kiradi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni boshqarishda iqtisodiy usullarni, iqtisodiy hisob-kitob deb tushunish kerak.

Iqtisodiy usullarda iqtisodiy sharoitlarni yaratish, o‘zining kapital mablag‘lari va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, fan-texnika taraqqiyotini yuqori darajada rag‘batlantirish, mehnat unumdarligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatini oshirish uchun muttasil kurash olib borishdir. Qishloq xo‘jaligida menejmentning iqtisodiy usullari to‘la iqtisodiy mexanizmning kichik bo‘lagi hisoblanadi va ular yordamida ishlab chiqarish samaradorligi muammosi yechiladi.

Qishloq xo‘jaligida menejmentning ma’muriy usullari har bir bo‘g‘inning yuqori boshqaruvin bo‘g‘inlariga bo‘ysunishidir.

Ma’muriy usullar yuqori turuvchi bo‘g‘inning bo‘ysunuvchi obyektga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishini hamda menejmentning yuqorida turuvchi idoralarning bo‘ysunuvchi idoralarga faqat qaror bilan ta’sir ko‘rsatishlari ham kiradi. Ma’muriy usullarni ishlab chiqarish boshqaruvidagi ahamiyati qanchalik yuqori bo‘lishidan qat’i nazar, boshqariluvchi tizimga birinchi turki berilgandan keyin bu harakat iqtisodiy usullar tomonidan saqlab turiladi va kuchaytirib yuboriladi.

Qishloq xo‘jaligida menejmentning ijtimoiy-ruhiy usullari – mehnatkashlarning zaruriy, faol, uzuksiz mehnat faoliyatini ro‘yobga chiqarish

usuli bo‘lib, ular odamlarni shaxslararo va ruhiy rag‘batlantirishni qo‘llanishi asosida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy-ruhiy usullar har bir jamoaga va uning alohida xizmatchisiga ta’sir ko‘rsatadi. Ularga quyidagilar kiradi: ishontirish usullari, tarbiyalash, ruhiy rag‘batlantirish, ishlovchilarning maishiy talablarini qondirish, jamoaning ilg‘or mehnat an’analarni saqlash va taraqqiy toptirish.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirishda e’tiborni yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga, xaridorgirligini oshirishga qaratish zarur.

*☞ Shunday qilib, qishloq xo‘jaligida menejment foyda olish maqsadida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini uzoq va qisqa muddatga rejalashtirish, oldindan bashorat qilish, tashkil etish, xizmat va mahsulotlarni sotish tizimidir.*

Qishloq xo‘jaligida menejer ma’lum darajada ma’muriy-xo‘jalik mustaqilligiga ega bo‘lgan ishlab chiqarishni tashkil etish, boshqarish, sotish va xizmat ko‘rsatish sohalari bo‘yicha mutaxassisidir.

Qishloq xo‘jaligida menejerning vazifasi – qo‘l ostidagi xodimga uning oldiga qo‘yilgan maqsadlarni tushuntirish, ularga erishishga yordam berish, qishloq xo‘jaligi korxonasi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarga, jumladan, qishloq xo‘jaligi korxonasi faoliyatini rejalashtirish, rejani amalga oshirish va bajarilishini nazorat qilishga faol ta’sir o‘tkazishdir. Qishloq xo‘jaligida menejment, avvalo, ishlovchilarни boshqarish ilmidir. Odamning xususiyatlarini bilmasdan turib, menejerning muvaffaqiyat qozonishi haqida o‘ylash mumkin emas.

Odam resurslarini boshqarish qishloq xo‘jaligida menejmentning eng asosiy qismidir. Xodimlarni tanlash juda muhim vazifa hisoblanadi. Yangi ishni tashkil etishda korxonada ishlaydigan ishlovchilar bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarни chuqur o‘ylab chiqish kerak, ya’ni mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyojni hisob-kitob qilish, bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarning ro‘yxatini tuzish, ishlarning har bir uchastkasida ishlaydigan kishilarning sonini aniqlash, ishning har bir uchastkasi uchun strategik va tanglik omillarini aniqlash, ishning tashkiliy tuzilishini belgilash, xizmatchi va aksionerlarning sonini aniqlash va shtatlarni saqlashga sarflanadigan xarajatlarni aniqlash zarur. Moliya sohasidagi bilimlar menejer uchun asosiy bilimlardan biridir. Chunki moliyaviy hisob-kitoblarsiz biror qarorga kelib bo‘lmaydi. Shuning uchun menejerning moliyani boshqarishdagi o‘rnini benihoya kattadir. Qishloq xo‘jaligida menejerdan ishni samarali, ya’ni foydali olib borishni bilish talab etiladi. Foydani ko‘paytirishning ikkita asosiy imkoniyati ma’lum: birinchisi,

tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hajmlarini oshirish hamda sotishni ko'paytirish, ikkinchisi, sarf-xarajatlarni kamaytirish.

Boshqarish bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishni boshqarishni ishning ko'zini biladigan kishilarga, ishbilarmonlarga, tadbirkorlarga, ayniqsa, boshqarish mutaxassislari – menejerga bo‘lgan talabni keskin oshirib yubordi. Qishloq xo‘jaligida menejer qabul qilayotgan texnik, texnologik va boshqa qarorlar aniq iqtisodiy hisob-kitoblarga asoslangan bo‘lishi kerak. Mahsulotdan olingan daromad yuqori darajada bo‘lishi, uni ishlab chiqarish uchun ketgan sarf-xarajatlar past bo‘lishiga erishishdan iborat. Menejer raqobatga chidamli fan-texnika yangiliklarini qo‘llashni va sarf xarajatlarni kamaytirishga erishishni bilishi kerak. Qishloq xo‘jaligida menejmentning marketing sohasidagi faoliyati, xo‘jalikning imkoniyatlarini faqat uning resurs imkoniyatlari hajmi bilan emas, balki ko‘proq atrof-muhitdagi ahvol bilan belgilanadi. Bozorda ehtiyojlarni qondirish uchun iste’molchilarning istaklarini o‘rganish, talab va ehtiyojga qarab mahsulot ishlab chiqarish kerak. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida marketing xizmati, sotishni, sotishdan key’ngi xizmat ko‘rsatishni doimo o‘rganib borish maqsadida tashkil etiladi. Bunda iste’molchilarning ehtiyojlarini o‘rganish marketingni boshqarishning bosh vazifasidir.

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligida menejment dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaliklarida hosildorlikdan va mahsulorlikdan foyda olish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun ish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, texnologik jarayonlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni talab etadi.

#### **11.4. Fermer xo‘jaligida menejment faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash yo‘llari**

Qishloq xo‘jaligida menejment tizimining ishlab chiqilishi, joriy qilinishi, hukm surishi, taraqqiyoti va takomillashuvi ma’lum jonli, moddiylashtirilgan mehnat sarflari bilan bog‘liq. Ularning solishtirma og‘irligi ishlab chiqarishning umumiylar xarajatlari tarkibida salmoqli o‘rin egallaydi.

Qishloq xo‘jaligida menejment tizimi ishlab chiqarishga bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlarga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomonidan qo‘srimcha xarajat, ya’ni xizmatchilarning ish haqi, ishlashi uchun zarur vositalar saqlab turish va ishlatish sarflari hamda bevosita va bilvosita xarajatlari yuzaga keladi. Qishloq xo‘jaligida menejment tizimi o‘z faoliyatini uchun qo‘srimcha xarajatlarni talab qilmasdan xo‘jalik faoliyatini yaxshilashga ko‘maklashadi. Qishloq xo‘jaligida menejment tizimining samaradorligini oshirishda o‘ziga xos sarf-xarajatlar hisobga olinib, tartibga solib borilishi

zarur. Qishloq xo'jaligida menejment tizimida amalga oshirilgan tadbirlarning salmoqli qismi ishlab chiqilgan mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Menejment faoliyati iqtisodiy samarasini hisoblash uchun samaradorlik o'chovli sifatida sof foydani ishlatalish maqsadga muvofiq. Bu holatda qishloq xo'jaligida menejment tizimining joriy qilinishi va hukm surishidan keladigan iqtisodiy samara quyidagi qismardan iborat:

a) *ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulotning ulgurji bahosini oshirish, mazkur mahsulot hajmini ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash natijasida yillik foydaning o'sgan qismidan;*

b) *ishlab chiqarishda qishloq xo'jalik korxonasing haqiqiy foydasini kamaytiruvchi unumsiz ishlarni kamaytirish va butunlay bartaraf etish natijasida tejalgan yillik pul mablag'i bo'ladijan va xo'jalikning ishlab chiqarish fondlari uchun to'lanadigan yillik pul mablag'ini tejalgan qismidan tashkil topadi.*

Hozirgi vaqtida ushbu ko'rsatkich, asosan, rejalashtirilmaydi. Bu tizim natijalari qishloq xo'jalik korxonasi xo'jalik faoliyatining xulosalari bilan taqqoslash imkonini beradi.

Reja va haqiqiy samarani hisoblashda qishloq xo'jaligida menejment tizimining joriy qilinishi va hukm surishi oqibatlari hisobga olinadi. Masalan, tabiiy resurslardan foydalilanligani uchun to'lovlar, atrof-muhitni ifloslangani uchun to'lovlar va jarimalar to'lanishining oqibatlarini aniqroq hisoblashga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida menejment tizimining joriy qilinishi va faoliyatidan keladigan yillik daromad quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\sum \Delta P = (P_2 x A_2 - P_1 x A_1) x (S_1 x a_1 - S_2 x a_2) = (F_1 - F_2) x E_f - (R_2 - R_1) - (SH_2 - SH_1),$$

### Bunda:

$\sum \Delta P$  – qishloq xo'jaligida menejment tizimining joriy qilinishi va faoliyatidan keladigan yillik daromad – iqtisodiy samara;

$P_1, P_2$  – bir dona mahsulotning sotuvidan keladigan daromad, ya'ni eksportdan, yugori sifat hisobidan va hokazolar, so'm;

$A_1, A_2$  – mahsulotning yillik hajmi, natural hajmda;

$S_1, S_2$  – bir dona mahsulotga to'g'ri keladigan ishlab chiqarishdan tashqari yo'qotishlar, so'm;

$a_1, a_2$  – har bir dona mahsulot uchun o'rnatilgan ishlab chiqarishdan tashqari yo'qotishlar;

$F_1, F_2$  – korxonaning ishlab chiqarish fondlari, ya'ni asosiy va aylanuvchi fondlarning o'rtacha yillik qiymati, so'm;

*Yef – korxonaning ishlab chiqarish fondlari uchun to 'lanadigan to 'loving me' yoriy koeffitsiyenti;*

*R1, R2 – budjetga to 'lanadigan belgili to 'lovlari, so 'm;*

*SH1, SH2 – atrof-muhit ifloslangani uchun to 'lanadigan jarimalar, so 'm.*

**Eslatma:** «1» va «2» indekslari qishloq xo 'jaligida menejment tizimini kiritishdan oldingi va keyingi faoliyatini ko 'rsatadi.

**Yillik daromad** – iqtisodiy samaradorlikni yuqoridagi formula bilan hisoblaganda, deyarli, qishloq xo 'jaligida menejment tizimining joriy qilinishi va faoliyat natijalarini to 'la aks ettiradi. U iqtisodiyot zaxiralarini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki ularga har tomonlhma iqtisodiy baho beradi, sarf-xarajatlarni pirovard natija bilan taqqoslash imkonini beradi.

Qishloq xo 'jaligida menejment faoliyatining iqtisodiy samaradorligi oshishi yetishtirilgan mahsulot sifatining yaxshilanishiga, mahsulot hajmining ortishi va sarf-xarajatlarning kamayishiga olib keladi.

---

### *Qisqacha xulosalar*

*Xo 'jalik faoliyatini byurokratik boshqarish usulidan batamom voz kechib, demokratik boshqarish, ko 'p ukladli mulkchilikka asoslangan iqtisodiyotni bozcr iqtisodiyotiga moslashтирilmоqда. Fermer xo 'jaligini zamонавиy usullар asosida boshqarish, menejment faoliyatи va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo 'llari ko 'rsatib o 'tilgan. Xo 'jalikda menejment faoliyatini nazariy va iqtisodiy asoslari to 'liq yaratilgan bo 'lib, uni amaliyotda boshqarish jarayonida qo 'llash ishlari amalga oshirilmоqда. Qishloq xo 'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, moddiy ta'minot, tayyor mahsulotlarni saqlash, sotish ishlарini marketing xizmati boshqaradi. Marketing va menejment xizmatini yaxshilash va amaliyotga tezkor joriy etish katta samara manbayi hisobланади.*

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. *Qishloq xo 'jaligida boshqarish usullаридан qaysilarini bilasiz?*
2. *Fermer xo 'jaligida menejmentning vazifasi nimadan iborat?*
3. *Menejment faoliyatining iqtisodiy samaradorligi qaysi ko 'rsatkichlar bilan aniqlanadi?*
4. *Marketing vazifasi nima va boshqarishdagи faoliyatini tushuntirib bering?*

### **12.1. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va mezoni**

**B**ozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo'jaligi samarali ishlashi uchun cheklangan resurslardan oqilona foydalanish orqali yuqori natijaga erishishga harakat qilinadi. Ishlab chiqarish samaradorligi – juda murakkab iqtisodiy kategoriyadir. U obyektiv iqtisodiy qonunlar, ijtimoiy ishlab chiqarishning asosini ifoda etuvchi – natijani, aks ettiradi. Natija har qanday faoliyatning maqsadidir. Samara tushunchasi bilan iqtisodiy samara tushunchasini farqlash kerak.

Samara bu keng tushuncha bo'lib, har qanday tadbir yoki faoliyatning oshishida, yem-xashak samarasи, chorva mahsulorligi oshishida ifodalanadi. Ammo bu samara, ya'ni hosildorlikning va mahsulorlikning oshishi bu tadbirlarning qanchalik foydaliligini ko'rsatmaydi. O'g'it va yem-xashaklardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlarning qoplanganlik darajasi shu xarajatlar bilan olingan natija daromad bilan taqqoslangandagina ma'lum bo'ladi. O'g'it va yem-xashakdan foydalanish natijasida ekinlar hosildorligi, chorva mollarining mahsulorligining oshishi bu tadbirning **texnik samaradorligini** ifoda qilsa, tadbirni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar bilan buning natijasida olingan daromadni taqqoslash **iqtisodiy samaradorlikni** ifodalaydi.

*Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish vositalari va jonli mehnatni qo'llash orqali olingan foydali natijani yoki jami resurslar birligiga olingan natijani ifoda etadi.*

Har qanday faoliyat va ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi xo'jalikni, shu jumladan, ferm'er xo'jaliklari daromadini orttiradi, ijtimoiy xarajatlarni yaxshilashga olib keladi. Bu jarayon nafaqat korxonalarga manfaatli, davlatga ham foydalidir. U yoki bu tadbirga baho berishda yoki uning o'lchamlarini aniqlashda iqtisodiy samaradorlik mezonini bilish kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona to'la iqtisodiy va huquqiy mustaqillikka ega bo'lganligi uchun asosiy maqsadi o'ziga biriktirilgan resurslardan to'la va samarali foydalanishga qaratilgan bo'lib, shu resurslar birligiga qancha ko'p daromad va foyda olsa, raqobat kurashida shuncha ustunlikka ega bo'ladi. Fermer va dehqon xo'jaligi mohiyatiga ko'ra, ular faoliyatini baholashda iqtisodiy samaradorlikning asosiy mezoni sifatida xo'jalik resurslari birligiga olingan yalpi daromadni qo'llash maqsadga

muvofiq. Yalpi daromad kategoriyasining afzalligi shundaki, bunda ham mahsulot miqdori, sifati, qanday bozorda va qanday bahoda sotilganligi moddiy xarajatlar qanchalik tejaganligi o‘z aksini topadi. Korxona, fermer xo‘jaligi qancha ko‘p yalpi daromad olishga erishsa, turli to‘lovlarni (soliq va yig‘imlar) to‘lagandan keyin o‘z ehtiyojlarini ko‘proq qondirishga, korxonani kengaytirishga imkon beradigan mablag‘ga ega bo‘ladi.

## **12.2. Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari va ularni aniqlash usullari**

Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishda uning faoliyatiga baho bermasdan iqtisodiy samaradorligini ta‘minlab bo‘lmaydi. Iqtisodiy samaradorlikning asosiy mezonini to‘la va aniq jarayon hamda ishlab chiqarishni hisob-kitob qilishdan iborat.

Fermer xo‘jaligining yalpi daromadi yetishtirilgan mahsulotni puldag'i ifodasi bo‘lib, yildan yilga o‘sib bormoqda. Bu xo‘jalik faoliyati ijobjiy yo‘nalishda borayotganligini ko‘rsatadi. Shuning uchun xo‘jalik faoliyatiga ta’sir etuvchi har bir omil harakatini ifoda etuvchi o‘ziga xos ko‘rsatkichlarni bilish kerak. Fermer xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini kompleks tahlil qilish va ishonchli xulosalar chiqarish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Fermer xo‘jaligi faoliyati va ishlab chiqarishiga biologik jarayon va iqlim sharoitlari turlichida ta’sir etadi. Fermer xo‘jaliklari bir xil mehnat sarf qilingan holda turli shakkarda va turli yillarda turli natijalarga erishishi mumkin. Fermer xo‘jaliklari faoliyatiga baho berishda hamma ko‘rsatkichlarni ikki guruhiga: **natura** va **qiymat** ko‘rsatkichlariga bo‘lish mumkin.

Natura ko‘rsatkichlari iqtisodiy samaradorlikni bevosita ifoda qilmasada, bu ko‘rsatkichlarsiz tadbirga to‘la baho berib bo‘lmaydi. Chunki natura ko‘rsatkichlari jarayonning intensivligini ifodalaydi. Qishloq xo‘jaligida yer asosiy vosita bo‘lganligi, inson uni xohlaganicha ko‘paytira olmasligi bois, bu qishloq xo‘jaligining rivojlantirishni intensiv bo‘lishini zaruriyat qilib qo‘yadi. Shuning uchun 1 hektar yerdan olingan mahsulot, ya’ni hosalni, chorva mahsulorligini oshirish, har bir fermer xo‘jaligining asosiy vazifasi hisoblanadi. Fermer xo‘jaligida olingan mahsulot va daromad turli ishlab chiqarish omillarining o‘zaro integral (funktional) aloqasi natijasi bo‘lganligi uchun qiymat ko‘rsatkichlaridan foydalilanadi.

**Mehnat unumidorligi.** Bu ko‘rsatkich fermer xo‘jaligida mehnatning samaradorligini ko‘rsatadi. Fermer xo‘jaligida o‘rtacha yillik xodim, sarflangan

kishi-kuni, kishi-soatiga yetishtirilgan yalpi mahsulot va yalpi daromad miqdori bilan ifodalanadi.

#### 12.2.1-jadval

#### Surxondaryo viloyat fermer xo‘jaligining yalpi mahsulot ko‘rsatkichlari tahlili. (Mln. so‘m)

Ko‘rsatkichlari	Yillar					2004-yilda 2000-yilga nusxasida, %
	2000	2001	2002	2003	2004	
Olingen yalpi daromad	10678,3	16766,6	22570,2	32671,4	51338,1	480,1
Shu jumladan:						
a) paxtadan	7847,9	11734,7	14918,3	22831,2	36547,7	466,0
b) g‘alladan	2830,4	5032,2	7651,9	9840,5	14790,4	522,6
Jami sarf-xarajat	9605,5	15033,6	18003,8	25972,4	36324,0	378,2
Shu jumladan:						
a) paxtadan	7452,8	11163,5	12183,2	18150,6	25464,0	341,7
b) g‘alladan	2152,7	3870,1	5460,7	7821,8	10860,0	504,5
Jami olingen foyda	1072,8	1733,0	4566,4	6699,0	15014,1	1399,5
Shu jumladan:						
a) paxtadan	395,1	571,2	2735,1	4680,6	11083,7	2805,3
b) g‘alladan	677,7	1162,1	2191,2	2018,7	3930,4	580,0
Rentabellik darajasi	11,2	11,5	25,4	25,8	41,3	30,1 punkt
Shu jumladan:						
a) paxtadan	5,3	5,1	22,4	25,8	43,5	38,2
b) g‘alladan	31,5	30,0	40,1	25,8	36,2	4,7

**Mahsulot tannarxi.** Bu ko‘rsatkich ishlab chiqarishga va fermer xo‘jaligi faoliyatiga iqtisodiy baho berishda juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, bir yilda yetishtirilgan mahsulotga qancha joriy xarajatlar qilinganligini ifoda etadi. Erkin raqobat amal qilgan bozor iqtisodi sharoitida har bir korxona mahsuloting narxi bozor bahosiga katta ta’sir etolmaydi. Ammo yetishtirilayotgan mahsulotga qilinayotgan xarajatlar darajasi, ya’ni mahsulot tannarxi korxona faoliyatiga bevosita bog‘liq. Shuning uchun korxona xarajatlarini kamaytiradigan texnologiyalarni qo‘llash, ekinlar hosildorligining, chorva mahsuldor-

ligining o'sishini ta'minlash, mahsulot birligiga xarajatlarni kamaytirishga, tannarx pasayishiga va natijada yalpi daromad hamda foya oshishiga olib keladi.

Fermer xo'jaligida ishlab chiqarishning samaradorligini tahlil etishda ishlab chiqarishning asosiy resurslari (omillari) bo'lgan asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanishi ifoda etuvchi ko'rsatkichlardan ham foydalanish mumkin. 1 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga yetishtirilgan yalpi mahsulot va yalpi daromad, 1 so'mlik asosiy va aylanma fondlarga yetishtirilgan yalpi mahsulot (fond qaytimi) yoki 1 so'mlik yalpi mahsulotga to'g'ri keladigan fondlar (fond sig'imi) aylanma fondlarning aylanish koeffitsiyenti va hokazolar.

Iqtisodiy ko'rsatkichlarni amaliyotda, Surxondaryo viloyati fermer xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini tahlil qilishdan ko'rib chiqamiz.

Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, 2000-yilda viloyat bo'yicha fermer xo'jaliklarining yalpi mahsuloti 10678,3 mln.so'm bo'lgan bo'lsa, 2004-yilga kelib bu ko'rsatkich 51338,1 mln.so'm yoki 480,1 foizga oshdi. Mahsulot ortishi bilan bir paytda sarf xarajatlar kamayib sof foya 139,9 foizga, paxtachilikda 280,6, g'allachilikda esa 580 foizga oshdi. Natija xo'jalikning rentabellik darajasini oshganligini ko'rsatdi.

Tahlillardan ma'lumki, fermer xo'jaliklari har bir imkoniyatdan tejamli va oqilona foydalanganligi sababli yuqori samaraga erishgan. Turli mulkchilik munosabatlari asosida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan shirkat va fermer xo'jaliklarining iqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2004-yilda viloyat bo'yicha paxta hosildorligi 27,7 s/ga bo'lgan bo'lsa, shirkat xo'jaliklarida 26,5 s/ga, fermer xo'jaliklarda 28,4 s/ga tashkil etib, ilg'or fermer xo'jaliklaridan Denov tumanidagi Bahriiddin fermer xo'jaligi 45,1 s/ga, Lochin-40,2 s/ga, tuproq sharoiti og'ir, suv bilan kam ta'minlangan Qiziriç tumanidagi Qoraqasmoq fermer xo'jaligi 38,4 s/ga hosil olgan. Demak, ilg'or xo'jaliklar viloyat o'rtachasidan 1,5-2 baravarga gektaridan yuqori hosil olishga erishdi. Bir sentner paxta xomashyosidan olingan daromad viloyat bo'yicha 21500 so'mni tashkil etgan bo'lsa, fermer xo'jaliklari bo'yicha 23740 so'mni, ilg'or Bahriiddin fermer xo'jaligi 25790 so'mni tashkil etdi. Bu esa viloyat o'rtachasiga nisbatan 3,6 ming so'm ko'pdir. Rentabellik ko'rsatkichlari viloyat paxtachiligidagi 15,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, fermer xo'jaliklarida 43,5 foizni, Bahriiddin fermer xo'jaligida 95,6 foizni tashkil etdi. O'z-o'zidan ko'rinish turibdiki, har bir qilingan sarf-xarajat uchun 15,8-95,6 ming so'm foya olindi.

12.2.2-jadval.

**2004-yilda Surxondaryo viloyat qishloq xo'jalik subyektlarida mahsulot yetishtirish samaradorligi**

Ko'rsatkichilar	Viloyat bo'yicha o'rtacha	Shu jumladan				
		Shirkat xo'jaliklari	Fermer xo'jaliklari	Bahrid-din	Lochin	Qoraqasmog'
<i>Hosildorlik s/ga</i>						
Paxtachilik	27,7	26,5	28,4	45,1	40,2	38,4
G'allachilik	38,0	36,3	41,1	91,0	89,7	63,0
<i>Mahsulot tannarxi, 1 s so'mda</i>						
Paxta xomashyosi	18560	19750	16450	13320	13480	14080
Don	7200	8100	6410	5130	5148	5490
<i>Sotish bahosi, 1 so'm</i>						
Paxta xomashyosi	21500	20300	23740	25790	2556	24006
Don	8370	7870	8730	9830	9728	91310
1 k.ni sotish-dan olingen foyda (K)	K2940	K550	K7200	K12470	K11770	K9926
Ko'rilgan zarar (-)	-170	-397	K2320	K4700	K4580	K3641
<i>Rentabellik (K) yoki zarar (-) darajasi (%)</i>						
Paxtachilik	K15,8	K2,8	K43,5	K95,6	K87,3	70,5
G'allachilik	-2,3	-4,9	K36,2	91,6	89,0	65,3

Shunday qilib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jalik subyektlaridan eng yuqori samaraga erishgan xo'jalik shakli fermer xo'jaligi ekanligi amaliyotda o'z tasdig'ini ko'rsatdi.

### 12.3. Foyda va rentabellik

*Foyda va foydalilik* – barcha korxonalar kabi fermer xo'jaligi korxonalar faoliyatining eng asosiy va yakuniy ko'rsatkichidir. Hozir amalda qo'llanilayotgan Nizomga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati moliyaviy natijalarini shakllantirishda foydaning quyidagi ko'rsatkichlari qo'llaniladi:

**1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda.** Bu mahsulotlarni (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi.

$$\text{YAF}=\text{SST-It};$$

**Bunda:** *YAF – yalpi foyda;*

*SST – Sotishdan olingan sof tushum;*

*It – Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.*

**2. Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda.** Bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plus qo'shimcha asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi.

$$\text{AFF}=\text{YAF-DX+BD-BZ}$$

**Bunda:** *AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda;*

*DX – davr xarajatlari;*

*BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;*

*BZ – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.*

**3. Umum xo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar.** Bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va minus ko'rilgan zararlar sifatida aniqlanadi.

$$\text{UF}=\text{AFF+MD-MX}$$

**Bunda:** *UF – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;*

*MD – moliyaviy foliyatdan olingan daromad;*

*MZ – moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan zararlar.*

**4. Soliq to'langungacha olingan foyda.** Bu umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zararlar sifatida aniqlanadi.

$$\text{STF}=\text{UF+FF-FZ}$$

**Bunda:** *STF – soliq to'langungacha bo'lgan foyda;*

*FF – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;*

*FZ – favqulodda vaziyatlarda ko'rilgan zarar.*

**5. Yilning sof foydasi.** Bu soliq to‘lagandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt, ya’ni korxona (firma) ixtiyorida qoladigan hamma xo‘jalik subyekti mustaqil tasarruf etadigan foyda. Uni soliqlar to‘langunga qadar bo‘lgan foydadan, daromaddan soliqni hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda aniqlanadi.

### **SF=STF-DS-BS**

**Bunda:** *SF – sof foyda;*

*DS – daromad (foyda)dan to‘lanadigan soliqlar;*

*BS – boshqa soliqlar va to‘lovlar.*

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ya’ni korxona (firma)lar tomonidan xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish natijasida olinadigan daromadlarning manbalari quyidagilar:

- a) sotishdan olingan sof tushum;
- b) asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari);
- c) moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;
- d) favqulodda daromadlar.

Korxona daromadining asosiy manbasi – mahsulot(ish, xizmat)larni sotishdan kelib tushadigan pul tushumidir.

**6. Sof pul tushum** bu – umumiyl pul tushumidan qo‘shilgan qiymat, aksiz solig‘i va eksport boji olib tashlangandan qolgani.

**7. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga** undirilgan yoki e’tirof etilgan qarzlar, hisobot yilda olingan o‘tgan yilgi foyda, oshxonalar va yordamchi xizmat daromadlari, asosiy vositalarni tugatishdan kelgan daromadlar, davlat subsidiyalari, xolisona moddiy yordam va boshqa daromadlar kiradi.

**8. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarga** – olingan daromad transferti, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlar, molmulkni uzoq muddatli ijara berishdan olingan daromadlar (lizing to‘lovini olish), valuta hisobidagi ijobjiy kurs tafovutlari, qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan olingan va boshqa daromadlar kiradi.

**9. Favqulodda foyda** – bu ko‘zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo‘lgan, hodisa yoki xo‘jalik yurituvchi subyektning odatdagisi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo bo‘ladigan va olinishi kutilmagan foydalar.

**10. Sotilgan mahsulot rentabelligi** (RSM) yoki *yalpi foyda bo‘yicha rentabellik* (RYAF)

$$RSM = \frac{YaF}{SST};$$

**Bunda:** *RSM – sotilgan mahsulot rentabelligi.*

Sotilgan mahsulot rentabelligi sotilgan mahsulotning har bir so'mi qancha yalpi foyda keltirganini ko'rsatadi.

**11. Sof foyda bo'yicha rentabellik (RSF).**

$$RSF = \frac{SF}{SST};$$

**Bunda:** *RSF – sof foyda bo'yicha rentabellik.*

Sof foyda bo'yicha rentabellik har bir sotilgan mahsulot korxona uchun qancha sof foyda keltirishini yoki sotilgan mahsulot tarkibida qancha sof foyda keltirishini yoki sotilgan mahsulot tarkibida qancha sof foyda borligini ifoda qiladi.

Yuqorida keltirilgan moliyaviy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari korxona faoliyatini tahlil qilish, tadbirdorlikni maqbul va samarali yo'llarini belgilash, investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

---

### ***Qisqacha xulosalar***

**F**ermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish, avvalo, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Iqtisodiy samaradorlik fermer ishlab chiqarish vositalari va jonli mehnatni qo'llash orqali olingan foydali natija yoki jami resurslar birligiga olingan pirovard natijadir. Xo'jalikning ishlab chiqarish faoliyatiga baho berganda iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi mahsulot va yalpi daromad (foyda)ni nazarda tutamiz. Shu iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida fermerning iqtisodiy samaradorligi aniqlanib uni oshirish yo'llari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik tushunchasini aytинг.
2. Iqtisodiy ko'rsatkichlarga nimalar kiradi?
3. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashda qanday usullarni bilasiz?
4. Fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirishda qanday tartib qo'llaniladi?

### XIII BOB

## FERMER XO'JALIGIDA DON VA PAXTA YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASI HAMDA CHORVACHILIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

### 13.1. Paxta yetishtirish va uning agrotexnologiyasi

**G**'o'za, asosan, tola uchun ekiladi. Undan 150 dan ortiq mahsulot olinadi. Ayniqsa, paxtadan to'qimachilik, oziq-ovqat sanoatiga xomashyo, chorva mollariga ozuqa tayyorlanadi. 1 tonna paxtadan 320-380 kg tola, 10-14 kg momiq, 10-12 kg o'luk va 600-640 kg chigit olinadi. Chigitdan esa, inson iste'mol qiladigan 100-120 kg yog', chorvaga 210-230 kg kunjara, 170-180 kg sheluxa chiqadi. Tolasidean esa 300 m mato, 8000 m polotno, 1200 m chit, 2000 m batist yoki 140000tagacha g'altak ip olish mumkin. Bundan tashqari, sovun, spirt, margarin, glitserin, moy mahsulotlari, limon va olma kislotalari, atir-upalar, selluloza, selofan, karton, qog'oz, glukoza, lakk, bo'yox, alif, dorivor preparatlar, oqsil, achitqi va boshqa narsalar tayyorlanadi. 1 t sheluxadan 85 l spirt, 20 kg karbon kislota, 20 kg sirka kislota, 3-4 kg yelim, 55 kg xamirturush olish mumkin.


13.1.1-jadval.

#### Respublikada paxta yetishtirish ko'rsatkichlari tahlili

Ko'rsatkichlar	1980 y.	1990 y.	2000 y.	2005 y.	2006 y.	2006-yilda 1980-yilga nisbatan, %
Ekin maydoni, ming ga	1877,1	1830,1	1444,5	1472,3	1447,5	77,1
Yalpi hosil, tonna	6237,1	5051,0	3002,0	3749,0	3600,0	57,7
Hosildorlik, s/ga	33,2	27,6	20,7	25,4	25,0	75,3

Respublika bo'yicha paxta yetishtiriladigan ekin maydonlari 1980-yilda 1877,1 ming hektar bo'lgan bo'lsa, 2006-yilga kelib 1447,5 ming hektar yoki 429,6 ming hektar yer qisqartirilib, don yetishtirishga ajratildi. Hosildorlik 33,2 s/ga o'rniغا 25,0 s/ga bermoqda. Shuning uchun yalpi mahsulot hajmi ham kamaygan. Paxta yetishtirish uchun sarf-xarajatlarning tarkibini quyidagi diagrammada ko'rib chiqamiz.

2006-yilda viloyatda paxta yetishtirish uchun sarf-xarajatlarning asosiy salmog'ini ish haqi 33,3 %, mineral o'g'it 20,3 %, MTP xizmati 16 %, yonilg'i-moylash materiallari 10,5 %ni tashkil etmoqda. Paxta hosildorligini oshirish uchun yerga ishlov berish, ta'minot va servis xizmat ko'rsatishni yaxshilash hamda agrotexnikani o'z muddatida sifatli olib borishdan iboratdir.



*1-rasm. Surxondaryo viloyatida 2006-yilda paxta yetishtirish uchun ketgan surf-xarajatlar.*

G'o'za ekini to'plagan organik moddaning 33 foizi paxta hosili, 24 foizi poya, 22 foizi barg, 12 foizi chanoq va 9 foizi ildizdan tashkil topgan. G'o'za Gossipium avlodiga, gulxayrisimonlar oilasiga mansub. Uning 35 turi ma'lum, shundan bizning mamlakatimizda 2 turi ekiladi; Gossipium xirzutum – o'rta tolali oddiy g'o'za; Gossipium barbadenze – ingichka tolali Peru g'o'zasi. G'o'za jahoning 83 davlatida ekiladi. Respublikamiz paxta yetishtirish bo'yicha jahonda 2 o'rinda, paxta sotish bo'yicha esa 7 o'rinda turadi.

***G'o'za 5 ta rivojlanish davrida quyidagi muddatlarni talab qiladi:***

1. Unib chiqish uchun – 8-12 kun.
2. Birinchi haqiqiy barg ko'rsatish uchun – 8-12 kun.
3. Shonalash uchun – 25-30 kun.
4. Gullash uchun – 25-28 kun.
5. Pishib yetilish, ya'ni ko'sakning ochilishi uchun 50-60 kun.

***Paxtaning vegetatsiya davri quyidagicha bo'ladi:***

- o'rta tolali oddiy paxta navlari uchun 125-150 kun;
- ingichka tolali paxta navlari uchun 145-150 kun.

G'o'za quyoshli yorug'likni yoqtiradi. Shunday bo'lganda, fotosintez yaxshi o'tadi. Yoki 1 soatda 1 m<sup>2</sup> barg yuzasida 1,46 g quruq modda hosil qiladi. Havo bulut bo'lganda esa assimilatsiya mahsuli juda kamayib, 0,0073 g ni tashkil qiladi. Shuning uchun g'o'za qalinligi me'yorida, begona o'tlardan holi bo'lishi va salqinda qolmasligi kerak.

G‘o‘za qurg‘oqchilikka ancha chidamli bo‘lib, suvni yoqtiradi. Transpiratsiya koefitsiyenti 600-1400 ga to‘g‘ri keladi. U transpiratsiyaga birinchi haqiqiy barg chiqarish davrida bir sutkada gektariga 10-12 m<sup>3</sup>, shonalashda 30-35 m<sup>3</sup>, gullash va pishish oldidan (iyul-avgust) 80-120 m<sup>3</sup> va pishish davrida 30-40 m<sup>3</sup> suv sarflaydi. Hamma vegetatsiya davrida esa o‘rtacha 5-6 ming m<sup>3</sup> suv sarflaydi.

Paxtaning Oqdaryo-6, Buxoro-6, Termiz-31, Namangan-77, Denov, Yulduz, S-6524 kabi navlari mayjud.

### **13.2. Don yetishtirish va uning agrotexnologiyasi**

Respublika mustaqil bo‘lgan kundan boshlab, hukumatimiz aholini ijtimoiy muhofaza qilishga asosiy e‘tiborni qaratdi. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish orqali un va un mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish asosiy yo‘nalish ekanligi belgilab olindi. Boshqoli don yetishtirish uchun maxsus sug‘oriladigan ekin maydonlari ajratilib, yuqori sifatli xorijiy davlatlar urug‘lari olib kelinib rasmiylashtirildi. Don ishlab chiqarish hajmi yildan yilga ortib, aholini don bilan ta‘minlashga erishildi. Hech qanday davlatdan don olinmasdan, balki eksport qilinmoqda. Respublikada don yetishtirish ko‘rsatkichlarini quyidagi jadvalda ko‘rib chiqamiz.


*13.2.1-jadval.*

#### **Respublikada don yetishtirish ko‘rsatkichlari.**

No	Ko‘rsatkichlar	2004 y.	2005 y.	2006 y.	2006-yilda 2004- yilga nisbatan %
1.	Don ekin maydoni, ming ga	1666,5	1616,1	1616,5	96,7
2.	Hosildorlik, s/ga	35,4	40,3	41,9	118,4
3.	Yalpi hosil, t	6017,1	6540,9	6639,0	110,3

2004-yilda 1666,5 ming hektar yerga don ekilgan bo‘lsa, 2006-yilga kelib 1616,5 ming hektarga yoki 3,3 foizga kam ekildi. Lekin hosildorlik 18,4 foizga ortishi bilan yalpi hosil 110,3 foizga oshdi.

Don yetishtirish, asosan, fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Fermer xo‘jaliklari yil boshida tayyolov tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida bug‘doy yetishtirib kelishmoqda. Fermerlar asosiy e‘tiborni g‘alla agrotexnikasiga qaratgan. O‘z vaqtida moddiy



**1-rasm. Fermer xo'jaliklari don yetishtirish ko'rsatkichlari**

resurslar bilan ta'minlab, servis xizmatlarini belgilangan muddatlarda o'tkazmoqda. Don yetishtirish bo'yicha tuzilgan shartnomadan ortiqchasi fermer xo'jaligi ixtiyorida qoldirilishi ham mahsulot hajmining ortishiga olib kelmoqda. Fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan don miqdori quyidagi diagrammada o'z aksini topgan.

Diagrammadan ma'lumki, 2004-2006-yillarda don yetishtirish hajmi 169,6 foizga, hosildorlik esa 7,7 sentnerga oshgan. Fermerlar sarf-xarajatlarni tejashga hamda ko'proq daromad olishga harakat qilmoqda.

Bug'doy asosiy oziq-ovqat ekini bo'lib, nonini jahondagi 70 foiz aholi iste'mol qiladi. Bug'doydan un, yorma, makaron, konditer mahsulotlari, spirit va boshqalar olinadi. Don chiqindilaridan chorva uchun mahsulot tayyorlanadi.

Don tarkibida 13,9-16, % oqsil, 77,4-79,8% uglevodlar, 2,0-2,1 % yog', 1,9% kul va 2,3-2,4% to'qima bor. Bug'doy somonida 0,22 ozuqa birligi mavjud.

**Jahonda bug'doyning 24 ta turi mavjud bo'lib, ulardan 2 turi ekiladi:**

- yumshoq bug'doy;
- qattiq bug'doy.

Yumshoq bug'doy kuzgi va bahorgi bo'ladi. Doni oq va qizil rangda. Qattiq bug'doy deyarli bahorgi hisoblanadi. Oq rangli bo'ladi.

Ekin maydonlarda yumshoq bug'doyning: Sanzar-4, Sanzar-8, Yonbosh, Marjon, Unumli bug'doy, Intensiv, Bezostoya -1, Spartanka, Skifyanka, Yuna: qattiq bug'doyning: Aleksandrovka, Marvarid, Baxt; Arpaning: Oykor, Bolg'ali, Zafar, Qarshi navlari ekib kelinmoqda.

Ularning qisqacha tavsifi quyidagicha:

«Sanzar-4» navi bo'lgan yumshoq bug'doy 1990-yilda respublikaning barcha sug'oriladigan yerlariga rayonlashtirilgan. Boshog'ining uzunligi 9-11 sm qizil, qiltiqli, doni qizil, 1000 dona donning vazni 41-45 g. O'simlikning bo'yi 95-110 sm bo'lib, yotib qolishlikka chidamli. Ertapishar, hosildorligi gektaridan 50-60 sentner, don sifati yaxshi.

Ekish muddati oktabrning birinchi o'n kunligi, ekish me'yori gektariga 4 mln. dona unuvchi urug' hisobiga belgilanadi. Nav sovuqqa chidamli bo'lib, erta bahorda eksa ham hosil beradi. Lekin kuzda ekilgan maydonlarda hosildorlik yuqori bo'ladi.

«Sanzar-8» navi kuzgi yumshoq bug'doy. Boshog'i oq, qiltiqli, doni oq. Sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli. Bu navni avgust oyining oxirida, cho'l hududlarida sentabr oyining boshida ekilsa ham, naychalab qo'maydi. Aksincha, hosildorligi yuqori bo'ladi. Bitta boshoqda 60 tadan 110 tagacha don bo'ladi. 1000 dona donning vazni 41-44 g. Doni tarkibida oqsil 14-14 %, kleykovina 29-32 %dan iborat. Sug'oriladigan yerdalarda hosildorligi gektaridan 60-75 sentner. Suvga, o'g'itga talabchan. Ekish me'yori erta ekilganda gektariga 3,0-3,5 mln. dona, oktabr oyida ekilganda esa 4,0-4,5 mln. dona. Nav noyob navlari ro'yxatiga kiritilgan.

«Intensiv» navi yumshoq bug'doy. Bu nav buhorgi bo'lgani uchun ekilsa, naychalab va boshqlab ketadi. Boshog'i qiltiqli, qizil rangda. Doni qizil, tuxumsimon. 1000 dona donining vazni 40-43 g. O'simlikning bo'yi 100-115 sm bo'lib, yotib qolishga moyil. Sifat jihatdan qimmatli bug'doy turiga mansub. Ekish muddati oktabrning ikkinchi o'n kunligi bo'lib, ekish me'yori gektariga 4 mln. dona.

«Bezestoya-1» kuzgi yumshoq bug'doy navi hisoblanadi. Uning boshog'i oq, qiltiqsiz. Doni qizil, o'rtacha kattalikda, 1000 dona donining og'irligi 40-44 g. Ekish muddati avgust oyining oxiridan boshlab, oktabrning birinchi o'n kunligigacha, sovuqqa chidamli va yotib qolmaydi. Hosildorligi gektaridan 50-60 s, sifat jihatdan kuchli bug'doy turiga mansub.

«Yonbosh» navi yumshoq kuzgi bug'doy. Boshog'i qizil, qiltiqli, uzunligi 9-11 sm 1000 dona donning og'irligi 41-43 g, doni ko'p to'kilmaydi. O'rtapishar, sovuqqa va kasalliklarga chidamli. O'simlikning bo'yi 105-115 sm, ekish me'yori kuzgi bo'lganligi uchun avgust oxiri, sentabrdagi gektariga 3,0-3,5 mln. dona, sentabr oxiri oktabrda 4,0-4,5 mln. dona.

«Marjon» kuzgi bug'doy, boshog'ining uzunligi 9-10 sm. Doni qizil va yirik. 1000 donasining og'irligi 46-49 g. O'rtapishar, sovuqqa chidamli. O'simlikning bo'yi 115-120 sm. Kasalliklarga bardoshli. Ekish muddati oktabrning birinchi o'n kunligi, hosildorligi gektaridan 65-70 s.

**Unumli bug'doy** biologik duvarak yumshoq bug'doy qimmataho navlar turiga kiradi. Qiltig'i uzun. Boshog'i yirik. 1000 dona donining og'irligi 39-41 g. Unnon sifati yaxshi. Oqsil miqdori 12,4%. Xom kleykovinasi 26,3%. O'rtapishar, quruqlig va kasalliklarga chidamli. Yuqori hosilli. Gektariga ekish me'yori 4-5 mln. dona. Oqilona ekish muddati oktabr oyining 2-dekadasi (o'n kunligi).

**«Makuz-3»\_navi** qattiq bug'doy duvarak. Qiltig'ining uzunligi 10-12 sm, tarvaqaylagan. Doni yirik. 1000 donasining og'irligi 48-54 g. Doni tarkibida 14-15,5% oqsil, 26-32% kleykovina mavjud. Yaltiroqligi 90% o'rtapishar. Sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamli. O'simlikning bo'yi 95-100 sm. Hosildorligi gektaridan 55-60 s, bahosi yumshoq bug'doyga nisbatan 1,5-2 barobar yuqori turadi. Ekish muddati oktabr oyi.

**Qattiq bug'doy Aleksandrovka** duvarak navi – boshog'i oq, tukli, doni yirik va zich, tishchasi qiltiqli, 1000 ta donining og'irligi 40-47 g, oqsil miqdori 13,0-13,9 %, xom kleykovinasi 22-32 %, yaltiroqligi 75 %, hosildorligi gektariga 55-60 s. tashkil etadi. Ekish me'yori gektariga 4,5-5 mln. dona, oktabr oyining birinchi o'n kunligida ekiladi.

**Qattiq bug'doy** – Baxt duvarak navi – boshog'i qiltiqli, doni oq, donidagi oqsil 15,1%, xom kleykovinasi 35,4%, yaltiroqligi 75-80%, yotib qolishga chidamli, 1000 donasining og'irligi 47,1 g. yuqori hosilli. Urug'ni ekish me'yori gektariga 4-5 mln. dona, ekishning qulay muddati oktabr oyining 10-20 kunlari hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizning sug'oriladigan maydonlarida Krasnodar seleksiyasining «Spartanka», «Skifyanka» va «Yuna» singari bug'doy navlari keng tarqalmoqda.

**Spartanka** navi. O'rtapishar. Poyasinining balandligi 80-85 sm.ni tashkil etadi. Yotib qolishga, boshqoq egilishiga va kasalliklarga chidamli, boshog'idagi donlarning to'kilishi kam kuzatiladi. Spartanka navi kuchli bug'doy sirasiga kirib, doni yirik va qizil, 1000 donasining og'irligi 39-41 g. suvga va o'g'itga o'ta talabchan.

**Skifyanka** navi. Bu nav Spartanka bug'doyidan yakka-yakka tanlash yo'li bilan yaratilgan. Yotib qolishga chidamli, boshqodagi donlar to'kilmaydi. Poyasi 80-90 sm, o'rtapishar. Mazkur nav bug'doyning kuchli turiga mansub. Shu sababli u non yopish talabiga yaxshi javob beradi. 1000 dora donning og'irligi 40-42 g. Rangi qizil. Suvga va o'g'itga talabchan. Kuzgi-qishki sovuqqa va qurg'oqchilikka shuningdek, kasalliklarga nisbatan chidamli.

*Iz. I-Jaaval.*  
Surxondaryo viloyat fermer xo'jligining yalpi mahsulot ko'rsatkichlari tahlili.  
(Mln. so'm)

**Yuna** navi biologik kuzgi. Bo‘yi 85-95 santimetr, o‘rtapishar, serhosil. Mazkur navning un-non yopish sifati yaxshi. U kuchli bug‘doylar sirasiga kiritilgan.

Respublikamizning Andijon, Namangan, Farg‘ona, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida intensiv va qattiq – «Spartanka», «Skifyanka», «Yuna», «Yonbosh», «Sanzar -8», «Marjon» singari bug‘doy navlarini ekish tavsiya etiladi.

Suv tanqis bo‘lgan hududlarda bug‘doyning «Intensiv», Sanzar-4, Sete-Serros 66, arpaning Qarshi, Bolg‘ali navlarini ekish maqsadga muvofiqdir.

**Arpa navlari.** Bolg‘ali duvarak arpa navi. 1996-yili sug‘oriladigan maydonlarga rayonlashtirildi. Doni o‘rtacha kattalikda, 1000 donasining og‘irligi 45,0 g. Nav ertapishar, yotib qolishga chidamli. Hosildorligi gektaridan 60-70 s.ni tashkil etadi.

**«Zafar» biologik bahor navi.** Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining sug‘oriladigan maydonlari uchun rayonlashtirilgan. Hosildorligi gektaridan 55-60 s. Doni yirik, 1000 donasining og‘irligi 48-54 g. Ertapishar bo‘lganidan takroriy ekin sifatida eksa bo‘ladi.

**«Qarshi» — arpa navi.** Sug‘oriladigan va shartli sug‘oriladigan maydonlarga rayonlashirilgan. Nav biologik bahorgi, hosildorligi gektaridan 45-50 s. Nav o‘rtapishar, qurg‘oqchilikka va issiqqa chidamli, ammo yotib qolishga moyil,sovuuqqa chidamsiz. Doni yirik, 1000 donasining og‘irligi 50-55 g.

**«Oykor» arpa navi,** sug‘oriladigan maydonlarga 1992-yildan boshlab rayonlashtirilgan. Mazkur nav biologik bahorgi duvarak (ham bahorda, ham kuzda ekish mumkin) sovuqqa va yotib qolishga chidamli.

Boshoqli don ekinlarining o‘sishi va rivojlanishi quyidagi davrlarga bo‘linadi:

**Unib chiqish davri.** Bug‘doy va arpa urug‘larining biologik xususiyatlari, tuproq harorati, unumdarligi, namligiga qarab unib chiqish davri 6-15 kunni tashkil etadi. G‘alla ekinlari unib chiqishi uchun, eng kam harorat  $6^{\circ}\text{C}$  bo‘lishi kerak. Bundan yuqori haroratda ularning unib chiqishi tezlashadi. Samarali harorat yig‘indisi ( $10^{\circ}\text{C}$  dan yuqori),  $150-160^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi. Bu davrda har gektar yerga  $200\text{ m}^3$  suv talab qilinadi. Unib chiqish davri, birinchi barg hosil bo‘lishi bilan tugallanadi.

**To‘plash davri.** Boshoqli don ekinlari to‘liq unib chiqqanidan 8-10 kundan so‘ng yer yuzasidan 3 sm chuqurlikda ildiz bo‘g‘izi hosil bo‘ladi va o‘sha yerdan chintomirlar va yon shoxchalar paydo bo‘ladi. Yon shoxchalar esa tuproq ustiga chiqib, tuplar hosil qiladi. Tuproqda harorat, namlik va ozuqa moddalari qanchalik ko‘p bo‘lsa, boshoqli don ekinlarining to‘plash darajasi shunchalik tezlashadi. To‘plash davrida boshoqli don ekinlarining vegetatsiyasini hisoblash nihoyatda mas‘uliyatli. Chunki, boshoqlarning soni ayni shu davrda shakllana boshlaydi. Bu davrda  $250-300^{\circ}\text{C}$  samarali harorat gektariga  $600-700\text{ m}^3$  suv talab qilinadi.

**Naychalash.** Bu bosqichda poyaning eng pastki qismi bo‘rtib, shish hosil bo‘lishi bilan belgilanadi. Bu shish tuproqning ustidan 3-5 sm balandlikda rivojlanib, o‘sish davri 12-15 kun davom etadi. Birinchi bo‘g‘in o‘sishdan to‘xtagach, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi va hokazo bo‘g‘inlar paydo bo‘ladi. Tuproqda namlik, harorat va ozuqa moddalar qancha yetarli bo‘lsa, naychalash davri shuncha tez o‘tadi. Poyaning o‘sishi g‘alla ekinlarining gullash davrigacha, ayrim navlarda donning shakllanishigacha davom etadi. Bu davrda g‘alla o‘simligi gektariga 600 m<sup>3</sup> suv, 400° C samarali harorat talab qiladi.

**Boshqlash.** Boshqqli don ekinlari naychalash davriga o‘tgandən so‘ng tezda poyadagi oxirgi barg qinidan tashqariga boshqoq chiqara boshlaydi. Shu paytdan boshlab, ularning boshqlash davri belgilanadi.

Bug‘doy boshqoq‘i boshqoq o‘zagidan va boshqchalardan iborat bo‘ladi. Har bir boshqocha qobig‘ida guldonlar joylashgan. Guldon bug‘doya 2-5 tani, arpada esa bittani tashkil etadi. Ko‘pchilik g‘alla ekinlari boshqoq‘idagi guldon qiltiqlar bilan tugaydi. Bu davrda 320° C foydali harorat va gektariga 800-900 kub.m suv talab etiladi. Shu tufayli bu davr eng mas’uliyatli hosil taqdirini hal qiladigan davr hisoblanadi.

**Gullash.** G‘alla ekinlarida gullash boshqoq paydo bo‘lgandan so‘ng 2-3 kun ichida sodir bo‘ladi. Arpada bu davr gullashdan 2-3 kun oldin ro‘y beradi. Bug‘doy va arpa o‘z-o‘zidan changlanuvchi ekin hisoblanadi. Qattiq bug‘doy bundan mustasno. Chunki qattiq bug‘doy ochiq gullaganligidan chetdan ham changlanishi mumkin. Bu davrda 235° C foydali harorat va gektariga 800 kub.m suv talab qilinadi.

**Pishish davri.** G‘alla ekinlarida pishish davri sut pishishi, mum pishish va to‘la pishishdan iboratdir. Bu uchala pishish davridan tashqari, urug‘lik don uchun fiziologik pishish davri ham mavjud. Yetilmagan urug‘ni ekish fiziologik jihatdan tavsiya etilmaydi. G‘alla ekinlari pishish davrida 662° C foydali harorat, gektariga 900 kub.m suv talab etiladi. Bu davrda o‘simlikni chanqatib qo‘yish hosildorligini 40-50% ga pasayishiga olib keladi.

Bug‘doy va arpa o‘simliklari pishib yetilishi uchun 2340-2350° C foydali harorat talab etiladi. Suv miqdori 40-45 s/ga hosil uchun gektariga 3800-4000 m<sup>3</sup>, 50-60 s va undan yuqori hosildorlikka 4500-5000 m<sup>3</sup> tashkil etishi kerak.

Urug‘lik sifati va uni ekishga tayyorlashda eng avval urug‘lik uchun ajratilgan va maxsus urug‘lik texnologiyasiga rioya qilib o‘stirilgan dalalardan urug‘ olish kerak.

G‘alla ekinlari urug‘i sifatini belgilashda urug‘ining tozaligi, unuvchanligi, namligi, 1000 donasining og‘irligi va boshqalar hisobga olinadi. Davlat andazasiga asosan, g‘alla urug‘i uch sinfga bo‘linadi.

## **G‘alla ekinlari urug‘ining sifat ko‘rsatkichlari.**

Tayyorlangan urug‘lik davlat inspeksiyasi nazoratidan o‘tadi, agar o‘tmasa urug‘ni ekish qat‘iy man etiladi. Qorakuya, zang va hokazo kasalliklarga chalinmasligi uchun urug‘ ekishdan avval kimyoviy preparatlar bilan mutaxassislar yordamida dorilanishi shart.

Ekiladigan urug‘ konditsiyaga yetkazilgan bo‘lishi, rayon urug‘chilik inspeksiyasidan urug‘ sifatini tasdiqlovchi guvohnoma, urug‘lik maydonining aprobatsiyasidan o‘tganligi to‘g‘risidagi hujjatga ega bo‘lishi zarur.

G‘alla ekinlarini ekishda, asosan, SZ-3,6 seyalkasi ishlatalidi. Seyalkani ekish me’yoriga moslash quyidagicha amalga oshiriladi. Seyalkaning g‘ildiraklari 7,3 marta aylantirilganda seyalka  $100\text{ m}^2$  yerga urug‘ tashlashi hisoblanadi. Lekin seyalkaning ikki tomonini domkrat bilan ko‘tarish biroz qiyinroq bo‘lganligi uchun seyalkaning bir tomoni domkrat bilan ko‘tarilib, g‘ildirakning necha marta aylanishini bilish uchun belgi qo‘yib 14,6 marta aylantiriladi. Shu vaqtida masalan, bunkerga solingan urug‘dan 2,5 kg tushsa, gektariga 150 kg urug‘ ekilgan hisoblanadi. Bordi-yu ekish me’yori 200 kg bo‘lsa, g‘ildirak 14,6 marta aylanganda urug‘ 2,0 kg bo‘lishi kerakligini hisobga olgan holda, seyalkani moslash kerak. Richag va g‘ildirakni harakat keltiruvchi shesternalarni almashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

***Yerni ekishga tayerlash.*** Kuzgi g‘alla ekinlari bir kartaga ikki yildan ortiq ekilmaydi. Begona o‘tlar bilan qattiq ifloslangan eki qorakuya kasali tarqalgan maydonlarga ham ikkinchi yili ekilishi mumkin emas. G‘allani paxta, beda, ozuqa, sabzavot ekinlari va kartoshkadan keyin ekish yaxshi natija beradi. Ekinlar tuzilmasida g‘alla ekinlari salmog‘i oshganligi tufayli, paxta-g‘alla-beda almashlab ekishning, paxta 40-50 %, g‘alla 20-30 %, beda 15-20 % bo‘lishi zarur.

***Kuzgi nam to‘plash.*** Kuzgi nam to‘plash birinchidan shudgorlash, tuproqqa ekish oldindan ishlov berish va ekish sifatini yaxshilasa, ikkinchi tomondan urug‘likning bir tekis va tezda unib chiqishiga imkon beradi. Sug‘orib, so‘ngra tuproqqa ishlov berilgan maydonlarda g‘alla urug‘i qisqa muddatda to‘liq unib chiqadi, kuzning iliq haroratidan, tuproqdagi namlik va ozuqa moddalardan unumli foydalaniladi, to‘liq to‘plash fazasini o‘taydi.

Bu maydonlarda urug‘lik faqatgina sug‘organdan so‘ng yoki yog‘in-sochin bo‘lgandan keyingina unib chiqqa boshlaydi.

Nam to‘plash uchun katta miqdordagi suv bilan qisqa o‘qariqlar olinib, bostirilib sug‘orilish talab qilinadi. Sug‘orish me’yori gektariga 350-400 kubometr.

O‘rtacha sho‘rlangan maydonlarga kuzgi g‘alla ekiladigan bo‘lsa (Buxoro, Xorazm, Qoraqalpog‘iston Respublikasi), sho‘r yuvish uchun yerlar haydaladi, so‘ngra PR-0,5 rusumli chek olish mexanizmi bilan tekis joyda 0,25 ga,

nishabroq joylarda esa 0,10 ga kattalikda cheklar olinadi. Bunday cheklarda tuproq gektariga 1,5-1,8 ming kubometr suv sarfi bilan yuvilishi kerak. Sho'r yuvilgandan so'ng, yer yetilishi bilan cheklar tekislangach, har gektariga 20-30 tonnadan go'ng, 300-400 kg. dan ammofos solib, borona tirkalgan chizel bilan ishlov beriladi. Tuprog'i kuchli darajada sho'rangan yerlarda sho'rni to'liq yuvish imkoniyati bo'limganligi sababli g'alla ekish tavsiya etilmaydi.

***Yerni tekislash.*** Paxta, beda, makkajo'xori ekilgan yerlar tekis bo'lganligidan, bu yarlarni tekislashda zanjirli traktorlarga o'rnatilgan GN-4 yoki g'ildirakli traktorga tirkaladigan GN-2,8 rusumli mexanizmlar bilan ish olib boriladi. Bu tadbirlar kuzgi nam to'plash uchun sug'orilgandan so'ng amalga oshirilishi lozim.

Tekislangan yerlar chimqirqarli pluglar bilan 22-25 sm chuqurlikda haydalishi lozim. Buning uchun PVR-3,5, PVR-2,3 moslamali Q-5-35 va PLN-6-35 markali ish unumi ancha yuqori bo'lgan bilan, og'ir mexanik tarkibli, begona o't bosgan dalalarni esa ikki yarusli PYA-3-35 rusumli pluglar bilan 27-30 sm chuqurlikda haydash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan birga, ba'zi qator oralariga ishlov berilgan o'tmishdosh ekinlar (paxta, makkajo'xori, sabzavot va boshqalar)dan so'ng tuproqning namligiga qarab, asosiy haydashni CHKU-4 KRXU-4 paxta kultivatorlari bilan yoki og'ir vaznli BDT-3 diskali boronalar bilan o'tkazish ham mumkin. Bunda ish unumi ancha yuqori bo'ladi, g'allani maqbul muddatlarda ekishga imkon tug'iladi. Ekish oldidan haydalgan, o'g'itlangan ochiq maydonlarga CHKU-4 markali chizel kultivator, so'ngra mola bilan ikki yo'nalishda ishlov beriladi.

Don ekishda tayyorlangan maydon fosforli o'g'itlar bilan o'g'itlanib, so'ngra S3-3,6 markali g'alla ekish seyalkasi bilan bir tomonlama suv yo'nalishiga qarab ekiladi. Ikki tomonlama ekish yaxshi natija bermaydi. Ekip bo'lingan maydonda GX-4 eki KXU-4 markali jo'yak oluvchi va kultivator yordamida sug'orish jo'yaklari olinadi.

Nam yetarli maydonlarda ekishning maqbul chuqurligi 3-4 sm, tuprog'i yengil, qumoq, namlik tezda so'rilib qoladigan tuproqlarda, ayniqsa, cho'l tumanlarda ekish chuqurligi 4-5 sm qilib belgilanadi.

O'sib turgan g'o'za qatori orasiga kuzgi g'alla ekish texnologiyasi bo'yicha g'o'zapoyadan tozalangan maydonlarni haydab, tekislab g'alla 10-15 oktabrgacha ekilsa, hosili mo'ljaldagi gektaridan 50-60 s tashkil qiladi.

O'sib turgan qator orasiga g'alla ekish texnologiyasi quyidagicha: g'o'za qatori orasiga g'alla ekiladigan maydonlar avvaldan aniqlanib, bunday dalalarga g'o'zaning ertapishar navlarini ekish lozim, barcha agrotexnik chora-tadbirlar (sug'orish, oziqlantirish, defoliatsiya va boshqalar) paxtaning ertaroq pishib

yetilib, hosilni tezroq yig'ib olinishiga qaratilishi lozim. Paxta oktabrning birinchi yarmigacha bo'lgan muddatda mashina yordamida 2 marta terib olingandan keyin podbordan tozalanadi, shundan so'ng g'o'za qator orasiga ekiladi.

G'o'za qator orasiga g'alla ekish agregati T28x4 yoki MTZ-80 traktoriga tirkaladigan paxta kultivatori (KRX-4) ustiga o'rnatilgan S3-3,6 markali don seyalkasining urug' va o'g'it soladigan qutisidan iborat. Bunda qator oralig'iga kultivator ishchi organlari (KKO ishchi organlar) yordamida tuproq yumshatilib, bir paytning o'zida g'alla ekinlari urug'i ekib boriladi. Urug'ni ekish chiqurligi 3-4 sm. ekishdan keyin yogurtirib sug'oriladi. Nam tuproq qatlami 50-60 sm gacha yetishi zarur.

Boshoqli don ekinlaridan gektariga 50-60 s hosil yetishtirish uchun gektariga 25-30 tonna chirigan go'ng, sof ozuqa modda hisobida 160-180 kg azot, 90 kg fosfor, 60 kg kaliyli o'g'itlar berilishi zarur. Mahalliy, fosforli va kaliyli o'g'itlar ekin ekish oldidan berilishi lozim. Kuzda ekish oldidan yoki ekish bilan birga, tuproq unumdarligiga qarab, 25-30 kg azotli (sof holda) o'g'itlar berilishi zarur. Ekish oldidan ishlovlardagi ammosof o'g'iti yoki go'ng berilgan dala larga kuzda azotli o'g'itlar solinmaydi. Azotli o'g'itlarning qolgan qismi (135-150 kg) bahorda tabaqalashtirilgan holda gektariga 65-75 kg dan beriladi. Birinchi azotli oziqlantirish o'simlikning qishdan chiqishi bilan toplash davrida (fevral-mart), ikkinchi oziqlantirish boshoqli don ekinlarning naychalash davrida (mart-aprel) o'tkaziladi. Tuprog'i chirindi va ozuqa moddalarga boy bo'lgan yoki beda va boshqa dukkakli don ekinlaridan so'ng ekilgan g'alla maydonlarni o'g'itlashda yuqorida ko'rsatilgan o'g'itlarning yillik me'yori 10-15% ga kamaytirilishi mumkin. Aksincha, tuprog'i unumsiz va sho'ri yuvilgan yerlarda bu ko'rsatkichlar 15-20% oshirilishi zarur. Shuni unutmaslik kerakki, azotli o'g'itlarning me'yordan ortiq berilishi g'alla o'simligining haddan tashqari g'ovlab ketishiga olib keladi. Bu holatda o'simlikning yoppasiga yotib qolishi natijasida hosil kamayadi.

### **13.3. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil etish**

Respublikada chorvachilikni rivojlantirish uchun tuproq, iqlim sharoitlari, unumdar sug'oriladigan yerlar, bepoyon qir-adirlar, dasht-cho'l va tog' oldi yaylovlari mavjud. Sug'oriladigan yerlarda asosan, qoramolchilik, parrandachilik, pillachilik, asalarichilik, qo'ychilik va suv havzalarida baliqchilik rivojlangan.

Chorvachilik xalq iste'mol mollari tayyorlab beruvchi soha bo'lib, aholi uchun yuqori kaloriyalı oziq-ovqat (sut-go'sht, yog', pishloq, v. b.) yetkazib

beradi. Insonning yashashi uchun zarur bo'lgan sutkalik ovqatning 30 %dan ortig'i va ozuqa resurslaridagi oqsilning 60 %dan ortig'i chorva mahsulotlari zimmasiga to'g'ri keladi.

Chorvachilik yengil va oziq-ovqat sanoatini xomashyo bilan (jun, teri, go'sht, sut, yog', qorako'l teri va b.) ta'minlab kelmoqda.

Respublikada mulkchilik munosabatlari shakllanib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishning turli usullari qo'llanilmoqda. Ayniqsa, chorvachilikni fermer xo'jaliklari asosida rivojlantirish har tomonlama o'z samarasini bermoqda. 2004-yilda respublika bo'yicha yirik shoxli qoramollar soni 6232,6 ming bosh, qo'y va echkilar - 10560,3, cho'chqa - 83,8 va parranda 18726,9 ming boshni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2003-yilga nisbatan o'sganligini ko'rsatmoqda. Respublika qishloq xo'jaliklarida mavjud mollarning soni va uning o'sish dinamikasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Tahlillardan ma'lumki, 2000-2005- yillarda yirik shoxli qoramollar soni - 122,1 foizga, qo'y va echkilar 112,8 foizga, parranda esa - 142,4 foizga oshdi. Chunki chorvachilikka berilgan imkoniyatlar, huquqiy asoslar va davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar asosida shu soha rivojlantirilmoqda. Ayniqsa, dehqon xo'jaligining hissasi yuqori bo'lmoqda. Qishloq xo'jaiklariga berilayotgan davlat e'tibori chorvachilikni rivojlantirishga katta imkoniyat tug'dirmoqda.

Barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning chorvachilikdagi hissasi va mahsulot yetishtirishdagi ulushi yildan yilga o'zgarib, asosan dehqon va fermer xo'jaliklarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi ortib bormoqda. Asosan, dehqon xo'jaliklarida chorva bosh soni va undan olingen mahsulot hajmi yuqoriligini hisobga olib, ularga barcha sharoitlarni, avvalo, moddiy ta'minot, servis xizmatlari, zooveterinariya, naslchilik va pul-kredit baho mexanizmlarini soddalashtirib, uni ishlab chiqarishga tezkor joriy qilishni ta'minlashdan iborat.

Chorvachilikni rivojlantirishning asosiy manbayi yem-hashak bazasini yaratishdan iboratdir. Yem-xashak ekinlari maydoni respublika jami qishloq xo'jalik ekinlarining 7,7 %ni tashkil etadi. Bu yergalarga beda, makkajo'xori, ozuqbop lavlagi ekiladi. Respublika bo'yicha har yili 10 mln.t pichan va silos tayyorlanadi. Yog'-moy sanoat korxonalaridan kunjara, sheluxa, aralash yem ishlab chiqarilib beriladi. Chorvachilikda, asosan, dag'al, shirali va konsentrat ozuqlar hisobiga chorvachilik rivojlantiriladi. O'zbekiston sharoitida ushbu ozuqa turlari mavjud va uning to'yimlilik protein miqdori yetarli darajada ta'minlangan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida chorva uchun yem-hashak bazasini yaratish, ekin maydonlarida yem-xashak beradigan ekinlar hissasini oshirish, har bir hektar yerdan olinadigan ozuqa miqdorini

**Barcha mulk shakllari bo'yicha qoramol va  
parrandalar, ming bosh**

	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.	2004 yilda 2000 yilga nisbatan, %
Yirik shoxli qoramol	5353,4	5416,1	5477,6	5878,8	6232	6534,8	122,1
Qo'y va echkilar	85,8	81,6	75,4	89,9	83,8	112,8	131,5
Cho'chqa	8932,5	9022,6	9233,9	9928,6	10560,3	87,6	98,1
Parrandalar	14510	14828,7	15354,9	17675,7	18726,9	20670,5	142,4

ko'paytirish, uning sifatini oshirish, tannarxini kamaytirish, isrofgarchilikni tejab, yetarli darajasida ozuqa ekinlar sifatlari urug'ini tayyorlash, ozuqa to'yimliligini ta'minlab, ular tarkibidagi moddalar hissasini oshirish ko'zda tutiladi. Chorva mollarini ozuqa bo'yicha 1 kg ozuqa birlig qilib shartli qoramollar uchun yil davomida 25-35 s ozuqa birligi hisobida boqiladi. Agar ozuqa yetarli bo'lmasa, fermerlar ishi samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun chorva mollar uchun zarur ekin sifatida makkajo'xori asosiy o'rinnegallab, uning ozuqa birligi 1 kg arpaga nisbatan 13,5% ko'p bo'lib, 1,34 ozuqa birligiga teng. 1 kg kepak tarkibida 0,35 - 0,4, lavlagi tarkibida 0,26, somonda 0,23, ko'k bedada 0,17, pichanda 0,47, qizil sebagada 0,52 ozuqa birligi bor.

Ozuqa birligi asosida chorvani boqish natijasida yuqori mahsuldarlikka erishish mumkin. Chorva mollar yem-xashagiga har xil moddalar qo'shilib ham mahsuldarlikni oshirish mumkin. Yem-xashakka qo'shilgan 1 tonna karbalit qo'shimcha 10 tonna sut, 500 kg go'sht beradi va 2,5 tonna tabiiy oqsil o'rnini qoplaydi.

O'zbekiston Respublikasining 1998-yilda qabul qilingan «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq chorvachilik malisulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligiga kamida 30 shartli bosh chorva mollar, har bir shartli qoramol va otlar uchun - 1,0, yosh qoramollar uchun 0,6, qo'y-echkilar uchun 0,1, cho'chqalar uchun 0,3, parranda uchun 0,025 hektar, fermer xo'jaliklariga beriladigan yer uchastkalarining eng

kam o‘lchami bir shartli bosh chorva molga kamida 0,30-0,45 hektar, sug‘orilmaydigan namlik kam yerlarda kamida 2 hektarni tashkil etadi.

### 13.3.2-jadval

#### Barcha xo‘jalik shakllari bo‘yicha chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Xo‘jalik shaklli	Qo‘shuv birig‘i	2003					2005				
		Barcha mulli shakllarda	Qisloq xo‘jalik korxonalarida	Fermer	Dekonstituent	Barcha mulli shakllarda	Qisloq xo‘jalik korxonalarida	Fermer	Dekonstituent		
Qoramol va parranda	Ming t	936,7	40,0	18,7	878,0	1060,4	21,0	22,6	1001,3		
Sut	Ming t	4031,1	81,9	83,5	3865, 7	4554,7	50,3	94,8	4409,1		
Tuxum	Ming dona	1632,4	699,1	60,2	873,1	1966,4	729,3	71,5	1165,6		
Jun	Ming t	17,8	3,9	0,3	13,6	20,1	3,5	0,6	16,0		
Qorako‘l	Ming dona	690,8	401,9	14,3	247,6	675,2	259,9	24,8	390,5		
Pilla	Ming t	16,7	14,9	1,8	x	16,2	9,3	6,9	-		

Chorvachilikni rivojlantirish uchun iqtisodiy qonunlar qabul qilinishiga, nodavlat sektorini, mulkdorlar sifining yanada ko‘payishiga va mahsulot hajmining ortishiga e’tibor qaratilmoqda. Chorvachilik tadbirkorlarini qo‘llab-quvvatlash yo‘lida past foizli kredit berish, chet el investitsiyasini kiritish, ikki yilgacha soliq olmaslik kabi chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Qoramolchilik asosiy tarmoq bo‘lib, aholiga go‘sht, sut, yog‘, pishloq, qatiq, suzma mahsulotlari yetkazib beradi. Inson normal rivojlanishi uchun yiliga 405 kg sut mahsulotlari, shu jumladan, 128 l. sut, 18 kg yog‘i olingan sut, 9,1 kg suzma, 6,6 kg pishloq, 6,6 kg qaymoq va 5,5 kg saryog‘ iste’mol qilish kerak. Jon boshiga 82 kg go‘sht, 36 kg mol go‘shti iste’mol qilinishi lozim.

Bir qoramoldan 1 yilda 5-9 t sut olish mumkin. O‘rtacha bir sigirdan sutkasiga 25-40 kg sut sog‘ib olish mumkin. Chorvachilikdagi yetishtiriladigan go‘shtning 43 %‘i, sutning 98,5 %‘i qoramoldan olinadi.

**Respublikada 120 ta qorako‘Ichilikka** ixtisoslangan xo‘jalik bo‘lib, 18 tasi naslchilik zavodlari, 9 tasi naslchilik xo‘jaliklaridir. Naslchilik zavodlari turli rangdagi qo‘ylarni ko‘paytirish va qorako‘l teri yetishtirishni yo‘lga qo‘ymoqda. Qo‘ylarning go‘shtdor-serjun qo‘y zoti yarim mayin jun va go‘shti uchun boqiladi.

**Qo‘ychilikdan** jun, teri, qorako‘l teri olinadi. Qo‘yning asosiy mahsuloti jundir. Shuning uchun junning 98 %‘i qo‘ychilikka to‘g‘ri keladi. Tivitli va yarim tivitli qo‘y juni yengil sanoat uchun eng qimmatbaho xomashyodir. Qorako‘l terisidan eng qimmatbaho palto, po‘stin va boshqalar tayyorlanadi.

**Parrandadan** tuxum va go‘sht olinadi. Parrandachilik paridan yostiq va ko‘rpa tayyorlanadi. Tuxum eng kaloriyalı mahsulot bo‘lib, uning tarkibida oqsil, vitamin, moylar mavjud. Parranda tez ko‘payuvchi bo‘lib, 6-7 oydan so‘ng tuxum bera boshlaydi. Bir tovuqdan 1 yilda 300 ta tuxum olish mumkin.

**Pilla** chilikdan qimmatbaho ipak tolasi olinadi. Mustaqillikdan keyin pilla yetishtirish davlat buyurtmasidan chiqarilib, uni sotish erkin kelishilgan narxlarda olib boriladi. Har yili 30 ming tonna atrofida pilla yetishtiriladi.

**Baliqchilik** bilan suv havzalarida shug‘ullanib kelingan. Respublika ko‘l suvlarida 62 xil baliq turi yashaydi. Hozir «O‘zbaliq» korxonasi tizimida 8 birlashma, 7 kombinat, 10 baliqchilik xo‘jaligi va Chinoz baliq aralash yem ishlab chiqish korxonasi va ulgurji savdo omborlari mavjud.

Korporatsiya tizimidagi xo‘jaliklarda 12 ming ga sun‘iy ko‘l va hovuzlar bo‘lib, ularda yiliga 104 mln. dona baliq sovoqlari va 22 ming t baliq mahsulotlari yetishtirish imkoniyatiga ega.

**Asalarichilikda**, asosan, qimmatbaho asal, asalari mumi, propolis (asalari yelimi) asalari suti, zahari olinadi. O‘zbekistonda 48 asalarichilik xo‘jaligi mavjud. «Asal» ishlab chiqarish uyushmasi tarkibida 22 asalarichilik xo‘jaligi (88 ming asalari oilasi) mavjud. Respublika bo‘yicha

154 ming asalari oilasi (qutisi) bor. Asalarichilik bilan 20-50 (90%), yoki 50-150 (10%) quti asalari bo‘lgan xususiy asalarichilar ham shug‘ullanadi. Asal 2 marta may-iyun (bahorgi) va avgust-sentabr (yozgi) oylarida olinadi.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash ham o‘simlikchilik mahsulotlarini yetishtirish kabi natural va pul ko‘rinishidagi ko‘rsatkichlardan iborat. Chorvachilik mahsulotlari samaradorligi asosan, pul ko‘rinishida hisoblanadi.

Yalpi mahsulot qiymati, yalpi daromad va foydani ishlovchiga 7 odam-soatiga, 1 shartli qoramolga 100 so‘m, asosiy ishlab chiqarish fondlariga nisbati bilan; ishlab chiqarish xarajatlarni 1 so‘m mahsulot bahosiga; rentabellik darajasi; foyda.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish davomida uning samaradorligiga baho berish natural ko‘rsatkichlar bilan amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligidagi hayvonlarning mahsuldarligi yalpi mahsulot yetishtirish natura va pul ko‘rinishida hisoblanib, ular ishlovchiga, odam-soatiga va bir bosh qoramolga qarab, ishlab chiqarish xarajatlari summasining bir bosh qoramolga, 1 s mahsulotga, 1 so‘m yalpi mahsulotga, 1 s mahsulotning sotish bahosi foydaning bir bosh qoramolga, 1 s mahsulotga to‘g‘ri keladi. Mahsulot yetishtirish rentabelligi bilan xarakterlanadi.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va uni zooveterinariya qoidalari asosida boqish jarayonida quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar aniqlanadi (podaning nasli, tarkibi, tipi, normativi, ovqatlantirish, ratsion va h.k.). Qoramol mahsuldarligi hamma mehnat unumdarligi, bir boshga ishlab chiqarish xarajatlari, qo‘shimcha xarajatlarni qoplash, mahsulot tannarxi, fond va rentabellik ko‘rsatkichlaridir.

### ***Qisqacha xulosalar***

*Qishloq xo‘jaligi xalq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i bo‘lib, aholini oziq-ovqat, sanoatni xomashyo bilan ta minlab beradi. Qishloq xo‘jalik tarkibini o‘simlikchilik va chorvachilik tashkil etadi. O‘simlikchilik tarkibiga paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik, polizchilik, sholichilik va hokazolar kirib, chorvachilikka qoramolchilik, qo‘ychilik, cho‘chqachilik, parrandachilik, pillachiliklardan iborat. Bozor iqtisodiyoti sharoitida dehqonchilikni rivojlantirishning ilg‘or texnologiyalari*

*amaliyotga kirib kelib, keng sinovdan o'tmoqda. Istiqbolli texnologiyalar tovar ishlab chiqaruvchi subyektlar tomonidan keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, yangi tuzilgan fermer xo'jaliklari uchun dehqonchilik tarmoqlarida ekinlarni parvarishlash texnologiyalarini bilish zarur. Shu munosabat bilan paxta, g'alla va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish usullari berilgan bo'lib, undan samarali foydalanish yo'li bilan yuqori natijaga erishish mumkin.*

### *Nazorat va muhokama uchun savollar*

1. Xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining tutgan o'rni?
2. Paxtachilik texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Don yetishtirishning zaruriyati nimada?
4. Bug'doy yetishtirishda texnologik kartaning ahamiyati.
5. Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishdagi ilg'or ishlab chiqaruvchi subyektlarni aytинг?

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Rasmiy hujjatlar**

#### **1.1. Qonunlar**

1. O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonuni. 1993-yil, 2-sentabr.

2. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1998-yil, 19-sentabr.

3. O'zbekiston Respublikasining «Mulk to'g'risida»gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun va farmonlari. -T.: «Sharq», 1998.

4. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»gi Qonuni, // «Xalq so'zi» gazetasi, 1998-yil, 30-aprel.

5. O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi» va boshqa qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari («Yer kodeksi», «Shirkat xo'jaligi», «Fermer xo'jaligi», «Dehqon xo'jaligi», «Yer kadastri» to'g'risidagi Qonunlar). -T.: «Adolat» 1999. 446 b.

6. O'zbekiston Respublikasining «Lizing to'g'risida»gi Qonuni. -T.: 1999-yil, 14-aprel.

7. O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi». -T.: «Sharq» 1998.

#### **1.2. Prezident Farmonlari va qarorlari**

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi Farmoni. -T.: // «Xalq so'zi» gazetasi. 1998-yil, 10-oktabr.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni, -T.: // «Xalq so'zi» gazetasi. 2003-yil, 25 mart.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2006- yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Konsepsiysi to'g'risida»gi Farmoni. 2003-yil, 27-oktabr.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. // «Xalq so'zi» gazetasi. 2006-yil, 10-yanvar. 2-son.

#### **1.3. Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mashina-traktor parklarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash ularning xizmatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 106-sonli Qarori. 1998-yil, 10 mart.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligida agrokimyo xizmati ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 63-sonli Qarori. 2001-yil, 1-fevral.

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2004-2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 476сонли Qarori. 2003-yil, 30-oktabr.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2005-2007- yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 607сонли Qarori. 2004-yil, 24-dekabr.

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2005-2007- yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish to'g'risida»gi 607сонли Qarori. -T.: // «Xalq so'zi» gazetasi. 2004-yil, 24-dekabr.

## **II. Maxsus adabiyotlar**

### **2.1. I.A.Karimov asarlari**

17. Karimov I. A. Dehqonchilik – taraqqiyot va farovonlik manbayi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasasi yig'ilishida so'zlagan nutqi. -T: «O'zbekiston», 1994-yil, 18-fevral. 23 b.

18. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llari. -T.: «O'zbekiston», 1995. 71 b.

19. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: «O'zbekiston», 1998 y.

20. Karimov I. A. «Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbayi». -T.: «O'zbekiston», 1998.

21. Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruba. // «Xalq so'zi» gazetasi. 2005-yil, 29-yanvar.

### **2.2. Kitob va turkum nashrlar**

22. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. «Qishloq xo'jaligi iqtisodi». -T.: «TDIU», 2004.

23. Atabayeva X. va boshqalar. O'simlikshunoslik. -T.: 2000.

24. Герчикова Н. И. Менежмент, Москва, 1995.

25. Dehqon va fermer xo'jaliklarida shartnomaga munosabatlari. -T.: «Sharq», 2002, 47 b.

26. Dehqon va fermer xo'jaliklarida sug'urta tizimi. -T.: «Sharq», 2002, 316 b.

27. Емелянов А. М. Экономика сельского хозяйства. Москва. 1982, 550 с.

28. Ishmuhamedov A. E., Askarova M. T. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti (O'quv qo'llanma) -T.: «TDIU». 2004, 256 b.

29. Коваленко Я. Н. «Экономика сельского хозяйства». Москва. ЭКСИМЕС, 1998.

30. Nosirov P., Abdullayeva Sh. Marketing – bozor iqtisodiyoti asoslari. –T.: «O‘zbekiston» 1994, 230 b.
31. Маркетинг. Под редакции Р. Романова (учебник). Москва: «Прогресс», 1996.
32. Marketing. –T.: «O‘qituvchi», 1997, 167 b.
33. Olimjonov O. va boshqalar. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. –T.: «O‘zbekiston», 2005, 212 b.
34. Parpiyev U., Salomov I. Bozor iqtisodiyoti asoslari va ishlab chiqarishni tashkil etish. –T.: «Sharq», 1996, 219 b.
35. Ramazonov O., Yusupbekov O. Tuproqshunoslik va dehqonchilik. –T.: «Sharq», 2003, 270 b.
36. Rahimboyev F., Hamidov M. Qishloq xo‘jalik melioratsiyasi. -T.: «O‘zbekiston», 1996.
37. Salimov B. T. va boshqalar. «Fermer va dehqon xo‘jaliklari iqtisodi». –T.: «TDIU», 2004, 142 b.
38. Сельскохозяйственные рынки. Москва. 2000 г.
39. Sultonov A.S. va boshqalar. Sug‘oriladigan yerlar suv xo‘jaligi ekonomikasi. -T.: «Mehnat», 1999.
40. Тошбоев А. Ж. Повышение эффективности агрохимического обслуживания в хлопкосеющих хозяйствах. –T.: «Мехнат», 1991, 154 с.
41. Toshboyev A. J. Tarmoq iqtisodi va menejment. Uslubiy qo‘llanma. –T.: «TIQXMII», 2000.
42. Umurzoqov O‘. P., Toshboyev A. J. va boshqalar. Fermer xo‘jaligini tashkil etishning huquqiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish asoslari. –T.: «TIQXMII», 2004, 141 b.
43. Umurzoqov O‘.P., Sultonov A.S., Toshboyev A.J. «Biznes-reja» fanidan biznes-rejani tuzish bo‘yicha tavsiyanoma. -T.: «TIQXMMI», 1999, 27 b.
44. Farmonov T. X. Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. –T.: «Yangi avlod», 2004, 143 b.
45. Frank Kartmann va boshqalar. Fermer va dehqonlarning huquqiy alifbosi. -T.: «Mehnat», 2003, 127 b.
46. Koltayev X.T., Jo‘rayev A.M. va boshqalar. Qayta tashkil etilayotgan qishloq xo‘jalik korxonalari negizida fermer xo‘jaliklari barpo etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. -T.: 2002, 67 b.
47. Husanov R. H., Hamdamov A. N., Rafiqov I. E. Qishloq xo‘jaligida servis xizmati muqobil mashina-traktor parklarini rivojlantirish masalalari. –T.: «Yangi asr avlod», 2001. 124 b.
48. Xushmatov N. S. G‘o‘za seleksion navlari iqtisodiy samaradorligini baholashning iqtisodiy uslubiy asoslari. –T.: «Yangi asr avlod», 2004, 122 b.
49. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: «Ijod dunyosi», 2004. 318 b.

50. G'ulomov S. S. Menejment asoslari, -T.: 1997.
51. «O'zbekiston iqtisodiyoti» jurnalni. 2004-2006 yillar.
52. «O'zbekiston qishloq xo'jaligi» jurnalni. 2002-2006 yillar.

### **III. Hisobotlar va statistik ma'lumotlar**

53. O'zbekiston Respublikasining 2004-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'satichklari. -T.: 2004.
54. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari. 2002-2006 yillar.
55. O'zbekiston Respublikasi Fermer xo'jaliklari uyushmasi ma'lumotlari. 1998-2006 yillar.
56. Surxondaryo viloyati Qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi va uning tizimidagi korxona va tashkilotlar yillik hisobotlari. 2000-2006 yillar.

### **IV. Internet saytlari**

57. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti. [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz) <<http://www.tsue.uz>>
58. [www.uhh.hawaii.edu](http://www.uhh.hawaii.edu) University of Hawaii at Hilo - Agroecology and Environmental Quality Program.
59. Mardonova A. T., Is'hoqova S. A. Agrar sohada mulkiy munosabatlarni ro'yobga chiqarishning dolzarb uslublari. [www.ski.ilm.uz](http://www.ski.ilm.uz) <<http://www.ski.ilm.uz>>
60. Саратовская сельскохозяйственная академия. [www.tstu.ru](http://www.tstu.ru) <<http://www.tstu.ru>>
61. Развож интегразе а инфраструктура. [www.deloitte.com](http://www.deloitte.com)
62. Ikkinci asossiy faktor esa infrastruktura va soliq yuki. [www.forum.uz](http://www.forum.uz)
63. Recently Published Books. [www.eastview.com](http://www.eastview.com)
64. Московская сельскохозяйственная академия. [www.ecfak.timacad.ru](http://www.ecfak.timacad.ru)
65. Приамурский Институт Агроэкономики и Бизнеса. [www.admin.ru](http://www.admin.ru)
66. Петранева Г. А. Экономика и управление в сельском хозяйстве, Академия, 2003. <http://textbook.ru/catalogue/book/33320.html>
67. Попов Н. А. Экономика отраслей АПК. Курс лекции, 2002, <http://family.taukitा.ru/item22219310.htm>
68. Коваленко Н. Я. Экономика сельского хозяйства, М. «Юркнига». 2004 <http://shopper.h1.ru/books.shtml?topic=935&page=1>
69. Королев Ю. Б. и др. Менеджмент в АПК, 2002, учебник, <http://web.book.ru/cgi-bin/book.p1?page=4&book=88899>
70. Ekonomika i upravleniye v selskom xozyaystve, 2003, [http://psbatishев.narод.ru/library/03762.htm](http://psbatishев.narod.ru/library/03762.htm)

## ILOVA

Fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirishda tavsiya etilgan me'yorlar

### 1. Qishloq xo'jaligida urug'lik navlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdag'i "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3226сонли Farmoniga asosan, Agrotexnologiya majmua tarkibida Paxtachilik, G'allachilik, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va kimyolashtirish, sabzavot-poliz, meva, uzumchilikni rivojlantirish Kengashlari tashkil etildi. Kengash o'z Nizomi va ish dasturlari asosida faoliyat ko'rsatadi. Kengash faoliyati dasturlaridan biri "O'zbekiston Respublikasida g'o'za seleksiyasi va urug'chilagini rivojlantirishning 2004-2010 yillarga mo'ljallangan Konsepsiysi" ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra, rayonlashtirilgan va istiqbolli tezpishar Oqdaryo-6, An-Boyovut-2, S-4727, o'rtaishar Buxoro-6, Oqqo'rg'on-2, S-2609, Xorazm-127, istiqbolli Buxoro-7, Buxoro-8, Denov, An-512 kabi navlarni ekish ko'zda tutilgan.

I-jadval.

Joylashtirishga ruxsat etilgan g'o'za navlari istiqbolligi bo'yicha guruhlari

Navlар guruhi	G'o'za seleksion navlari
I-guruh	Buxoro-6, Namangan-77, Termiz-31, S-6524
II-guruh	S-6530, S-4727, Toshkent-6, Yulduz, Oqdaryo-6, Oqdaryo-5, An-Boyovut, Omad, 175-F, Sharaf-75, An-O'zbekiston-4, An-402, Oqqo'rg'on-2, Armug'on, Xorazm-126, Qarshi-8, Gulbahor, Farg'ona-5, yangi navlar
III-guruh	Farg'ona-3, Chimboy-3010, S-9070

### 2. Organik va mineral o'g'itlar

Yuqori va sifatlari hosil olish uchun o'simliklarda barcha ozuqa moddalari bo'lishi zarur. Ular tuproq tarkibida organik va mineral birikmalar shaklida bo'ladi. Ular parchalanishi (yemirilishi) va minerallashishi natijasida o'simliklar o'zlashtiradigan holatga aylanadi.

O'g'itlar organik va mineral holatda bo'ladi. Organik o'g'itlar qadimdan qishloq xo'jaligining dehqonchilik sohasida qo'llaniladi. Organik o'g'itlarning

asosi hayvonot va o'simliklar dunyosining qoldiqlari hisoblanadi. Ular tuproqqa aralashgach mikroorganizmlar ishtirokida chiriydi va o'simliklar uchun zarur bo'lgan moddalar bilan tuproqni boyitadi.

Yirik shoxli moldan bir kunda 20-30 kg, otdan 15-20 kg, qo'ydan 1,5-2,5 kg go'ng yig'iladi.

### *2-jadval.*

**Asosiy qishloq xo'jalik ekinlariga beriladigan madaniy o'g'itlarning ilmiy asoslangan o'rtacha me'yorlari (kg/ga, 100 foiz sof modda hisobida)**

Ekinlar	Azotli	Fosforli	Kaliyli
Boshqoli don ekinlari:			
sug'oriladigan	150-200	100-120	50
lalmi	50-60	40-50	-
<i>Don uchun ekilgan:</i>			
Makkajo'xori	180-220	120-140	85-90
Sholi	200-220	140-145	150-180
G'o'za	215-240	145-165	95-100
Shu jumladan			
O'rtacha tolali	215-240	145-165	95-100
Ingichka tolali	230-250	155-165	100-110
Kanop	160-180	130-140	80-90
Tamaki	120-150	80-100	40-45
Kartoshka	120-150	85-100	60-75
Sabzavot	145-200	100-110	70-75
Poliz	50-75	100-110	45-50
Ozuqabop ildizmevali o'simliklar	220	90	60
Silos uchun ekilgan makkajo'xori	200	90	60
Eski beda	100	90-100	50-60
Meva beruvchi bog'lar	120-130	85-90	65
Meva beruvchi tokzorlar	135-140	90-95	70
Tutzorlar	100	60	40

Ma'lumotlarga qaraganda, har gektar dalaga solingan go'ng almashlab ekish tarkibidagi o'simliklar hosildorligini don hisobiga 1 sentnerga oshiradi. 1 gektarga solinadigan go'ng miqdori 20-30 tonna bo'lib, kuzgi shudgor

oldidan maxsus moslamalar yordamida dalaga sepiladi. Ayrim xo‘zeliklarda go‘ng suvgan aralashtirilib “sharbat suvi” sifatida g‘o‘zaning rivojlanish davrida beriladi.

Kompostlarni (har yil organik qoldiqlar aralashmasi) tayyorlashda fosfor o‘g‘iti ham qo‘shiladi va alohida joyga (chuqur bo‘Imagan o‘ra, katta hajmdagi maxsus moslamalar) yig‘ilib ustidan suyuq go‘ng yoki suv quyilib bostirib qo‘yiladi.

Mineral o‘g‘itlar tarkibida o‘simlik uchun zarur bo‘lgan ozuqa moddalar kimyoviy usul bilan yaratiladi. Mineral o‘g‘it tuproqqa solinganda shakllanishi mumkin bo‘lgan muhitga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

a) fiziologik nordon o‘g‘itlardan o‘simlik jadal sur’atda kationni o‘zlashtiradi, anion esa tuproq eritmasiga o‘tadi (ammoniyli sulfat, kaliyli xlorid, kaliyli sulfat, ammoniy-azotli o‘g‘it va mochevina);

b) fiziologik-ishqoriy o‘g‘itlardan o‘simlik anionni o‘zlashtiradi, kation esa yig‘ilib tuproq muhitini ishqoriylashtiradi (natriy nitrati, kaliy va kalsiy nitratlari);

v) fiziologik neytral o‘g‘itlar.

Tarkibidagi ozuqa moddalarning turiga qarab mineral o‘g‘itlar oddiy va murakkab o‘g‘itlarga bo‘linadi. Oddiy o‘g‘itlar azotli, fosforli, kaliy va mikroelementlarga bo‘linadi. Mineral o‘g‘itlar quyidagi me’yor asosida ishlatiladi.

### 3-jadval.

#### **Madaniy o‘g‘itlarning yillik me’yorlarini muddatlar bo‘yicha taqsimlanishi (yillik me’yorga nisbatan foiz hisobida)**

Ekinlar	O‘g‘it turlari	O‘g‘itlash muddatlar					
		Shudgor-lashda	Ekish oldidan	Ekish bilan bir paytda	I	II	III
1	2	3	4	5	6	7	8
G‘o‘za	N	-	25	5	20	25	25
	P	60-70	-	15-20	-	-	15-20
	K	50	-	-	-	50 <sup>1</sup>	-
Kanop	N	-	25	-	35	40	-
	P	50	-	-	-	50	-
	K	50	-	-	-	50	-

<sup>1</sup>Vilt kasalliklari tarqalgan g‘o‘za maydonlariga birinchi oziqlantirishda 1 hektariga 20 kg va ikkinchi oziqlantirishda -30 kg kaliy beriladi

Tamaki	N	-	-	-	3	35	30
	P	50	-	-	-	25	25
	K	50	-	-	25	25	-
Boshqoli don ekinlari	N	-	15	-	40	45	-
	P	100	-	-	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-
Makkajo‘xori va jo‘xori	N	-	30	-	35	35	-
	P	50	-	-	-	50	-
	K	50	-	-	50	-	-
Sholi	N	-	30	-	40	30	-
	P	-	70	-	-	30	-
	K	-	50	-	-	50	-
Silosga ekilgan makkajo‘xori va jo‘xori	N	-	30	-	35	35	-
	P	50	15	-	-	35	-
	K	60	-	-	50	-	-
Bir yillik o‘tlar	N	-	-	-	100	-	-
	P	100	-	-	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-
Boshqoli don bilan ekilgan bedazorlar	N	50	-	50	-	-	-
	P	80	-	20	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-
Yangi bedazorlar	N	-	-	-	-	-	-
	P	80	-	20	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-
Ko‘p yillik bedazorlar	N	-	-	-	100	-	-
	P	-	-	-	100	-	-
	K	-	-	-	100	-	-
Ozuqabop ildiz mevali o‘simgiliklar	N	-	-	-	50	50	-
	P	75	-	-	-	25	-
	K	100	-	-	-	-	-

Ozuqabop ildiz mevali o'simliklar	N	-	-	-	50	50	-
	P	75	-	-	-	25	-
	K	100	-	-	-	-	-
Sabzavotlar	N	-	30	-	35	35	-
	P	75	-	25	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-
Pomidor	N	-	15-20	-	45- 40	40	-
	P	70-75	-	-	-	-	-
	K	50	-	-	25	25	-
Erta va kechki karamlar	N	-	15-20	-	45- 40	40	-
	P	70-75	25-30	-	-	-	-
	K	50	-	-	25	25	-
Sabzi	N	-	-	-	50	50	-
	P	70-75	25-30	-	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-
Piyoz	N	-	-	-	50	50	-
	P	70-75	25-30	-	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-
Bodring	N	-	15-20	-	35- 30	25	25
	P	70-75	25-30	-	-	-	-
	K	50	-	-	-	-	50
Poliz	N	-	-	50	-	50	-
	P	75	-	25	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-
Kartoshka	N	-	-	20	30	50	-
	P	75	-	25	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-
Meva beruvchi bog'lar	N	-	-	-	50	50	-
	P	100	-	-	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-

Meva beruvchi tokzorlar	N	50	-	-	25	25	-
	P	50	-	-	25	25	-
	K	50	-	-	25	25	-
Tutzorlar	N	-	-	-	-	-	-
	P	80	-	-	20	-	-
	K	40	-	-	40	20	-
Mevaga kirmagan bog'lar tokzorlar	N	-	-	-	50	50	-
va	P	100	-	-	-	-	-
	K	100	-	-	-	-	-

**3. Sug'orish me'yori** deb, bir marta sug'orish uchun kerak bo'ladigan suv miqdoriga aytildi. **Mavsumiy sug'orish** esa, ma'lum ekinni o'sib rivojlanishi davomida sug'orish uchun sarflanadigan suv miqdorining umumiyligiga indisidir. Sug'orish me'yorini hisoblash uchun 3 ta ko'rsatkichni bilish kerak. Ularga dala nam sig'imi (DNS), ma'lum ekin uchun tuproqdagini o'simlik o'zlashtira oladigan namlikning pastki chegarasi va suv bilan to'yintiriladigan qatlam qalinligi kiradi.

#### 4. Almashlab ekish

**Almashlab ekish** – bu qishloq xo'jalik ekinlarini ilmiy asosda navbatlab ekishdir. Bunda almashlab ekish dalalaridagi ekinlar ma'lum davrda yuqori agrotexnika qoidalariga rioya qilingan holda o'rinni almashlab chiqiladi.

**Almashlab ekish sxemasi** deb, ma'lum guruh ekinlarining tartib bilan o'rinni almashishiga aytildi.

**Almashlab ekish rotatsiyasi** deb, ekinlarning belgilangan muddatda barcha dalalarda ekilish chiqishiga aytildi.

#### Almashlab ekish sxemalari:

1. Paxta-beda almashlab ekish 8 dalali 3:5 (beda:paxta) va 9 dalali 3:6 sxemalari kam hosilli, kuchli, sho'rangan, och tusli va tipik bo'z tuproq, taqir tuproqlarda va chorvachiligi rivojlangan xo'jaliklarda joriy etiladi. 10 dalali 3:7 sxema unumdar, sho'ranganmagan, to'q bo'z tuproq va o'tloqi bo'z tuproqlarda joriy qilinadi.

2. Paxta-beda-bug'doy (don) sxema: 3:4:3 (beda:paxta:bug'doy).

3. Yerning meliorativ holatini yaxshilashni ta'minlovchi almashlab ekish sxemalari: 1:3:4 va 1:3:5 (meliorativ dala:beda:paxta).

4. Sholini almashlab ekish sxemalari: 2:4 (dukkakli ekinlar:sholi), 2:3:1:3 va 2:4:1:3 (dukkakli ekinlar:sholi:meliorativ dala:sholi).

5. Lalmikor dehqonchilikda almashlab ekish sxemalari: 1:2 (shudgor:don), 1:2:1:1 va 1:2:1:2 (shudgor:don:qator orasi:ishlanadigan ekinlar:don). 5:2:1:2 (beda:don:shudgor:don).

6. Ozuqa ekinlarini almashlab ekish sxemalari: 2:1:1:1:1:1:1 (beda:javdar:burchoq bilan qo'shib ekiladi yoki sorgo silosga ekiladi: makkajo'xori:don:soya donga, uni yig'ishtirib olgach makkajo'xori va uni yig'ishtirib olgach oraliq ekinlar: makkajo'xori donga, arpa donga, uni yig'ishtirib olgach oraliq ekinlar: lavlagi: makkajo'xori silosga va uni yig'ishtirib olgach oraliq ekinlar)

4-jadval

#### Traktorlarga bo'lgan talab

Texnika vositalarining turlari	100 ga maydon hisobiga, dona		Farqi +;-	Me'yorga nisbatan yetishmaydi, dona
	Hajiqatda mavjud	Me'yorga nisbatan		
Haydov traktorlari	1,2	2,8	-1,6	1653
Chopiq traktorlari (3 g'ildirakli)	4,4	21,7	-17,3	23797
Chopiq traktorlari (4 g'ildirakli)	2,5	12,0	-9,5	20362
Omochlar	0,8	3,4	-2,6	1984
Kultivatorlar	1,6	16,9	-15,3	7220
Don ekish seyalkalari	2,2	4,8	-2,6	4120
Chigit ekish seyalkalari	1,7	13,3	-11,6	6215
Don o'rish kombayni	1,1	2,0	-0,9	630
Yerlarni tekislash mashinasi	0,1	5,6	-5,5	549
Traktor pritseplari	4,6	32,0	-27,4	40724

Ushbu texnikalar yordamida qishloq xo'jaligidagi barcha ishlar amalga oshiriladi. Agrotexnika tadbirlarni bajarishda texnikalarning yillik ishslash quvvati vaqt me'yorida beriladi. Fermer texnikalardan foydalanishda bir yilda qancha soat ishlashi kerak bo'lsa, shunga amal qilgan holda, ish bilan ta'minlaydi. Texnikalarning 1 yilda bajargan ish hajmi me'yori 2-jadvalda berilgan.

## 5. Yoqilg'i va moylash materiallari me'yorlari

Qishloq xo'jaligida barcha texnikalar asosan, dizel yoqilg'isi bilan harakatlanadi. Dizel yoqilg'isining ish birligini aniqlashda har bir ekin turi bo'yicha tuzilgan texnologik kartadan foydalilanadi. Texnologik kartada har bir ish jarayonida bajariladigan ishlarning ma'lum miqdoriga yoqilg'i me'yori berilgan. Ish hajmini aniqlab, me'yorga bo'lish yo'li bilan yoqilg'i sarfi aniqlanadi.

Yoqilg'i-moylash materiallariga bo'lgan talab, dizel yoqilg'isiga nisbatan friz hisobida aniqlanadi. Dizel yoqilg'isiga nisbatan, avtol-6,8%, solidol-0,5%, nigrol-1,4%, benzin bilan ishlaydigan dvigatellarda – avto moy – 5,5 foiz olinadi.

Fermer xo'jaligiga zarur bo'lgan texnikalarni 1000 hektar hisobiga to'g'ri kelidigan me'yoriy ko'rsatkichlar asosida olishlari mumkin. Traktorlarga bo'lgan talab quyidagi jadvalda keltirilgan.

*5-jadval.*

### Qishloq xo'jaligi mashinalarining yillik (mavsumiy) bajariladigan ish hajmi va vaqt me'yorlari

Qishloq xo'jalik mashinalarining turi, nomi	Rusumi	Yillik (mavsumiy) ish hajmi va vaqt me'yori	
		Soat	Gektar
Traktor pritseplari:	3PTS-12 B,		
	IPTS-9 B	850	-
	2 PTS-4-887A	.	.
	2PTS-4-793	420	-
Omochlар umumiy maqsaddagi:			
8-9 korpusli osma va yarim osma		230	454
5 korpusli osma		280	177
4 korpusli osma		280	120
3 korpusli		220	30
2 korpusli		205	20
Omochlар 2 yarusli:			
3-4 korpusli		400	150
Chizellar:	CHKU-4A	200	210
Katok	EKKSH-6	350	1120

Baronalar, diskasimon	BDT-10, BDT-7	160	330
	BDT-3	320	310
Boronalar bog'dorchilik uchun diskasimon	BDN-3,5	210	187
Tishli baronalar	BZTS-1,0	80	8,0
	BZSS-1,0	80	8,0
Mineral o'g'it solish mashinasi	RUM-5	250	240
Organik o'g'itlarni tashish va solish mashinasi		175	208
Purkagichlar	OP-2000, OP-1600	435	180
	OBX-28	285	240
Seyalkalar	SZ-3,6, SZT-3,6	135	210
Jatka (o'roqlar)	JNU-6	200	90
G'alla kombaynlar	SK-5M "NIVA", Yenisey-1200	160	270
G'alla, sholi o'rish kombayni	Yenisey-1200R	160	50
Makka seyalkalari	SUPN-8, SUPN-6	70	160
Kultivator – o'g'itlagich	KRN-4,2	485	160
Kartoshka ekkich	SK-4B, SKS-4, KSM-4	18	65
	SAYA-4	215	40
	KON-2,8	505	32
	KNO-2,8	505	32
	KST-1,4	170	36
Kartoshka yig'gich	KKU-2 A	170	26
Sabzavot seyalkasi	SKO-4,2	125	130
	SKON-4,2		
Paxta seyalkasi	SXU-4	60	58
Kultivator	KXU-4	1020	43
Ko'rak terish mashinasi	SKO-2,4	140	77
	SKO-3,6	150	117
Ko'sak chuvish mashinasi	UPX-1,5V	525	160

G‘o‘zani yulgich	KV-3,6A	210	210
	KV-4A	235	112
Ko‘na olgich	GX-4	160	125
Paxta terish mashinasi	XNP-1,8	235	33
	I4XV-2,4A	230	43
Traktor o‘rgichlar	KS-2,1	590	150
	KSG-2,1	590	135
	KRN-2,1	590	190
	KPP-3	590	-
Xaskashlar		490	195
Toylab zichlagich	PS-1,6	520	330
	PSE-1,6G		
O‘rgich-maydalagich	KUF-1,8, KPI-2,4	625	437
	KIR-1,5	340	170

**O'KTAM UMURZOQOV, ABDURAIM TOSHBOYEV,  
AZIM TOSHBOYEV**

**FERMER XO'JALIGI IQTISODIYOTI**

*O'quv qo'llanma*

Muharrir **L.Baxranov**  
Musahhih **H.Teshaboyev**  
Tex.muharrir **M.Alimov**  
Sahifalovchi **D.Abdusattorov**

Bosishga ruxsat etildi 05.07.2007. Qog'oz bichimi 60x84 ¼.  
Hisob-nashr tabog'i 14,2. Adadi 500.  
Buyurtma № 183.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.  
700084, Toshkent, H.Asomov ko'chasi, 7-uy.  
Hisob-shartnoma 45-2007.

MCHJ “Toshkent Tezkor bosmahonasida”da chop etildi.  
700200, Toshkent, Radial tor ko'chasi, 10-uy.